

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

TURDIYEV BEXRUZ SOBIROVICH

KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ

(o’quv qo’llanma)

5111600 – Milliy g’oya, ma’naviyat asoslari va huquq
ta’limi bakalavriat yo‘nalishi
talabalari uchun

Buxoro - 2021

Turdiyev, Bexruz Sobirovich. Konstitutsiyaviy huquq [Matn]: o'quv qo'llanma / Buxoro, 2021yil. 257-b.

Mazkur o'quv qo'llanma 5111600- "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi" talabalariga mo'ljallangan bo'lib, unda 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida amalga oshirilgan konstitutsiyaviy demokratik islohatlar o'z ifodasini topgan.

Данное учебное пособие предназначено для студентов направления 5111600 – “Национальная идея, основы духовности и направление юридического образования”, в котором выражены конституционно-демократические реформы, проводимые в рамках стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистана, рассчитанной на 2017-2021 годы.

This textbook is intended for students of the direction 5111600 – “National idea, basics of spirituality and law education”, which expresses the constitutional and democratic reforms carried out within the framework of the Strategy of actions for the five priority areas of development of the Republic of Uzbekistan, designed for 2017-2021.

Muallif:

B.S.Turdiyev - Buxoro davlat universiteti “Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi” kafedrasи falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Taqrizchilar:

Sh.O.Radjabov - Buxoro davlat universiteti, yuridik fanlar nomzodi

M.Z.Ergasheva - yuridik fanlar nomzodi, dotsent

Ushbu o'quv qo'llanma Buxoro davlat universiteti Ilmiy kengashining 2021 yil 30-avgust 1-son yig'ilish qaroriga muvofiq nashrga tavsiya etilgan.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
1-mavzu: Konstitutsiyaviy huquqning umumiyligi va uning.....	5
2-modul. 2-mavzu: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi.....	15
3-mavzu: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy prinsiplari.....	26
4-mavzu: Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari va erkinliklari.....	37
5-mavzu: Fuqarolarning konstitutsiyaviy burchlari.....	49
6-mavzu: O'zbekiston Respublikasida fuqarolik.....	58
7-mavzu: Jamiatning iqtisodiy negizi.....	70
8-mavzu: Jamoat birlashmalari.....	85
9-mavzu: Oilaning konstitutsiyaviy asoslari.....	96
10-mavzu: O'zbekistonning ma'muriy-hududiy tuzilishi.....	107
11-mavzu: Qoraqalpog'iston Respublikasi.....	118
12-mavzu: Davlat hokimiyatini tashkil etish.....	127
13-mavzu: Saylov huquqi va tizimi.....	139
14-mavzu: O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi.....	153
15-mavzu: O'zbekiston Respublikasining Prezidenti.....	170
16-mavzu: O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi.....	182
17-mavzu: Mahalliy davlat hokimiyati asoslari.....	193
18-mavzu: Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari.....	207
19-mavzu: O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati.....	216
20-mavzu: Prokuratura organlari.....	227
Konstitutsiyaviy huquq bo'yicha testlar.....	233
Glossariy.....	248
Foydalilanilgan adabiyotlar.....	252

СОДЕРЖАНИЕ

Введение	3
Тема 1: Общая характеристика конституционного права и его теоретические основы	5
2. Тема 2: Принятие Конституции Республики Узбекистан.....	15
Тема 3: Принципы Конституции Республики Узбекистан.....	26
4. Тема 4: Основные права и свободы человека и гражданина...37	
Тема 5: Основные права и свободы человека и гражданина.....49	
Тема 6: Гражданство в Республике Узбекистан.....58	
7. Тема 7: Экономическая основа общества	70
8. Тема 8: Общественные объединения	85
Тема 9: Конституционные основы семьи	96
Тема 10: Административно-территориальное устройство Узбекистана.....	107
Тема 11: Республика Каракалпакстан.....	118
Тема 12: Установление государственной власти.....	127
Тема 13: Избирательное право и система.....	139
Тема 14: Олий Мажлис Республики Узбекистан.....	153
Тема 15: Президент Республики Узбекистан.....	170
Тема 16: Кабинет Министров Республики Узбекистан.....	182
Тема 17: Основы местного самоуправления	193
Тема 18: Органы самоуправления граждан	207
19. Тема 19: Судебная власть в Республике Узбекистан	216
Тема 20: Органы прокуратуры	227
Тесты по конституционному праву.....	233
Глоссарий.....	248
Использованной литературы.....	252

CONTENT

Introduction	3
1-mavzu: General description of constitutional law and its theoretical basis.....	5
2-mavzu: Adoption of the Constitution of the Republic of Uzbekistan.....	15
3-mavzu: Basic principles of the Constitution of the Republic of Uzbekistan.....	26
4-mavzu: Basic rights and freedoms of man and citizen.....	37
5-mavzu: Constitutional duties of citizens.....	49
6-mavzu: Citizenship in the Republic of Uzbekistan.....	58
7-mavzu: The economic foundation of society.....	70
8-mavzu: Public associations.....	85
9-mavzu: Constitutional basis of the family.....	96
10-mavzu: Administrative and territorial structure of Uzbekistan.....	107
11-mavzu: The Republic of Karakalpakstan.....	118
12-mavzu: Establishment of state power.....	127
13-mavzu: Electoral law and system.....	139
14-mavzu: Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan.....	153
15-mavzu: President of the Republic of Uzbekistan.....	170
16-mavzu: Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan.....	182
17-mavzu: Basics of local government.....	193
18-mavzu: Self-governing bodies of citizens.....	207
19-mavzu: Judicial power in the Republic of Uzbekistan.....	216
20-mavzu: The prosecution authorities.....	227
Tests on constitutional law.....	233
Glossary.....	248
References.....	252

KIRISH

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan bugungi dunyoda o’z xalqi va kelajagi uchun qayg’uradigan har bir davlat yuksak mas’uliyatni anglagan holda o’z taraqqiyot yo’lini qat’i belgilab oladi. Mustaqil O’zbekistonning ham oldida o’tgan davr mobaynida bosib o’tgan tarixiy yo’li va orttirgan tajribasini xolisona baholash, mustaqillik yillarida erishgan yutuqlarini tahlil qilish hamda zamon talablaridan kelib chiqqan holda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va mamlakat taraqqiyotini jadallashtirishning muhim ustuvorliklarini hamda aniq marralarini belgilash vazifasi turgan edi.

Asosiy e’tiborga molik jihat shundaki, Konstitutsiya o’zida inson huquqlari va erkinliklari ustuvorligi g’oyasini mujassam etdi va bu demokratik g’oya zamonaviy konstitutsiyaviy huquq faninin poydevorini tashkil etmoqda. Bu hol konstitutsiyaviy huquq fani davlat suvereniteti va xalq hokimiyatchiligi, hokimiyatni tashkil etish, davlat bilan shaxs, jamiyat bilan inson o’rtasidagi munosabatlarning barchasini inson eng oliy qadriyat ekanligi pozitsiyasidan tadqiq etishini nazarda tutadi. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Mustaqilligimizning ilk davrida qabul qilingan Konstitutsiyamiz shaxs, jamiyat va davlat o’rtasidagi munosabatlarda o’zaro huquq va majburiyatlar hamda ularning kafolatlarini aniq-ravshan belgilab berdi. Bosh qomusimiz, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar, yurtimiz fuqarolari tenglining kafolatlanishini e’tirof etdi va zamonaviy demokratik taraqqiyot uchun zamin yaratdi”¹.

Konstitutsianing jamiyat hayotidagi o’rni va ahamiyatini, mazmun-mohiyatini xalq, ayniqsa, yosh avlodning huquqiy ongi, tafakkuri va madaniyatiga singdirish, shu tariqa jamiyatda Konstitutsiyaga, qonunga nisbatan yuksak hurmatni shakllantirish konstitutsiyaviy huquq fanining asosiy vazifalaridan biridir. Konstitutsiyaviy huquqning o’zi, bir tomondan, islohot, yangilanish obyekti bo’lsa, ikkinchi tomondan, demokratik islohotlarni huquqiy mushohada etish, jamiyat barqarorligi, fuqarolar tinchligi, farovonligi va milliy totuvlikni

¹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. –T.: “O’zbekiston”, 2020. –B.106.

ta'minlashning ilmiy asoslarini yaratish imkonini beradi. Aynan Konstitutsiya konstitutsiyaviy huquqning bosh manbaini tashkil etgani bois, ushbu fan tarmog'i yuridik fanlar tizimida alohida mavqeyga ega. Konstitutsiyaviy huquq sohasi mamlakatimiz huquq tizimining yetakchi tarmoqlaridan biri sanaladi. U huquqiy tizimning mazmuni va mohiyatini belgilashga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Konstitutsiyaviy huquq fanining yurisprudensiyadagi nufuzi mazkur fan o'r ganadigan ijtimoiy-huquqiy munosabatlarning mazmuni bilan ham belgilanadi.

Ushbu o'quv qo'llanmada O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, konstitusiyaviy qonunlari va boshqa qonunlari, respublikamiz Prezidentining farmonlari va hukumat qarorlaridan, davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud tarmoqlari amaliy faoliyati tajribasidan keng foydalanildi. Mavzular Bosh qomusimiz mundarijasidagi mantiqiy ketma-ketlik asosida joylashtirilgan bo'lib, unda o'r ganiladigan masalalar ixtisoslikni hisobga olib yoritilgan va bu foydalanuvchilarga zarur bilimlarni o'zlashtirishni osonlashtiradi.

1-Mavzu: KONSTITUTSIYAVIY HUQUQNING UMUMIY TAVSIFI VA UNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. O’zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy huquqi tushunchasi va predmeti. Konstitutsiyaviy huquq huquqning yetakchi sohasi sifatida

Konstitutsiyaviy huquq insonning jamiyat va davlatdagi mavqeyini, ijtimoiy tuzum asoslarini, davlat organlarining tashkil etilishi va faoliyat yuritishi, shuningdek, fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy normalar tizimidir. Bugungi ma’rifiy dunyoda inson, uning qadr-qimmati ulug’ ne’mat ekanligidan kelib chiqib fikr yuritadigan bo’lsak, konstitutsiyaviy huquq insonning asosiy huquq va erkinliklarini ta’minlovchi, muhofaza etuvchi hamda shu maqsadda davlat hokimiyati mexanizmining joriy etilishi va amal qilishini kafolatlovchi huquqiy normalar majmuidir.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning bu haqidagi fikrlari diqqatga sazovor: “Konstitutsiyamiz asosida mamlakatimizda milliy qonunchilik tizimi, davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari shakllandi. Bugungi kunda barcha jabhalarda keng ko’lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va harbiy salohiyatimiz yuksalib, fuqarolarimizning dunyoqarashi tobora o’sib bormoqda. Bularning barchasi, eng avvalo, Bosh qomusimizning hayotbaxsh kuch-qudrati natijasidir”¹.

Ilmiy adabiyotda “konstitutsiyaviy huquq” iborasi uch xil ma’noda, ya’ni amaldagi huquq sohasi, fan sohasi va o’quv kursi sifatida talqin etiladi. Konstitutsiyaviy huquq mamlakat huquq tizimining yetakchi sohasi sifatida ijtimoiy va siyosiy tuzum asoslari, shaxsning huquqiy holatiga oid muayyan turdagи munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar (Konstitutsiya, qonunlar, farmonlar va boshqalar)da mustahkamlangan yuridik normalar talqinining izchil, o’zaro mutanosib tizimidir. Konstitutsiyaviy huquq

¹ Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliv bahodir. –T.: “O’zbekiston” NMIU, 2018. –B.5.

yuridik fan sohasi sifatida ilmiy asarlar, maqola va ma’ruzalarda bayon etilgan konstitutsiyaviy huquq masalalariga oid ta’limotlar, nazariy qarashlar yig’indisidir.

O’zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy huquq predmeti – Birinchi yondoshuv: konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solishning predmetini davlat hokimiyatini amalga oshirish tashkil etadi. Bu yondoshuv rossiyalik huquqshunoslarga xosdir. Konstitutsiya tartibga soladigan ijtimoiy munosabatlarning aksariyatini davlat hokimiyatini tashkil etish va amalga oshirish masalalari tashkil etadi.

Ikkinci yondoshuv: konstitutsiyaviy huquqning predmetini, avvalambor, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish tashkil etadi. Ya’ni davlat hokimiyati manfaatlari inson manfatlaridan kelib chiqishi kerak.

Uchinchi yondoshuv: konstitutsiyaviy huquq predmetini davlat hokimiyati va inson huquqlariga oid munosabatlarni tartibga solish tashkil etadi.

1.2. Konstitutsiyaviy huquq manbalari. Konstitutsiyaviy huquqiy munosabatlar

Konstitutsiyaviy huquqning manbalari yuridik adabiyotda ikki ma’noda talqin qilinadi:

birinchisi – konstitutsiyaviy-huquqiy normalarni yuzaga keltiruvchi kuch, ya’ni muayyan siyosiy irodani o’zida mujassam etgan davlat hokimiyati;

ikkinchisi – mazkur normalarni ifodalovchi turli shakllardagi normativ-huquqiy hujjatlar.

Konstitutsiyaviy-huquqiy normalarni o’zida jamlab turuvchi hamda ifodalovchi normativ-huquqiy hujjatlar Konstitutsiya, konstitutsiyaviy qonun, joriy qonun, farmon va boshqa huquqiy aktlar ko’rinishida bo’ladi.

Konstitutsiyaviy huquqning manbalari (shakllari)

O'zbekiston respublikasining konstitutsiyasi

O'zbekiston respublikasining qonunlari

O'zbekiston respublikasi Oliy Majlisi
palatalarining qarorlari

O'zbekiston respublikasi prezidentining
farmonlari, qarorlari, farmoyishlari

O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining
qarorlari

Vazirliliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining
hujjatlari

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining
qarorlari

Konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlar umumiyligi huquqiy munosabatlarning
muhim turi, tarkibiy qismi sifatida ular tavsiflanadigan barcha xususiyatlarga ega
bo'ladi. Dastlabki umumiyligi jihat shundaki, huquqiy munosabat huquq normasi
qo'llanishi va amal qilishining natijasidir. Huquqiy munosabat subyektiv huquq va
yuridik majburiyatlar bilan o'zaro bog'liq bo'lgan shaxslar (subyektlar) o'rtaсидаги
huquq normalari va muayyan yuridik faktlar asosidagi aloqadir. Bu umumiyligi
nazariy jihatlar konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlarning mohiyatini aniqlash va
xususiyatlarini talqin etishda ham katta ahamiyat kasb etadi.

Konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlar quyidagi xususiyatlari bilan boshqa
turdagi huquqiy munosabatlardan ajralib turadi:

birinchidan, ular konstitutsiyaviy huquq mavzuini tashkil qiluvchi alohida
sohada vujudga keladi;

ikkinchidan, o'z subyektlarining tarkibi bilan farqlanadi. Xususan,
konstitutsiyaviy-huquqiy munosabat subyektlari orasida shundaylari borki, ularni
boshqa turdagisi huquqiy munosabatlarda uchratmaymiz (masalan, xalq, millatlar,

siyosiy partiylar, saylovchilar va hokazo);

uchinchidan, konstitutsiyaviy huquq boshqa huquq sohalaridan serqirraligi, turli-tuman huquqiy munosabatlarni qamrab olganligi bilan ajralib turadi;

to'rtinchidan, konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlar aksariyat hollarda siyosiy munosabatlar va aloqalarning maxsus yuridik shakli sifatida maydonga chiqadi;

beshinchidan, konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlar jamiyatda siyosiy va davlat hokimiyati sohasidagi aloqalarni tartibga solishning huquqiy shakli hamda asosini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasidagi konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlarni ularning obyekti va subyektlaridan kelib chiqib, quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

1) O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumining asosiylarini hayotga tatbiq etish natijasida paydo bo'ladigan huquqiy munosabatlar;

2) fuqarolar huquqiy holatining asoslari hamda ularning konstitutsiyaviy huquq va burchlarining amalga oshirilishi natijasida kelib chiqadigan huquqiy munosabatlar;

3) jamiyat bilan shaxs o'rtasida kelib chiqadigan konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlar;

4) ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishi sohasida kelib chiqadigan huquqiy munosabatlar;

5) O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyatini tashkil etish, davlat organlari tizimini belgilash, ular faoliyatining prinsiplari, vakolatlari va davlat hokimiyatining amalga oshirilishi natijasida kelib chiqadigan huquqiy munosabatlar;

6) bevosita demokratiyani amalga oshirish natijasida kelib chiqadigan huquqiy munosabatlar¹.

Konstitutsiyaviy huquqning predmeti ijtimoiy munosabatlarning uch asosiy sohasini qamrab oladi:

¹ Qarang: Qayumov R.Q. O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy huquqi. – T.: “IIV Akademiyasi”, 1997. – B.22–25.

- 1) inson huquq va erkinliklarini muhofazalash (inson va davlat o'rtasidagi munosabatlar);
- 2) davlat va siyosiy hokimiyatning tuzilishi (hokimiyat munosabatlari);
- 3) shaxs, jamiyat va davlat o'rtasidagi munosabatlar.


1.3. Konstitutsiyaviy huquqiy munosabat subyektlari

O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy huquqi subyektlari konstitutsiyaviy huquq normalari bilan tartibga solinadigan hamda muayyan huquq va majburiyatlarga ega jismoniy va yuridik shaxslar hisoblanadi.

Konstitutsiyaviy huquq subyektlarini ikki katta guruhga bo'lish mumkin:

birinchi guruh: jismoniy shaxslar. Har bir davlatda har bir shaxs muayyan huquqiy maqomga ega bo'ladi va bu maqom, avvalambor, konstitutsiyaviy huquq normalari bilan belgilanadi. Shaxs o'z huquqiy maqomiga ko'ra fuqaro, chet ellik yoki fuqaroligi bo'lмагan shaxs bo'lishi mumkin. Shaxs o'z huquqiy maqomiga ko'ra turli hajmdagi siyosiy, shaxsiy, ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarga ega bo'ladi. Shaxsiy huquqlar barcha insonlarga tegishlidir.

ikkinchi guruh: yuridik shaxslar. Egallagan maqomi konstitutsiyaviy huquq normalari bilan tartibga solinadigan yuridik shaxslar konstitutsiyaviy huquqning subyektlari bo'ladi va ularning huquqiy maqomi turlichadir.



Konstitutsiyaviy huquq obyektiga quyidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi konstitutsiyaviy normalar kiradi:

birinchidan, konstitutsiyaviy huquqning asosiy prinsiplari;

ikkinchidan, davlat hokimiyatini tashkil etish va amalga oshirish.

1.4. Konstitutsiyaviy huquq tizimi, Konstitutsiyaviy huquq vazifalari, konstitutsiyaviy-huquq normalari masalalarining yoritilishi

Konstitutsiyaviy huquq tizimini katta daraxtga o'xshatish mumkin. Daraxtni shoxi, tanasi, bargi bo'lgani kabi huquq tizimida ham turli tarkibiy qismlar mavjud. Daraxtning turli qismlari turli vazifani bajaradi, lekin ularning barchasini biriktirgan, hayotiyligini ta'minlagan ildizi bor. Huquq tizimida ildiz vazifasini yagona Konstitutsiyaviy prinsiplar, xalq suvereniteti, tabiiy huquqlar, huquq va erkinliklar ustivorligi, hokimiyat bo'linishi, mustaqil sud hokimiyati o'ynaydi. Bular barcha institatlarda o'z joyini topgan.

Konstitutsiyaviy huquq tizimi, Konstitutsiya tizimi bilan bog'liq, yoki aytish mumkinki Konstitutsiya tizimi Konstitutsiyaviy huquq tizimini belgilanishida asosiy rol o'ynaydi. Konstitutsiyaviy huquq tizimini tashkil etuvchi Konstitutsiyaviy huquqiy institutlar, ahamiyatiga qarab tartib bilan joylashtirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquq tizimi quyidagi institatlardan tashkil topgan:

Konstitutsiyaviy tuzumning asosiy prinsiplari

Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari;

Jamiyat va shaxs

Ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishi

Davlat hokimiyatining tashkil etilishi

Bu institutlar o’z navbatida o’z tizimiga ega. Ya’ni ular bir-biri bilan bog’liq, lekin mustaqil institutlardan iborat. Masalan, “Inson va fuqarolarning asosiy asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari” instituti, “Fuqarolik”, “Shaxsiy huquq va erkinliklar”, “Siyosiy huquqlar”, “Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar”, “Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari”, “Fuqarolarning burchlari” dan iborat bo’lsa, “Davlat hokimiyatini tashkil etish”, “O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi”, “O’zbekiston Respublikasining Prezidenti”, “Vazirlar Mahkamasi”, “Mahalliy davlat hokimiyati asoslari”, “Sud hokimiyati”, “Saylov tizimi” va boshqa institutlardan iborat.

O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi fani, O’zbekistonni mustaqil davlat bo’lishi, mamlakatning maqsadi, demokratiya bilan bog’liq ijtimoiy munosabatlarning vujudga kelishi va rivojlanishi bilan bog’liqdir.

O’zbekiston Respublikasida shaxs – davlat munosabatlarini belgilash, hokimiyatni tashkil qilish, davlat va jamoat birlashmalari munosabatini o’rnatishda o’ziga xos yo’ldan borish bilan birga, dunyoda bu borada qo’lga kiritilgan, umume’tirof etilgan prinsiplarni rad etgani yo’q. Aksincha ularning asosiy mohiyati va mazmunini buzmagan holda foydalanishga harakat qilindi.

Bunda Konstitutsiyaviy huquqiy normalarni belgilash, ularni hayotga tatbiq etish jarayonida Konstitutsiyaviy huquq fani, uning yutuqlari, tavsiya, takliflari yordam berdi.

Konstitutsiyaviy huquq fani, Konstitutsiyaviy huquqni huquq tarmog’i sifatida, yetakchi huquq sifatida rivojlanishiga hissa qo’shar ekan, o’zi ham rivojlanib bordi. Konstitutsiyaviy huquqni tartibga soladigan masalalarni o’rganish kengayib, chuqurlashib bordi.

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyotini shakllanishi, yangi munosabatlarni vujudga keltirdi, ularni huquqiy tartibga solish kengayib bordi. Ana shu vazifalarni o’rganish zarurati Konstitutsiyaviy huquq vazifalarini ham kengaytirib bordi.

O’zbekistonda xalqaro huquqning umume’tirof etilgan qoidalari ustunligining e’tirof etilishi, bu masalallarni amalga oshirish mexanizmlari bo’lishini taqozo etadi. Bundan tashqari, xalqaro huquq normalarini milliy

qonunchilikka singdirish zarurligi, ayniqsa bu inson huquqlariga taalluqli bo'lgani uchun Konstitutsiyaviy huquq fani oldiga yangi vazifalarni qo'yadi.

Fuqarolik jamiyatini rivojalantirish vazifasi, demokratik institutlarni, fuqarolik jamiyati institutlari faolligini yanada takomillashtirish, (bunda huquqiy asos alohida) davlat bilan nodavlat organlari munosabatini yangicha tashkillashtirish, ijtimoiy sheriklikni yo'lga qo'yish, davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish, fuqarolarni huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilishni yanada kengaytirish kabilar Konstitutsiyaviy huquq fani oldiga ham yangi vazifalar qo'yadi. Bu vazifalar chuqur tadqiqod ishlari olib borish zaruratini tug'diradi.

Konstitutsiyaviy huquq fani o'z oldiga qo'ygan vazifalarni bajarish uchun ma'lum usullarga tayanadi, ular: tarixiy, huquqiy-qiyosiy, tizimli, statistik, sotsialogik usul bo'lishi mumkin.

Tarixiy usul – bu sohadagi avvalgi huquq normalari, ularni ijtimoiy munosabatlarga ta'sirini o'rganish orqali hozirgi kun uchun ham to'g'ri keladigan huquqiy normalrni qo'llash, takomillashtirish imkonini beradi.

Huquqiy-qiyosiy usul orqali turli mamlakatlarning Konstitutsiyaviy huquqi har jihatdan qiyoslanadi, tahlil qilib baholanadi va bizning sharoitga mos jihatlarini olish haqida taklif – tavsiyalar vujudga keladi.

Tizimli usul orqali Konstitutsiyaviy huquq institutlarini o'rganishga tizimli yondashiladi. Ular bir-biridan mutlaqo ajralgan holda emas, bog'liq holda o'rganiladi. Bu uslub orqali Konstitutsiyaviy huquqni umumiylashtirish tizimidagi o'rni to'g'ri aniqlanadi.

Statistik usul orqali Konstitutsiyaviy huquq normalarini samaradorligi, ijtimoiy munosabatlarga ta'siri aniqlanadi. Statistika orqali haqiqiy ahvol aniqlanadi. Saylovlar davrida siyosiy partiylar soni, ular tomonidan ko'rsatilgan nomzodlar soni (bu saylovda muqobililikni ko'rsatadi) saylovda ishtiroy etgan saylovchilar soni, demokratik jarayonlar haqida real ma'lumot beradi.

Sotsiologik usul orqali – ijtimoiy munosabatlar, ularni tartibga soluvchi normalar haqida fuqarolar fikri aniqlanadi. Shu asosda nimani o'zgartirish, nimani

bekor qilish, nimani yangidan o’rnatish haqida jamoatchilik fikri o’rganiladi¹.

Konstitutsiyaviy-huquqiy normalar – davlat hokimiyatini amalga oshirish, jamiyatni boshqarish, davlat bilan fuqarolar o’rtasidagi muayyan turdagи ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish maqsadida davlat tomonidan o’rnatiladigan (yoki ma’qullanadigan) umummajburiy xulq-atvor qoidalari bo’lib, ular aniq huquq va majburiyatlar orqali amalga oshadi hamda davlat tomonidan ta’minlanishiga tayanadi.

Konstitutsiyaviy huquq normalari:

birinchidan, qonunchilik doirasida siyosiy munosabatlarning eng muhim qismini tartibga soladi;

ikkinchidan, ijtimoiy munosabatlarni muayyan tomonlarga yo’naltiriladi, ya’ni konstitutsiyaviy huquqning norma va prinsiplari ijtimoiy munosabatlar taraqqiyotini belgilab beradi.

Konstitutsiyaviy-huquqiy normalar, umuman hamma huquqiy normalarga xos bo’lgan barcha zaruriy xususiyat va belgilarga ega. Ayni vaqtida, ularning milliy-huquqiy tizimda alohida mustaqil soha, tuzilma tarzida mavjud bo’lishini ta’minlovchi maxsus xususiyatlari ham bor.

Tayanch iboralar:

1. konstitutsiya,
2. huquq predmeti,
3. subyektiv huquq,
4. yuridik majburiyat,
5. huquqiy layoqat,
6. jismoniy shaxslar,
7. yuridik shaxslar,
8. huquq tizimi,
9. shaxs,
10. fuqarolik jamiyati,

¹ Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq: darslik. To’ldirilgan va qayta ishlangan ikkinchi nashr. – T.: “Yuridik adabiyotlar publish”, 2020. –B.20-21.

11. huquq normasi

O’z- o’zini nazorat qilish uchun savollar:

1. Konstitutsiyaviy huquq atamasi qanday ma’nolarda ishlataladi?
2. Konstitutsiyaviy huquqning huquq sifatidagi tushunchasi qanday?
3. Konstitutsiyaviy huquqning huquq sifatidagi predmeti nima?
4. Konstitutsiyaviy huquqni alohida huquq tarmog’i sifatida ko’rsatuvchi belgilari nimalar?
5. Konstitutsiyaviy huquq normalari nima?
6. Konstitutsiyaviy munosabatlar qanday munosabatlar va ularni subyektlari kimlar?
7. Konstitutsiyaviy huquqni manbalari nimalar?
8. Konstitutsiyaviy huquq fanining vazifasi nimalardan iborat?
9. Konstitutsiyaviy huquq fanining boshqa fanlar bilan munosabati qanday?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O’zbekiston” NMIU, 2020. –80 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. –T.: “O’zbekiston” NMIU, 2018. –508 b.
3. Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq: darslik. To’ldirilgan va qayta ishlangan ikkinchi nashr. – T.: “Yuridik adabiyotlar publish”, 2020. -400 b.
4. Husanov O.T. O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. – T.: “Adolat”, 2013. –552 b.
5. Qayumov R. Q. O’zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy huquqi. – –T.: IIV Akademiyasi, 1997. – 400 b.
6. <https://constitution.uz/oz/clause/index>

2-Mavzu: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

KONSTITUTSIYASINING QABUL QILINISHI

2.1. Konstitutsiyaning yaratilishiga bo'lgan zarurat

Konstitutsiya (lotincha “constitution” – o’rnatish, tuzilish) – moddiy ma’noda avvalo inson va fuqaro huquqlari va erkinliklarini e’lon qiluvchi va kafolatlovchi, shuningdek ijtimoiy tuzum asoslarini, boshqaruv shakli va davlat tuzilishi asoslarini, hokimiyat markaziy va mahalliy organlarini tashkil etish asoslarini, ularning vakolatlari va o’zaro munosabatlarini, davlat ramzları va poytaxtini belgilaydigan qonun hujjati, hujjatlar yoki konstitutsiyaviy odatlar majmui¹.

“To’la ishonch bilan aytish mumkinki, – deb ta’kidlaydi Prezident Shavkat Mirziyoyev O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasidir. U hech kimga qaram bo’lmasdan, erkin va ozod, tinch va osoyishta, farovon yashashning qonuniy kafolati bo’lib kelmoqda. Bozor munosabatlariga asoslangan huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyatni barpo etish borasida mustahkam poydevor bo’lib xizmat qilmoqda. Konstitutsiyamiz asosida mamlakatimizda milliy qonunchilik tizimi, davlat organlari, fuqarolik jamiyatni institutlari shakllandi. Bugungi kunda barcha jabhalarda keng ko’lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va harbiy salohiyatimiz yuksalib, fuqarolarimizning dunyoqarashi tobora o’sib bormoqda. Bularning barchasi, eng avvalo, Bosh qomusimizning hayotbaxsh kuch-qudrati natijasidir”².

¹ O’zbekiston yuridik ensiklopediyasi. –T.: “Adolat”, 2011. –B.252.

² Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo’limizni qat’iat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz. – T.: “O’zbekiston” NMIU, 2017. –B.100.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qilishning tarixiy zaruratiga qo‘yidagilar kiradi:

sobiq Ittifoqda paydo bo‘lgan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy tanglik

O‘zbekiston Respublikasini o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritishi hamda dunyo xaritasida yangi suveren O‘zbekiston Respublikasini tashkil topishi

“Mustaqillik deklaratsiyasi”ni va “Davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi konstitutsiyaviy qonunni qabul qilinishi Konstitutsiyani qabul qilishga huquqiy asos bo‘ldi

O‘zbekiston xalqi o‘z oldiga huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyat qurishni maqsad qilib qo‘ydi.

2.2. Konstitutsiyaviy komissiya va uning faoliyati. Konstitutsiya loyihasining umumxalq muhokamasi

O‘zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyani yaratish haqidagi ilk g’oya Respublikamizning 1990 yil mart oyida bo‘lib o’tgan o’n ikkinchi chaqiriq Oliy Kengashning birinchi sessiyasidayoq aytilgan edi. O‘zbekiston Oliy Kengashining 1990 yil 20 iyunda e’lon qilingan “Mustaqillik deklaratsiyasi” mamlakatimiz yangi Konstitutsiyasini ishlab chiqishga asos bo‘ldi. O’sha kuniyoq Oliy Kengash O‘zbekiston Prezidenti boshchiligidagi 64 kishidan iborat konstitutsiyaviy komissiya tuzildi. Komissiya tarkibiga deputatlar davlat hamda jamoat tashkilotlari, korxonalar xo‘jaliklarning rahbarlari, taniqli huquqshunoslar, olimlar, va mutaxassislar kirdi.

Konstitutsiyaviy komissiya tomonidan konstitutsiyaning konsepsiysi ustida ish boshlab yuborildi. Natijada uchta muqobil konsepsiya yaratildi: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Falsafa va huquq institutining konsepsiysi,

Siyosatshunoslik va boshqaruv institutining konsepsiysi va Prezident devoni yuridik bo'limi tayyorlagan konsepsiya. Ishchi guruh majlisida uchinchi konsepsiya asos sifatida qabul qilindi.

Konstitutsiya loyihasining dastlabki varianti 1991 yil 3-choragida tayyorlab bo'lindi. U muqaddima, olti bo'lim, 158 moddadan iborat bo'ldi. Bu orada 1991 yil 31 avgustda O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishdi. Buning asosi sifatida O'zbekiston Respublikasining "Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi. Qonunda xalq hokimiyatchiligi, inson huquqlari muqaddasligi, qonun ustuvorligi, hokimiyat bo'linishi, mamlakatning hududiy yaxlitligi kabi prinsiplar mustahkamlandi. Ushbu demokratik prinsiplar Konstitutsiya mazmunidan joy oldi. Shu kuni, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining sessiyasida "Davlat Mustaqilligi to'g'risida Oliy Kengash Bayonoti" ham e'lon qilindi. Shunga qaramasdan dastlabki loyiha hali mukammallik darajasidan ancha yiroq edi.

1992 yil bahorda Konstitutsiya loyihasining 149 moddadan iborat ikkinchi varianti ishlab chiqildi. Mamlakat Prezidenti ishtirokida Konstitutsiyaviy komissiyaning navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Majlisda Konstitutsiya loyihasi ustida olib borilgan ishlar to'g'risida axborot tinglandi. Shu tariqa ishchi guruh tomonidan Konstitutsiya loyihasining uchinchi varianti tayyorlandi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining loyihasi puxta ishlovlardan so'ng Konstitutsiyaviy komissiya qarori bilan 1992 yil 26 sentyabrda umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e'lon qilindi. Umumxalq muhokamasi qariyb uch oy davom etdi. Unda mamlakatda yashovchi turli millat vakillari ishtirok etdi. Matbuotda, radio va televide niye orqali, korxona, muassasa hamda tashkilotlarda yig'ilishlarda, auditoriyalarda qizg'in muhokamalar bo'lib o'tdi. Konstitutsiyaviy komissiya dastlab belgilagan ikki yarim oylik muddat mobaynida muhokama qilingan loyiha fuqarolar taklif va mulohazalari asosida qayta tuzilib, 1992 yil 21 noyabrda muhokamani davom ettirish uchun ikkinchi marotaba matbuotda e'lon qilindi.

Ayni vaqtda umumxalq muhokamasi davomida loyihani yaxshilashga doir ko'plab taklif va mulohazalar bildirildi. Konstitutsiya komissiyasining o'zigagina 6 mingdan ortiq taklif va mulohaza tushdi. Tushgan taklif va mulohazalarning hammasi atroflicha puxta o'rganildi hamda loyiha ustidagi ishlarni davom ettirish chog'ida ulardan foydalanildi. Konstitutsiyaviy komissiyaga fikr-mulohazalar bildirilgan 600 taga yaqin xat kelib tushdi. Respublika matbuotining o'zida Konstitutsiya loyihasiga bag'ishlangan yuzdan ortiq materiallar e'lon qilindi¹.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining sessiyasida muhokama qilish uchun kiritilgan Konstitutsiya loyihasiga 80 ga yaqin o'zgartishlar, qo'shimchalar taklif etildi va aniqliklar kiritildi. Ularning ayrimlari muhim ahamiyatga ega edi. Parlament sessiyasining ishi davomida deputatlar ham bir unga qator o'zgartirishlar kirtdilar.

Umumxalq muhokamasi, O'zbekistonda yashovchi barcha xalqlarni umummaqsad yo'lida birligini namoyon qildi. Xalqimiz siyosiy sharoitlarni to'g'ri baholay olish qobiliyatiga ega ekanligi, tinch-totuv yashash uning orzusi ekanligi, siyosiy huquqiy bilimlari, qarashlari hech bir xalqnikidan kam emasligi muhokama natijasida yanada yaqqol ko'rindi.

Loyiha har tomonlama o'ylab, takomillashtirilgandan so'ng, Konstitutsiyaviy komissiya 1992-yil 7-dekabrda bo'lib o'tgan majlisida, uni ko'rib chiqishni O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengash sessiyasiga kiritish haqida qaror qabul qildi. Komissyaning ushbu oxirgi majlisida ham Rais taklifi bilan loyihaning ko'plab normalari takomillashtirildi.

2.3. Konstitutsianing qabul qilinishi. Konstitutsiyada jahon konstitutsiyaviy rivojlanish tajribalari hamda milliy qadriyatlarning aks etishi

1992-yil 8-dekabrda Oliy Kengashning XII chaqiriq XI sessiyasi bo'lib o'tdi. Bu sessiya tarixiy sessiya bo'lib, tarixiy ahamiyatga ega masalani muhokama

¹ Rustamboyev M.X, Ahmedov D.Q, Xidirov S.M, Bekov I.R. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish. –T.: “Yangi asr avlod”, 2005. –B.29.

qildi. Sessiyada Konstitutsiya loyihasini tayyorlovchi komissiya raisi Birinchi Prezidentimiz I.Karimov ma’ruza qilgan edi. Ma’ruzada Konstitutsiya loyihasi batafsil bayon qilib berildi. Shundan so’ng Konstitutsiya loyihasi deputatlar muhokamasidan o’tdi. Sessiyada loyihaga 80 ga yaqin o’zgartirish, qo’shimcha, aniqliklar kiritildi. Ayrim takliflar asosli tarzda rad etildi.

Loyihaning har bir muddasi, bobi, bo’limlari alohida-alohida muhokama qilinib, tegishli asosli takliflar inobatga olinib, o’zgartirishlar kiritilgandan so’ng, qabul qilinish uchun ovozga qo’yildi. Deputatlar yakdillik bilan Muqaddima, 6 bo’lim, 26 bob va 128 modaddan iborat Konstitutsiyani qabul qildilar.

Asosiy qonunimiz xalqimiz irodasini, ruhiyatini, ijtimoiy ongi va madaniyatini aks ettiradi. Chunki uni ishlab chiqishda va muhokama qilishda butun xalq ishtirok etdi.

Konstitutsiyamiz davlatchiligidan tarixida qabul qilingan eng demokratik Konstitutsiya bo’ldi. Unda birinchi marta shaxs va davlat o’rtasidagi munosabatlarda birinchi marta shaxs ustivorligi, shaxs, uning huquqi, qadr-qimmati, sha’ni, oliy qadriyat sifatida belgilandi, shaxsning yashash huquqi asosiy huquq sifatida mustahkamlab qo’yildi. Davlat mas’uliyatlari aniq ko’rsatib qo’yildi. Iqtisodiyot bozor munosabatlari tamoyillari asosida mustahkamlanishi belgilandi. Konstitutsiya asosida ko’ppartiyaviylik, fikrlar xilma-xilligi belgilandi. Hokimiyatni tashkil etishda hokimiyatlar bo’linish prinsipi mustahkamlandi. Fuqarolik jamiyati asosi sifatida o’zini-o’zi boshqarish organlari mavqeyi Konstitutsiyaviy darajada belgilandi.

Konstitutsiyaviy rivojalanish tajribasi xalqaro ahamiyatga ega. Konstitutsiyalar qaysi mamlakatda qabul qilinmasin, jahon tajribasidan foydalilaniladi. Chunki ular uzoq vaqtda qo’lga kiritilgan va hayot tajribasidan o’tgan, xalqlar qaysi millatlarga, dinga mansub bo’lmisin ko’pchilik manfaatiga mos tushuvchi tamoyillar, tartiblar, qoidalarga tayanadi.

Qolaversa, manfaatlarimiz va intilishlarimizdan kelib chiqqan holda, Asosiy Qonunimiz Sharq va G’arb, Janub va Shimolning 97 ta mamlakati to’plagan ilg’or konstitutsiyaviy tajribani hisobga olib yaratilgan. O’zbekiston Konstitutsiyasining

g’oya va normalarida xalqimizning ko’p asrlik tajriba va ma’naviy qadriyatlari, boy tarixiy-huquqiy merosi aks ettirilgani uning hayotiyligining kafolatidir¹.

Shu bilan birga, Asosiy Qonunimiz ko’plab demokratik davlatlarda konstitutsiyaviy qurilish sohasidagi ilg’or tajribaning eng yaxshi jihatlarini, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining umume’tirof etilgan normalari hamda mazkur sohadagi boshqa xalqaro hujjatlarga asoslangan inson huquq va manfaatlari, erkinligini ta’minlash va himoya qilish mexanizmini o’zida mujassam etgan.

Konstitutsianing qabul qilinishi ijtimoiy va davlat qurilishining barcha jabhalaridagi munosabatlarni, milliy qonunchiligidizning barcha sohalarini tartibga soluvchi aniq huquqiy tizimni tashkil etdi.

Asosiy Qonunimizga nisbatan bunday yuksak va xolis baholar berilishi bejiz emas. Buni, jumladan quyidagi sabablar bilan izohlash mumkin.

birinchidan, bizning Konstitutsiya haqiqatan ham demokratik Konstitutsiyadir. Tarixda sinalgan umuminsoniy, umumbashariy qadriyatlarni, xalqaro andozalarni o’zida mujassam etgan hujjatdir.


ikkinchidan, bizning Konstitutsiya eng rivojlangan, taraqqiy topgan davlatlarning tarixiy tajribasiga tayangan holda yaratilgan. Bunda qaysidir davlatning tayyor Konstitutsiyasini ko’r-ko’rona ko’chirib olish yo’lidan bormay, balki eng ilg’or xorijiy konstitutsiyaviy tajribalarni o’rgandik va e’tiborga oldik. Natijada endilikda Bosh Qomusimiz dunyo miqyosida ham har qanday taraqqiy topgan davlat Konstitutsiyasi bilan bemalol kuch sinashmoqda.

uchinchidan, Konstitutsianing g’oya va normalari o’zbek xalqining teran tarixiy ildizlariga asoslangan bo’lib, u ko’p asrlik tajriba va ma’naviy qadriyatlarni, ulug’ ajdodlarimizning huquqiy merosini o’z ichiga olgan.

¹ Konstitusiyamizning yaratilishi tarixi. // https://constitution.uz/oz/pages/Konstitusiyamizning_yaratilishi

2.4. Konstitutsiyaning tuzilishi. Konstitutsiyaga o'zgartirish hamda qo'shimchalar kiritish zarurati va tartibi

Konstitutsiya tuzilishi – Konstitutsiyada o'z o'rnnini topadigan normalarni maqsad va vazifalariga qarab turkumlash va ularni ahamiyatiga qarab ketma-ketlikda joylashuvildir. O'zbekiston Konstitutsiyasi Muqaddima, olti bo'lim, 26 bob va 128 moddadan iborat. Muqaddima – Konstitutsiyaning kirish qismi bo'lib, unda bosib o'tilgan yo'l va mamlakatning asosiy vazifalari, ya'ni nima uchun Konstitutsiya qabul qilinganligi bayon qilinadi. Undagi qoida va g'oyalar keyinchalik Konstitutsiya normalarida u yoki bu shaklda, ko'rinishda o'z o'rnnini topadi.



O'zbekistonning rivojlanishi, unda olib borilayotgan islohotlar, albatta, ijtimoiy munosabatlarni o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. Davlat qurilishi va boshqaruvi sohasida olib borilayotgan islohotlar esa, hokimiyat tuzilmalari tarkibi, faoliyatini takomillashtirish, hokimiyat tizimi bo'linishi prinsipini yanada chuqurlashtirish, uning natijasida vakolatlarni yanada aniq belgilash, zaruriyatini

tug'dirmoqda. Demokratik jarayonlarning chuqurlashuvi, erkinlashtirish siyosati davlat boshlig'i maqomida o'zgarishlar bo'lishini, uni davlat boshlig'i sifatida maqomini kuchaytirib, ijro hokimiyati tarkibidan chiqarishni, ayrim vakolatlarni Parlamentga, hukumatga o'tkazish maqsadga muvofiqligini ko'rsatdi. O'zbekiston Konstitutsiyasiga kiritlgan o'zgartirish va qo'shimchalar ham shu asosda amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga hozirgi kunga qadar quyidagi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan:

1. 1993 yil 28 dekabrda qabul qilingan Qonun bilan Konstitutsianing 77-moddasi 1-qismidagi "150 nafar deputatdan" degan so'zlar "deputatlardan" degan so'z bilan almashtirildi;

2. 2002 yil 27 yanvarda o'tkazilgan umumxalq referendumi natijalariga ko'ra hamda uning asosida 2003 yil 24 aprelda qabul qilingan Qonuniga muvofiq, Konstitutsianing XVIII, XIX, XX, XXIII boblariga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritilgan;

3. 2007 yil 11 apreldagi Qonun bilan Konstitutsianing 89-moddasiga, 93- moddasining 15-bandiga, 102-moddasining ikkinchi qismiga tuzatishlar kiritilgan;

4. 2008 yil 25 dekabrda qabul qilingan Qonun bilan Konstitutsianing 77-moddasi birinchi qismiga o'zgartish kiritilgan;

5. 2011 yil 18 aprelda qabul qilingan Qonun bilan Konstitutsiyasining 78, 80, 93, 96 va 98-moddalariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilgan;

6. 2011 yil 12 dekabrda qabul qilingan Qonun bilan Konstitutsianing 90-moddasi ikkinchi qismiga tuzatish kiritilgan;

7. 2014 yil 16 aprelda qabul qilingan Qonun bilan Konstitutsianing 32, 78, 93, 98, 103 va 117-moddalariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilgan;

8. 2017 yil 6 aprelda qabul qilingan Qonun bilan Konstitutsianing 80, 81, 83, 93, 107, 110 va 111-moddalariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilgan;

9. 2017 yil 31 mayda qabul qilingan Qonun bilan Konstitutsianing 80, 93, 108, va 109-moddalariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilgan;

10. 2017 yil 29 avgustda qabul qilingan Qonun bilan Konstitutsiyaning 99 va 102-moddalariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilgan;

11. 2018 yil 15 oktabrda qabul qilingan Qonun bilan 105-moddaning birinchi qismidagi „ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini“ degan so‘zlar “raisni (oqsoqolni)” degan so‘zlar bilan almashtirilgan;

12. 2019 yil 18 fevralda qabul qilingan Qonun bilan 80 va 93-moddalardagi “Milliy” degan so‘z “Davlat” degan so‘z bilan almashtirilgan;

13. 2019 yil 5 martda qabul qilingan Qonunga asosan 79, 93 va 98-moddalarga o‘zgartirishlar kiritilgan;

14. 2019 yil 4 sentyabrda qabul qilingan Qonunga asosan saylov to‘g‘risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan 96 va 117-moddalarga o‘zgartirishlar kiritildi¹.

Shuningdek:

2021-yil 8-fevral kuni “O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasiga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. Mazkur o‘zgartirishga ko‘ra, O‘zbekistonda sud tizimi quyidagilardan iboratligi belgilandi:

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyaviy sudi;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi;
- harbiy sudlar;
- Qoraqalpog’iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari;
- Qoraqalpog’iston Respublikasi ma’muriy sudi, viloyatlar va Toshkent shahar ma’muriy sudlari;
- Fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo, tuman, shahar sudlari;
- Jinoyat ishlari bo‘yicha tuman, shahar sudlari;
- tumanlararo, tuman, shahar iqtisodiy sudlari;
- tumanlararo ma’muriy sudlari¹.

¹ O‘zbekiston konstitusiyasiga nechta o‘zgartirish kiritilgan? //https://daryo.uz/2019/12/08/ozbekiston-konstitusiyasiga-nechta-ozgartirish-kiritilgan/

Bundan tashqari, 2021-yil 8-fevraldag'i O'zbekiston Respublikasining "Saylov qonunchiligi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"¹gi O'RQ-670-sonli Qonuniga asosan, Konstitutsiya 117-moddasining ikkinchi qismidagi "dekarb" degan so'z "oktyabr" degan so'z bilan almashtirildi².

Tayanch iboralar:

1. Konstitutsiya,
2. Mustaqillik deklaratsiyasi,
3. sessiya,
4. konstitutsiyaviy komissiya,
5. konsepsiya,
6. muqaddima,
7. bob,
8. suverenitet,
9. deputat,
10. sud tizimi,
11. tajriba,
12. umumxalq muhokamasi

O'z- o'zini nazorat qilish uchun savollar:

1. O'zbekiston Konstitutsiyasining yaratilishiga qanday sabablar ta'sir qildi?
2. Konstitutsiya loyihasini tayyorlovchi komissiya qanday faoliyat ko'rsatgan?
3. Komissiya Raisi loyiha ishlovchilariga qanday vazifalarni qo'ygan?
4. Konstitutsiya loyihasi qanday muhokama qilingan?
5. Konstitutsiyani yaratilishida o'zbek xalqining roli qanday?
6. Konstitutsiyani ishlab chiqishda milliy qadriyatlardan qanda y foydalanilgan?
7. Konstitutsiyaning yaratilishida jahon konstitutsiyaviy tajribasidan qanday

¹O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartishlar kiritish to'g'risida" 08.02.2021 yildagi O'RQ-671-sonli Qonuni. //<https://lex.uz/docs/-5272639>

² O'zbekiston Respublikasining "Saylov qonunchiligi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" 08.02.2021 yildagi O'RQ-670-sonli Qonuni //<https://lex.uz/docs/-5272102?ONDATE=09.02.2021>

foydalaniman?

8. O'zbekiston Konstitutsiyasining tuzilishi qanday?
9. Konstitutsiyaga nima uchun o'zgartirish, qo'shimchalar kiritiladi, uning tartibi qanday?

Foydalaniman adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O'zbekiston” NMIU, 2020. –80 b.
2. O'zbekiston Respublikasining “O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartishlar kiritish to'g'risida” 08.02.2021 yildagi O'RQ-671-sonli Qonuni. //<https://lex.uz/docs/-5272639>
3. O'zbekiston Respublikasining “Saylov qonunchiligi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjalariiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida” 08.02.2021 yildagi O'RQ-670-sonli Qonuni //<https://lex.uz/>
4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. –T.: O'zbekiston NMIU, 2017 . –592 b.
5. Rustamboyev M.X, Ahmedov D.Q, Xidirov S.M, Bekov I.R. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rghanish. –T.: “Yangi asr avlodi”, 2005. –400 b.
6. Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq: darslik. To'ldirilgan va qayta ishlangan ikkinchi nashr. – T.: “Yuridik adabiyotlar publish”, 2020. –400 b.
7. Husanov O.T. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. – T.: “Adolat”, 2013. –552 b.
8. O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi . –T.: “Adolat”, 2011. –704 b.
9. O'zbekiston konstitutsiyasiga nechta o'zgartirish kiritilgan? //<https://daryo.uz/>
10. Konstitusiyamizning yaratilishi tarixi. //<https://constitution.uz/>

3-Mavzu: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASINING ASOSIY PRINSIPLARI

3.1. Davlat suvereniteti va uning konstitutsiyaviy asoslari

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi "O'zbekiston – suveren demokratik respublika" ekanligini e'lon qiluvchi va qonuniy mustahkamlovchi muhim qoidadan boshlanadi. Xususan, uning 1-moddasida "O'zbekiston – suveren demokratik respublika. Davlatning "O'zbekiston Respublikasi" va "O'zbekiston" degan nomlari bir ma'noni anglatadi", deb belgilangan¹.

Davlat xalqning rasmiy vakili sifatida o'z fuqarolarining irodasini ifoda etadi. Faqat suveren davlatgina fuqarolarning huquq va manfaatlarini to'la va har tomonlama ta'minlashi mumkin.

Davlat suvereniteti deganda, davlat hokimiyatining ustivorligi, uning mamlakat ichkarisida ham, xalqaro maydonda boshqa davlatlarga nisbatan ham to'la mustaqilligi tushuniladi. Suverenitet davlat hokimiyatining alohida xususiyati bo'lish bilan bir paytda, davlatning muhim belgisi ham hisoblanadi. O'zbekistonda davlat hokimiyatini tashkil etishning eng muhim konstitutsiyaviy tamoyillaridan biri davlat suvereniteti prinsipi hisoblanadi. "Davlat suvereniteti" iborasi fransuzcha "yuqori hokimiyat", "oliy hokimiyat" degan ma'noni anglatadi. Suveren davlat ichki va tashqi siyosiy faoliyatida o'zining mustaqil va oliy davlat hokimiyatiga, ya'ni qonun chiqaruvchi hokimiyatiga ega bo'ladi. "Suverenitet" degan ibora davlat-huquqiy ma'noda birinchi marta XVI asrda fransuz olimi J.Boden tomonidan kiritilgan. Uning fikricha, suverenitet "davlatning doimiy va mutlaq hokimiyatidir"².

"Xalq suvereniteti" nazariyasi fransuz olimi Jan Jak Russo tufayli burjua revolyusiyasi arafasida o'zining klassik qiyofasini topdi. Uning fikricha "umumiyl iroda" tomonidan boshqariladigan hokimiyat- suverenitet deb ataladi³.

¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: "O'zbekiston", 2020. –B.4.

² Rustamboyev M.X, Ahmedov D.Q, Xidirov S.M, Bekov I.R. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish. –T.: "Yangi asr avlod'i", 2005. –B.41.

³ Ж.Ж.Руссо. Об общественном договоре или принципы политических прав.-М.: "Соцэкгиз", 1938. –235c.

O'zbekiston xalqining suvereniteti mamlakatimizda hokimiyatning to'laligicha halqqa tegishlilagini bildiradi. Xalq – hokimiyatning yagona manbai va subyekti, unga hech kim o'z irodasini o'tkaza olmaydi. Xalq suverenitetining mazmuni shundan iboratki, uning hokimiyati boshqa subyektga berilmaydi va bo'linmaydi. O'zbekistonda davlat hokimiyati xalqniki va faqat unga xizmat qiladi. Xalq suvereniteti davlat va milliy suverenitetlarida namoyon bo'ladi. O'zbekistonda suverenitetning manbai va yagona egasi bo'lgan xalq uni, eng avvalo, davlat hokimiyati orqali davlat suvereniteti sifatida amalga oshiradi.

Millat suvereniteti –millatning siyosiy va huquqiy holati tushuniladi. Har bir millat o'zining suveren siyosiy va huquqiy holatiga ko'ra, o'z siyosiy holatini, o'z irodasi bilan, boshqa xalqlarning aralashuvvisiz mustaqil tarzda belgilaydi, iqtisodiy, madaniy rivojlanish yo'lini tanlaydi va o'z milliy davlatini tuzadi¹.

Millat suvereniteti millatning ajralmas xususiyati bo'lib, uning mustaqil yashash huquqini bildiradi.

Davlat hokimiyatining birligi davlatning oliy hokimiyatini tashkil qiluvchi yagona organ yoki organlar tizimi mavjud bo'lishida ifodalanadi. Davlat hokimiyati birligining yuridik belgisi, davlat hokimiyati oliyligini tashkil qiluvchi organlar tizimining bevosita davlat funksiyalarini bajarish uchun zarur bo'lgan vakolatlarni qamrab olishini anglatadi. Shu tizimga tegishli organlar esa, bir xil subyektlarga, bir xil vaziyatlarda o'zaro istisno qiluvchi xulq-atvor qoidalarini ifodalay olmaydi. Suveren davlat hokimiyatining asosiy xususiyati uning mustaqilligi hisoblanadi. Davlat hokimiyatining mustaqilligi, shu davlatning boshqa davlatlar bilan to'g'ridan-to'g'ri, bevosita munosabatlarida o'z ifodasini topadi.

3.2. Xalq hokimiyatchiliginin konstitutsiyaviy asoslari

“Demokratiya” (yunoncha “democratia” – xalq hokimiyati, demos – xalq va kratos – hokimiyat so'zlaridan) – konstitutsiyaviy tuzumning xalq hokimiyatchiligi va siyosiy plyuralizm, fuqarolar erkinligi va tengligi, inson

¹ Карапг: А.И. Лепешкин. Советский федерализм. –М.: “Юридическая литература”, 1977. –253-254 с.

huquqlarining daxlsizligi kabi asoslarini e'tirof etishga asoslangan davlatning siyosiy rejimi”¹ sifatida e'tirof etilgan.

AQShdagи mashhur lug'atlardan biri Merriam-Websterda berilgan ta'rifga ko'ra – “demokratik jamiyat bu oliv hokimiyat fuqarolarga berilgan va vaqt-vaqt bilan ular tomonidan to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita vakillik tizim orqali erkin saylovlarни o'tkaziladigan tizimdir².

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: “demokratik islohotlar yo'li – biz uchun yakkayu yagona va eng to'g'ri yo'ldir. Bu borada biz har kuni izlanishdamiz, xorijdagi ilg'or tajribalarni chuqur o'rganib, hayotimizni, ish uslubimizni yangilashga harakat qilmoqdamiz. Biz yangi O'zbekistonni xalqimiz bilan birlilikda barpo etamiz, degan ulug'vor maqsadni o'z oldimizga qo'yganmiz. Bu borada “Jamiyat – islohotlar tashabbuskori” degan yangi g'oya kundalik faoliyatimizga tobora chuqur kirib bormoqda”³.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining “Xalq hokimiyatchiligi” deb nomlangan ikkinchi bobи davlatimizning demokratik tabiatini ifodalaydi va O'zbekistonni suveren demokratik respublika ekanligini tasdiqlaydi. “Xalq hokimiyatchiligi” prinsipi har qanday demokratik davlat konstitutsiyaviy tuzumining asosiy shartlaridan biridir.

Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasi demokratik davlat hisoblanib, uning Asosiy Qonuni xalq hokimiyatchiligi prinsipiga asoslanadi va butun mazmun-mohiyati bilan ana shu prinsipini mustahkamlaydi. O'zbekiston Konstitutsiyasining 7-moddasida mamlakatimizdagi xalq hokimiyatchiligi prinsipi quyidagicha ochib berilgan: “Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir. O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergen idoralar tomonidangina amalga oshiriladi. Konstitutsiyada nazarda tutilmagan tartibda davlat hokimiyati vakolatlarini o'zlashtirish, hokimiyat

¹ O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi. –T.: “Adolat”, 2011. –B.130.

² Democracy. //<https://www.merriam-webster.com/dictionary/democracy>

³ Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma sakkiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagи nutqi. //“Xalq so'zi” gazetasи, 2019 yil 1 sentyabr, №180 (7379).

idoralari faoliyatini to'xtatib qo'yish yoki tugatish, hokimiyatning yangi va muvoziy tartiblarini tuzish Konstitutsiyaga xilof hisoblanadi va qonunga binoan javobgarlikka tortishga asos bo'ladi”¹.

O'zbekistonda davlat xalq irodasini ifodalaydi, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Agar hozirgi vaqtida davlatimizning ichki va tashqi siyosiy faoliyatiga diqqat bilan nazar tashlasak, mazkur siyosat inson va jamiyat farovonligi maqsadiga bo'ysundirilganligini, yurtimiz obodligini va xalqimiz farovonligini ta'minlashga qaratilganligini ko'ramiz.

O'zbekiston Konstitutsiyasida, xalq hokimiyatchiligining jahon konstitutsiyaviy rivojlanishi tajribasida ishlab chiqilgan quyidagi ikkita shakli o'rnatilgan:

1. To'g'ridan-to'g'ri, ya'ni bevosa demokratiya – fuqaroning davlat ishlarini hal qilishda to'g'ridan-to'g'ri ishtirok etishi.

2. Vakillik demokratiyasi, ya'ni bilvosita demokratiya – fuqaroning davlat ishlarini hal etishda o'zi saylagan vakillari, ya'ni deputatlar orqali ishtirok etishi.

O'zbekiston Konstitutsiyasining 32-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosa hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Bunday ishtirok etish o'zini o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Bevosita demokratiyaning asosiy ko'rinishlaridan biri-referendum haqida O'zbekiston Konstitutsiyasida quyidagi norma mustahkamlangan: “Jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etiladi, umumiy ovozga (referendumga) qo'yiladi. Referendum o'tkazish tartibi qonun bilan belgilangan”².

Referendum so'zining lug'aviy ma'nosi lotincha “ma'lum qilinishi lozim bo'lgan narsa” deganidir, ya'ni davlatda hal qilinishi lozim bo'lgan muhim

¹ Qarang: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O'zbekiston”, 2020. –B.5.

² O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O'zbekiston”, 2020. –B.6.

masalalar xalqqa ma'lum qilinadi va uning ovoz berishi orqali hal etiladi. Referendum respublikamizda demokratiyaning ko'rinishlaridan biri bo'lib, xalq hokimiyatini bevosita amalga oshirish vositasi hisoblanadi.

3.3. Konstitutsiya va qonunning ustunligi

Konstitutsiya va qonunlar ustunligining ta'minlanishi huquqiy davlatning muhim belgilaridan biri bo'lib, u O'zbekistonda davlat-huquqiy qurilishining eng asosiy prinsipi hamdir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlab o'tganidek, "Sohibqiron Amir Temur bobomiz "Davlat qonunlar asosida qurilmas ekan, unday sultanatning shukuhi, qudrati va tarkibi yo'qoladi", deb ta'kidlagan edilar. Shu nuqtai nazardan, Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlash biz bunyod etayotgan demokratik huquqiy davlatning bosh mezoni hisoblanadi. Har qanday demokratik islohotlar samarasi, tinchlik va taraqqiyotning asosiy garovi ham Konstitutsiya va qonun ustuvorligi ta'minlanishi bilan bevosita bog'liq"¹.

Konstitutsiya va qonun ustunligi davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, barcha jamoat birlashmalari va fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq faoliyat olib borishini taqozo etadi. Bundan tashqari, bu konstitutsiyaviy tamoyil, barcha normativ huquqiy aktlar Konstitutsiyada mustahkamlangan qoidalarga to'liq mos kelishini ham qat'i talab etadi. Bu konstitutsiyaviy qoidaga to'la rioya etish mamlakatda qonunchilik va huquqiy tartibot, taraqqiyot va barqarorlik hukm surishiga olib keladi.

Shu munosabat bilan, qonun ustuvorligi haqida gap ketganda, avvalo bir holat haqida to'xtalib o'tish joiz. Ilmiy adabiyotlarda qonun ustuvorligi bilan huquq hukmronligi tushunchalarini ba'zan aralashtirib yuborish hollari uchraydi. Aslida bular mohiyatan yaqin huquqiy hodisalar bo'lsada, har holda bir-biridan muayyan darajada farqlanishadi.

Davlat hokimiyati qonunda belgilab qo'yilgan asoslarda va doiralarda harakat qilmog'i, davlat organlari esa, hech bir istisnosiz harakatdagi huquq

¹ Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezondir. // "Xalq so'zi" gazetasi, 2019 yil 8 dekabr, №254 (7484).

normalariga bo'ysunmog'i lozim. Buning ma'nosi shuki, davlat organlari faqat qonun bergen vakolat doirasida harakat qilib, Konstitutsiyaga muvofiq uning kompetensiyasiga (huquq va majburiyatlar majmui) kiradigan qarorlarni qabul qilish va haraktlarni sodir etish huquqiga ega.

Huquq hukmronligi bu - davlatning, uning mansabdor shaxslarining, davlat organlarining, fuqarolarning va ularning turli tuzilmalarining faoliyati huquq bilan bog'liqligi, huquq asosida kechishidir.

Qonun ustuvorligi bu - muayyan bir davlatda amal qilib turgan huquqiy normalar, normativ-huquqiy hujjatlar ichida qonunning oliv yuridik kuchga ega ekanligi, barcha qonun osti aktlari qonunga mos kelishi lozimligidir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining uchinchi bobি huquqiy davlat barpo etishda muhim bo'lgan ushbu prinsipni o'zida mustahkamlagan: "O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarning ustunligi so'zsiz tan olinadi. Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar"¹.

Oliy yuridik kuchga ega bo'lgan va O'zbekiston hududida bevosita to'g'ridan - to'g'ri amal qiladigan Konstitutsianing ustunligi shuni anglatadiki, O'zbekiston hududida qabul qilinadigan barcha qonunlar va boshqa normativ aktlar Konstitutsiyaga zid kelmasligi, unga mos kelishi lozim. Davlat hokimiyati organlari, mansabdor shaxslar, fuqarolar, o'zini-o'zi boshqarish organlari, barcha boshqa tashkilot va tuzilmalar O'zbekiston Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etishlari kerak. Shu tariqa davlat faoliyati huquq va qonunlar bilan "bog'lab" qo'yiladi, ma'lum darajada cheklab qo'yiladi.

Qonunlarga rioya etish uchun ular rasmiy tarzda e'lon etilgan bo'lishi shart. Qonunlarning e'lon qilinishi – ularga rioya etishning shartidir, chunki e'lon qilinmagan qonun qo'llanilmaydi².

¹Qarang: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: "O'zbekiston", 2020. –B.7.

²Qarang: Saburov N. Qonunga itoatkor shaxs. -T.: "TDYUI nashriyot", 2003. –B.7-10.

Qonun ustuvorligi va huquq hukmronligi (“rull of low”) - huquqiy davlatning eng muhim tamoyillaridan, tavsiflaridan biri hisoblanadi. Biroq, biz yuqorida ham ta’kidlaganimizdek, qonun ustuvorligi bilan huquq ustuvorligi bir narsa emas. Chunki har qanday qonun doimo huquqiy xarakterga ega bo’lmasligi mumkin, ya’ni o’zida insonga huquq beradigan, uning erkinligi, real tengligi, ijtimoiy xavfsizligini ta’minlaydigan qoidani ifodalamasligi mumkin, shu bois doimo huquq va qonun tushunchasi bir-biriga mos kelmasligi mumkin.

Huquq ustunligi o’z ichiga quyidagilarni olishi kerak:

davlat va jamiyat hayotining barcha muhim masalalariga huquq va qonun nuqtai-nazaridan qarash va hal eitsh

umuminsoniy axloqiy-huquqiy qadriyatlar va huquqning formal-regulyativ qadriyatlarini legitimli ommaviy hokimiy kuch bilan bilan uyg’unlashtirish

davlat va jamoat organlarining har qanday qarorlarini g’oyaviy-huquqiy asoslash

davlatda huquqning ifodalishi va harakatini ta’minlashning ishonchli vositalari mexanizmi mavjudligi

Konstitutsiya va qonunlar to’g’risida so’z ketar ekan, avvalo ularni bir-biridan farqini ajratib olish kerak. Konstitutsiya davlatning Asosiy Qonuni bo’lib, u boshqa joriy qonunlardan shu bilan farq qiladiki, unda eng asosiy, eng barqaror ijtimoiy munosabatlar, uzoq davrlarga mo’ljallangan asosiy qoidalar mustahkamlangan va bu qoidalar bevosita amal qilib, boshqa qonun chiqarish hujjatlarida ochib beriladi va konkretlashtiriladi. Shu sababli Konstitutsiya garchi muhim bo’lsada, lekin Asosiy Qonun doirasiga sig’maydigan bir qancha qoidalarni o’z ichiga olmaydi. Konstitutsiyada mavjud bo’lgan qoidalar negizida va ularni rivojlantira borib, zaruriyatga qarab boshqa qonunlar va o’zgacha me’yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqiladi va qabul qilinadi. Bunda barcha joriy qonunlarning huquqiy asosi, bosh manbai Konstitutsiya bo’lib qoladi.

Konstitutsiyaning Asosiy Qonun sifatidagi ahamiyati, obro'-e'tibori, barqarorligi, uning oddiy qonunlardan farqi shu bilan belgilanadi. Bir so'z bilan aytganda, Konstitutsiyani qonunlar qonuni deyish mumkin. Shu bois O'zbekiston Konstitutsiyasida Konstitutsiyaning eng yuqori kuchga egaligi, hamma qonunlardan ustun turishi alohida e'tirof etilgan. Bunda faqat Konstitutsiyaninggina emas, balki uning asosida qabul qilinadigan qonunlarning ustunligi o'rnatiladi.

3.4. Tashqi siyosatning konstitutsiyaviy asoslari

O'zbekiston Respublikasi o'z milliy manfaatlariga asoslangan holda ochiq, o'zaro manfaatli va konstruktiv tashqi siyosat olib boradi. Respublikaning zamonaviy tashqi siyosati dunyoda va mintaqada shiddat bilan o'zgarayotgan vaziyat, hamda mamlakatning ichidagi keng ko'lamli o'zgarishlarga asoslanib shakllanadi. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining bosh maqsadi – davlat mustaqilligi va suverenitetini, xalqaro maydondagi o'rni va rolini mustahkamlash, yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnichilik muhitini shakllantirish, respublikaning tashqi iqtisodiy manfaatlarini faol tarzda ilgari surish.

Respublika harbiy-siyosiy bloklarga qo'shilmaslik prinsipiga sodiq bo'lib, o'z hududida xorijiy harbiy bazalar va obyektlarni joylashtirishga, shuningdek, mamlakat harbiy xizmatchilarining chet eldag'i tinchlikparvarlik amaliyotlarida yoki harbiy mojarolarda ishtirok etishiga yo'l qo'ymaydi. O'zbekiston barcha qarama-qarshiliklar va nizolarni faqat tinch siyosiy yo'llar bilan hal qilish tarafdori¹.

¹ O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosati. // <https://mfa.uz/uz/pages/vneshnaya-politika>

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy prinsiplari



Tashqi siyosiy faoliyatning asosiy va birinchi darajali vazifalaridan biri bu 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini samarali amalga oshirishdir.

Ushbu maqsadga erishish uchun chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar:

- davlat mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, mamlakatning xalqaro munosabatlarning teng huquqli subyekti sifatidagi o'rni va rolini oshirish, rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, O'zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnichilik muhitini shakllantirish;
- O'zbekiston Respublikasining xalqaro nufuzini mustahkamlash, mamlakatda olib borilayotgan islohotlar to'g'risida jahon hamjamiyatiga xolis axborot yetkazish;
- O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatining normativ-huquqiy bazasini hamda xalqaro hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish;

- davlat chegarasini delimitatsiya va demarkatsiya qilish masalalarini hal etish¹.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi dunyoning 130 dan ortiq davlatlari bilan diplomatik aloqalar o'rnatgan. Toshkentda 44 ta chet el elchixonalari, 1 ta bosh konsullik, 8 ta faxriy konsullar, 17 ta xalqaro tashkilotlar vakolatxonalar, 13 ta xorijiy xalqaro hukumatlararo va hukumat tashkilotlari vakolatxonalar, 1 ta diplomatik maqomga ega savdo vakolatxonasi faoliyat ko'rsatmoqda².

Xorijiy mamlakatlarda va xalqaro tashkilotlarda O'zbekiston Respublikasining 55 ta diplomatik va konsullik vakolatxonalar mavjud. O'zbekiston 100 dan ortiq xalqaro tashkilotlarning a'zosi bo'lib, mamlakatimiz turli xil ko'p tomonlama hamkorlik tuzilmalari bilan o'zaro sherikchilik aloqalarini rivojlantiradi.

Tayanch iboralar:

1. Suverenitet,
2. bevosa demokratiya,
3. vakillik demokratiyasi,
4. tashqi siyosat,
5. vakolatxona,
6. xalqaro tashkilot,
7. delimitatsiya,
8. demarkatsiya,
9. Harakatlar strategiyasi,
10. “rull of law”

O'z- o'zini nazorat qilish uchun savollar:

1. Suverenitet nima?
2. Davlat suvereniteti nima?
3. O'zbekiston qachon davlat suverenitetiga ega bo'ldi?
4. O'zbekistonni suverenitetga ega bo'lishi ahamiyati qanday?
5. O'zbekistonni davlat suvereniteti qanday masalalarni hal qilish imkonini beradi?
6. To'g'ridan-to'g'ri, ya'ni bevosa demokratiya tushunchasini izohlang?

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni. //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 yil, 6-son.

² O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosati. // <https://mfa.uz/uz/pages/vneshnaya-politika>

7. Vakillik demokratiyasi nima?
8. O'zbekistonda Konstitutsiya va qonunning ustunligi prinsipi qanday amalga oshiriladi?
9. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining konstitutsiyaviy asoslari qaysi qonun hujjatlarida belgilangan?
10. Tashqi siyosatning asosiy prinsiplari tizimi qanday?
11. Davlatlarning suveren tengligi qanday e'tirof etiladi?
12. O'zbekiston qanday tashkilotlar tarkibida ishtirok etadi?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O'zbekiston” NMIU, 2020. –80 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi 2017 yil 7 fevraldag'i PF-4947-sonli Farmoni. //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 yil, 6-soni.
3. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma sakkiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i nutqi. //“Xalq so'zi” gazetasi, 2019 yil 1 sentyabr, №180 (7379).
4. Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir. //“Xalq so'zi” gazetasi, 2019 yil 8 dekabr, №254 (7484).
5. Rustamboyev M.X., Ahmedov D.Q., Xidirov S.M., Bekov I.R. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish. –T.: “Yangi asr avlodi”, 2005. –400 b.
6. Ж.Ж.Руссо. Об общественном договоре или принципы политических прав.-М., 1938.-235с.
7. Лепешкин А.И. Советский федерализм.-М., 1977.-253-254с.
8. O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi . –T.: “Adolat”, 2011. –704 b.
9. Saburov N. Qonunga itoatkor shaxs. –T.: “TDYUI” nashriyoti, 2003. 7-10 betlar
10. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosati. // <https://mfa.uz/uz/>
11. Democracy. //<https://www.merriam-webster.com/>

4-Mavzu: INSON VA FUQAROLARNING ASOSIY HUQUQLARI VA ERKINLIKHLARI

4.1. Inson huquqlari va fuqaro huquqlari, erkinlik, majburiyat tushunchalari

Erkinlik va shaxsiy daxlsizlik insonning asosiy konstitutsiyaviy huquqlaridan biri bo'lib, har bir shaxs unga tug'ilganidan boshlab ega bo'ladi. Har kimga o'z ixtiyoriga ko'ra, uni individual ravishda qanoatlaniruvchi, shaxsiy erkinligi va daxlsizligini cheklamaydigan xatti-harakatlarni tanlash va sodir etish imkoniyati berilgan. Biroq, shuni ham nazarda tutish joizki, shaxs erkinligi jamiyatda umume'tirof etilgan axloq normalari doirasida va qonun asosida amalga oshirilishi kerak. Demak, shaxs qonunlar va boshqa normativ hujjatlardagi huquqiy qoidalarga zid bo'lмаган har qanday qilmishlarni sodir etishi mumkin. Shaxs daxlsizligi davlat hokimiyati organlari tomonidan kafolatlanadigan shaxsiy erkinlik sifatida tushuniladi.

Bugun insonning asosiy huquq va erkinliklarini ta'minlash O'zbekistondagi islohotlarda eng muhim o'rinda turadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqida ta'kidlab o'tganidek: "Inson huquqlari sohasidagi holat ham butunlay o'zgardi. Majburiy va bolalar mehnati to'liq tugatildi. Inson huquqlari bo'yicha Milliy strategiya qabul qilindi"¹.

Diqqatga sazovor jihat shundan iboratki, konstitutsiyamizda inson huquqlariga oid quyidagi muhim xalqaro huquqiy qoidalari mustahkamlab qo'yilgan:

birinchidan, inson huquqlari va erkinliklarini tan olish va himoya qilish – davlatning majburiyati;

ikkinchidan, inson huquqlari va erkinliklari tizimi xalqaro huquqiy andozalarga mos kelishi va bu sohada xalqaro huquqning ustunligi;

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqi. // "Xalq so'zi" gazetasi, 2020 yil 24 sentyabr, №202 (7704)

uchinchidan, inson huquqlari va erkinliklari unga tug'ilganidan boshlab taalluqli ekanligi, ya'ni tabiiy huquq g'oyasi va nazariyasining e'tirof etilishi;

to'rtinchidan, inson huquqlari va erkinliklarining hammaga va har kimga teng va barobar taalluqliligi;

beshinchidan, inson huquqlari va erkinliklari davlat idoralari faoliyatining mazmunini tashkil etishi;

oltinchidan, fuqarolarning kafolatlangan sud himoyasi bilan ta'minlanishi;

yettinchidan, inson huquqlari va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslar huquqlarining buzilmasligi zaruriyati.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida inson va fuqaroning o'z huquq va majburiyatharini amalga oshirishiga asos bo'lgan omil, ya'ni rahbariy g'oyalar yig'indisi hisoblangan shaxs va fuqaro huquqiy maqomining quyidagi prinsiplari mustahkamlab qo'yilgan:

- 1) shaxs va fuqaroning huquq va erkinliklari sohasida xalqaro huquq normalarining ustunligi;
- 2) asosiy huquq va erkinliklarning ajralmasligi;
- 3) huquq va erkinliklarning bevosita amalga oshirilishi;
- 4) huquq va erkinliklarni majburan cheklashga yo'l qo'yimasligi;
- 5) shaxs va fuqaro huquq hamda erkinliklarining davlat tomonidan kafolatlanganligi;
- 6) teng huquqlilik;
- 7) shaxsning o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishi boshqalarning huquq va erkinliklariga putur yetkazmasligi shart ekanligi.

4.2. Inson huquqlari turlari. Shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy huquqlar

Tadqiqotchilar dunyo konstitutsiyalarida jami 117 xil inson huquqlarini hisoblab chiqib, ularning qanchasi 190 ta davlat konstitutsiyasida aks ettirilganligi bo'yicha tahlil o'tkazishganda, Fransiya konstitutsiyasi 13 turdag'i huquqlarni, AQSH konstitutsiyasi 35 turdag'i huquqlarni, Buyuk Britaniyaning konstitutsiyaviy

ahamiyatdagi hujjatlari 44 turdagи huquqlarnи, Germaniya va Yaponiya Asosiy qonunlari 44 turdagи huquqlarnи qamrab olgan holda, mamlakatimiz konstitutsiyasida 55 turdagи huquqlar aks etganini qayd etishgan¹.

Mamlakatimizdagi inson huquqlarining ta'minlanishi holati esa yurtimizda madaniyatlararo muloqot, xorijiy investitsiya va ilg'or tajribalar yaratilishi uchun shart-sharoit yaratib bermoqda. Jumladan, mamlakatimizda 2019 yilda "Jasliq" 19-on ixtisoslashtirilgan koloniyasining tugatilishi buning yorqin misolidir². Bunga qadar 2019 yilda ham ikkita qamoqxona yopilgan. Ana shunday insonparvar siyosat tufayli qisqa davrda mamlakatda mahbuslar soni ikki barobar kamayishiga erishildi³. 2020 yilning 12-13 avgust kunlarida O'zbekistonda inson huquqlari bo'yicha "Yoshlar-2020: global birdamlik, barqaror rivojlanish va inson huquqlari" Samarqand forumi o'tkazildi. Forum yoshlar huquqlarini targ'ib qilishning dolzARB masalalarini qamrab olib BMT miqyosidagi Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiya loyihasi muhokama qilindi⁴.

Shuningdek, 2020 yil 13 oktyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh assambleyasida O'zbekiston BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashiga ko'pchilik ovoz bilan tarixda birinchi marta uch yillik muddatga saylandi. BMT Yangiliklar markazi ma'lumotiga ko'ra, 15 davlat 2021 yil 1 yanvardan boshlab uch yillik muddatga BMT Inson huquqlari bo'yicha Kengashi a'zoligiga saylangan. BMT Bosh assambleyasi organi hisoblangan Inson huquqlari bo'yicha kengashga 47 ta davlat a'zo hisoblanadi va Kengash a'zolari uch yillik muddatga yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadi.

Ma'lumot o'rniда, O'zbekiston inson huquqlari bo'yicha 80 dan ortiq xalqaro hujjatlarga, shu qatorda, BMTning 6 ta asosiy shartnomasi va 4 ta fakultativ protokoliga qo'shilgan. Mamlakatda inson huquqlari sohasini yanada rivojlantirish maqsadida prezident farmoni bilan shu yilning 22 iyun kuni Inson

¹ Mirakulov M. Inson manfaatlari hamma narsadan ustun. //Huquq va burch, №5, 2018. -B.13.

² Jasliqning yopilishini xalqaro hamjamiyat qanday qabul qilmoqda. //http://uza.uz/oz/politics/zhasli-ning-yepilishini-khal-aro-amzhamiyat-anday-abul-ilmo--18-08-201918.08.2019

³ Saidov A. Karvon yo'li. //Ma'naviy hayot, №3, 2019. -B.8.

⁴Inson huquqlari bo'yicha Samarqand forumi: Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiya loyihasi muhokamada. // http://uza.uz/oz/society/inson-u-u-lari-b-yicha-samar-and-forumi-yeshlar-u-u-lari-t-r-11-08-2020

huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasi va uni amalga oshirish bo'yicha Yo'l xaritasi ham tasdiqlangan¹.

Insonning barcha asosiy huquq va erkinliklari

shaxsiy huquq va erkinliklar

siyosiy huquqlar

ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlar

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida ham aynan shunday yondashuvni ko'rish mumkin: Deklaratsiyada mustahkamlangan huquq va erkinliklarni to'rt guruhga ajratib ta'riflash mumkin. Birinchi guruhga shaxsiy huquq va erkinliklar kirsa, ikkinchi guruhga siyosiy huquq va erkinliklar, uchinchi va to'rtinchi guruhlarga iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquq va erkinliklar kiradi².

Shaxsiy huquq va erkinliklar

Yashash huquqi

Erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi

Har kimning sha'ni, obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalanish va turar joy daxlsizligi huquqi, yozishma va so'zlashuvlarni sir saqlanish huquqi

Yashash joyini erkin tanlash huquqi

Fikrlash, so'z, e'tiqod erkinligi

Axborot olish, tarqatish, hujjatlar bilan tanishish huquqi

Vijdon erkinligi

¹ O'zbekiston ilk bor BMTning Inson huquqlari bo'yicha Kengashiga a'zo bo'ldi. //<https://www.gazeta.uz/oz/2020/10/14/humanrights/>

² Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. //<https://constitution.uz/oz/pages/humanRights>

Sha'n va qadr-qimmat faqat insonga xos sifat bo'lib, u insonga tug'ilganidan qo'lga kiritadigan ajralmas va boshqalarga o'tkazib bo'lmaydigan huquqi hisoblanadi, ya'ni ma'naviy dunyosini tavsiflaydigan nomoddiy boyliklardan biri hisoblanadi.

Shaxs sha'ni – deganda shaxs yurish turishiga nisbatan o'zga shaxslarni bergen ma'naviy-axloqiy bahosi tushuniladi.

Qadr-qimmat – shaxsning jamiyatdagi o'rniga, shaxsiy xususiyatlariga, qobiliyatlariga, dunyoqarashiga qarab o'z-o'zini ichki boholashidir.

Fuqarolarning ko'chib yurish huquqi- shaxs ushbu huquqqa muvofiq o'z xohishiga ko'ra, O'zbekiston hududi doirasida bir joydan ikkinchi joyga ko'chib o'tishi, undan chiqib ketishi va qaytib kelishi mumkin. Qonunda belgilangan cheklash hollari bundan mustasnodir.

Fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi faqat davlat siri va boshqa sirlarga taalluqli bo'lgan taqdirdagina qonun bilan cheklanishi mumkin.

Har kimning o'z fikrini erkin ifoda qilish huquqi o'z ichiga izlanish erkinligi, har qanday axborotni olish, tarqatish, yozma yoki nashr shaklida yohud badiiy shaklda ifodalash erkinligini amalga oshirish imkonini beradi.

Fikrlash va e'tiqod erkinligi so'z erkinligi – orqali amalga oshiriladi, bu o'z fikrini ochiq so'zlash va boshqa shaxslarning e'tiboriga yetkazish deb tushuniladi. Ko'p holatlarda so'z erkinligi ommaviy axborot vositalari orqali amalga oshiriladi va ular har bir fuqaroning so'z erkinligini, ommaviy axborot vositarida chiqish huquqini, o'z fikr va e'tirozlarini ochiq so'zlashni kafolatlaydigan "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni asosida faoliyat ko'rsatadilar.

Axborotlarni yig'ish, toplash, qayta ishslash, uzatish va ruxsat etilmagan tanishuvdan himoya qilish bilan bog'liq bo'lgan hamda axborot tizimlarining ma'lumotlar bazalari va banklarini tashkil qilish, axborotlarni qayta ishslash va uzatishning boshqa tizimlarini yaratish, joriy etish va ulardan foydalanish sohasidagi munosabatlar "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"gi,

“Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to’g’risida”gi Qonuni bilan tartibga solinadi.

Vijdon erkinligi – har bir inson o’zi xohlagan diniga e’tiqod qilishi yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmasligi va dinga nisbatan betaraf bo’lishi, shuningdek, dinga qarshi bo’lishligi bilan ifodalanadi.

2021 yil 5 iyulda (yangi tahrirdagi) “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunning 4-moddasida fuqarolarning vijdon erkinligi huquqi mustahkamlangan bo’lib, bu fuqarolarning xohlagan dinga e’tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik bo’yicha kafolatlangan konstitutsiyaviy huquqidir deb ta’kidlangan¹.

Shuningdek, mazkur qonunda fuqaro dinga, dinga e’tiqod qilishga yoki e’tiqod qilmaslikka, ibodatlarda, diniy rasm-rusumlar va marosimlarda ishtirok etishga yoki ishtirok etmaslikka, diniy ta’lim olishga nisbatan o’z munosabatini belgilayotganda uni u yoki bu tarzda majburlashga yo’l qo’yilmasligi e’tirof etilgan.

O’zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini zo’rlik bilan o’zgartirish, uning suvereniteti va hududiy yaxlitligiga putur yetkazish, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini kamsitish, urushni, milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovatni targ’ib qilish, fuqarolarning sog’lig’i va axloqiga tajovuz qilish, fuqarolar totuvligini buzish, vaziyatni beqarorlashtiruvchi tuhmatdan iborat uydirmalarni tarqatish, aholi o’rtasida sarosima uyg’otish hamda shaxs, jamiyat va davlatga qarshi qaratilgan boshqa harakatlar sodir etish maqsadida dindan foydalanishga yo’l qo’yilmaydi.

Siyosiy huquq va erkinliklar deyilganda insonlarning bevosita siyosiy manfaatlariga tegishli huquqlar tushuniladi. Siyosiy huquqlar shaxsning siyosiy jarayon va davlat hokimiyatining amalga oshirishda ishtirok etish imkoniyatlarini

¹ O’zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to’g’risida” 05.07.2021 yildagi O’RQ-699-sonli Qonuni. // <https://lex.uz/docs/-5491534>

ifodalaydi.

Fuqarolarning siyosiy huquq va erkinliklari

Fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarida ishtirok etish huquqi

Mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlarda ishtirok etish huquqi

Jamoat birlashmalariga birlashish va ommaviy harakatlarda
ishtirok etish huquqi

Vakolatli organlarga murojaat etish huquqi

Saylov huquqi passiv va faol turlariga bo'linadi.

Saylash huquqi **faol huquq** hisoblanadi. Saylash huquqiga 18 yoshga to'lgan fuqarolar ega bo'ladilar va ular ushbu huquq orqali harakatdagi qonunchilikka muvofiq u yoki bu lavozimga nomzodni ilgari surishi mumkin.

Passiv saylov huquqi davlat hokimiysi organi yoki mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlariga saylanish huquqi hisoblanadi. Passiv saylov huquqi davlat hokimiysi organi yoki mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organining xarakteriga bog'liq ravishda turli yoshlarda qo'lga kiritiladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga 35 yoshdan kichik bo'lмаган, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga 25 yoshga, mahalliy vakillik organlariga 21 yoshga to'lgan shaxslargina saylanish huquqiga ega bo'ladilar¹.

Fuqarolarning o'z ijtimoiy faolliklarini mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar yo'li bilan amalga oshirish huquqlarini O'zbekiston Respublikasi tan oladi va kafolatlaydi.

Miting bu – siyosiy masalalarni muhokamasi uchun yig'ilgan jamoa yig'ilishidir.

¹ Rustamboyev M.X, Ahmedov D.Q, Xidirov S.M, Bekov I.R. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish. –T.: "Yangi asr avlodи", 2005. –B.109.

Yig’ilish bu – yopiq imoratda yoki biror xonada o’tkaziladigan, ma’lum bir masalalarni muhokama qilish va qaror qabul qilish uchun yig’ilgan shaxslarning majlisidir. Majlis shaklidagi yig’ilishlar majlis tashkilotchilar tomonidan ishtirokchilar sonini chegaralash uchun tanlanishi mumkin, lekin bu yig’ilishlarning asosiy mohiyatini belgilamaydi.

Namoyish – bu ijtimoiy siyosiy norozilikning ochiq ko’rinishi bo’lib, namoyishchilarning u yoki bu masalalari bo’yicha ommaviy tarzdagi ochiq munosabatlardir. Namoyish asosan miting bilan boshlanadi va tamom bo’ladi.⁹

2017-yil 11-sentayabrdan O’zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to’g’risida”gi Qonuni qabul qilindi. Unda fuqarolarning murojaatlari huquqini belgilaydigan asosiy qoidalar, shuningdek, fuqarolarning murojaatlarini ko’rib chiqish muddati va tartibi belgilangan. Fuqarolarning murojaatlari mazmuniga ko’ra quyidagi shakllarda bo’ladi:

ariza – huquqlarni, erkinliklarni va qonuniy manfaatlarni amalgaga oshirishda yordam ko’rsatish to’g’risidagi iltimos bayon etilgan murojaat;

taklif – davlat va jamiyat faoliyatini takomillashtirishga doir tavsiyalarni o’z ichiga olgan murojaat;

shikoyat – buzilgan huquqlarni, erkinliklarni tiklash va qonuniy manfaatlarni himoya qilish to’g’risidagi talab bayon etilgan murojaat;


elektron murojaat – belgilangan tartibda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida berilgan, shu jumladan davlat organining, tashkilotning rasmiy veb-saytiga joylashtirilgan murojaat, real vaqt rejimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda berilgan og’zaki murojaatlar bundan mustasno¹.

Ariza yoki shikoyat masalani mazmunan hal etishi shart bo’lgan davlat organiga, tashkilotga yoki ularning mansabdor shaxsiga kelib tushgan kundan e’tiboran o’n besh kun ichida, qo’shimcha o’rganish va (yoki) tekshirish,

⁹ O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. –T.: “Moliya” 2002. –B.271-272.

¹ O’zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Qonuniga o’zgartish va qo’shimchalar kiritish haqida 11.09.2017 yildagi O’RQ-445-sonli Qonuni. // <https://lex.uz/docs/-3336169>

qo'shimcha hujjatlarni so'rab olish talab etilganda esa, bir oygacha bo'lgan muddatda ko'rib chiqiladi.



4.3. Huquq va erkinliklarning konstitutsiyaviy cheklanishi. Huquq va erkinlik kafolatlari

Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquq va erkinliklarini amalga oshirishni davlat tomonidan ta'minlashga yordam beradigan vositalar, usullar va shart-sharoitlar majmui kafolat hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 43-moddasiga ko'ra, "Davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi"¹.

Kafolatlashning asosiy maqsadi – fuqarolarning huquq va erkinliklarini amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan to'siqlarni bartaraf etish bilan bog'liq bo'lgan majburiyatlarning bajarilishini ta'minlashdir. Umuman olganda, "kafolat" so'zining lug'aviy ma'nosi – mas'uliyatni, javobgarlikni o'z zimmasiga olgan holda ishontirish, ta'minlashni anglatadi.

Kafolatlarni mazmunan quyidagicha turkumlash mumkin:

¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: "O'zbekiston", 2020. –B.16.

- 1) yuridik (huquqiy);
- 2) ijtimoiy-siyosiy (mafkuraviy);
- 3) ijtimoiy-iqtisodiy (moddiy)¹.

Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlashda **yuridik kafolatlar** alohida o'rIN tutib, boshqa barcha kafolat turlari yuridik jihatdan tartibga solinishi taqozo etiladi. Yuridik kafolat fuqarolar huquq va erkinliklarining qonunlar asosida huquqiy jihatdan kafolatlanishidir. Yuridik kafolatlarning real amalga oshishi faqat demokratik rejim sharoitida kuzatiladi.

Tayanch iboralar:

1. erkinlik,
2. shaxsiy daxlsizlik,
3. xalqaro huquq,
4. inson huquqlari,
5. majburiyat,
6. teng huquqlilik,
7. shaxsiy huquq va erkinliklar,
8. siyosiy huquq va erkinliklar,
9. iqtisodiy,
10. ijtimoiy va madaniy huquq,
11. vijdon erkinligi,
12. miting,
13. ariza

O'z- o'zini nazorat qilish uchun savollar:

1. Shaxsning aybsizlik prezumpsiysi O'zbekiston Konstitutsiyasining qaysi moddasida mustahkamlangan va qaysi qonunlar asosida amalga oshirilishi belgilangan?
2. O'zbekistonda fuqarolarning konstitutsiyaviy sha'ni va qadr-qimmati tavsifini

¹ Qarang: Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq: darslik. To'ldirilgan va qayta ishlangan ikkinchi nashr. –T.: "Yuridik adabiyotlar publish", 2020. –B.138.

ifodalab bering.

3. O'zbekiston fuqarolarining ko'chib yurish huquqi qaysi konstitutsiyaviy huquq turiga kiradi?
4. O'zbekiston fuqarolarining konstitutsiyaviy-huquqiy vijdon erkinligini tartibga soluvchi me'yirlarni ta'riflab bering?
5. Fuqarolarning siyosiy huquqlariga qaysi huquqlar kiradi?
6. Fuqarolar jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda qanday usullardan foydalananashadilar?
7. Fuqarolar murojaatlarining qanday shakllari mavjud?
8. Siyosiy partiyalar tuzish tartibi qanday?
9. Fuqarolar murojaatlarini ko'rib chiqish muddati qancha?
10. Fuqarolar necha yoshdan aktiv saylov huquqiga ega bo'ladi?
11. O'zbekistonda qanday mulk shakllari mavjud?
12. O'zbekistonda mehnat munosabatlari tartibga soluvchi qonunlarni sanab bering?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O'zbekiston” NMIU, 2020. –80 b.
2. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. //<https://constitution.uz/>
3. O'zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida 11.09.2017 yildagi O'RQ-445-sonli Qonuni. // <https://lex.uz/docs/3336169>
4. O'zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida” 05.07.2021 yildagi O'RQ-699-sonli Qonuni. // <https://lex.uz/docs/5491534>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqi. //“Xalq so'zi” gazetasi, 2020 yil 24 sentyabr, №202 (7704)
6. Rustamboyev M.X., Axmedov D.Q., Xidirov S.M., Bekov I.R. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish. –T.: “Yangi asr avlod”, 2005. –400 b.
7. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. –T.: “Moliya”, 2002. –645 b.
8. Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq: darslik. To'ldirilgan va qayta

- ishlangan ikkinchi nashr. –T.: “Yuridik adabiyotlar publish”, 2020. –400 b.
9. Mirakulov M. Inson manfaatlari hamma narsadan ustun. //Huquq va burch, №5, 2018. -B.13.
 10. Saidov A. Karvon yo’li. //Ma’naviy hayot, №3, 2019. –B.8.
 11. Jasliqning yopilishini xalqaro hamjamiyat qanday qabul qilmoqda. //<http://uza.uz/oz/politics/zhasli-ning-yepilishini-khal-aro-amzhamiyat>
 12. Inson huquqlari bo'yicha Samarqand forumi: Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiya loyihasi muhokamada. // <http://uza.uz/oz/society/inson>
 13. O'zbekiston ilk bor BMTning Inson huquqlari bo'yicha Kengashiga a'zo bo'ldi. //<https://www.gazeta.uz/oz/2020/10/14/humanrights/>
 14. Shirinov A. Q. The fulfilment of the commitments of sustainable development goals' in the 21st century //Academic research in educational sciences. – 2021. – T. 2. – №. 6. – C. 1144-1153.

5-Mavzu: FUQAROLARNING KONSTITUTSIYAVIY BURCHLARI

5.1. Konstitutsiya va qonunlarga rioya etish. Boshqalarning huquq va erkinliklarini hurmat qilish

Huquq shaxsga tabiat, jamiyat, davlat tomonidan beriladigan o'z harakatining turi va me'yorini tanlab olish imkoniyati bo'lsa, **burch** jamiyat va davlat tomonidan belgilangan va huquqiy normalarda o'z aksini topgan talablarni bajarish zaruriyatidir. Bundan tashqari, burchning o'ziga xos jihatlari bo'lib, ular quyidagilarda namoyon bo'ladi. Burch asosan qoidalardan, axloqiy normalardan kelib chiqadi, **majburiyat** esa, aksar hollarda shartnoma va bitimlardan kelib chiqadi; burch shaxs tug'ilgandan to umrining oxiriga qadar davom etadi, majburiyat esa shartnomaning amal qilish davrigacha bo'ladi. Shuningdek, burch davlat va jamiyat tomonidan belgilanib, uning bajarilishi talab etiladi. Burch va majburiyat bajarilmagan taqdirda ko'rildigan chora-tadbirlar turlichadir. Burch bajarilmaganda huquqiy ta'sir choralar qo'llaniladi. Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, “Xalqimizda “Qars ikki qo'ldan chiqadi”, degan maqol bor. Agar o'ylab qarasak, bu maqol Konstitutsiyamiz normalariga ham to'la mos keladi. Ya'ni Asosiy qonunimizda fuqarolarning huquq va erkinliklari bilan birga,

ularning burch va majburiyatlari ham aniq belgilab qo'yilgan”¹.

Fuqarolarning asosiy burchlari Konstitutsiya va boshqa qonunlarda o'z ifodasini topgan bo'lib, ularda fuqarolar Konstitutsiyaga rioya qilish bilan birga, undagi har qanday qoidalar buzilishining oldini olishi, boshqa shaxslarning qadr-qimmatini hurmat qilishga majbur ekanligi o'z ifodasini topgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 47-moddasiga ko'ra, “Barcha fuqarolar Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan burchlarni bajaradilar”.

Fuqarolar burchlari quyidagilardan iborat:

Konstitutsiya va qonunlarga rioya etish

boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni
va qadr-qimmatini hurmat qilish

O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va
madaniy merosini avaylab-asrash

atrof tabiiy muhitga ehtiyojkorona munosabatda
bo'lish

qonun bilan belgilangan soliqlar va yig'implarni
to'lash

Vatanni himoya qilish

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 48-moddasiga ko'ra, “Fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdirlar”².

Konstitutsiya va qonunlarga rioya etish majburiyati huquqiy munosabatlarning barcha subyektlari uchun umumiy, universal talabdir. Buning ma'nosi shundaki, har bir inson, har bir fuqaroda hayot va faoliyatining barcha jabhalarida huquqqa muvofiq xatti-harakat qilishdek ichki ruhiy hissiyot, e'tiqod mavjud bo'lishi nazarda tutiladi.

Konstitutsiya va qonunlarga rioya etish – nafaqat ularning qoidalarni

¹Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. –T.: “O'zbekiston”, 2020. –B. 113.

²O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O'zbekiston”, 2020. –B.17.

buzmaslik, balki fuqarolarning o’z faoliyati, hayot tarzi bilan konstitutsiyaviy prinsip va asoslarni, qonunchilik normalarini real voqelikka aylantirishga ko’maklashishlari demakdir¹.

Har bir inson o’z sha’ni va qadr-qimmatiga egaki, ularga qilingan tajovuz bevosita insonning jamiyatda tutgan o’rniga, uning ruhiyatiga, xullas, uning turmush tarziga o’z ta’sirini o’tkazmay qolmaydi. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 27-moddasida ‘Har kim o’z sha’ni va obro’siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalanish va turar joy daxlsizligi huquqiga ega”ligi mustahkamlab qo’yilgan².

Sha’n – jamiyatning shaxsga bergen bahosi bo’lib, jamiyat a’zosi sifatida shaxs ijtimoiy-ma’naviy jihatlarining o’lchovidir. Jamiyatning shaxsga bahosi to’g’ridan-to’g’ri fuqaroning o’ziga bog’liqdir, chunki uning shaxsi davlatga va jamiyatga, o’zini o’rab turgan insonlarga munosabati hamda ba’zi bir harakatlari va umumiyligi faoliyati asosida shakllanadi. Bu inson faoliyatining ijtimoiy hayotdagi o’rni va samarali faoliyatining foydaliligiga bog’liq, chunki mazkur sifat uning barcha xususiyatlarini aks ettiradi³.

Qadr-qimmat – shaxsning jamoadagi o’rniga, shaxsiy xususiyatlariga, qobiliyatiga, dunyoqarashiga qarab o’zini o’zi ichki baholashdir. Har bir inson o’zining jamiyatdagi tutgan o’rnini anglab yetadi. Qadr-qimmat deganda, odatda, inson va uning ma’naviy hamda aqliy xislatlari, uning obyektiv va subyektiv jihatlari, jamiyatdagi obro’si, nufuzi, donishmandligi, ma’naviyati, fe’l-atvori, bilim darajasi kabilar tushuniladi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, “qadr-qimmat” tushunchasida obyektiv va subyektiv jihatlar mavjud bo’lib, ularning yig’indisi bo’yicha yagona yaxlitlikni tashkil etadigan quyidagi xususiyatlarga ajratish mumkin:

- 1) insonning qadr-qimmati (shaxsning xislatlari qandayligidan qat’i nazar, uning ma’lum qadrga egaligi);
- 2) shaxsiy qadr-qimmat (muayyan shaxsning ijobiy, ruhiy va jismoniy

¹ Odilqoriyev X.T. Konstitutsiya va barkamol jamiyat orzusi. – T.: “O‘qituvchi”, 2012. –B. 107.

² O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O’zbekiston”, 2020. –B.12.

³ Ikramov Sh.T. Konstitutsiyaviy huquq: Darslik. –T.: “O’zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi”, 2014. –B.259.

xislatlarga egaligi bilan bog'liq qadr-qimmat);

3) ma'lum ijtimoiy jamoaga mansublik bilan bog'liq qadr-qimmat (olimlarning qadr-qimmati, milliy qadr-qimmat, ayolning qadr-qimmati, mansabdor shaxsning qadr-qimmati va hokazo)¹.

Tuhmat qilish deganda, bila turib boshqa shaxsni sharmanda qiladigan uydirmalar tarqatish, nashr qilish yoki boshqacha usulda ko'paytirilgan matnda ommaviy axborot vositalari orqali tuhmat qilish shakllari tushuniladi.

Haqorat qilish, ya'ni shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini beodoblik bilan qasddan tahqirlash nashr qilish yoki boshqacha usulda ko'paytirilgan matnda yoxud ommaviy axborot vositalari orqali amalga oshirilishi mumkin. Kishilarning sha'ni va qadr-qimmatini pastga uradigan, uning obro'siga putur yetkazadigan g'ayriqonuniy harakatlar uchun yuridik choralar, ya'ni sud orqali hal qilinishi belgilangan.

O'zining sha'ni, qadr-qimmati yoki ishchanlik obro'siga putur yetkazuvchi ma'lumotlar tarqatilgan fuqaro bunday ma'lumotlar rad etilishini, shuningdek, ularni tarqatish oqibatida yetkazilgan zararlar va ma'naviy ziyoning o'rnnini qoplashni talab qilishga haqlidir.

5.2. Atrof tabiiy muhitga ehtiyyotkorona munosabatda bo'lish

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasiga ko'ra, "**Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar**"².

Konstitutsiyamiz tarixda sinalgan umumbashariy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan. Jumladan, eng qadimgi tarixiy-huquqiy manbalardan biri zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto"da ta'kidlanishicha, bizning ajdodlarimiz to'rtta element – yer, suv, olov va havoni muqaddas hisoblab, ularni himoya qilganlar. Atrof muhitga ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo'lib, uni har qanday tajovuzdan himoya qilganlar. Bu bashariy qadriyatlar Konstitusiyamizning

¹ Saidov B. A. Dastlabki tergovda shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish. –T., 2004. –B.7.

² O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: "O'zbekiston", 2020. –B.17.

sharhanayotgan 50-moddasida ham o’z aksini topgan.

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev: “Davrimizning o’tkir muammolaridan yana biri – global iqlim o’zgarishlaridir. Bugungi kunda har bir mamlakat bu jarayonning salbiy ta’sirini his etmoqda. Ming afsuski, bunday o’zgarishlar Markaziy Osiyo taraqqiyotiga ham katta xavf tug’dirmoqda”¹, – deb ta’kidlaydi. Zero, jamiyatimiz barcha a’zolarining yuksak mas’uliyat laridan biri – tabiat boyliklarini saqlash va ulardan oqilona foydalanish, tabiatni muhofaza qilish vazifasidir.

Respublikamizda qabul qilingan “Tabiatni muhofaza qilish to’g’risida”gi qonun (1992-yil 9-dekabr), “Suv va suvdan foydalanish to’g’risida”gi qonun (1993-yil 6-may), “Yer osti boyliklari to’g’risida”gi qonun (2002-yil 13-dekabr), “Atmosfera havosini muhofaza qilish to’g’risida”gi qonun (1996-yil 27-dekabr), “O’simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to’g’risida”gi qonun (2016-yil 21-sentabr), “Ekologik ekspertiza to’g’risida”gi qonun (2000-yil 25-may), “Chiqindilar to’g’risida”gi qonun (2002-yil 5-aprel), “Ekologik nazorat to’g’risida”gi qonun (2013-yil 27-dekabr), Yer kodeksi (1998-yil 30-aprel), O’zbekiston Respublikasi Havo kodeksi (1993-yil 26-iyun) kodekslar fuqarolarga tabiatni muhofaza qilishda alohida majburiyat yuklaydi.

Tabiatni muhofaza qilishdan maqsad quyidagilardan iborat:

- inson salomatligi uchun, ekologik muvozanatni saqlash uchun, respublikani samarali va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish manfaatlari yo’lida tabiatdan oqilona va uni ishdan chiqarmaydigan qilib foydalanish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;
- jonli tabiatning turlari va genetik fondi boyligini saqlab qolish;
- ekologiya tizimlari, landshaftlar va noyob tabiat obyektlari xilma-xilligini saqlab qolish;
- ekologiya xavfsizligini ta’minlash;
- tabiat obyektlari bilan bog’liq madaniy merosni asrab qolishdir.

¹ O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqi. //“Xalq so’zi” gazetasi, 2020 yil 24 sentyabr, №202 (7704)

5.3. Soliq va yig’imlarni to’lash

O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 51-moddasiga ko’ra, “*Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig’imlarni to’lashga majburdirlar*”¹. Fuqarolarning konstitutsiyaviy burchlaridan biri ularning qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig’imlarni to’lash majburiyatidir.

Soliqlar deganda, muayyan miqdorda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg’araz xususiyatga ega bo’lgan, budgetga yo’naltirilgan majburiy pul to’lovleri tushuniladi.

Boshqa majburiy to’lovlar deganda, Soliq kodeksida belgilangan davlat maqsadli jamg’armalariga majburiy pul to’lovleri, bojxona to’lovleri, shuningdek vakolatlari organlar hamda mansabdor shaxslar tomonidan yuridik ahamiyatga molik harakatlarni to’lovchilarga nisbatan amalga oshirish uchun, shu jumladan muayyan huquqlarni yoki litsenziyalar va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarni berish uchun to’lanishi lozim bo’lgan yig’imlar, davlat boji tushuniladi.

O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining ma’lumotlariga qaraganda, davlat budgeti daromadlarining asosiy qismini soliqlar va majburiy to’lovlar tashkil etadi. Soliqlar O’zbekiston Respublikasi qonunchiligi va davlat hokimiyatining mahalliy organlari tomonidan belgilangan, hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi yig’imlardir. Soliq bilan bog’liq bo’lgan huquqiy munosabatlar 2019-yil 12-dekabrda qabul qilingan va 2020-yil 1- yanvardan kuchga kirgan O’zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi bilan tartibga solinadi. O’zbekiston Respublikasi hududida quyidagi soliqlar va boshqa majburiy to’lovlar amal qiladi.

O’zbekiston Respublikasi hududida quyidagi soliqlar belgilanadi:

- 1) qo’shilgan qiymat solig’i;
- 2) aksiz solig’i;
- 3) foyda solig’i;
- 4) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig’i;
- 5) yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

¹ O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O’zbekiston”, 2020. –B.17.

- 6) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- 7) mol-mulk solig'i;
- 8) yer solig'i;
- 9) ijtimoiy soliq¹.

5.4. Vatanni himoya qilish

Ko'p hollarda vatanni himoya qilish, harbiy va muqobil xizmatni o'tash bitta burch deb qaraladi. Aslida ular boshqa-boshqa burch. Masalan, vatanni himoya qilish barcha fuqarolarga tegishli, doimo bo'lsa, harbiy xizmatni o'tash shu ishga yaroqli fuqarolarga tegishli bo'lib, u ma'lum vaqt doirasi bilan ham chegaralanadi².

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 52-moddasiga ko'ra, **“O'zbekiston Respublikasini himoya qilish – O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majburdirlar”³.**

Har bir fuqaro O'zbekiston Respublikasi manfaatlarini har tomonlama himoya qilish, uning qudratini va obro'-e'tiborini mustahkamlash uchun barcha choralarни ko'rishi lozim. Bundan ko'zda tutilgan asosiy maqsad – davlat mustaqilligini, uning hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayot kechirishini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirishdan iborat.

Mamlakatning taraqqiyoti, xavfsizligi, fuqarolar xavfsizligi mamlakatning mustaqilligiga bog'liq bo'lsa, mustaqillikni saqlash vositalaridan biri – vatanni himoya qilish burchining to'la bajarilishi hisoblanadi.

Harbiy xizmatni o'tash burchi ham vatanni himoya qilishni maqsad qilib qo'ysa-da, bu burchlarni bajarish shartlari alohida qonunlarda belgilab qo'yiladi. O'zbekiston Respublikasining “Mudofaa to'g'risida”gi, “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida”gi qonunlari bu burchlarni o'tash sharoitlarini belgilaydi.

¹ O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. //QMMB, 31.12.2019 y., 02/19/SK/4256-son. // <https://lex.uz/docs-4674902>

² Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq: darslik. To'dirilgan va qayta ishlangan ikkinchi nashr. – T.: “Yuridik adabiyotlar publish”, 2020. -B.151.

³ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O'zbekiston”, 2020. –B.

O'zbekiston Respublikasining 2002 yil 12 dekabrdagi "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra, harbiy xizmat O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining Qurolli Kuchlar safida umumiy harbiy majburiyatni bajarish borasidagi davlat xizmatining alohida turidir.

Harbiy xizmatning quyidagi turlari joriy etiladi:

- muddatli harbiy xizmat;
- safarbarlik chaqiruvi rezervidagi harbiy xizmat;
- kontrakt bo'yicha harbiy xizmat;
- O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida harbiy xizmatni o'tagan rezervchilar xizmati.

Tinchlik davrida oddiy askarlar va serjantlar tarkibi lavozimlarida muddatli harbiy xizmatga, shuningdek safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatga o'n sakkiz yoshdan yigirma yetti yoshgacha bo'lgan, salomatligiga ko'ra Qurolli Kuchlar safida harbiy xizmatni o'tashga yaroqli erkak fuqarolar chaqiriladilar¹.

Muddatli harbiy xizmat chaqirilish yoshidagi fuqarolarning oddiy askarlar va serjantlar tarkibi lavozimlarida, shuningdek muqaddam harbiy xizmatni o'tamagan ofitsyerlarning qonun hujjatlarida belgilangan muddat mobaynida Qurolli Kuchlar safidagi majburiy xizmatidir. Muddatli harbiy xizmat muddati kalendar hisobida o'n ikki oy etib belgilanadi. Muddatli harbiy xizmatni o'tash tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Tayanch iboralar:

1. burch,
2. majburiyat,
3. huquqiy munosabat,
4. axloqiy norma,
5. sha'n,
6. qadr-qimmat,
7. tuhmat,
8. haqorat,
9. tabiat,

¹ O'zbekiston Respublikasining "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida" 12.12.2002 yildagi 436-II-sonli Qonuni. //https://lex.uz/ru/docs/-78717

10. ekologiya xavfsizligi,
11. soliq,
12. majburiy to'lov,
13. harbiy xizmat,
14. Qurolli Kuchlar

O'z- o'zini nazorat qilish uchun savollar:

1. Burch nima, nima uchun u asosiy yoki oddiy bo'ladi?
2. Nima uchun Konstitutsiya va qonunlarga rioxat etilishi shart?
3. Kishilarning huquqlari va erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish nima degani?
4. Tarixiy ma'nnaviy va madaniy meroslarni avaylab saqlash nima uchun zarur?
5. Atrof-muhitga ehtiyojkorona munosabatda bo'lish nima uchun zarur?
6. Soliq va yig'imlar to'lash burchining ahamiyati nimada?
7. Harbiy xizmat o'tash burchi kimlarga taalluqli?
8. Konstitutsiyada ko'rsatilgan burchlarni bajarmaslik qanday oqibatlarga olib keladi?
10. Sud hokimiyatining inson va fuqaro huquq va erkinliklari ta'minlashda o'rmini aytin?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O'zbekiston” NMIU, 2020. –80 b.
2. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. //QMMB, 31.12.2019 y., 02/19/SK/4256-son. // <https://lex.uz/docs/-4674902>
3. O'zbekiston Respublikasining “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida” 12.12.2002 yildagi 436-II-sonli Qonuni. //<https://lex.uz/ru/docs/-78717>
4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. –T.: “O'zbekiston”, 2020. –455 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqi. //“Xalq so'zi” gazetasi, 2020 yil 24 sentyabr, №202 (7704)
6. Odilqoriyev X.T. Konstitutsiya va barkamol jamiyat orzusi. – T.: “O'qituvchi”, 2012. –259 b.
7. Ikramov Sh.T. Konstitutsiyaviy huquq: Darslik. –T.: “O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi”, 2014. –661 b.
8. Saidov B. A. Dastlabki tergovda shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish. –T., 2004. –B.7.
9. Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq: darslik. To'ldirilgan va qayta ishlangan ikkinchi nashr. – T.: “Yuridik adabiyotlar publish”, 2020. -400 b.

6-Mavzu: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA FUQAROLIK

6.1. Shaxsning konstitutsiyaviy maqomi

Konstitutsiyaviy huquqda shaxs huquqiy maqomi masalasi markaziy masalalardandir. O'zbekiston Konstitutsiyasida shaxs huquqiy maqomiga, taalluqli yetarli darajada normalar mavjud.

Shaxs huquqiy maqomini qanday bo'lishligiga eng avvalo avval ham qayd qilingan Konstitutsianing 13-moddasidagi qoidalar ta'sir etadi. Bu shaxs huquqiy holatini belgilashda bosh prinsip qoidadir. Ularga asosan inson, uning huquq va erkinliklari oliy qadriyat hisoblanadi. Inson va shaxs tushunchalari asosan bir ma'noni berishini nazarda tutsak bu qoida insonga ham taalluqlidir.

Shaxsning huquqiy maqomi deganda shaxsning huquqlari, erkinliklari, burchlari yig'indisiga aytildi. Har bir jamiyatda shaxs bilan davlat o'rtasida o'rnatilgan munosabat, shaxs huquqiy maqomiga ta'sir qilsa, boshqa tomondan shaxs huquqiy maqomi ham shaxs, davlat munosabatiga ta'sir qiladi.

Shaxsning huquqiy holati masalasida uning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari hamda burchlari darjasini miqdori muhim rol o'ynaydi. Shuningdek shaxs huquqiy holatini aniqlashda fuqarolik masalasi alohida ahamiyatga ega.

Bu masalalar O'zbekiston Konstitutsiyasida yetarlicha tartibga solingan.

Shaxs huquqiy holati ahvoli O'zbekistonda qanday holatda ekanligini Konstitutsianing V bobi (Umumiy qoidalar) moddalaridagi qoidalar ko'rsata oladigan Konstitutsianing 18-moddasida "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklariga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar qonun oldida tengdirlar"¹ – deb belgilangan. Bu shaxsning (birinchi navbatda shaxs fuqarodir) mavqeyini, tengligini ta'minlovchi asosiy huquqiy normadir. Shaxs tengligi bu yerda qonun oldidagi tenglik asosida qaralmoqda. Har bir kishini qonun oldida tengligi adolat prinsipini o'zagidir.

Shaxsning qonun oldida tengligiga hech qanday holat (bu holatlar

¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: "O'zbekiston", 2020. –B.9.

konstitutsiya normasida sanab o'tilgan) ta'sir qila olmaydi. Qonun oldida tenglik shaxsni huquq, erkinliklardan foydalanishda ham teng ekanligini, shuningdek burchlarni bajarishda ham tenglik bo'lishini nazarda tutadi. Demak bu norma shaxsning huquqiy holatini belgilashda asosiy o'lchovdir.

Shu bilan birga jamiyat va davlatning insonparvarlik mohiyatidan kelib chiqib konstitutsianing o'zida adolat prinsiplariga mos ravishda ayrim shaxslarga imtiyozlar belgilanishi ham ko'rsatib qo'yilgan. Bunda imtiyozlar faqat qonun asosida bo'lishi alohida qayd qilinadi (18-moddaning ikkinchi xatboshisi).

Imtiyozlarni qonun asosida bo'lishi, ijtimoiy adolat prinsiplariga mos tushishi esa, mamlakatda yashovchi, yordamga muhtoj, jismoniy jihatdan zaif toifali kishilargina imtiyoz berilishini nazarda tutadi. Konstitutsiyaga asosan qonuniy asosda O'zbekistonda ayollar, bolalar, nogironlar, yolg'iz qariyalar imtiyozga ega bo'lib, bu imtiyoz asosan iqtisodiy jihatdan qo'llaniladi.

Shaxsning huquqiy holati huquqlar va erkinliklar hamda burchlar yig'indisidir. Bu masalani ya'ni huquq va burchlarni o'zaro bog'liqliligi konstitutsianing 19-moddasi qoidalariда ham ko'rish mumkin. Unda qayd qilinishiga fuqarolar va davlat bir biriga nisbatan bo'lgan huquqlari va burchlari bilan o'zaro bog'liqdirlar. Ya'ni fuqaro huquqga ega bo'lsa uni ta'minlash burchi davlatda bo'ladi. Fuqarolarni konstitutsiyaviy burchlarga ega bo'lishi esa, davlatni fuqarolardan shu burchlarga amal qilishini talab qilish huquqini keltirib chiqaradi.

Konstitutsianing shu moddasi qoidalari yana fuqarolarning konstitutsiya va qonunlarda belgilab qo'yilgan huquqlarini daxlsiz ekanligini, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishiga hech kim haqli emasligini belgilaydi.

Fuqarolarning konstitutsiyaviy va boshqa qonuniy huquqlari daxlsizligi konstitutsiyaviy asosda belgilangan. Demak, ulardan mahrum qilishga, cheklashga hech kimni haqi yo'q. Faqat konstitutsiya bunga ya'ni fuqarolar huquqini cheklashga sudga ruxsat beradi. Cheklash qonuniy, asosli bo'lishi kerak, bu sud qarorida asoslantirilishi zarur.

Konstitutsianing 20-moddasida "Fuqarolar o'z huquq va erkinlarini amalga

oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatini qonuniy manfaatlari, huquqlari va erkinliklariga putur yetkazmasligi shart”¹ – deb mustahkamlangan.

6.2. Fuqarolik tushunchasi. Yagona fuqarolik. Fuqarolarning tengligi.

Fuqarollikka ega bo’lish asoslari

Fuqarolik – bu jismoniy shaxsning ma’lum bir davlatga mansubligini anglatib, ushbu fuqaroning tegishli davlat bilan doimiy ravishda huquqiy aloqadorlikda bo’lib turishini bildiradi. Bunda fuqaro shu davlat tomonidan belgilangan huquq va burchlarni amalga oshiradi, davlat esa fuqaroni har yerda va har vaqt himoya qiladi. Mazkur huquqiy aloqadorlik fuqaroning tug'ilganida yuzaga kelib, uning butun umri davomida saqlanib qoladi².

Birinchi bo’lib “Fuqaro” atamasi Fransuz revolyusiyasining 1799 yildagi “Inson va fuqaro huquqlari Deklaratsiyasi”da ko’rsatilgan edi. Dunyo mamlakatlarida hozir bir fuqarolik va ko’p fuqarolik (bipatriid) mavjud bo’lib, masalan, Rossiya, Braziliya kabi davlatlarda ko’p fuqarolikka asoslanadi.

O’zbekiston Konstitutsiyasining 21-moddasiga ko’ra O’zbekiston Respublikasining butun hududida yagona fuqarolik o’rnataladi va u barcha uchun tengdir. Qoraqalpog’iston Respublikasining fuqarosi ayni vaqtda O’zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanadi³.

¹ O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O’zbekiston”, 2020. –B.9-10.

² Rustamboyev M.X, Ahmedov D.Q, Xidirov S.M, Bekov I.R. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o’rganish. –T.: “Yangi asr avlod”, 2005. –B.93.

³ O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O’zbekiston”, 2020. –B.10.

Jahon amaliyotida fuqarolikni qabul qilishning asosiy ko‘rinishlari:

tug‘ilish orqali (filiatsiya)

fuqaroligi bo‘lmagan yoki chet davlat fuqarosi bo‘lgan shaxsni fuqarolikka qabul qilinishi (naturalizatsiya)

xalqaro shartnomalar va qonunlarda belgilangan tartibda fuqarolikni tiklash (reintegratsiya)

davlatlarni bo‘linib ketishi oqibatida fuqarolikni tanlash (optatsiya)

hududiy o‘zgarishlar vaqtida avtomatik tarzda fuqarolikning o‘zgarishi (transfert)

O‘zbekiston Respublikasida har bir shaxs fuqaro bo‘lish huquqiga egadir. Hech kim fuqarolikdan yoki fuqarolikni o‘zgartirish huquqidan mahrum qilinishi mumkin emas. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma to’qqiz yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimdagи nutqiga shunday degan edi: “Inson huquqlarining eng muhim sharti bo‘lgan shaxsning fuqaroligini tiklash bo‘yicha ham salmoqli qadamlar qo‘yildi. Ko‘p yillar davomida yurtimizda yashab kelayotgan bo’lsa-da, fuqarolik ololmay yurgan, bu yuksak maqomni uzoq vaqt intiqib kutgan 50 mingdan ziyod kishiga O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi berildi”⁴.

Fuqarolikni olishni eng asosiy ko‘rinishi tug‘ilish orqali fuqarolikka qabul qilinish bo‘lib, bu o‘z navbatida ikkiga bo‘linadi:

“Qon huquqi” (jus sanguinus) asosida chaqaloqning fuqaroligi ota-onasining fuqaroligi bilan belgilanib, tug‘ilgan joyiga bog’lanmaydi.

⁴ Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma to’qqiz yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimdagи nutqi. // “Xalq so‘zi” gazetasи, 2020 yil 1 sentyabr, №186 (7688).

“Tuproq huquqi” (jus soli) asosiga ko’ra, fuqarolik chaqaloqning tug’ilgan joyidan kelib chiqib, uning ota-onasi fuqaroligi bilan bog’liq bo’lmaydi¹.

O’zbekiston Respublikasida ham tug’ilish orqali fuqarolikni olishni “qon huquqi”ga asoslanadi, ya’ni 2020 yil 13 martda qabul qilingan **“O’zbekiston Respublikasining fuqaroligi to’g’risida”gi** qonunining 14-moddasiga binoan bola o’zining tug’ilgan joyidan qat’i nazar, agar tug’ilgan paytida:

- a) ota-onasi (yolg’iz otasi yoki onasi) O’zbekiston Respublikasi fuqarolari bo’lsa;
- b) uning ota-onasidan biri O’zbekiston Respublikasi fuqarosi, boshqasi esa fuqaroligi bo’lman shaxs bo’lsa yoki bedarak yo’qolgan deb topilgan yoxud uning turgan joyi noma’lum bo’lsa;
- v) uning ota-onasidan biri O’zbekiston Respublikasi fuqarosi, boshqasi esa chet davlat fuqarosi bo’lsa, tug’ilganlik bo’yicha O’zbekiston Respublikasi fuqaroligini oladi².

O’zbekiston Respublikasining fuqaroligi quyidagi hollarda olinadi:

tug’ilganlik bo’yicha

bola farzandlikka olinganda

O’zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilish va uni tiklash natijasida

O’zbekiston Respublikasining fuqaroligi O’zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida va ushbu Qonunda nazarda tutilgan boshqa asoslarga ko’ra ham olinishi mumkin.

¹ Rustamboyev M.X, Ahmedov D.Q, Xidirov S.M, Bekov I.R. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o’rganish. –T.: “Yangi asr avlod”, 2005. –B.94.

² O’zbekiston Respublikasining “O’zbekiston Respublikasining fuqaroligi to’g’risida” 13.03.2020 yildagi O’RQ-610-soni. //https://lex.uz/docs/4761984

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilish:

- umumiy tartibda;
- soddalashtirilgan tartibda;
- alohida tartibda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilishning umumiy tartibi chet davlat fuqarosiga yoki fuqaroligi bo'limgan shaxsga nisbatan quyidagi hollarda amalga oshiriladi, agar u:

- a) chet davlat fuqaroligidan chiqishni rasmiylashtirgan bo'lsa;
- b) fuqaroligi bo'limgan shaxsga yashash guvohnomasi olingan kundan e'tiboran va O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilish to'g'risidagi iltimosnomaga bilan murojaat qilgan kunga qadar O'zbekiston Respublikasi hududida uzluksiz besh yil davomida doimiy yashab kelayotgan bo'lsa;
- v) tirikchilikning qonuniy manbaiga ega bo'lsa;
- g) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga rioya etish majburiyatini o'z zimmasiga olsa;
- d) davlat tilini muloqot qilish uchun zarur darajada bilsa. Davlat tilini bilish darajasini aniqlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilishning soddalashtirilgan tartibi chet davlat fuqarosi bo'lgan yoki fuqaroligi bo'limgan shaxs hisoblangan vatandoshga nisbatan quyidagi hollarda amalga oshiriladi, agar u:

- a) O'zbekiston Respublikasi hududida yashaydigan va O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan, nasl-nasab shajarasi bo'yicha to'g'ri tutashgan loaqlal bitta o'zidan oldingi qarindoshga ega bo'lsa;
- b) tirikchilikning qonuniy manbaiga ega bo'lsa;
- v) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga rioya etish majburiyatini o'z zimmasiga olsa;
- g) davlat tilini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda muloqot qilish uchun zarur darajada bilsa.

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga muvofiq ariza beruvchi chet davlat fuqaroligidan chiqqanligi haqida hujjat taqdim etganidan keyin amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligini bir martadan ortiq tiklashga yo'l qo'yilmaydi.

6.3. Fuqarolikni yo'qotish. Fuqarolar huquqlarini himoya qilish

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi quyidagi hollarda yo'qotiladi:

a) shaxs chet davlatning harbiy xizmatiga, xavfsizlik organlariga, huquqni muhofaza qiluvchi organlariga, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlariga xizmatga kirganligi oqibatida;

b) agar xorijda doimiy yashovchi shaxs yetti yil mobaynida uzrli sabablarsiz doimiy konsullik hisobiga turmagan bo'lsa;

v) agar O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish bila turib yolg'on ma'lumotlar yoki soxta hujjatlarni taqdim etish natijasida amalga oshirilgan bo'lsa;

g) agar shaxs chet davlatning foydasini ko'zlab faoliyat ko'rsatgan holda yoki tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar sodir etish yo'li bilan jamiyat hamda davlat manfaatlariga jiddiy zarar yetkazgan bo'lsa;

d) agar shaxs ixtiyoriy ravishda chet davlatning fuqaroligini olgan bo'lsa;

e) agar shaxs chet davlatning fuqaroligini tug'ilganlik bo'yicha yoxud chet davlat fuqarosi bo'lgan otasining yoki onasining fuqaroligi asosida, voyaga yetmagan yoshida olgan bo'lsa va yigirma bir yoshga to'lguniga qadar chet davlat fuqaroligidan chiqishni rasmiylashtirmagan bo'lsa. Shaxsning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo'qotganligi uning erining (xotinining) va farzandining (bolalarining) fuqaroligi o'zgarishiga sabab bo'lmaydi.

6.4. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lмаган шахсларнинг хукуқиётини холати

2021-yil 4-iyundagi "O'zbekiston Respublikasining O'zbekiston Respublikasida chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo'lмаган шахсларнинг

huquqiy holati to'g'risida"¹gi Qonuniga asosan O'zbekiston Respublikasi hududidagi chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo'limgan shaxslarning huquq va erkinliklari xalqaro huquq normalariga muvofiq ta'minlanadi. Shuningdek ular O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va xalqaro shartnomalari bilan belgilangan majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi.

O'zbekiston Respublikasi hududidagi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslar jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining qonuni oldida tengdirlar¹.

O'zbekiston Respublikasi hududida vaqtincha turgan, boshqa davlatlar hududida doimiy yashaydigan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslar o'z tanloviga ko'ra o'zining amaldagi harakatlanish hujjatlari bo'yicha joylashtirish joylarida yoki boshqa uy-joy maydonida, shuningdek davolash muassasalarida vaqtincha yashashi mumkin. O'zbekiston Respublikasi hududida vaqtincha turgan, boshqa davlatlar hududida doimiy yashaydigan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslar vaqtincha turgan joyi bo'yicha ro'yxatdan o'tadi.

Boshqa davlatlar hududida doimiy yashaydigan chet el fuqarolarini va fuqaroligi bo'limgan shaxslarni O'zbekiston Respublikasi hududidagi vaqtincha turgan joyi bo'yicha ro'yxatga olish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida turgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslar o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalanish, turar joyi daxlsizligi huquqiga ega. Hech kim O'zbekiston Respublikasining qonunida nazarda tutilgan hollardan va tartibdan tashqari birovning turar joyiga kirishi, tintuv o'tkazishi yoki uni ko'zdan kechirishi, yozishmalar va telefonda so'zlashuvlar sirini oshkor qilishi mumkin emas.

¹ O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasida chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo'limgan shaxslarning huquqiy holati to'g'risida" 04.06.2021 yildagi O'RQ-692-sonli Qonuni. // <https://lex.uz/docs/-5443899>

O'zbekiston Respublikasi hududida turgan chet el fuqarolariga va fuqaroligi bo'limgan shaxslarga nisbatan faqat O'zbekiston Respublikasining qonunlari asosida protsessual majburlov va ma'muriy jazo choralar qo'llanilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining qonunchiligidagi belgilangan tartibda ushlab turilgan yoki qamoqqa olingan chet el fuqarolariga va fuqaroligi bo'limgan shaxslarga ularning huquqlari hamda ushlab turilishiga yoxud qamoqqa olinishiga sabab bo'lgan holatlar to'g'risida xabar qilinishi kerak.

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslar ushbu Qonun hamda O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibga muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududi bo'ylab erkin harakatlanish huquqiga ega. Chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo'limgan shaxslarning O'zbekiston Respublikasi hududi bo'ylab harakatlanishi hududida O'zbekiston Respublikasi vakolatli davlat organlarining ruxsatnomalari asosida harakatlanish amalga oshiriladigan chegara zonalarida hamda chegara chiziqlarida cheklanishi mumkin.

Chegaraoldi hududlar aholisining o'zaro safarlari qoidalarini tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi bilan belgilangan hujjat asosida O'zbekiston Respublikasiga kirib kelgan chet el fuqarolari harakatlanishining o'ziga xos xususiyatlari O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida belgilanadi.

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslar, agar O'zbekiston Respublikasining qonunlarida yoki xalqaro shartnomalarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi hududida O'zbekiston Respublikasining fuqarolari bilan teng ravishda mulk huquqididan foydalanadi.

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslar O'zbekiston Respublikasining qonunlarida va xalqaro shartnomalarida belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi hududida o'ziga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulkni meros qilib olish yoki vasiyat qilish, shuningdek boshqa mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlardan foydalanish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi hududida mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslar O'zbekiston Respublikasining

mehnat to'g'risidagi qonunchiligiga muvofiq huquqlardan foydalanadi hamda ularning zimmasida majburiyatlar bo'ladi. Chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo'limgan shaxslarning O'zbekiston Respublikasi hududida mehnat faoliyatini amalga oshirish tartibi O'zbekiston Respublikasining aholi bandligi to'g'risidagi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

Agar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq muayyan lavozimlarga tayinlanish yoki muayyan mehnat faoliyati turi bilan shug'ullanish O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga mansublik bilan bog'liq bo'lsa, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslar ushbu lavozimlarga tayinlanishi, saylanishi yoki muayyan mehnat faoliyati turi bilan shug'ullanishi mumkin emas.

6.5. Fuqarolik masalalari bilan shug'ullanuvchi davlat organlari

Fuqarolik masalasi Konstitutsiyaviy institut shuning uchun unga taalluqli ko'pgina masalalar Konstitutsiyada belgilangan, bularga avvalgi bandlarda to'xtab o'tdik. Fuqarolik masalalarini hal qilishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti alohida rol o'ynaydi. O'zbekiston Konstitutsiyasining Prezident vazifa va vakolatlari belgilangan 93-moddasi 22-bandida Prezidentning Respublika fuqaroligi masalasini hal qilish vakolati ko'rsatib qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilish, uni tiklash yoki undan chiqish to'g'risidagi iltimosnama O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga ariza beruvchi tomonidan shaxsan beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Fuqarolik masalalari komissiyasini tuzish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi masalalarini hal etishga doir konstitutsiyaviy vakolatlarini amalga oshirish maqsadida besh yil muddatga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Fuqarolik masalalari komissiyasi tuziladi.

Komissiya O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi maslahat-ko'maklashuvchi organdir. Komissiya tarkibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi. Komissiya rais, rais o'rinosari, kotib va Komissiyaning

boshqa a'zolaridan tarkib topadi. Komissiyaning raisi, rais o'rribbosari va boshqa a'zolari uning ishida jamoatchilik asosida ishtirok etadi.

Komissiya majlisida rais yo'q bo'lgan taqdirda uning vazifalari rais o'rribbosarining zimmasiga yuklatiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Fuqarolik masalalari komissiyasining reglamenti O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi masalalariga oid qarorlarni ijro etuvchi organlar O'zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi shaxslarga nisbatan fuqarolik masalalariga oid qarorlarni ijro etish Ichki ishlar vazirligi va uning tegishli bo'linmalari zimmasiga, xorijda yashaydigan shaxslarga nisbatan esa Tashqi ishlar vazirligi va tegishli konsullik muassasalari zimmasiga yuklatiladi¹.

Tayanch iboralar:

1. inson,
2. shaxs,
3. huquq,
4. erkinlik,
5. adolat prinsipi,
6. Deklaratsiya,
7. filiatsiya,
8. optatsiya,
9. transfert,
- 10 “Qon huquqi” (jus sanguinus),
11. “Tuproq huquqi” (jus soli),
12. fuqarolikni tiklash

O'z- o'zini nazorat qilish uchun savollar:

1. Shaxsning huquqiy holati nima?
2. Shaxs huquqiy holatining konstitutsiyaviy asoslari qanday belgilangan?
3. Fuqarolik nima?
4. Shaxs fuqaro bo'lgach qanday imkoniyatlarga ega bo'ladi?

¹ O'zbekiston Respublikasining “O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida” 13.03.2020 yildagi O'RQ-610-soni Qonuni. // <https://lex.uz/docs/4761984>

5. Fuqarolarni qonun oldida tengligi nimani bildiradi?
6. Fuqarolar huquq va erkinliklarini cheklash mumkinmi?
7. Yagona fuqarolik nima, uning ahamiyati nimada?
8. Fuqarolikka qanday ega bo'linadi?
9. Fuqarolik qanday hollarda yo'qotiladi?
10. Fuqarolarning huquqlari mamlakat ichkarisida qanday himoya qilinadi?
11. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lмагan shaxslarning huquqlari qanday himoya qilinadi?
12. Fuqarolar huquqini himoya qiluvchi qanday davlat va nodavlat tashkilotlarini bilasiz?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O'zbekiston” NMIU, 2020. –80 b.
2. O'zbekiston Respublikasining “O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida” 13.03.2020 yildagi O'RQ-610-sonli Qonuni. //<https://lex.uz/docs/4761984>
3. O'zbekiston Respublikasining “O'zbekiston Respublikasida chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo'lмагan shaxslarning huquqiy holati to'g'risida” 04.06.2021 yildagi O'RQ-692-sonli Qonuni. // <https://lex.uz/docs/-5443899>
4. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma to'qqiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i nutqi. // “Xalq so'zi” gazetasi, 2020 yil 1 sentyabr, №186 (7688).
5. Rustamboyev M.X, Axmedov D.Q, Xidirov S.M, Bekov I.R. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish. –T.: “Yangi asr avlodi”, 2005. –400 b.

7-Mavzu: JAMIYATNING IQTISODIY NEGIZI

7.1 Mulk shakllari va teng huquqligi

Jamiyatning iqtisodiy negizlari deganda, jamiyatdagi mavjud iqtisodiy hayot, ishlab chiqarish vositalariga nisbatan mulkchilik shakllari, ijtimoiy yo'nalishga qaratilgan ishlab chiqarish maqsadi, jamiyatda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning adolat prinsipi asosida taqsimlanish, xo'jalikni boshqarishda bozor iqtisodiyoti prinsiplariga asoslanganlik tushuniladi¹.

¹ Rustamboyev M.X, Ahmedov D.Q, Xidirov S.M, Bekov I.R. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish. –T.: “Yangi asr avlodi”, 2005. –B.129.

O’zbekiston Respublikasi o’z mustaqilligining dastlabki kunlaridan oq, jamiyat taraqqiyoti uchun muhim sanalgan iqtisodiy ijtimoiy sohalarda muhim o’zgarishlar va yangiliklarni nazariy asoslantirib hayotga tadbiq eta boshladi. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda: “Jamiyatni siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy modernizatsiya qilish bo’yicha keng ko’lamli chora-tadbirlarimiz natijasida yangi O’zbekiston shakllanmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizdagi demokratik o’zgarishlar ortga qaytmaydigan tus oldi”¹.

O’zbekistonda yashovchi har bir fuqaroning iqtisodiy huquq va erkinliklari bevosita konstitutsiyamizda o’z aksini topgan. Jumladan Konstitutsianing 36-moddasida shunday deyiladi, “*Har bir shaxs mulkdan bo’lishga haqli. Bankka qo’yilgan omonatlar sir tutilishi va meros huquqi qonun Bilan kafolatlanadi*”². Demak, har bir inson dunyoga kelmasdan turib ham hayotiy davrida ham qonuniy asosda o’z mulkiga ixiyoriy asosda egalik qiladilar. Shunday holatlar ham bo’ladiki, bola ona qornidagi davrida ham qonunda ko’rsatilgan tartibda mulkka egalik huquqini saqlab qoladi. Bu holat tegishli qonunchilika mustahkamlanib qo’yilgan.

Mulk (arabcha “mulk” – shaxsiy boylik, mol) deganda, ixtiyordagi, qo’ldagi bor mol-dunyo, yer-suv, imorat va boshqa boyliklar³ tushuniladi. Mamlakatimizda barpo etilayotgan jamiyatning iqtisodiy negizini ko’p mulkchilikka tayangan ijtimoiy yo’naltirilgan, ichki muvozanatga erishgan moddiy iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi. Iqtisodiyot xo’jalik yuritish tizimi sifatida insonlarning yashashi uchun zarur bo’lgan ne’matlar bilan ta’minlaydi.

Mulkiy huquq bu:

Birinchidan, O’zbekiston Respublikasida mulkiy huquq tan olinadi va qonun bilan muhofaza etiladi.

Ikkinchidan, mulkdan o’ziga tegishli mol-mulkka o’z ixtiyoriga ko’ra egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Mulkdan o’z mol-mulkiga nisbatan

¹ O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqi. //“Xalq so’zi” gazetasi, 2020 yil 24 sentyabr, №202 (7704)

² O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O’zbekiston”, 2020. –B.15.

³ O’zbek tilining izohli lug’ati. –T.: “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2006. – B. 633.

qonunga zid bo'lмаган har qanday xatti-harakatlarni qilishga haqlidir. U mulkdan qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan har qanday xo'jalik yoki boshqa faoliyatni amalga oshirishda foydalanishi mumkin.

Uchinchidan, mulkdor o'ziga qarashli mol-mulkka egalik qilish, undan foydalinish va uni tasarruf qilish huquqini boshqa shaxslarga berishga faqat o'zi haqlidir. O'zbekiston Respublikasi qonunlarida ko'zda tutilgan hollarda, mulkdorning zimmasiga boshqa shaxslarning uning mulkidan cheklangan tarzda foydalanishiga yo'l qo'yish vazifasi yuklanishi mumkin.

To'rtinchidan, mulkdor O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan shartlar va doira chegarasida o'ziga tegishli mulkiy huquqni amalga oshirish paytida fuqarolarning mehnatidan foydalinish to'g'risida ular bilan shartnomaga tuzishga haqlidir.

Beshinchidan, mulkiy huquqning amalga oshirilishi atrof-muhitga zarar yetkazmasligi, jismoniy, yuridik shaxslarning va davlatning huquqlarini buzmasligi hamda qonun bilan muhofaza qilinadigan manfaatlariga putur yetkazmasligi kerak¹.

O'zbekiston Respublikasi "O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida"ga qonunga ko'ra, quyidagilar **mulk obyektlaridir**:

birinchidan, O'zbekiston Respublikasi hududidagi yer, yer osti boyliklari, ichki suvlar, havo havzasasi, o'simlik va hayvonot dunyosi, imoratlar va inshootlar, mahsulotlar, turar joy va kvartiralar, mahsulot belgilari, sanoat namunalari, ixtiolar, foydali modellar, sanoat namunalari, integral mikrosxemalarning topologiyasi, seleksiya yutuqlari, mahsulot belgilari va xizmat ko'rsatish belgilari, asbob-uskunalar, moddiy va ma'naviy madaniyat buyumlari, pullar, qimmatli qog'ozlar va boshqa mol-mulklar;

ikkinchidan, insonning mehnat qilish qobiliyati.

uchinchidan, ixtiolar, kashfiyotlar, fan, adabiyot, san'at asarlari, axborot, ilmiy g'oyalar, texnik ishlanmalar va aqliy ijodning boshqa obyektlarini yaratish

¹ O'zbekiston Respublikasi "O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida" 31.10.1990 yildagi 152-XII-soni qonuni. // <https://lex.uz/docs/-111466>

hamda ulardan foydalanish xususidagi munosabatlar O'zbekiston Respublikasining maxsus qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

to'rtinchidan, tarix va madaniyat yodgorliklariga mulkiy huquqni amalga oshirish O'zbekiston Respublikasining maxsus qonunchiligi bilan belgilab beriladi.

beshinchidan, mol-mulkdan xo'jalikda foydalanish natijalari (mahsulot va daromadlar), qonunlar yoki shartnomada boshqa tartib ko'zda tutilmagan bo'lsa, shu mol-mulk egasiga tegishlidir.



O'zbekiston Respublikasi barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan muhofaza etilishini kafolatlaydi.

7.2. Xususiy mulkni daxlsizligi va davlat tomonidan himoya qilinishi

Xususiy mulk huquqi – shaxsning qonunchilikka muvofiq qo'lga kiritgan mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqidir. Xususiy mulk bo'lgan mol-mulkning miqdori va qiymati cheklanmaydi. Xususiy mulk daxlsiz va davlat himoyasidadir.

Davlat xususiy mulkning but saqlanishini ta'minlash va uning ko'paytirilishi uchun barcha zarur sharoitlarni yaratadi. Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina o'z mol-mulkidan mahrum etilishi mumkin¹.

¹ O'zbekiston Respublikasining "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida" 24.09.2012 yildagi O'RQ-336-sonli Qonuni. //https://lex.uz/docs/-2055680

2012-yil 24-sentyabrdagi O’zbekiston Respublikasining “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to’g’risida” qoniga ko’ra, xususiy mulk huquqi muddatsizdir. Mulkdorga mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish muddati belgilanishiga yo’l qo’yilmaydi.

Mulkdorning davlat organlari bilan o’zaro munosabatlarida mulkdor huquqlarining ustuvorligi prinsipi amal qiladi, unga muvofiq qonunchilikdagi xususiy mulk huquqini amalga oshirish bilan bog’liq holda yuzaga keladigan barcha bartaraf etib bo’lmaydigan ziddiyatlar va noaniqliklar mulkdorning foydasiga talqin etiladi.

Xususiy mulk huquqini himoya qilish quyidagi yo’llar bilan amalga oshiriladi:

- xususiy mulk huquqini tan olish;
- xususiy mulk huquqi buzilishidan oldingi holatni tiklash va xususiy mulk huquqini buzadigan yoki uning buzilishi xavfini tug’diradigan harakatlarning oldini olish;
- bitimni haqiqiy emas deb topish va uning haqiqiy emasligi oqibatlarini qo’llash;
- davlat organining va boshqa organning yoki fuqarolar o’zini o’zi boshqarish organining hujjatini haqiqiy emas deb topish;
- xususiy mulk huquqini mulkdorning o’zi himoya qilishi;
- burchni aslicha (natura) bajarishga majbur qilish;
- zararning o’rnini qoplash;
- neustoyka undirish;
- ma’naviy ziyyoni qoplash;
- xususiy mulk huquqi munosabatlarini tartibga solishda qonunchilik barqarorligini ta’minlash;
- davlat organining va boshqa organning yoki fuqarolar o’zini o’zi boshqarish organining qonunga zid bo’lgan hujjatining sud tomonidan qo’llanilmasligi;

➤ mol-mulkning ayrim turlariga bo’lgan xususiy mulk huquqining vujudga kelganligini, o’zgarganligini va bekor qilinganligini davlat ro’yxatidan o’tkazish¹.

7.3. Iqtisodiy faoliyat tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligi

Davlatimiz rahbari mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini jadal rivojlantirish zarurligini “Haqiqatan ham, biz faqat faol tadbirkorlik, tinimsiz mehnat va intilish orqali taraqqiyotga, farovon hayotga erisha olamiz” degan qat’i fikrni ilgari surdi².

Aholini tadbirkorlik faoliyatiga yanada faol jalb etish, kambag’allikni qisqartirish xususida xususiy biznesini boshlashiga, shuningdek, tadbirkorlik subyektlari faoliyatining barcha bosqichlarida yuzaga kelayotgan muammolarni ortiqcha sarsongarchiliklarsiz va qog’ozbozliksiz tezkor hal etishga xizmat qiladigan bozor infratuzilmasining barqaror ishlashi va yanada rivojlanishini muvofiqlashtiruvchi amaliy mexanizmning samarali tizimi yaratilmoqda.

So’nggi yillarda O’zbekistonning ishbilarmonlik muhiti sezilarli darajada yaxshilandi – Jalon bankining Doing Business reytingida respublika 2015 yildagi 141 o’rindan 2020 yilda 69 o’ringa ko’tarildi³. 2025 yil oxiriga borib “Biznes yuritish” xalqaro indeksida (Doing Business Index) “qurilishga ruxsatnomalar olish” (Dealing with Construction Permits) yo’nalishi bo'yicha O’zbekiston Respublikasining pozitsiyasini joriy 61,7 balldan 78,2 ballgacha yaxshilash nazarda tutilgan.

2020 yil “**Har bir oila – tadbirkor**”, “**Yoshlar – kelajagimiz**” va boshqa ijtimoiy dasturlar doirasida jami 13 trillion so’mdan ziyod imtiyozli kreditlar ajratilib, 600 mingdan ziyod oilalarni qamrab olishga erishildi. Hammamizga ma'lumki, pandemiya sharoitida tadbirkorlikni qo’llab-quvvatlash bo'yicha Prezidentimizning 20 ga yaqin farmon va qarorlari qabul qilinishi tufayli tadbirkorlarga qator imtiyozlar berildi.

¹ O’zbekiston Respublikasining “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to’g’risida” 24.09.2012 yildagi O’RQ-336-sonli Qonuni. //<https://lex.uz/docs/-2055680>

² O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // “Xalq so’zi” gazetasi, 2018 yil 29 dekabr, №271-272 (7229-7230)

³ Doing Business 2015. Going Beyond Efficiency. //www.doingbusiness.org

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yilning 18 avgustidagi “Respublikada eksport va investitsiya salohiyatini yanada rivojlantirishga oid qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PF-6042-sonli Farmoniga asosan, eksport salohiyatini yanada kengaytirish, investitsiya dasturlariga kiritilgan loyihalar, xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari ishtirokidagi investitsiya loyihalari hamda oliy darajadagi tashriflar davomida imzolangan hujjatlarni amalga oshirish bo'yicha “yo'l xaritalari”ga kiritilgan tadbirlarning ijrosini o’z vaqtida va sifatli ta’minlash, ilm-fan va innovatsiya yutuqlarni keng joriy etgan holda hududlarda “sanoat klasterlari”ni tashkil etish masalasi qo’yilgan¹.

7.4. Is’temolchi huquqlarining ustunligi

O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasida iste’molchilarining huquqi ustunligi tamoyili ifoda etilgan. Konstitusiyada belgilangan iste’molchilar huquqlari ustunligi iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligi, barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishining kafolatlanishi kabi qoidalar milliy iqtisodiyotning yangilanishiga, iqtisodiyotni o’stirishning barqaror yuqori sur’atlarini ta’minlashga, faol investitsiya muhiti yaratishga, bozor mexanizmining shakllanishi, uning qulay ishlashi va rivojlanishiga, mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yaratish orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo’llab-quvvatlash va rag’batlantirish orqali jamiyatda barqarorlik va xavfsizlikni ta’minlovchi qatlam – o’rtacha mulkdorlar sinfining ko’payishiga imkon yaratdi.

Ma’lumki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan “islohot – islohot uchun emas, avvalo, inson uchun”. Mustaqilligimizning o’tgan yillari davomida xalqimiz mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik islohotlarining maqsadi va mohiyatini, bu o’zgarishlarning barchasi uning o’zi, oilasi, kelajagi uchun amalga oshirilayotganini tobora chuqur anglab yetmoqda. Inson yashashi, hayot kechirishi

¹O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublikada eksport va investitsiya salohiyatini yanada rivojlantirishga oid qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi 2020 yilning 18 avgustidagi PF-6042-sonli Farmoni. //<https://lex.uz/docs/4954642>

uchun oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar joy, o'qish, tibbiy xizmat, axborot olish, transport, kommunikatsiya vositalaridan foydalanish kabilarni iste'mol qilishi va foydalanishi hayotiy zaruratdir.

Iste'molchilar borasidagi zamonaviy siyosatning poydevori BMTning Bosh Assambleyasi tomonidan chiqarilgan “Iste'molchilar manfaatlarini himoya qilishning rahbariy tamoyillari” deb nomlangan rezolyutsiya (1985-yil 9-aprel, 39/248-sonli) orqali yaratildi. Ushbu rezolyutsiyada ifodalangan iste'molchilarning asosiy huquqlariga quyidagilar kiradi:

- 1) tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning xavfsizligiga bo'lган huquq;
- 2) ma'lumot olish huquqi;
- 3) tovarni tanlash huquqi;
- 4) o'z manfaatlarini ifoda etish huquqi;
- 5) asosiy ehtiyojlarni qondirish huquqi;
- 6) zararni undirish huquqi;
- 7) iste'molchilik haqida bilim olish huquqi;
- 8) atrof muhitning tozaligiga bo'lган huquq¹.

Konstitutsiya talablariga muvofiq, 1996-yil 26-aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining **“Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”**gi qonunda yuqorida ta'kidlangan xalqaro hujjatlardagi iste'molchilar huquqlarining aksariyati o'z aksini topgan. Ushbu qonunga ko'ra, iste'molchi – foyda chiqarib olish bilan bog'liq bo'lмаган holda shaxsiy iste'mol yoki boshqa maqsadlarda tovar sotib oluvchi, ish, xizmatga buyurtma beruvchi yoxud shu niyatda bo'lган fuqaro (jismoniy shaxs) hisoblanadi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 22 dekabrdagi Oliy Majlisiga qilgan Murojaatnomasida iste'molchilar huquqlari to'g'risida to'xtalib: “Biz ilg'or xorijiy tajriba asosida aholining munosib hayot darajasi uchun zarur bo'lган daromadlarni aniqlash bo'yicha “iste'mol savatchasi” tushunchasini qonunchilikda mustahkamlash va uni amalda ta'minlash mexanizmlarini

¹ Qarang: Борисов А.К. Законодательные акты зарубежных стран: Приложение к Резолюции № 39/248 Генеральной Ассамблеи ООН от 9 апреля 1985 года. – М., 1998. – С.62.

yaratishimiz lozim. Ayni vaqtda aholining real daromadlari, ish haqi, stipendiya, pensiya va ijtimoiy nafaqalarni bosqichma-bosqich oshirish bo'yicha ham amaliy choralar ko'rildi"-deb, ta'kidlaydi¹.

"Iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunning 4-moddasiga muvofiq, har bir iste'molchi, ya'ni foyda chiqarib olish bilan bog'liq bo'limgan holda shaxsiy iste'mol yoki boshqa maqsadlarda tovar sotib oluvchi, ish, xizmatga buyurtma beruvchi yoxud shu niyatda bo'lgan fuqaro (jismoniy shaxs) quyidagi huquqlarga ega:

- tovar (ish, xizmat) haqida, shuningdek, ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) haqida to'g'ri va to'liq ma'lumot olish;
- tovar (ish, xizmat)ni erkin tanlash va uning tegishli darajada sifatli bo'lishi;
- tovar (ish, xizmat)ning xavfsiz bo'lishi;
- hayoti, sog'lig'i va mol-mulki uchun xavfli nuqsoni bo'lgan tovar (ish, xizmat), shuningdek, ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi)ning g'ayriqonuniy harakati (harakatsizligi) tufayli yetkazilgan moddiy ziyon, ma'naviy zararning to'liq hajmda qoplanishi;
- buzilgan huquqlari yoki qonun bilan muhofaza etiladigan manfaatlari himoya qilinishini so'rab sudga, boshqa vakolatli davlat organlariga murojaat etish;
- iste'molchilarning jamoat birlashmalarini tuzish².

Iste'molchi huquqiga ega bo'lgan shaxslarning ushbu huquqlari bevosita konstitutsiyaviy norma asosida kafolatlanadi. Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish – inson salomatligi, eng muhimi uning hayot xavfsizligini ta'minlashning muhim shartidir. Shu bois ham mamlakatimizda sifatsiz, normativ hujjatlarsiz mahsulot ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish qonun yo'li bilan nazorat qilinadi. Iste'molchilar huquqlarini himoya qiluvchi qonun hujjatlari orasida O'zbekiston

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // "Xalq so'zi" gazetasi, 2017 yil 23 dekabr, №258 (6952)

² O'zbekiston Respublikasi "Iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish to'g'risida" 26.04.1996 yildagi 221-Isonli Qonuni. // <https://lex.uz/docs/-4704>

Respublikasining Fuqarolik kodeksi asosiy o'rinda turadi. Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun ma'muriy hamda jinoiy javobgarlik belgilangan.

7.5. Mulkka egalik qilish va mulkdan mahrum qilish asoslari

Konstitutsianing 36-moddasiga binoan har bir shaxs mulkdor bo'lish huquqiga ega. Ya'ni mulkka egalik qilish huquqi konstitutsiyaviy huquq. Mulkka egalik qilish huquqi orqali shaxsning turmush sharoiti moddiy jihatdan ta'minlanadi. U hayot kechirishi uchun zarur manbalarga ega bo'ladi. Mulkka egalik qilish asosi deganda birinchi navbatda u konstitutsiyaviy asosga ega ekanligini ko'rsatish mumkin.

Mol-mulkni turlari "Fuqarolik kodeksi"da belgilangan. Kodeksni 169-moddasida mulk huquqini obyektlari belgilangan bo'lib unga asosan Yer, yer osti boyliklari, suvlar, havo bo'shlig'i, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar, korxonalar, ashyolar, shu jumladan binolar, kvartiralar, inshootlar, asbob-uskunalar, xomashyo va mahsulot, pul, qimmatli qog'ozlar va boshqa mol-mulk, shuningdek intellektual mulk obyektlari mulk bo'lishi mumkin¹.

Konstitutsianing 55-moddasida umummilliy boyliklar ro'yxati berilgan bo'lib, unga ko'ra yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralar umummilliy boylik hisoblanadi. Demak, bular xususiy mulk obyekti bo'la olmaydi. Qolgan barcha mulklar xususiy mulk bo'lishi mumkin. Ommaviy mulk obyektlari "Fuqarolik kodeksi"ning 214-moddasida yanada aniqroq, kengroq mustahkamlab qo'yilgan. Shu kodeksning 207-moddasiga asosan, xususiy mulk huquqi shaxsning qonun hujjatlariga muvofiq tarzda qo'lga kiritilgan mol mulkiga egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqidir. Xususiy mulk obyektlari chegaralangan. Shuningdek Kodeksning 209-moddasida "Qonun bilan man etilgan ayrim ashyolardan tashqari har qanday mol mulk xususiy mulk bo'lishi mumkin" deb belgilangan.

¹ O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (birinchi qism) Kuchga kirish sanasi 01.03.1997. Manba: Oliy Majlis Axborotnomasi, 1996 y., 2-song'a ilova-son. // <https://lex.uz/docs/-111189>

Mulk huquqi qonunga binoan mehnat faoliyati, tadbirkorlik va boshqa xo'jalik faoliyati, mol-mulkni yaratish, ko'paytirish, bitimlar asosida qo'lga kiritish, davlat mol-mulkini xususiylashtirish, meros olish va boshqa qonuniy asoslarda vujudga keladi. Qonuniy yo'l bilan vujudga kelgan xususiy mulk daxlsiz va u davlat tomonidan himoya qilinadi.

Konstitutsianing 53-moddasiga asosan mulkdor (ya'ni xususiy mulk egasi) mulkidan faqat qonunda nazarda tutilgan hollardagina mahrum qulinishi belgilab qo'yilgan.

“Fuqarolik kodeksi”ning 199-moddasida mol-mulkni mulkdordan olib qo'yish asoslari belgilab qo'yilgan. Unga asosan Mol-mulkni mulkdordan olib qo'yishga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va tartibda mulkdorning majburiyatlari bo'yicha undiruv ana shu mol-mulkka qaratilgan taqdirda, shuningdek natsionalizatsiya qilish, rekvizitsiya va musodara qilish tartibida yo'l qo'yiladi.

Agar qonunga asosan shaxsga tegishli bo'la olmaydigan mol-mulk uning mulki bo'lib qolsa, ushbu mol-mulkka nisbatan mulk huquqi sud tartibida bekor qilinib, olib qo'yilgan mol-mulkning qiymati shaxsga to'lanadi¹.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 23-moddasida ma'muriy jazo turlari qatorida, ma'muriy huquqbazarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo'lgan ashyni haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish, ma'muriy huquqbazarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo'lgan ashyni musodara qilish ko'rsatilgan². Kodeksning 27-moddasiga ko'ra, ma'muriy huquqbazarlikni sodir etish quroli bo'lgan ashyni yoki ma'muriy huquqbazarlikning bevosita ashynosini musodara qilish mazkur ashyni haq to'lamasdan majburiy tarzda davlat mulkiga o'tkazishdan iborat bo'lib, ushbu chora jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudi tomonidan qo'llaniladi.

¹ O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (birinchi qism) Kuchga kirish sanasi 01.03.1997 Manba: Oliy Majlis Axborotnomasi, 1996 y., 2-song'a ilova-son. //https://lex.uz/docs/-111189

² O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi Kuchga kirish sanasi 01.04.1995 Manba: Oliy Kengash Axborotnomasi, 1995 y., 3-son. //https://lex.uz/docs/-97664

O'zbekiston Prezidenti tomonidan ilgari surilgan mulkiy masalalardagi har qanday jazolarni ma'muriy tartibdan, sud orqali qo'llashga o'tish haqidagi taklif esa xususiy mulk huquqini yanada to'laroq himoya qilishga olib keladi.

7.6. Umummiliy boyliklar va ulardan foydalanish hamda muhofaza qilish

Konstitutsiyaning 55-moddasida “*yer, yerosti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummiliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir*”¹, - deb belgilangan.

Umummiliy boyliklar eng avvalo inson qo'li bilan yaratilmagan, tabiat bilan, ona zamin yer bilan bog'liq manbalardir, ular jonli mavjudod yashashi uchun zarur birlamchi qiymatlardir. Ularsiz hayot bo'lmasligi mumkin. Shuning uchun ham konstitutsiyamizda “Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyojkorona munbosabatda bo'lishga majburdir” degan asosiy burch belgilab qo'yilgan.

Umummiliy boyliklar qonunga asosan ommaviy mulk shakliga kiritilgan. Ommaviy mulkning Respublika mulki hisoblanuvchi mulklar qatorida umummiliy boyliklar mulk obyekti sifatida belgilangan. “Fuqarolik kodeksi”ning 214-moddasi “Respublika mulki” obyektlarini belgilar ekan, ular qatoriga yerosti boyliklari, suv, havo bo'shlig'ilari o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy boyliklarni kiritgan.

Umummiliy boylik hisoblanuvchi har bir obyekt alohida maxsus qonunlar bilan tartibga solinadi va muhofaza qilinadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining “Yer kodeksi” yerdan foydalanish, muhofaza qilish tartiblarini o'rnatgan. Uning birinchi moddasida “Yer umummiliy boylikdir, O'zbekiston Respublikasi xalqi hayoti, faoliyati va farovonligining asosi sifatida undan oqilona foydalanish zarur va u davlat tomonidan muhofaza qilinadi” deb belgilangan². Shu moddani o'zida yer to'g'risidagi qonun hujjalaringin asosiy vazifasi yerdan

¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O'zbekiston”, 2020. –B.19

² O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi. Kuchga kirish sanasi 01.07.1998. // <https://lex.uz/docs/-152653>

foydanishni, yarlarni muhofaza qilishni belgilash ekanligi ko'rsatilgan.

Qonunning XI bobi "yerni muhofaza qilish"ga bag'ishlangan bo'lsa 90-moddasi, yer to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik belgilanishini mustahkamlagan.

Umummilliy boylik hisoblanuvchi boshqa obyektlar to'g'risida ham maxsus qonunlar mavjud. Bundan tashqari, umummilliy boyliklardan noto'g'ri foydanish, ularga zarar yetkazganlik uchun ma'muriy, jinoiy javobgarliklar belgilangan. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida: "Tabiiy resurslarga egalik huquqini buzish" (60-modda), "yerlardan xo'jasizlarcha foydanish yoki ularni yaroqsiz holga tushirish" (65-modda), "yer berish tartibini buzish" (66-modda), "yer osti boyliklarini muhofaza qilish va ulardan foydanish talablarini buzish" (70-modda), "Suv zaxiralarini muhofaza qilish qoidalarini buzish" (72-modda), "Suvdan foydanish qoidalarini buzish" (73-modda), "O'rmon fondi yerlaridan foydanish qoidalarini buzish" (77-modda), "Qizil kitobga kiritilgan o'simliklarni yig'ish" (81-modda), "O'rmon uchun foydali faunani yo'q qilib yuborish" (83-modda), "Atmosferani buzish" (85-modda) uchun va 90, 92, 93, 94-moddalarda xayvonot dunyosiga zarar keltirganlik uchun ma'muriy jazolar belgilangan.

"O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi" 4-bo'limi "Ekologiya sohasidagi jinoyatlar", 14-bo'limi "Atrof muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydanish sohasidagi jinoyatlar" deb atalib undagi moddalarda umummilliy boyliklardan foydanish tartibini buzganlik, ularga zarar yetkazganlik uchun jinoiy jazolar belgilangan.

Tayanch iboralar:

1. taraqqiyot,
2. iqtisodiy negiz,
3. bozor munosabatlari,
4. mulkdor,
5. mol-mulk,
6. xususiy mulk,
7. tadbirkorlik,

8. eksport,
9. mehnat qilish erkinligi,
10. rezolyutsiya,
11. iste'molchi,
12. umummilliy boyliklar

O'z- o'zini nazorat qilish uchun savollar:

1. Iqtisodiy negiz nima?
2. O'zbekiston iqtisodiyotini asosini nima tashkil etadi?
3. O'zbekistonda qanday mulk shakllari mavjud?
4. Mulk shakllarini teng huquqligi qanday ta'minlanadi?
5. Xususiy mulk nima, ularning obyektlari nimalar?
6. Ommaviy mulk nima? Ularning obyektlari nimalar?
7. Iqtisodiy faoliyat nima?
8. Tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligi qanday ta'minlanadi?
9. Iste'molchi kim? Nima uchun uning huquqlari ustuvor?
10. Mulkka qanday egalik qilinadi?
11. Mulkdan mahrum qilish asoslari qanday?
12. Umummilliy boyliklar va davlat mulki, ularni muhofaza qilish choralari qanday?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O'zbekiston”, 2020. –80 b.
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (birinchi qism) Kuchga kirish sanasi 01.03.1997. //<https://lex.uz/docs/-111189>
3. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi Kuchga kirish sanasi 01.04.1995 Manba: Oliy Kengash Axborotnomasi, 1995 y., 3-son. //<https://lex.uz/docs/-97664>
4. O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi Kuchga kirish sanasi 01.07.1998 Manba: Oliy Majlis Axborotnomasi, 1998 y., 5-6-son. // <https://lex.uz/docs/-152653>
5. O'zbekiston Respublikasi “O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida” 31.10.1990 yildagi 152-XII-sonli qonuni. // <https://lex.uz/docs/-111466>
6. O'zbekiston Respublikasining “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida” 24.09.2012 yildagi O'RQ-336-sonli Qonuni. //<https://lex.uz/docs/-2055680>

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublikada eksport va investitsiya salohiyatini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2020 yilning 18 avgustidagi PF-6042-sonli Farmoni. //<https://lex.uz/docs/4954642>
8. O'zbekiston Respublikasi "Iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish to'g'risida" 26.04.1996 yildagi 221-I-sonli Qonuni. // <https://lex.uz/docs/-4704>
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // "Xalq so'zi" gazetasi, 2017 yil 23 dekabr, №258 (6952)
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // "Xalq so'zi" gazetasi, 2018 yil 29 dekabr, №271-272 (7229-7230)
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqi. // "Xalq so'zi" gazetasi, 2020 yil 24 sentyabr, №202 (7704)
12. Борисов А.К. Законодательные акты зарубежных стран: Приложение к Резолюции № 39/248 Генеральной Ассамблеи ООН от 9 апреля 1985 года. – М., 1998. – С.62.
13. Rustamboyev M.X, Axmedov D.Q, Xidirov S.M, Bekov I.R. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish. –T.: "Yangi asr avlodi", 2005. –400 b.
14. O'zbek tilining izohli lug'ati. –T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2006. – B.633.
15. Doing Business 2015. Going Beyond Efficiency. //www.doingbusiness.org

8-Mavzu: JAMOAT BIRLASHMALARI

8.1. Jamoat birlashmalarining tizimi, turlari, vazifasi

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 22 dekabrdagi Oliy Majlisiga qilgan Murojaatnomasida: "Erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish borasida amalga oshirayotgan islohotlarimizda nodavlat notijorat tashkilotlarining o'rni va roli beqiyos ekanini alohida ta'kidlash joiz. Hozirgi kunda yurtimizda 9 mingdan ortiq nodavlat notijorat tashkiloti mavjud, 29 ta xalqaro va xorijiy nohukumat tashkilotlarining filial va vakolatxonalari faoliyat yuritmoqda", - deb ta'kidlagan edi¹.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 56-moddasiga muvofiq, kasaba uyushmalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari,

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // "Xalq so'zi" gazetasi, 2017 yil 23 dekabr, №258 (6952)

ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari jamoat birlashmasi sifatida e'tirof etilgan¹.

O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalarining huquqiy asosi yaratilgan-Konstitutsianing XIII bobi hamda fuqarolarning jamiyat va davlatni boshqarishda ishtirok etish (32-modda), kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga, jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda qatnashish (34-modda) huquqi kafolatlangan.

O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 15-fevralda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmali to'g'risida"gi Qonunida jamoat birlashmasi tushunchasi, maqsadi, shakllari, faoliyat doirasi va huquqlari, maqomi va ro'yxatga olinishi kabi normalar o'z ifodasini topgan. Qonunga asosan, siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, kasaba uyushmalar, xotin-qizlar, yoshlar va bolalar tashkilotlari, veteranlar va nogironlar tashkilotlari, ilmiy-texnikaviy, madaniy-ma'rifiy, jismoniy tarbiya-sport va boshqa ko'ngilli jamiyatlar, ijodiy uyushmalar, yurtdoshlar uyushmalar, assotsiatsiyalar va fuqarolarning boshqa birlashmalarini jamoat birlashmali deb e'tirof etiladi.

"O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmali to'g'risida"gi Qonunga ko'ra, Jamoat birlashmalarini tuzishdan ko'zda tutilgan maqsad quyidagilar:

- Jamoat birlashmali fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy, huquqlar hamda erkinliklarni ro'yobga chiqarish va himoya qilish;
- fuqarolarning faolligi va tashabbuskorligini, davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ularning ishtirok etishini rivojlantirish;
- kasb-kor va havaskorlik qiziqishlarini qondirish;
- ilmiy, texnikaviy va badiiy ijodkorlikni rivojlantirish;
- aholining sihat-salomatligini saqlash, xayriya faoliyatida qatnashish;
- madaniy-ma'rifiy, jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish va sport ishlarini amalga oshirish;
- tabiatni, madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish;
- vatanparvarlik va insonparvarlik tarbiyasi;

¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: "O'zbekiston", 2020. –B.19.

- respublikalararo va xalqaro aloqalarni kengaytirish, xalqlar o’rtasida tinchlik va do’stlikni mustahkamlash;
- qonunda taqiqlanmagan boshqa faoliyatni amalga oshirish maqsadida tuziladi¹.

8.2. Siyosiy partiyalarning hokimiyatda ishtiroki

Ko’ppartiyaviylik zamонавиј демократик ѡмијатлар сијосиј хотини ташкил қилишнинг асосиј конституцијавиј тамојилларидан бириси ҳисобланади. Айнан ко’ппартијавијлик туфайли демократијанинг сијосиј пљурализм, қонун устуворлиги, имконијатлар тенглиги каби тамојилларини о’зидаги мажассам етган сијосиј партиялар ва үларнинг вакиллари о’ртасида доимий мулодот та’минланади. Сијосиј партиянинг демократик ѡмијат тараққијотидаги роли ҳақида Шавкат Мирзиёев қуидагиларни та’кидлайди: “Jumladan, xalqimiz manfaatlariga, hayotimizning barcha sohalarini erkinlashtirishga xizmat qiladigan qonunlarni qabul qilish, davr talablariga javob bermaydigan қонун ҳујжатларини bekor qilib, қонунчilik bazasini ixchamlashtirish, biznes faoliyatini tartibga solish borasidagi ortiqcha normalarni kamaytirish zarur. Ushbu vazifalarni bajarishda siyosiy партиялар ва fuqarolik ѡмијати institutlari yanada faol bo’ladilar, deb o’ylayman”².

“Partiya” со’зи лотинча “part” со’зидан келиб чиққан бо’либ, “ish”, “qism” деган ма’ноларни англатади. Сијосиј партия – ахолињ, синфнињ, ијтимојиј қатлам ёки қатламларнинг бир қисми³.

О’zbekiston Respublikasining 1996-yil 26-dekabrdagi “Siyosiy партиялар то’г’рисида”⁴ ги Qонунга асосан, сијосиј партия О’zbekiston Respublikasi fuqarolarining қарашлар, манфаатлар ва мақсадлар муштараклиги асосида тузилган, давлат хокимияти органларини шакллантришда ѡмијат муайян қисмининг сијосиј иродасини ро’йобга чиқаришга иттихувчи hamda о’з вакиллари орқали давлат ва ѡамоат ишларини идора этишда қатнашувчи ко’нгилли бирлашмасидир⁴.

¹ O’zbekiston Respublikasining “O’zbekiston Respublikasida ѡамоат бирлашмалари то’г’рисида” 15.02.1991 yildagi 223-XII-sonli Qonuni. // <https://lex.uz/ru/docs/-111825>

² Mirziyoyev Sh.M. O’zbekiston xalqiga bayram tabrigi. //“Xalq so’zi” gazetasi, 2020 yil 8 dekabr, №257 (7759)

³ Jalilov A., Muhammadiyev U., Jo’rayev Q. Fuqarolik ѡмијати асослари. –T.: “Baktria press”, 2015. –B.198.

⁴ O’zbekiston Respublikasining “Siyosiy партиялар то’г’рисида” 26.12.1996 yildagi 337-I-sonli Qonuni. // <https://lex.uz/docs/-54191>

Hozirga paytda respublikada beshta siyosiy partiya faoliyat ko'rsatmoqda.

Bular:

O'zbekiston xalq demokratik partiyasi

"Adolat" sotsial-demokratik partiyasi

"Milliy tiklanish" demokratik partiyasi

O'zbekiston tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – Liberal-demokratik partiyasi

O'zbekiston Ekologik partiyasi

Siyosiy partiyalar fuqarolarning huquq va erkinliklarini amalga oshirish maqsadida, xohish-irodani erkin bildirish, partiyaga ixtiyoriy ravishda kirish va undan chiqish, a'zolarining teng huquqliligi, o'zini o'zi boshqarish, qonuniylik va oshkoraliq asosida tuziladi va faoliyat ko'rsatadi.

Quyidagi siyosiy partiyalarni tuzish va ularning faoliyat ko'rsatishi taqiqlanadi:

konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi

O'zbekiston Respublikasi suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarining konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi

urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi

xalqning sog'lig'i va ma'nnaviyatiga tajovuz qiluvchi

milliy va diniy ruhdagi partiyalar

O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bir paytning o'zida faqat bitta siyosiy partiyaga a'zo bo'lishi mumkin. Partiyaga mansubligiga ko'ra fuqaroning

huquqlarini har qanday cheklash, xuddi shuningdek unga imtiyozlar yoki ustunliklar berish taqiqlanadi.

Quyidagilar siyosiy partiyalarga a'zo bo'la olmaydilar:

sudyalar

O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining mansabdor shaxslari

prokurorlar va prokuratura tergovchilari

ichki ishlar, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi organlari, davlat xavfsizlik xizmati xodimlari

harbiy xizmatchilar

xorijiy davlatlarning fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslar

Ta'kidlash kerakki, siyosiy partiyalarga a'zolik yakka tartibda qayd etiladi. Qonunning 5-moddasida siyosiy partiyalar faoliyatining kafolatlari mustahkamlanib, unda davlat siyosiy partiyalar huquqlari va qonuniy manfaatlari muhofaza etilishini kafolatlaydi, ustawda belgilangan o'z maqsadlari va vazifalarini bajarishlari uchun ularga teng huquqiy imkoniyatlar yaratib berilishi ko'rsatilgan.

Siyosiy partiyalar quyidagi huquqlarga ega:

- o'z faoliyati to'g'risidagi axborotni erkin tarqatish, o'z g'oyalari, maqsadlari va qarorlarini targ'ib qilish;
- saylab qo'yiladigan davlat organlaridagi o'z vakillari orqali tegishli qarorlarni tayyorlashda ishtirok etish;
- qonunda belgilab qo'yilgan tartibda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, davlat hokimiysi organlari saylovlarida ishtirok etish;
- partiya faoliyati bilan bog'liq yig'ilishlar, konferensiylar va boshqa tadbirlarni o'tkazish;
- qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda ommaviy axborot vositalari ta'sis etish va boshqa ommaviy axborot vositalaridan foydalanish;

➤ O'zbekiston Respublikasining siyosiy partiyalari bilan ittifoq (blok) tuzish, ular bilan va boshqa jamoat birlashmalari bilan shartnama munosabatlari o'rnatish.

8.3. Konstitutsiyaviy tuzumga qarshi faoliyat yurituvchi birlashmalar tuzishning ta'qiqlanishi

“O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida”gi qonunda belgilanganidek, Faoliyati jamiyatning axloqiy negizlarini, umumbashariy insonparvarlik qadriyatlarini buzishga qaratilgan, shuningdek konstitutsion tuzumni g'ayriqonuniy yo'l bilan o'zgartirish yoki O'zbekiston Respublikasi hududining birligini buzish, urushni, zo'ravonlikni va shafqatsizlikni, jamiyatni parchalashga olib boradigan ijtimoiy, shu jumladan sinfiy, shuningdek irqiy, milliy va diniy adovatni avj oldirish, qonunchilik bilan taqiqlangan boshqa xattiharakatlar qilish maqsadini ko'zlaydigan jamoat birlashmalarining tuzilishiga yo'l qo'ymaydi.

Harbiylashtirilgan jamoat birlashmalari va qurolli tuzilmalar, shuningdek diniy xaraktyerga ega partiyalari, ularning filiallari va boshqa struktura bo'laklari tashkil etish taqiqlanadi.

Jamoat birlashmalari va ularning idoralari tomonidan qonuniy va demokratik yo'l bilan shakllantirilgan hokimiyat va boshqaruvi idoralari hamda hokimiyat vakolatlariga ega bo'lganlarga nisbatan g'ayridemokratik tarzda kuch ishlatib tazyiq o'tkazish taqiqlanadi¹. Aholining salomatligi va axloqiga, fuqarolarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga tajovuz qiladigan jamoat birlashmalarini tuzish va ularning faoliyati qonunga muvofiq ta'qib qilinadi.

8.4. Yoshlar tashkilotlari

Bugun mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etuvchi organlar va muassasalarining faoliyati “Yoshlarga oid davlat

¹ O'zbekiston Respublikasining “O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida” 15.02.1991 yildagi 223-XII-soni Qonuni. // <https://lex.uz/ru/docs/-111825>

siyosati to'g'risida"gi qonun asosida mustahkamlanib qo'yilgan bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- “ta’limni davlat tomonidan boshqarish organlari va ta’lim muassasalari;
- davlat sog’liqni saqlash tizimini boshqarish organlari va sog’liqni saqlash muassasalari;
- jismoniy tarbiya va sport bo'yicha organlar;
- madaniyat organlari;
- mehnat organlari;
- prokuratura organlari;
- ichki ishlar organlari;
- adliya organlari;
- mudofaa ishlari bo'yicha organlar”¹.

O'n to'rt yoshga to'lган shaxs yoshlarning nodavlat notijorat tashkiloti a'zosi bo'lishi mumkin. Yoshlarning nodavlat notijorat tashkilotiga a'zo bo'lish, a'zolikni yo'qotish shartlari va tartibi, shu jumladan yoshiga ko'ra uning a'zoligidan chiqish shartlari tegishli nodavlat notijorat tashkilotining ustavida belgilanadi².

Bugungi kunda mamlakatimizda quyidagi yoshlar tashkilotlari faoliyat yuritmoqda:

O'zbekiston yoshlar ittifoqi – O'zbekiston yoshlarini birlashtiruvchi nodavlat notijorat tashkilotidir. O'zbekiston “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining 2017-yil 30-iyun kuni bo'lib o'tgan IV qurultoyi qaroriga muvofiq, O'zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil etilgan. O'zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil topgan kun – 30-iyun sanasi mamlakatimizda “**Yoshlar kuni**”, deb e'lon qilingan³.

Yoshlar ishlari agentligi (1996-2017-yillarda Kamolot Yoshlar Ijtimoiy Harakati, 2017-2020-yillarda O'zbekiston yoshlar ittifoqi) – yoshlar bilan bog'liq

¹ O'zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi 14.09.2016 yildagi O'RQ-406-soni Qonuni . //Oliy Majlis palatalarining Axborotnomasi, 2016 yil, 9-son.

² O'zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida” 14.09.2016 yildagi O'RQ-406-soni Qonuni. // <https://lex.uz/ru/docs/-3026246>

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida” 05.07.2017 yildagi PF-5106-soni Farmoni. //<https://lex.uz/docs/-3255680>

muammolarni yechish, iqtidorli yoshlarni rag‘batlantirish bilan shug‘ullanadigan agentlik.

Agentlik O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 30-iyundagi PF-6017-son farmoni asosida tashkil etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi yoshlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqish, yoshlar sohasidagi muammolarga samarali yechim topish, ularni har tomonlama qo’llab-quvvatlash, shuningdek vakolatli organlar faoliyatini samarali tashkil etish hamda muvofiqlashtirishni amalga oshiruvchi davlat tashkilotidir¹.

“El-yurt umidi” jamg’armasi. 2018 yil 25 sentyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezident farmoni Mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo'yicha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida tashkil etilgan hisoblanadi².

8.5. Davlat va diniy tashkilotlar munosabati

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 5-iyul kuni yangi tahrirdagi **“Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to’g’risida”gi** qonunga imzo chekdi. Mazkur qonun vijdon erkinligi me’yorlarini aniq ko’rsatib, fuqarolarning xohlagan dinga e’tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmasligini ta’minlaydi. Shuningdek, har qanday dinga zo’ravonlik bilan kiritishni taqiqlaydi. Demokratik davlatlar qatorida, qonun ustuvorligi tamoyilidan kelib chiqib O‘zbekistonda ham dinning siyosatga aralashishi hamda dindan siyosiy maqsadlarda foydalanishga yo’l qo’yilmasligi qonunda aniq ko’rsatib o’tilgan³.

Shuningdek, davlat turli dinlarga e’tiqod qiladigan va ularga e’tiqod qilmaydigan fuqarolar, turli dinlarga mansub diniy tashkilotlar o’rtasida o’zaro murosa va hurmat o’rnatalishiga ko’maklashadi, diniy aqidaparastlik hamda ekstremizmga, munosabatlarni qarama-qarshi qo'yish va keskinlashtirishga, turli

¹O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi to’g’risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 11.09.2020 yildagi 550-sonli qarori. //<https://lex.uz/docs/-4993790>

² Majidov I.U, Hodiyev B.U, Bekmurodov A.Sh. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasini o’rganish va keng jamoatchilik o’rtasida keng targ’ib etishga bag’ishlangan ilmiy-ommabob qo’llanma. –T.: “Ma’naviyat”, 2019. –B.25.

³ “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to’g’risida”gi qonun yangi tahrirda qabul qilindi. //<https://www.gazeta.uz/oz/2021/07/06/law/>

konfessiyalar o'rtasida adovatni avj oldirishga qaratilgan xatti-harakatlarga yo'l qo'yaydi.

Davlat konfessiyalarning tinch-totuv yashashiga kafil bo'ladi. Missionerlik va prozelitizmni amalga oshirishga yo'l qo'yilmaydi. Davlat diniy tashkilotlar zimmasiga davlatning biror-bir vazifalarini bajarishni yuklamaydi, ularning qonunchilikka zid bo'limgan faoliyatiga aralashmaydi. Diniy tashkilotlar davlat vazifalarini bajarmaydi. Davlat diniy tashkilotlarning faoliyatini moliyalashtirmaydi va dinga e'tiqod qiluvchilarning din bilan bog'liq histuyg'ularini haqoratlaydigan faoliyatga yo'l qo'yaydi.

O'zbekiston Respublikasida diniy ruhdagi siyosiy partiya va boshqa jamoat birlashmasining, respublikadan tashqarida tuziladigan diniy partiyalar vakolatxonalari va filiallarining tashkil etilishiga hamda faoliyatiga, siyosiy partiyalar va siyosiy maqsadlarni ko'zlovchi boshqa jamoat birlashmalari faoliyatida diniy tashkilotlarning ishtirok etishiga, shuningdek ularga moliyaviy yoki boshqa yordam ko'rsatishiga yo'l qo'yilmaydi¹.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi dindan ajratilgandir. Ta'lim tizimining o'quv dasturlariga diniy fanlar kiritilishiga (bundan diniy ta'lim muassasalari mustasno) yo'l qo'yilmaydi. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining dunyoviy ta'lim olish huquqi, ularning dinga bo'lgan munosabatidan qat'i nazar, ta'minlanadi. Har kim diniy ta'lim muassasalarida professional diniy ta'lim olish huquqiga ega. Diniy ta'lim muassasalarida o'qishga fuqarolar qonunchilikka muvofiq umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim yoki professional ta'lim olganidan keyin qabul qilinadi. Diniy professional ta'lim olgan shaxslar diniy ta'lim muassasalarida diniy fanlarni o'qitish faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga egadir.

Diniy tashkilotni ro'yxatdan o'tkazish quyidagi hollarda rad etilishi mumkin, agar:

¹ O'zbekiston Respublikasining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida" 05.07.2021 yildagi O'RQ-699-sonli Qonuni. //<https://lex.uz/uz/docs/-5491534>

- diniy tashkilotning tashkil etilishi konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirish, O'zbekiston Respublikasining suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga qarshi chiqish, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini kamsitish, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy hamda diniy adovatni targ'ib etish, fuqarolarning sog'lig'iga va xalqning ma'naviyatiga tajovuz qilish maqsadini ko'zlagan bo'lsa;
- diniy tashkilotni tuzishning qonunda belgilangan tartibi buzilgan bo'lsa yoki taqdim etilgan hujatlarda qonunchilikka nomuvofiqliklar mavjud bo'lsa;
- tuzilayotgan tashkilot diniy tashkilot sifatida e'tirof etilmagan bo'lsa;
- taqdim etilgan ta'sis hujatlarida atayin noto'g'ri axborot mavjudligi aniqlangan bo'lsa.

Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning diniy tashkilotni ro'yxatdan o'tkazishni rad etish to'g'risidagi qarori ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Tayanch iboralar:

1. huquq va erkinlik,
2. kasaba uyushmasi,
3. siyosiy partiyalar,
4. jamoat birlashmasi,
5. demokratiya,
6. siyosiy plyuralizm,
7. qonun ustuvorligi,
8. qonuniylik va oshkoraliq,
9. O'zbekiston yoshlar ittifoqi,
10. "Yoshlar kuni",
11. Yoshlar ishlari agentligi,
12. "El-yurt umidi" jamg'armasi,
13. davlat va din

O'z- o'zini nazorat qilish uchun savollar:

1. Jamoat birlashmalarining vazifasi, tizimi, turlari qanday?
2. Siyosiy partiyalarning hokimiyatni amalga oshirishdagi ishtiroki nimalardan iborat?

3. Yoshlar ommaviy tashkilotining tutgan o’rni qanday?
4. Qanday jamoat birlashmalari tuzish mumkin emas?
5. Jamoat birlashmalarining faoliyati qanday qo’llab-quvvatlanadi?
6. Diniy tashkilot va birlashmalarning o’rni qanaqa?
7. Qanday holda jamoat birlashmalari faoliyati to’xtatiladi, taqiqilanadi?
8. Davlat bilan jamoat tashkilotlarini munosabati nimalarga asoslanadi?
9. Kasaba uyushmalarining vazifasi nimalardan iborat?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O’zbekiston” NMIU, 2020. –80 b.
2. O’zbekiston Respublikasining “O’zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to’g’risida” 15.02.1991 yildagi 223-XII-sonli Qonuni. // <https://lex.uz/>
3. O’zbekiston Respublikasining “Siyosiy partiyalar to’g’risida” 26.12.1996 yildagi 337-I-sonli Qonuni. //<https://lex.uz/docs/-54191>
4. O’zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to’g’risida”gi 14.09.2016 yildagi O’RQ-406-sonli Qonuni . //Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2016 yil, 9-soni.
5. O’zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to’g’risida” 05.07.2021 yildagi O’RQ-699-sonli Qonuni. //<https://lex.uz/uz/>
6. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O’zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo’llab-quvvatlash to’g’risida” 05.07.2017 yildagi PF-5106-sonli Farmoni. //<https://lex.uz/>
7. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O’zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi to’g’risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 11.09.2020 yildagi 550-sonli qarori. //<https://lex.uz/docs/-4993790>
8. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. //“Xalq so’zi” gazetasi, 2017 yil 23 dekabr, №258 (6952)
9. Mirziyoyev Sh.M. O’zbekiston xalqiga bayram tabrigi. //“Xalq so’zi” gazetasi, 2020 yil 8 dekabr, №257 (7759)

10. Jalilov A., Muhammadiyev U., Jo'rayev Q. Fuqarolik jamiyatasi asoslari. –T.: “Baktria press”, 2015. –264 b.
11. Majidov I.U, Hodiyev B.U, Bekmurodov A.Sh. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasini o'rganish va keng jamoatchilik o'rtasida keng targ'ib etishga bag'ishlangan ilmiy-ommabob qo'llanma. –T.: “Ma'naviyat”, 2019. –312 b.
12. “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida”gi qonun yangi tahrirda qabul qilindi. //<https://www.gazeta.uz/oz/2021/07/06/law/>

9-Mavzu: OILANING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI

9.1. Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini. Oilaning jamiyat va davlat tomonidan muhofaza qilinishi

Oila jamiyatning quyi va u asosiy bo'g'inidir. U insonni hayotga kelishi, tarbiyalanishidagi asosiy makon. Oila bir necha kishilarni birgalikda yashash joyi. Prezident Shavkat Mirziyoyev bu xususda: “Oila – bu mehr va baxt qo'rg'oni. Oila bor ekan, farzand degan bebahohi ne'mat bor, insoniy qadr-qimmat va ma'naviyat bor. Oilaviy baxt bu – eng ulug' saodatdir”¹, -deb ta'kidlaydi.

Har qanday jamiyatning mustahkamligi, rivoji oilaga bog'liq. Chunki jamiyatda bo'ladigan ijtimoiy munosabatlarning dastlabki elementi oilada vujudga keladi va shakllanadi. Oiladagi kattalarni bir-biri bilan munosabati, boshqalar bilan munosabati, atrof-muhit, mol-mulkka bo'lgan munosabati yoshlarni shu masalalarga munosabatini shakllanishi uchun o'rnak bo'ladi. Oiladagi tarbiyani boshqa tarbiyalardan farqi, afzalligi tarbiya u yerda faqat o'rgatish, uqitish, ta'kidlash bilangina emas, barcha narsalarda katta yoshdagilarni kichik yoshlar uchun o'rnak kursatishi orqali olib boriladi.

Xalqimizning o'ziga xos oiladagi ijobiy jihatlarni mustahkamlash va rivojlantirishni ta'minlash uchun Konstitutsiyamizda oila uchun maxsus XIX bob

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagи nutqi. //“Xalq so'zi” gazetasi, 2021 yil 7 mart, №48 (7828)

ajratildi. O'zbekistonda oila jamiyatning ajralmas qismi va mavjud bo'lishi shart masala deb qaraladi va albatta unda ikki jinsni, erkak va ayol birlashuvi bo'lishligini, bu birlashuv orqali, dunyoga yangi insonlar kelishi nazarda tutiladi.

Ana shulardan kelib chiqib, Konstitutsianing 63-moddasida "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir..."¹ degan qoida o'z aksini topgan. Konstitutsiya oilani jamiyatni bo'g'ini sifatida e'tirof etishi, oilasiz jamiyat kemtik bo'lishini, rivojlanish xavf ostida qolishini ko'rsatadi.

Oilaviy munosabatlarni tartibga solish erkak va ayolning ixtiyoriy ravishda nikohlanib tuzgan ittifoqi, er va xotinning shaxsiy hamda mulkiy huquqlari tengligi, ichki oilaviy masalalarning o'zaro kelishuv yo'li bilan hal qilinishi, oilada bolalar tarbiyasi, ularning farovon hayot kechirishi va kamoloti haqida g'amxo'rlik qilish, voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz oila a'zolarining huquq va manfaatlarini himoya qilish ustuvorligi tamoyillari asosida amalga oshiriladi².

O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida oila, onalik, otalik va bolalik davlat himoyasidadir. O'zbekiston Respublikasida onalik va otalik izzat-ikromga hamda hurmatga sazovordir.

9.2. Nikoh tuzish asoslari

O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksining 13-moddasida nikoh tuzish tartibi mustahkamlangan bo'lib, unga ko'ra nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida tuzilishi va diniy rasm-rusumlarga binoan tuzilgan nikoh huquqiy ahamiyatga ega emasligi ta'kidlangan.

Nikoh tuzish nikohlanuvchilarning fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlariga ariza bergenlaridan keyin bir oy o'tgach, shaxsan ularning ishtirokida amalga oshiriladi. Uzrli sabablar bo'lganda fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organi bir oy o'tgunga qadar nikoh tuzishga ruxsat berishi mumkin.

¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: "O'zbekiston", 2020. –B.21.

² O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. Kuchga kirish sanasi 01.09.1998. // <https://lex.uz/docs/-104720>

Alovida hollar (homiladorlik, bola tug'ilishi, bir tarafning kasalligi va boshqalar)da nikoh ariza berilgan kuni tuzilishi mumkin. Nikoh tuzish fuqarolik holati dalolatnomalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organi nikohni ro'yxatga olishni rad etganda, shikoyat bilan bevosita sudga yoki bo'ysunishiga ko'ra yuqori turuvchi organga murojaat qilinishi mumkin.

Oila kodeksining 14-moddasiga muvofiq, nikoh tuzish ixtiyoriydir. Nikoh tuzish uchun bo'lajak er-xotin o'z roziligini erkin ifoda etish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Nikoh tuzishga majbur qilish taqiqlanadi.

Respublikamizda nikoh yoshi erkaklar va ayollar uchun o'n sakkiz yosh etib belgilangan. Uzrli sabablar bo'lganida, alovida hollarda (homiladorlik, bola tug'ilishi, voyaga yetmagan shaxsning to'la muomalaga layoqatli deb e'lon qilinishi (emansipatsiya), nikohga kirishni xohlovchilarining iltimosiga ko'ra nikoh davlat ro'yxatidan o'tkaziladigan joydagি tuman, shahar hokimi nikoh yoshini ko'pi bilan bir yilga kamaytirishi mumkin¹.

Oila qonunchiligidagi nikoh tuzishga monelik qiladigan quyidagi holatlar ko'rsatilgan:

loaqlal bittasi ro'yxatga olingan boshqa nikohda turgan shaxslar o'rtasida

nasl-nasab shajarasi bo'yicha to'g'ri tutashgan qarindoshlar o'rtasida, tug'ishgan va o'gay aka-ukalar bilan opa-singillar o'rtasida, shuningdek farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinganlar o'rtasida

loaqlal bittasi ruhiyat buzilishi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar o'rtasida yo'l qo'yilmaydi

Nikohlanuvchi shaxslar davlat sog'lijni saqlash tizimi muassasalarida bepul asosda tibbiy ko'rikdan o'tadilar. Tibbiy ko'rikdan o'tish hajmi va tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

¹ O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. Kuchga kirish sanasi 01.09.1998. // <https://lex.uz/docs/-104720>

9.3. Ota-onaning farzandlar oldidagi majburiyati

Ota-onani farzandlar oldidagi burchi Konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanishi, yosh avlodga bo’lgan e’tiborni ko’rsatadi. Ota-oni farzand ko’rgach uni voyaga yetkazishi, tarbiyalashi shart. Tarbiyasiz, yetarli ta’minotsiz farzand jamiyatda o’z o’rnini topishi u yoqda tursin, jamiyat uchun xavfli shaxsga aylanadi.

Konstitutsianing 64-moddasida “Ota-onalar o’z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar”, – deb belgilangan¹. Bundan kelib chiqadiki, majburiyat ikki narsani hal qilishga qaratilgan, birinchisi, farzandlarni boqish, ikkinchisi, tarbiyalash.

Farzandni boqish deganda, uni voyaga yetguncha barcha moddiy ehtiyojlarini qondirish, yashashi uchun eng zarur imkoniyatlarni yaratish tushuniladi. Bu – ovqatlantirish, kiyintirish, bolalarni yashash uchun zarur jihozlar bilan ta’minalash, o’qitish, o’qish va bilim olish uchun zarur qurol va jihozlar bilan ta’minalashdir.

Bunda har bir ota-oni o’z moddiy imkoniyatlaridan kelib chiqib, tegishli sharoitlarni yaratadi. Ota-onaning muhim va mashaqqatli majburiyati bu, bolani tarbiyalashdir. Maktabgacha bola to’la ota-oni ixtiyorida bo’ladi. Ayrim bolalar maktabgacha tarbiya muassasalarida bo’lishi ham mumkin. Bola maktabgacha ota-oni ixtiyorida bo’lganda, bolani tarbiyasiga faqat ota-oni javobgar. Shu davrda bolani atrofdagi va oiladagi hodisa, voqyealarga munosabati shakllana boshlaydi. Shuning uchun bola ongida faqat ijobjiy qarashlar shakllanishi uchun, ota-oni katta ishlari olib borishi, barcha yaxshi ishlari, odatlar, xislatlar, voqealar haqida bolaga tushunchalar berishi, tarbiya jarayonida texnika vositalaridan ayniqsa, televizorlardagi bolalar uchun ko’rsatuvlarga ularni jalb qilish juda ham muhim. Bola tarbiyasida ularni tabiatga, o’simlik va hayvonlarga yaxshi munosabatda bo’lish ruhida tarbiyalash alohida rol o’ynaydi. Tarbiya natijasida o’simlik va hayvonot dunyosiga do’stlik ruhini vujudga keltirish zarur. Bola tarbiyasi natijasida ularning bir-biriga, kattalarga hurmati, mahalla, vatanga hurmatining

¹ O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O’zbekiston”, 2020. –B.21.

boshlang'ich asoslari vujudga keladi.

Bolani boqish va voyaga yetkazish majburiyatida bolalarni o'qitish, o'qish uchun zarur sharoitlarni yaratish, bolani qobiliyatiga qarab bilim berishni amalga oshirish, o'quv dargohidagi ishlarini kuzatib turish muhim hisoblanadi.

Bolani voyaga yetguncha barcha ehtiyojlarini imkoniyat darajasida qondirgan ota-onalar majburiyatni ado etgan hisoblanadi. Otalik, onalik majburiyatlarini bajarmaganlar qonun asosida ota-onalik huqiqidan mahrum qilinadi.

9.4. Davlatning ota-onalar vasiyligidan mahrum bo'lган hamda yetim bolalarni boqish, tarbiyalash, o'qitish vazifasi

Davlat ota-onalarga farzandlarini voyaga yetguncha boqish, tarbiyalash majburiyatini yuklash bilan birga, ota-onasiz bolalarni boqishni, tarbiya qilishni, o'qitishni o'z zimmasiga oladi. Bu Konstitutsiyadagi: “Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo'lган bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi, bolalarga bag'ishlangan xayriya faoliyatlarini rag'batlantiradi”, - degan qoida asosida amalga oshiriladi¹.

Voyaga yetgunga qadar davlat va jamiyat qaramog'ida bo'ladijan, ularning yordamiga muhtoj bolalar deganda, yetim bolalarni (ota-onasi vafot etgan bolalarni), ota-onaning vasiyligidan mahrum bo'lган (ota-onalari tashlab ketgan yoki ota-onalik huquqidan tegishli tartibda mahrum qilinganlar) bolalarni nazarda tutamiz. Bunday yordamga muhtoj bolalarni davlat turli tadbirlar belgilab, muntazam ravishda ular hayotda o'z o'rinalarini topishi uchun zarur sharoit yaratib beradi.

Bola ota-onasiz bo'lsa, “Mehribonlik” uylariga, maxsus muassasalarga joylashtiriladi. Turli sabablarga ko'ra bolalarning ota-onasidan tarbiya olish imkoniyati bo'lmasa, bola oilalarga farzandlikka beriladi yoki unga voyaga yetgunicha vasiylik hamda homiylik belgilanadi.

Hozirgi kunda ko'plab oilalar yetim bolalarni asrab olib, ularning tarbiyasi

¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O'zbekiston”, 2020. –B.22.

bilan shug'ullanmoqda. Bunday tajriba, ya'ni ota-onasiz yetim bolalarni o'z oilasiga olib farzandlaridek tarbiyalash, topganini baravar baham ko'rish xalqimiz ma'naviyatiga xos bo'lib, urf-odatga aylangan.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda, "Hozirgi kunda respublikamizda alohida e'tiborga muhtoj 18 yoshgacha bo'lган 150 ming nafar farzandlarimiz bor. Ularning ta'lim olishi, aniq bir kasbni egallashi uchun ko'maklashish, og'ir kasallikka chalinganlarni davolash, chin yetimlarga hayotda o'z o'rnini topishga yordam berish, uy-joy bilan ta'minlash - nafaqat vazifamiz, avvalo, insoniy burchimizdir. 2021 yilda birinchi marta byudjetdan 900 nafar chin yetim yoshlarni uy-joy bilan ta'minlashga 50 milliard so'm ajratiladi. Umuman, bunday ezgu ishlarni tizimli yo'lga qo'yish uchun Bolalarni qo'llab-quvvatlash jamoat fondini tashkil etib, unga byudjetdan 100 milliard so'm yo'naltirsak, o'ylaymanki, sizlar ham bu tashabbusni qo'llab-quvvatlaysiz. Bu mablag'lar yil davomida ko'paytirib boriladi"¹.

2021 yil 9 avgust Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Yetim bolalar va ota-onan qaramog'idan mahrum bo'lган bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorni imzoladi. Unga muvofiq, o'quv-tarbiya muassasalari tarbiyalanuvchilarining muammolarini o'rganish hamda hal etish, ularning orzu-istiklarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish bo'yicha "Mehr daftari" tizimini hayotga tatbiq etish, yetim bolalar va ota-onan qaramog'idan mahrum bo'lган bolalarni farzandlikka, vasiylikka (homiylikka, patronatga) oladigan oilalarda tarbiyalashni rag'batlantirish amaliyotini joriy etish hisobiga o'quv-tarbiya muassasalarida tarbiyalanuvchilarini bosqichma-bosqich farzandlikka, vasiylikka (homiylikka, patronatga) oladigan oilalarda tarbiyalashga o'tkazish choralarini ko'rish kabilar belgilangan².

Konstitutsianing "Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi", - degan 65-moddasi qoidalari, farzandlarga teng huquqlilik va teng imkoniyat bo'lishini nazarda tutadi hamda har qanday holda onalik va bolalikning davlat

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // "Xalq so'zi" gazetasi, 2020 yil 30 dekabr, № 276.

² O'zbekistonda "Mehr daftari" tizimi yo'lga qo'yilmoqda. // <https://kun.uz/uz/25047986>

tomonidan himoyaga olinishini ko'rsatuvchi yana bir muhim huquqiy asosdir.

Ota-onasizlar jamiyat va davlatning ko'magi ostida hayotda o'z o'rnini topmoqda. Davlat yetim-yesirlarga faqat umumiyligini ta'lim olishda imtiyoz va imkoniyatlar yaratibgina qolmasdan, ularni ta'limning boshqa bosqichlarida qo'llab-quvvatlamoqda. O'quv yurtlariga o'quvchi qabul qilishda ota-onasizlarga tegishli hujjatlar asosida imtiyozlar berilgan. Ana shu imtiyozdan foydalanib, ko'plab ota-onasizlar o'zlari uchun zarur kasblarga ega bo'lmoqda. Ular o'quv muassasalari tomonidan iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlanmoqda.

9.5. Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlarning ota-onalariga g'amxo'rlik qilishga majburligi

Voyaga yetgan farzandlarning ota-onasi oldida ko'plab majburiyatlar bo'lib, bu majburiyatlar ota-onaga g'amxo'rlik qilishni nazarda tutadi. Bu burch nafaqat Konstitutsiyaviy burch, u xalqimiz qon-qoniga singgan, axloqiy qoidalarga mos urf-odatimiz hamdir.

Azaldan ota-onaga g'amxo'rlik qilingan, ularni ranjitgan farzandlar, qoralangan, qarg'ishga qolgan, ulardan hamma yuz o'girib, yakkalab qo'ygan. Ana shu ahloqiy qoida Konstitutsiyada qoida sifatida mustahkamlangach, endi noqobil farzandlarni nafaqat qoralash, qarg'ash, yakkalab qo'yish emas, qonun yo'li bilan jazolash imkonini tug'ildi.

Konstitutsianing 66-moddasida "Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalariga g'amxo'rlik qilishga majbur" ¹ - degan qoida belgilandi. Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalariga ular birgalikda yashaydimi, alohida yashaydimi (qayerda yashashidan qat'i nazar) bundan qat'i nazar g'amxo'rlik qilishga majbur.

Farzandni ota-onaga g'amxo'rligi nimalardan iborat? Eng avvalo ota-onani normal yashashi uchun to'liq imkoniyat yaratish. Bu turar-joy bilan, oziq-ovqat (yegulik), kiyim-bosh bilan ta'minlash. Ota-onalarni sog'lig'i haqida g'amxo'rlik qilish, ularni tibbiy xizmatga muhtojligida tibbiy xizmatdan foydalanishini

¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: "O'zbekiston", 2020. –B.22.

ta'minlash.

Iqtisodiy tomondan g'amxo'rlikning o'zigina ota-onas ehtiyojini qondirmaydi, unga qo'shimcha ravishda ma'naviy jihatdan ham ota-onas qo'llab-quvvatlanishi kerak.

Farzandlar ota-onas ehtiyojini ixtiyoriy ravishda qondirmasa, unda ularga majburlov choralari quriladi. Moddiy majburlov choralari bu, farzandlardan ota-onas hisobiga majburiy to'lov (aliment) undirishdir.

Mehnatga layoqatli, ma'lum iqtisodiy imkoniyatlari yetarli, turar-joy masalasida qiyinchiligi yo'q farzandlarning ota-onalarini qariyalar uyiga joylashtirishi xalqimizda eng yomon uyat ish, oriyatsizlik deb qoranadi.

Oila munosabatlarini Konstitutsiyaviy asosda hal qilinishi, Konstitutsiyada unga alohida bob ajratilishi, bizda oilaga bo'lgan jiddiy munosabatni isbotidir. Oilani mustahkamlash bu, jamiyatni mustahkamlash va rivojlantirish ekanligi, davlatning oilaga bo'lgan munosabatini belgilovchi asosiy holatdir. Inson o'z salomatligini saqlashga harakat qilganidek, jamiyat ham oilani mustahkamlashga harakat qiladi, chunki jamiyat sog'liqi oila sog'lomligiga bog'liq. Oilalar sog'lom bo'lsa, jamiyat ham sog'lom bo'ladi.

9.6. Ommaviy axborot vositalari

Ommaviy axborot vositalari – jamiyatni demokratlashtirish va fuqarolar erkinligini ta'minlashning muhim shartidir. Demokratik islohotlarni hayotga tatbiq etish, yangicha dunyoqarashni shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining o'rni va ahamiyati katta. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlab o'tganidek: "Ommaviy axborot vositalari mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli o'zgarishlarni xolis yoritish bilan birga, joylardagi mavjud dolzARB muammolarga davlat idoralari va jamoatchilik e'tiborini qaratib, ularni bartaraf etishga barcha darajadagi rahbarlarni da'vat etib, undab kelayotganini alohida

ta'kidlab o'tmoqchiman. Ular tom ma'noda "to'rtinchi hokimiyat"ga aylanib bormoqda"¹.

Darhaqiqat, bugun O'zbekiston aholisining ko'p millatli ekanligi inobatga olinib, 12 tilda gazetalar chop etilmoqda, bir necha tilda teleko'rsatuv va radioeshittirishlar efirga uzatilayapti. Yurtimizda 27 iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni sifatida nishonlanib kelinmoqda. Jurnalist ijodkorlarni har tomonlama rag'batlantirish masalasiga ham katta e'tibor berilayotir. 3 may – Jahon matbuoti erkinligi kuniga bag'ishlab jurnalistik sohasida "Oltin qalam" Milliy mukofoti ta'sis etilib tanlov o'tkazilmoqda².

Shuningdek, mamlakatimizda OAV faoliyatini qo'llabquvvatlash va uni rivojlantirish borasida mustahkam qonuniy asos shakllantirilgan bo'lib, ulardan "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi, "Axborot olish erkinligi va kafolatlari to'g'risida"gi, "Reklama to'g'risida"gi, "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi va boshqa qator qonunlarni misol keltirishimiz mumkin.

Xususan, "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi qonunning 4-moddasida ommaviy axborot vositalariga shunday ta'rif berilgan: "Ommaviy axborotni davriy tarqatishning doimiy nomga ega bo'lgan hamda bosma tarzda (gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, byulletenlar va boshqalar) va (yoki) elektron tarzda (tele, radio, video, kinoxronikal dasturlar, Internet jahon axborot tarmog'idagi veb-saytlar) olti oyda kamida bir marta nashr etiladigan yoki efirga beriladigan (bundan buyon matnda chiqariladigan deb yuritiladi), qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro'yxatga olingan shakli hamda ommaviy axborotni davriy tarqatishning boshqa shakllari ommaviy axborot vositasidir. O'zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalari o'z faoliyatini "Davlat tili haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq amalga oshiradi"³.

Qonunda O'zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalari erkinligi, har kim, agar qonunda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, ommaviy

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // "Xalq so'zi" gazetasи, 2020 yil 30 dekabr, № 276.

² Jalilov A., Muhammadiyev U., Jo'rayev Q. Fuqarolik jamiyati asoslari. –T.: "Baktria press", 2015. –B.187.

³"Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida O'zbekiston Respublikasi qonuni 15.01.2007 yildagi O'RQ-78-son. // <https://lex.uz/docs/-1106870>

axborot vositalarida chiqish, o’z fikri va e’tiqodini oshkora bayon etish huquqiga ega ekanligi, davlat ommaviy axborot vositalarining faoliyati va axborotdan foydalanish erkinligini, mulk huquqini, davlat organlarining g’ayriqonuniy qarorlaridan, ular mansabdor shaxslarining g’ayriqonuniy harakatlaridan (harakatsizligidan) himoya qilinishini kafolatlashi, ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga to’sqinlik qilish yoki aralashish taqiqlanishi, ommaviy axborot vositalari qonun hujjatlariga muvofiq axborotni izlash, olish, tadqiq etish, tarqatish, undan foydalanish, uni saqlash huquqiga ega hamda tarqatilayotgan axborotning xolisligi va ishonchliligi uchun belgilangan tartibda javobgar bo’lishi mustahkamlab qo’yilgan.

O’zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalarini senzura qilishga yo’l qo’yilmaydi. E’lon qilinayotgan xabarlar va materiallar oldindan kelishib olinishini, shuningdek ularning matni o’zgartirilishini yoki butunlay nashrdan olib qolinishini (efirga berilmasligini) talab qilishga hech kimning haqi yo’q.

O’zbekiston Respublikasining yuridik va jismoniy shaxslari ommaviy axborot vositalarini ta’sis etish huquqiga egadirlar.

Quyidagilar ommaviy axborot vositasining muassisi bo’lishi mumkin emas:

- o’n sakkiz yoshga to’limgan shaxs;
- qasddan sodir etgan jinoyati uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan yoxud sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxs;
- faoliyati qonun bilan taqiqlangan nodavlat notijorat tashkiloti.

Ustav fondida chet el investitsiyalarining ulushi o’ttiz va undan ortiq foizni tashkil etgan yuridik shaxslar tomonidan ommaviy axborot vositalari ta’sis etilishiga yo’l qo’yilmaydi.

Tayanch iboralar:

1. oila,
2. ma’naviy ehtiyoj,
- 3 .nikoh,

4. ariza,
5. muomala layoqati,
6. nikoh yoshi,
7. tibbiy ko'rik,
8. nikohlanuvchi shaxslar,
9. vasiylik,
10. xayriya faoliyati,
11. aliment,
12. OAV,
13. matbuot,
14. axborot,
15. senzura

O'z- o'zini nazorat qilish uchun savollar:

1. Nima uchun oila jamiyatning asosiy bo'g'ini?
2. Oila davlat va jamiyatning qanday himoyasida bo'ladi?
3. Mamlakatimizda oilaga bag'ishlangan qanday yillarni bilasiz?
4. Nikoh nima?
5. Nikoh tuzish asoslari qanday?
6. Ota-onaning farzandlar oldidagi majburiyati nimalardan iborat?
7. Ota-onasizlarga davlat qanday g'amxo'rlik qiladi?
8. Farzandlarning ota-onalar oldidagi majburiyati nimalardan iborat?
9. Jamiyat hayotida OAV roli nimalardan iborat?
10. OAV faoliyatida senzuraga munosabat qanday?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O'zbekiston” NMIU, 2020. –80 b.
2. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. Kuchga kirish sanasi 01.09.1998. // <https://lex.uz/docs/-104720>
3. “Ommaviy axborot vositalari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida O'zbekiston Respublikasi qonuni 15.01.2007 yildagi O'RQ-78-son. // <https://lex.uz/docs/-1106870>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. //“Xalq so'zi” gazetasi, 2021 yil 7 mart, №48 (7828)
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // “Xalq so'zi” gazetasi, 2020 yil 30 dekabr, № 276.

6. Jalilov A., Muhammadiyev U., Jo'rayev Q. Fuqarolik jamiyatasi asoslari. –T.: “Baktria press”, 2015. –264 b.
7. O‘zbekistonda “Mehr daftari” tizimi yo‘lga qo‘yilmoqda. // <https://kun.uz/>
8. Shirinov A.Q. Ommaviy axborot vositalari sohasidagi erkinlashtirish jarayonlari inson taraqqiyotini ta'minlovchi vosita sifatida. Jahon matbuot erkinligi OAV davlat va jamiyat hayotidagi roli mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumani maqolalari to‘plami. –T: Respublika yosh olimlar kengashi, 2021. -B.56-58.

10-Mavzu: O’ZBEKISTONNING MA’MURIY-HUDUDIY TUZILISHI

10.1. O’zbekistonning davlat tuzilishi shakli

Muayyan bir davlatning ma’muriy hududiy tuzilishini o’rganishda ma’muriy-hududiy tuzilish tushunchasi bilan birga davlat tuzilishi shakli tushunchasiga ham e’tibor qaratish lozim. Chunki, bu tushunchalar mazmunan bir-biriga bog’liq bo’lib, har doim biri ikkinchisini taqozo etib turadi. Davlat tuzilishi davlat shaklining muhim bir turi hisoblanadi. Davlat tuzilishi shu davlat oldida turgan vazifalar va maqsadalar bilan belgilanadi.

Davlat tuzilishi shakliga qo‘yidagi turli xil omillar ta’sir etadi:

- 1) davlat va jamiyat oldida turgan iqtisodiy vazifalar;
- 3) davlatdagi siyosiy kuchlarning o’zaro nisbati;
- 4) davlat hududida istiqomat qilayotgan aholining ko’p millatligi va o’zaro munosabati;
- 5) davlat hududining katta yoki kichikligi ta’sir etadi;
- 6) uzoq yillar davomida shakllangan tarixiy an’analar;
- 7) jamiyatdagi mavjud ijtimoiy ong.

Demak, **davlat tuzilishi shakli** deganda, davlat hokimiyatining ma’muriy-hududiy uyushuvi, davlat va uni tashkil etgan hududlarning, ayrim qismlarning, markaziy va mahalliy idoralar orasidagi munosabatlarning tabiat tushuniladi¹.

Davlat tuzilishi - davlatning ma’muriy-hududiy bo’linish tamoyillari va

¹ Tadjixanov U., Odilqoriyev H., Saidov A. O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. –T.: “IV Akademiyasi”, 2001. –B.436-437.

tuzilishini hamda ma'muriy-hududiy birliklarning yuridik maqomini, davlatning markaziy organlari bilan mazkur organlarning joylardagi mahalliy organlar bilan o'zaro munosabatlari qanday xususiyatlardan iborat ekanligini qamrab oluvchi tushunchadir.

Milliy-davlat tuzilishi - davlatning tuzilishi, uning ma'muriy-hududiy bo'linishi, davlat bilan uning tarkibiy qismlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, davlat va uning tarkibiy qismlarining huquqiy holati, ularning vakolatlari xarakteri va hajmidan iborat ekanligi tushuniladi.¹

Ma'muriy – hududiy tuzilish – davlat tuzilishi tushunchasining tarkibiy qismi bo'lib, davlat o'z vazifa va funksiyalarini bajarishi uchun, muayyan cheklangan hududini ma'lum bir hududiy (ma'muriy-hududiy) bo'laklarga bo'linishini tushunish lozim.

Davlatni hududiy jihatdan tashkilashtirish o'z *maqsadi* va *vazifalariga* ko'ra nafaqat *ma'muriy-hududiy*, balki:

iqtisodiy-hududiy (masalan, erkin savdo qiluvchi zonalar);

harbiy-hududiy (masalan, O'zbekistonda tashkil etilgan Toshkent, Markaziy, Shimoliy, Janubiy, Farbiy, Sharqiy harbiy okruglar);

siyosiy-hududiy (masalan, barqarorlikni saqlash va etnik masalalarni hal qilish uchun ajratiladigan mintaqalar);

ekologik-hududiy (masalan, Orol va Orol bo'yи ekologik inqiroz holatidagi alohida muhofozaga muhtoj bo'lgan yer kengligining quruqlik qismi va suv akvatoriyasi) shakllarda namoyon bo'lishi mumkin.²


Ma'muriy – hududiy birlik – davlat ma'muriy-hududiy tuzilishi tizimining mustaqil tarkibiy qismi bo'lib, bir necha pog'anada tashkil etilishi mumkin. Masalan, O'zbekiston Respublikasi ham ko'p pog'onali ma'muriy hududiy tuzilishga ega (viloyat, tuman, qishloq yoki ovul).

Davlat ichki tuzilishiga, uning tarkibiy qismlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlariga, davlatning markaziy va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasidagi

¹ Tadjixanov U., Odilqoriyev H., Saidov A. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. –T.: “IIV Akademiyasi”, 2001. –B.435.

² O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. –T.: “Moliya”, 2002. –B.377.

munosabatlarga, ma'muriy-hududiy birliklarning yuridik mavqeyiga ko'ra, davlat tuzilishi odatda uch shaklga bo'linadi:



Unitar (fransuzcha “unitaire” - “yagona”) davlat tarkibida hech qanday davlat tuzilmalari mavjud bo'lмаган yaxlit davlatdir. Hozir jahonda eng ko'p tarqalgan davlat tuzilish shakllaridan biridir. Ular qatoriga Italiya, Yaponiya, Ukraina va boshqalar kiradi. Unitar davlatlar huquqiy jihatdan teng bo'lgan ma'muriy-hududiy qismlarga (viloyatlar, regionlar, guberniya, grafliklarga) bo'linadi. O'zbekiston Respublikasi ham unitar davlat hisoblanadi¹.

Unitar davlatlarning aksariyati muayyan ma'muriy-hududiy bo'linishga (Masalan: O'zbekiston Respublikasi viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullar) ega bo'ladi. Biroq mazkur hududiy qismlar davlat tuzilmasi alomatlariga ega emas. Unitar davlatlar qo'yidagi huquqiy belgilarga ega:

- unitar davatlarda yagona davlat hokimiyati oliy organlar tizimi mavjudligi;
- yagona Konstitutsiya va qonunchilik tizimiga egaligi;
- yagona fuqarolikka;
- unitar davlatlar yagona bo'linmas va daxlsiz hududga ega bo'lishi.

Barcha unitar davlatlarga xos bo'lgan markazlashtirish turli shakl va darajalarda namoyon bo'lishi mumkin. Ba'zi mamlakatlarda umuman mahalliy idorlar mavjud bo'lmay, ma'muriy-hududiy o'lkalar markaziy hokimiyat tayinlaydigan vakillar tomonidan boshqariladi. Boshqa davatlarda esa mahalliy idoralar tuzilib (jumladan, vakillik organlari tuziladi) ular markaziy hokimiyat oldida (bevosita yoki bilvosita) hisobot beradilar.

¹ Rustamboyev M.X, Ahmedov D.Q, Xidirov S.M, Bekov I.R. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rGANISH. -T.: "Yangi asr avlod'i", 2005. -B.159.

Avtonomiya bu - davlatning muayyan qismining ichki o'zini-o'zi boshqarishi bo'lib, bu qism davlatning boshqa qismlaridan ba'zi maxsus jihatlari, masalan tarixiy, madaniy, diniy, maishiy, til, geografik, ba'zan milliy jihatlari bilan farqlanadi. Avtonomianing turlari juda va shunga muvofiq ular:

- siyosiy avtonomiya;
- ma'muriy-hududiy yoki etnohududiy avtonomiya;
- madaniy-milliy avtonomiya.

O'zbekiston Respublikasi xam o'z davlat tuzilishi shakliga ko'ra murakkab, nisbiy markazlashgan unitar davlatadir. Sodda unitar davlatlar hududida boshqa mustaqil davlatlar bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasi murakkab tuzilishga ega ekanligining sababi, uning tarkibida alohida davlat tuzilmasi, ya'ni Qoraqalpog'iston Respublikasi mavjudligidir.

Unitar davlatlar ichidagi ma'muriy-hududiy bo'linmalar faqat mahalliy miqyosdagi masalalarni hal etish huquqiga ega, yagona markaziy davlat hokimiyatining kuchi davlatning butun hududida o'z ta'sirini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi unitar davlat bo'lib, davlat hokimiyati Konstitutsiyada hokimiyatning taqsimlanish nazariyasiga binoan mustahkamlangan. O'zbekiston Respublikasi hududiy jihatdan bo'linmas yagona davlatni tashkil etadi. Uning tarkibiga Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullar kiradi.¹

Federativ davlat (lotincha "feodus"- "ittifoq") unitar davlatga qaraganda murakkab tuzilishga ega bo'lib, uning subyektlari bir muncha siyosiy mustaqillikka ega bo'ladi. Federatsiya bu - davlatlar ittifoqi bo'lib, uning tarkibiga ittifoq hukuqlari bilan rasmiy cheklangan, yuridik mustaqillikga ega bo'lgan davlat tuzilmalari kiradi. Federativ davlat unitar davlatdan farq qiladi, bu farq Federatsiya tarkibiga kirgan tarkibiy qismlarning ma'muriy hududiy bo'linma emas, balki davlat tuzilmalaridan iborat ekanlidigadir².

¹ Huquq va boshqaruv sohasidagi xalqaro atamalar to'plami. 1-tom. T.: 1996. –B.13.

² Tadjixanov U., Odilqoriyev H., Saidov A. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. –T.: "Sharq", 2001. –B.438.

Ko'pincha "federativ davlat" termini o'rniga "ittifoq davlat" termini ham ishlataladi (masalan, sobiq Yugoslaviya Ittifoqi). Federativ davlatlar tarkibiga kirgan davlat tuzilmalari turlicha nomlanadi Germaniyada yerliklar, AQSH, Hindistonda shtatlar, Kanada va Pokistonda provinsiyalar, Birlashgan Arab Amirliklarida amirliklar, Shveysariyada kantonlar deb ataladi. Ilmiy adabiyotda va amaliyotda ularni umumlashtirib Federatsiya a'zolari yoki subyektlari deb atash keng tarqalgan.

Davlat tuzilishi shakli sifatida Federatsiya qo'yidagi spetsifik belgilarga ega:

- federatsiya davlat tuzilmalaridan iborat bo'ladi;
- unitar davlatlardan farqli ularoq federatsiya hududi yaxlit hudud sifatida e'tirof etilmaydi;
- federatsiya subyektlari suveren mustaqil davlat emas, shuning uchun sesessiya (ajralib chiqish huquqi) berilmaydi;
- federatsiya subyektlarida umumfederal Konstitutsiya va qonunlar bilan bir qatorda o'zlarining Konstitutsiya va qonunlariga ham ega bo'lishi mumkin;
- federativ davlatlarda federatsiya fuqaroligi bilan bir vaqtida federatsiya subyektlarining ham fuqaroligi mavjud bo'ladi;
- aksariyat hollarda federativ davlatlar ikki palatali parlament tizimiga ega bo'ladi (bikameralizm).

Konfederatsiya. Xorijiy maamlakatlarning hududiy davlat tuzilishi shakllari ichida xalqaro shartnomalar asosida tashkil topgan tuzilmalar ham mavjud. Bunday davlat-hududiy tuzilmalarni konfederatsiya deb atashadi.

Konfederatsiya bu – ma'lum bir vazifani bajarish uchun birlashgan mustaqil davlatlar ittifoqidir. Konfederatsiya Federatsiyadan farq qilgan holda, u ittifoq davlati emas, balki davlatlar ittifoqi hisoblanadi. Konfederatsiya iqtisodiy, siyosiy, harbiy, bojxona va boshqa maqsadlarda tuzilishi mumkin.

Undan tashqari jahon amaliyotida **davlatlarning hamkorlik shakllari** ham mavjuddir. Ularga qo'yidagilar kiradi: hamdo'stlik, hamjamiyat, ittifoqlar, uniyalar, protektorat.

10.2. O’zbekistonning ma’muriy-hududiy tuzilishi

Har qanday mamlakat, jumladan, O’zbekiston ham ma’lum geografik joyda belgilangan chegaralar doirasida joylashgan. Bu mamlakatning hududi hisoblanadi. Aniq chegaralangan hududga ega bo’lish davlatni davlat sifatida ko’rsatuvchi asosiy shartlardandir. Ma’lum hududsiz davlat bo’lishi mumkin emas. Davlat aniq bir hududda faoliyat ko’rsatadi va davlat faoliyati shu hududda amal qiladi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning: “Markaziy Osiyo mintaqasida – Qozog’iston, Qирг’изистон, Тоҷикистон ва Ӯзбекистон bilan yaxshi qo’shnichilik munosabatlарини rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan tub o’zgarishlar O’zbekiston tashqi siyosatining asosiy yutug’idir”¹, -degan so’zlari zamirida umumiy sa’y-harakatlarimiz natijasida mintaqamizda o’zaro ishonch va bir-birini qo’llab-quvvatlash ruhiga asoslangan mutlaqo yangi muhit shakllanganligi misolida ko’rish mumkin.

2020-yil 28-avgustda qabul qilingan “O’zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi to’g’risida”gi Qonun mamlakatimizning ma’muriy-hududiy tuzilishi sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

O’zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi sohasidagi asosiy prinsiplar

O’zbekiston Respublikasi hududining yaxlitligi
va bo’linmasligi

qonuniylik

ma’muriy-hududiy birliklardagi davlat
boshqaruvinining samaradorligi

ma’muriy-hududiy birliklarning ijtimoiy-
iqtisodiy rivojlantirilishi

¹ O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy o’zaro bog’liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar” mavzusidagi xalqaro konferensiyadagi nutqi. //“Xalq so’zi” gazetasi, 2021 yil 17 iyul, №151 (7931)

Mazkur qonunning 5-moddasida O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy tuzilishining tarkibiy qismlari mustahkamlangan bo'lib, unda O'zbekiston Respublikasi viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullardan, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasidan iboratligi ko'rsatilgan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullardan iborat. Viloyatlar tumanlardan, shuningdek viloyat va tuman bo'y sunuvidagi shaharlardan, shaharchalar, qishloqlar hamda ovullardan iborat. Viloyat bo'y sunuvidagi shaharlar doirasida ham tumanlar tashkil qilinishi mumkin.

Viloyatlarning ma'muriy-hududiy chegaralari doirasida respublika bo'y sunuvidagi shaharlar bo'lishi mumkin. Toshkent shahri tumanlardan iborat¹.

10.3. Ma'muriy- hududiy birliklarni tashkil etish va tugatish tartibi

Mamlakatimizda viloyatlarni tuzish va tugatish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taklifiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- viloyatni tuzish yoki tugatish zarurligi va maqsadga muvofiqligi asoslantirilgan taklif;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining va Senatining qarorlari loyihalari;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tashkil etilgan komissiya xulosasi;
- viloyat chegaralarining va viloyat tarkibiga hududlari o'tkazilayotgan ma'muriy-hududiy birliklar chegaralarining kartografik chizmasi hamda viloyat chegaralari chizig'ining tavsifi (viloyatni tuzish to'g'risidagi taklifga ilova qilinadi);

¹ O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi to'g'risida" 28.08.2020 yildagi O'RQ-635-sonli Qonuni. // <https://www.lex.uz/docs/-4973063>

- tarkibiga tugatilayotgan viloyat hududi o'tkazilayotgan ma'muriy-hududiy birliklar chegaralarining kartografik chizmasi va ma'muriy-hududiy birliklar chegaralari chizig'ining tavsifi (viloyatni tugatish to'g'risidagi taklifga ilova qilinadi);
- viloyatni tuzish yoki tugatish bilan bog'liq tegishli hisob-kitoblar va xarajatlarni moliyalashtirish manbalari.

Respublika bo'y sunuvidagi shaharlarni tuzish va tugatish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taklifiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- respublika bo'y sunuvidagi shaharni tuzish yoki tugatish zarurligi va maqsadga muvofiqligi asoslantirilgan taklif;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining va Senatining qarorlari loyihalari;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tashkil etilgan komissiya xulosasi;
- respublika bo'y sunuvidagi shahar chegaralarining va respublika bo'y sunuvidagi shahar tarkibiga hududlari o'tkazilayotgan ma'muriy-hududiy birliklar chegaralarining kartografik chizmasi hamda respublika bo'y sunuvidagi shahar chegaralari chizig'ining tavsifi (respublika bo'y sunuvidagi shaharni tuzish to'g'risidagi taklifga ilova qilinadi);
- tarkibiga tugatilayotgan respublika bo'y sunuvidagi shahar hududi o'tkazilayotgan ma'muriy-hududiy birliklar chegaralarining kartografik chizmasi va ma'muriy-hududiy birliklar chegaralari chizig'ining tavsifi (respublika bo'y sunuvidagi shaharni tugatish to'g'risidagi taklifga ilova qilinadi);
- respublika bo'y sunuvidagi shaharni tuzish yoki tugatish bilan bog'liq tegishli hisob-kitoblar va xarajatlarni moliyalashtirish manbalari¹.

¹ O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi to'g'risida" 28.08.2020 yildagi O'RQ-635-sonli Qonuni. // <https://www.lex.uz/docs/-4973063>

Mamlakatimiz qonunchiligidagi viloyat va tuman bo'ysunuvidagi shaharlarni, viloyatlar tumanlarini, Toshkent shahar tumanlarini va viloyat bo'ysunuvidagi shaharlar tumanlarini tuzish hamda tugatish borasida alohida tartib belgilangan. Unga asosan, viloyat va tuman bo'ysunuvidagi shaharlarni, viloyatlar tumanlarini, Toshkent shahar tumanlarini va viloyat bo'ysunuvidagi shaharlar tumanlarini tuzish hamda tugatish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taklifiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan tegishli viloyatlar hokimlarining, Toshkent shahri tumanlariga nisbatan esa – Toshkent shahar hokimining iltimosnomalari asosida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini tegishli viloyat yoki Toshkent shahar hokimining shahar yoki tumanni tuzish yoki tugatish haqidagi iltimosnomasini iltimosnomaga kelib tushganidan keyin o'ttiz kun ichida ko'rib chiqadi va uni ma'qullaydi yoki rad etadi.

Tegishli viloyat yoki Toshkent shahar hokimining shahar yoki tumanni tuzish yoki tugatish haqidagi iltimosnomasi ma'qullangan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini shahar yoki tumanni tuzish yoki tugatish to'g'risidagi taklifni hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining va Senatining qarorlari loyihibarini o'n kun ichida tayyorlaydi hamda ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan hujjatlar bilan birga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga ko'rib chiqish uchun kiritadi.

Shuningdek, shaharchalarini, qishloqlarni va ovullarni tuzish hamda tugatish tegishli tumanlar hokimlarining iltimosnomalari asosida xalq deputatlari viloyat Kengashi tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi to'g'risida" 5-bobi O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy birliklarining chegaralarini o'zgartirish masalasiga bag'ishlanib, unda Qoraqalpog'iston Respublikasining chegaralari faqat uning roziligi bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining qarori asosida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan o'zgartirilishi mumkinligi ko'rsatilgan.

Qonunda viloyatlarning va Toshkent shahrining chegaralarini o'zgartirish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taklifiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan.

Ma'muriy-hududiy tuzilish sohasidagi ishlarni moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasining Davlat budgeti mablag'lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi. Ma'muriy-hududiy tuzilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

Tayanch iboralar:

1. ma'muriy hududiy tuzilishi,
2. davlat tuzilishi,
3. unitar davlat,
4. avtonomiya,
5. federativ davlat,
6. "ittifoq davlat",
7. konfederatsiya,
8. Vazirlar Mahkamasi,
9. chegara,
10. kartografik chizma

O'z- o'zini nazorat qilish uchun savollar:

1. Davlat shakllari deganda nimani tushunasiz?
2. Davlatni hududiy jihatdan tashkilashtirishni qanday ko'rinishlari mavjud?
3. Ma'muriy-hududiy tuzilish deganda nimani tushunasiz?
4. Ma'muriy-hududiy tuzilish qanday prinsiplarga asoslanadi?
5. Davlat tuzilishiga qanday omillar ta'sir etadi?
6. Unitar davlat ko'rinishlarini ko'rsating?
7. Avtonomiya nima?
8. Konfederativ davlat belgilarini aytib bering?
9. O'zbekiston Respublikasi davlat tuzilish shakliga ko'ra qanday davlat?

10. O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruv shakliga ko'ra qanday davlat?
11. O'zbekistonning ma'muriy-hududiy tuzilishi qanday?
12. Ma'muriy-hududiy birliklarni tuzish, tugatish tartibi qanday?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O'zbekiston” NMIU, 2020. –80 b.
2. O'zbekiston Respublikasining “O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi to'g'risida” 28.08.2020 yildagi O'RQ-635-sonli Qonuni. // <https://www.lex.uz/docs/-4973063>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy o'zaro bog'liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar” mavzusidagi xalqaro konferensiyadagi nutqi. //“Xalq so'zi” gazetasi, 2021 yil 17 iyul, №151 (7931)
4. Tadjixanov U., Odilqoriyev H., Saidov A. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. –T.: “Sharq”, 2001. –752 b.
5. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. –T.: “Moliya”, 2002. –645 b.
6. Rustamboyev M.X, Axmedov D.Q, Xidirov S.M, Bekov I.R. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rghanish. –T.: “Yangi asr avlod”, 2005. –400 b.
7. Huquq va boshqaruv sohasidagi xalqaro atamalar to'plami. 1-tom. T.: 1996. –B.13.

11-Mavzu: QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI

11.1. Qoraqalpog'iston respublikasining huquqiy maqomi

Qoraqalpog'iston – O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi Suveren demokratik Respublika. 1924-yil 14-oktabrda Turkiston ASSR tarkibida Muxtor viloyat sifatida tashkil etilgan. Maydoni 166,6 ming km². Aholisi 2 mlnga yaqin

(2021). Respublika poytaxti – Nukus shahri. Tarkibida 16 tuman, 12 shahar, 14 shaharcha va 124 fuqarolar yig‘ini bor¹.

Qoraqalpog‘iston – parlament boshqaruv shakliga ega bo‘lgan O’zbekiston respublikasi tarkibidagi hudud. Qonun chiqaruvchi oliy davlat vakolatli organi – ko‘p partiyaviylik asosida 5 yil muddatga saylangan deputatlardan iborat Qoraqalpog‘iston hududi Jo‘qorg‘i Kengeshi. Qoraqalpog‘iston hududi Jo‘qorg‘i Kengeshi raisi respublika rahbari hisoblanib, u Jo‘qorg‘i Kengesh deputatlari orasidan 5 yil muddatga saylanadi (faqat ketma-ket 2 muddatdan oshmaydi). Davlat hokimiyatining oliy ijro etuvchi-boshqaruvchi organi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, ya’ni Qoraqalpog‘iston Respublikasi hukumati hisoblanadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi O’zbekiston Respublikasi tarkibida 1990-yil 14-dekabr kuni Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy Kengashining IV sessiyasida “Qoraqalpog‘iston Respublikasining Davlat suvereniteti to’g’risida”gi deklaratsiyasini qabul qildi.

Suveren Qoraqalpog‘iston Respublikasining huquqiy maqomi “O’zbekiston Respublikasining Davlat suvereniteti to’g’risida”gi deklaratsiyada, “Qoraqalpog‘iston Respublikasining Davlat suvereniteti to’g’risida”gi deklaratsiyada, shuningdek “O’zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to’g’risida”gi konstitusiyaviy qonunida mustahkamlangan.

Deklaratsiya Qoraqalpog‘iston Respublikasining davlatchilik maqomini yanada rivojlantirishga keng yo‘l ochib bergen, ya’ni suveren va mustaqil Qoraqalpog‘istonning asosiy poydevori bo‘lmish yangi tahrirdagi Qoraqalpog‘iston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilingan.

11.2. Qoraqalpog‘iston Respublikasi – O’zbekiston Respublikasi tarkibidagi suveren davlat

O’zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi suveren Qoraqalpog‘iston Respublikasi uchun ham mustaqillik olib keldi. Chunki o’zbeklar bilan

¹ Qoraqalpog‘iston. // <https://uz.wikipedia.org/wiki/Qoraqalpog%CA%BBiston>

qoraqalpoqlar qadim zamonlardan beri birga bir hududda yashab, bir daryodan suv ichib, tashqi dushmanlarga qarshi ozodlik kurashlarini olib borgan xalqlar hisoblanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasida: "Qoraqalpog'iston – O'zbekiston Respublikasi tarkibiga kiradigan suveren demokratik respublika. Davlatning "Qoraqalpog'iston Respublikasi" va "Qoraqalpog'iston" degan nomlari bir ma'noni anglatadi. O'zbekiston Respublikasi bilan Qoraqalpog'iston Respublikasining o'zaro munosabatlari O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi o'rtaida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi doirasida tuzilgan shartnomalar va bitimlar bilan tartibga solinadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi tarkibidan Qoraqalpog'iston Respublikasi xalqining umumiy referendumi asosida ajralib chiqish huquqiga ega"¹, – deb mustahkamlangan.

Ushbu konstitutsiyaviy qoida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 70-moddasida ham belgilangan. Qoraqalpog'iston Respublikasining suveren davlat sifatida quyidagi belgilari mavjud:

birinchidan, asosiy qonuni – Konstitutsianing mavjudligi;

ikkinchidan, davlat ramzlari – bayroq, gerb va madhiyasining joriy etilganligi;

uchinchidan, davlat hokimiyatining mavjudligi;

to'rtinchidan, ma'muriy-hududiy tuzilishini mustaqil hal qilishi;

beshinchidan, Qoraqalpog'iston hududi va chegaralari uning rozilgisiz o'zgartirilishi mumkin emasligi;

oltinchidan, Qoraqalpog'iston O'zbekiston tarkibida o'z hududi va fuqarosiga ega alohida davlat sifatida konstitutsiyaviy mustahkamlanganligi;

yettinchidan, Qoraqalpog'istonda davlat tilining belgilanganligi;

sakkizinchidan, Qoraqalpog'iston O'zbekiston tarkibidan ajralib chiqish huquqiga egaligi;

¹ Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi. Kuchga kirish sanasi 09.04.1993. // <https://lex.uz/docs-4953674>

to'qqizinchidan, Qoraqalpog'iston xalqi nomidan faqat u saylagan Respublika oily davlat vakillik organi – Jo'qorg'i Kenges ish olib borishi belgilanganligi;

o'ninchidan, Respublika oliy davlat vakillik organi – Jo'qorg'i Kenges tomonidan respublika va mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimini, shuningdek, ularning vakolatlarini belgilashi;

o'n birinchidan, Respublika budgetini mustaqil qabul qilishi, mahalliy soliqlar va yig'imlar miqdorini belgilash huquqining mavjudligi;

o'n ikkinchidan, Qoraqalpog'istonning O'zbekiston bilan o'zaro munosabatlari shartnomaga va bitimlar bilan tartibga solinishi;

o'n uchinchidan, Qoraqalpog'istonning davlat suvereniteti O'zbekiston tomonidan muhofaza qilinishi;

o'n to'rtinchidan, Qoraqalpog'iston xalqaro ilmiy, madaniy va tashqi iqtisodiy aloqalarini qonun hujjatlariga binoan amalga oshirish huquqining mavjudligi.

11.3. Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasi va davlat tuzilishi

Respublikaning Asosiy qonuni dunyoga qoraqalpoq xalqining xohish-istiklarini bayon etib, unda qoraqalpoq davlatchiligin mustaqil xalq sifatida qayta tiklash, tinchlik va millatlararo totuvlikni mustahkamlash, umume'tirof etilgan xalqaro huquq normalariga asoslangan holda davlat boshqaruvida demokratiyanı chuqurlashtirish, inson huquqlari hamda davlat suvereniteti g'oyalariga sodiq qolish va adolatli huquqiy davlat barpo etish kabi oljanob niyatlarni e'lon qildi. Buning isboti sifatida Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasining muqaddimasida quyidagilar bayon etildi: "Inson huquqlariga va davlat suvereniteti g'oyalariga sodiqligini tantanali ravishda e'lon qilib, hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyatni anglagan holda, Qoraqalpog'iston davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasiga tayanib, demokratiya va ijtimoiy adolatga sadoqatini namoyon qilib, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalari ustunligini tan olgan holda, respublika fuqarolarining munosib hayot kechirishlarini ta'minlashga

intilib, insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishni ko'zlab, fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta'minlash maqsadida, o'zining muxtor vakillari siyosida Qoraqalpog'iston Respublikasining mazkur Konstitusiyasini qabul qiladi”¹.

Qoraqalpog'istonda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan bir vaqtda Qoraqalpog'iston Oliy kengashining 1993-yil 9-apreldagi 12-chaqiriq 12-sessiyasida qabul qilingan Qoraqalpog'iston Hududi Konstitutsiyasiga amal qilinadi. Qoraqalpog'iston o'z davlat ramzları: gerb, madhiya va bayrog'iga ega.

Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi 6 bo'lim, 26 bob va 120 moddadan iborat. Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasida quyidagi konstitutsiyaviy normalar mustahkamlangan:

birinchidan, Qoraqalpog'iston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumining asosiy prinsiplari bo'l mish davlat suvereniteti, xalq hokimiyatchiligi, Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasining xalqaro va tashqi iqtisodiy aloqalarini o'zida aks ettiruvchi huquqiy normalar belgilangan;

ikkinchidan, inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari bilan bog'liq asosiy huquqiy normalar mustahkamlangan;

uchinchidan, Qoraqalpog'iston Respublikasida jamiyat va shaxs o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi, ya'ni jamiyatning iqtisodiy negizlarini, jamoat birlashmalari, oila, ommaviy axborot vositalari faoliyatining asosini belgilaydigan konstitutsiyaviy-huquqiy normalar aks etgan;

to'rtinchidan, Qoraqalpog'iston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishini belgilaydigan konstitutsiyaviy-huquqiy normalar belgilangan;

beshinchidan, Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi, ularni tashkil etish tartibi, davlat organlarining vakolatlari va faoliyatini belgilovchi konstitutsiyaviy-huquqiy normalar belgilangan. Bu konstitutsiyaviy-huquqiy normalarda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va uning organlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisi,

¹ Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi. Kuchga kirish sanasi 09.04.1993. //https://lex.uz/docs/-4953674

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va uning organlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi mahalliy davlat hokimiyat organlari faoliyatining asoslari, sud hokimiyati va uning organlari, saylov tizimi, prokuratura organlarining faoliyati, vakolati va tuzilish asoslarini belgilab berilgan.

Mazkur konstitutsiyaviy-huquqiy normalar qoraqalpoq xalqining hayotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasining 10-moddasida "Qoraqalpog'iston xalqi nomidan faqat u saylagan Respublika Jo'qorg'i Kengesi ish olib borishi mumkin"¹, degan konstitutsiyaviy norma mustahkamlangan. Shuningdek, Respublikaning ba'zi bir davlat organlari davlatning asosiy prinsiplarini qo'llash jarayonida boshqaruva huquqidan foydalanadi, boshqa davlat organlari esa, ma'lum bir sohalarni Konstitutsiya va qonun hujjatlarida belgilangan vakolatlari doirasida amalga oshiradi. Davlat organlari belgilangan vakolatlarini amalga oshirish jarayonida jamoat tashkilotlari va respublika fuqarolari bilan o'zaro huquqiy munosabatlarni vujudga keltiradi.

Ma'lumki, Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat hokimiyati tizimi va huquqiy maqomining mustahkamlanishi avvalo, Qoraqalpog'iston Respublikasining 1990-yil 14-dekabrdagi "Davlat suverineteti to'g'risida"gi Deklaratsiyasi, O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 31-avgustdagagi "Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi qonuni va O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 8-dekabrdagi Konstitutsiyasida Qoraqalpog'iston Respublikasi huquqiy maqomining belgilanishi Qoraqalpog'iston Respublikasining 1993-yil 9-apreldagi Konstitutsiyasi hamda respublika davlat hokimiyati faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari bilan bevosita bog'liqdir.

Suveren va demokratik maqomga ega davlatlar singari Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat boshqaruvida ham hokimiyatlar bo'linishi prinsipiga asoslanadi. Jumladan, Asosiy qonunning 11-moddasiga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasida – qonun chiqaruvchi (Jo'qorg'i Kengesi), ijro etuvchi (Vazirlar

¹ "Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi". Kuchga kirish sanasi 09.04.1993. //<https://lex.uz/docs-4953674>

Kengashi) va sud hokimiyat (Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo'yicha sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi jinoyat ishlari bo'yicha sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi iqtisodiy sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi ma'muriy sudi, fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlari, jinoyat ishlari bo'yicha tuman va shahar sudlari, tumanlararo, tuman (shahar) iqtisodiy sudlari hamda tuman va shahar ma'muriy sudlari) larga bo'linishi mustahkamlangan. Konstitutsiyaviy sudi o'mida – Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasi Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tarkibida tashkil etilgan¹.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi – Qoraqalpog'iston Respublikasining Jo'qorg'i Kengesi oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi. Qoraqalpog'iston Respublikasining Jo'qorg'i Kengesi – hududiy saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida besh yil muddatga saylanadigan 65 deputatlardan iborat. Saylov kunigacha 25 yoshga to'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga saylanish huquqiga egadirlar.

Deputatlikka nomzodlar oldiga qo'yiladigan talablar qonun bilan belgilanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining mutlaq vakolatlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

- 1) Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qilish, unga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish;
- 2) Qoraqalpog'iston Respublikasi qonunlarini qabul qilish, ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, Qoraqalpog'iston Respublikasining qonunlarini sharhlash;
- 3) iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning davlat strategik dasturlarini qabul qilish;

¹ Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi. Kuchga kirish sanasi 09.04.1993. //https://lex.uz/docs/-4953674

- 4) Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisini va uning o'rribosarini saylash;
- 5) Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining Prezidiumini tuzish;
- 6) Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisining taklifiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisini tayinlash va lavozimidan ozod qilish;
- 7) Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o'rribosarlarini, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi a'zolarini tayinlash va lavozimidan ozod qilish, Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirliklarini, davlat qo'mitalarini hamda boshqa davlat boshqaruvi organlarini tuzish va tugatish;
- 8) Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasini, Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo'yicha sudi raisi va uning o'rribosarini, Qoraqalpog'iston Respublikasi jinoyat ishlari bo'yicha sudining raisi va uning o'rribosarini, Qoraqalpog'iston Respublikasi iqtisodiy sudi va Qoraqalpog'iston Respublikasi ma'muriy sudining raislarini saylash;
- 9) fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman va shahar sudlarining sudyalarini tayinlash va lavozimlaridan ozod qilish (olib tashlangan);
- 10) Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Prezidiumining taqdimiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori bilan kelishilgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasining Prokurorini tayinlash va lavozimidan ozod qilish;
- 11) Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo'mitasining raisini tayinlash va lavozimidan ozod qilish;
- 12) xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining qarorlarini to'xtatib qo'yish va bekor qilish;
- 13) ma'muriy-hududiy tuzilish masalalarini qonun yo'li bilan tartibga solish;
- 14) respublika va mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimini hamda vakilliklarini belgilash;

15) Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining taqdimiga binoan Qoraqalpog'iston Respublikasining davlat budgetini va uning ijrosi bo'yicha hisobotlarni tasdiqlash;

16) Qoraqalpog'iston Respublikasining davlat mukofotlari va faxriy unvonlarini ta'sis etish;

17) Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va mahalliy vakillik organlariga saylov tayinlash Markaziy saylov komissiyasini tuzish;

18) O'zbekiston Respublikasining oliv davlat hokimiyati va boshqaruva organlari hujjatlarining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqligi haqida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga takliflar kiritish;

19) parlament nazoratini va ushbu Konstitutsiyada nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshirish¹.

Umuman olganda, Qoraqalpog'istonning O'zbekiston hududida tegishli maqomga egaligi, uning O'zbekiston Respublikasi bilan munosabatlari Konstitutsiyaviy asosga egaligi, ularda har ikki tomonning manfaati hisobga olinishi mavzuning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Tayanch iboralar:

1. Jo'qorg'i Kenges,
2. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi,
3. demokratik respublika,
4. referendum,
5. qoraqalpoq xalqi,
6. davlat suvereniteti,
7. konstitutsiyaviy tuzum,
8. davlat ramzlari,
9. strategik yo'nalish

O'z- o'zini nazorat qilish uchun savollar:

1. Qoraqalpog'iston Respublikasining huquqiy maqomi qanday?

¹ Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi. Kuchga kirish sanasi 09.04.1993. //https://lex.uz/docs/-4953674

2. Qanday masalalarini Qoraqalpog'iston mustaqil hal qiladi?
3. O'zbekiston va Qoraqalpog'iston munosabati nimalarga asoslanadi?
4. O'zbekiston davlat qurilishida Qoraqalpog'iston qanday ishtirok etadi?
5. O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Konstitutsiyalari, qonunlari munosabati qanday?
6. O'zbekiston va Qoraqalpog'iston o'rtasidagi nizolar qanday hal qilinadi?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O'zbekiston” NMIU, 2020. –80 b.
2. Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi. Kuchga kirish sanasi 09.04.1993. // <https://lex.uz/docs/-4953674>
3. Ikramov Sh.T. Konstitutsiyaviy huquq: Darslik. –T.: “O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi”, 2014. –661 b.
4. Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq: darslik. To'ldirilgan va qayta ishlangan ikkinchi nashr. – T.: “Yuridik adabiyotlar publish”, 2020. -400 b.
5. Qoraqalpog'iston. // <https://uz.wikipedia.org/wiki/>

12-Mavzu: DAVLAT HOKIMIYATINI TASHKIL ETISH

12.1. Davlat hokimiyati tizimi. Hokimiyat tizimini bo'linishi prinsipi

Har bir davlat unda tashkil etilgan davlat hokimiyati organlari orqali o'zining ichki va tashqi funksiyalarini amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqida: “Jamiyatni siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy modernizatsiya qilish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlarimiz natijasida yangi O'zbekiston shakllanmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizdagi demokratik o'zgarishlar ortga qaytmaydigan tus oldi”, -deb ta'kidlaydi¹.

Davlat hokimiyati organi – bu qonun bilan maxsus belgilangan davlat vakolatlarini amalga oshirish uchun tashkil etilgan bir shaxs yoki shaxslarning


¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqi. //“Xalq so'zi” gazetasi, 2020 yil 24 sentyabr, №202 (7704)

uyushgan guruhi. “Davlat hokimiyati organi” tushunchasi haqida so’z borganda, u bilan bevosita bog’liq bo’lgan yuridik adabiyotlarda qo’llaniladigan “davlat mexanizmi” va “davlat apparati” tushunchalarining mohiyatini tushunib olish talab etiladi.

Davlat mexanizmi – amalda davlat hokimiyati, davlatning vazifa va funksiyalarini bajaruvchi davlat organlari va muassasalarining yaxlit iyerarxik tizimi.

Davlat apparati – davlat hokimiyati organlari tizimi. Davlat apparati o’z ichiga barcha davlat hokimiyati organlarini qamrab oladi. Tor ma’noda davlat apparati deganda, faqatgina oliy davlat hokimiyati organlari: qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati organlari tushuniladi¹.

O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11-moddasiga muvofiq, mamlakatimizda davlat hokimiyati organlari quyidagi uch tarmoqqa bo’lingan:



Qonun chiqaruvchi davlat hokimiyati organlari tizimiga Qonunchilik palatasi va Senatdan iborat O’zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi kiradi.

Ijro etuvchi davlat hokimiyati organlari tizimiga O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tizimiga kiruvchi vazirliklar, davlat qo’mitalari, agentliklar, qo’mitalar, konsernlar kiradi.

Sud hokimiyati organlari tizimiga:

- O’zbekiston Respublikasi Konstitusiyaviy sudi;
- O’zbekiston Respublikasi Oliy sudi;
- harbiy sudlar;

¹ Ikramov Sh.T. Konstitutsiyaviy huquq: Darslik. – T.: “O’zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi”, 2014. –B.384.

- Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi ma'muriy sudi, viloyatlar va Toshkent shahar ma'muriy sudlari;
- Fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman, shahar sudlari;
- Jinoyat ishlari bo'yicha tuman, shahar sudlari;
- tumanlararo, tuman, shahar iqtisodiy sudlari;
- tumanlararo ma'muriy sudlari.

Davlat hokimiyati organlarining vakolatlari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va Hukumat qarorlarida, davlat hokimiyati organlari to'g'risidagi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilab berilgan.

Hokimiyatning taqsimlanishi – demokratik huquqiy davlatning zaruriy sharti. Mazkur prinsipning qo'llanilishi hokimiyatning suiiste'mol qilinishiga to'siq qo'yadi, fuqarolarni mansabdor shaxslarning tazyiqidan himoya etadi, davlat idoralari faoliyatining samarali bo'lishi uchun zarur shart sharoit yaratadi¹.

Hokimiyatlar taqsimlanishi prinsipi quyidagi asosiy belgilarga ega:

birinchidan, davlat hokimiyatini amalga oshirish funksiyalari qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati idoralari zimmasiga yuklatiladi. Ushbu prinsipga ko'ra, har qanday davlatda quyidagi hokimiyat tarmoqlari mavjud bo'ladi:

- a) qonun chiqaruvchi hokimiyat – uning asosiy funksiyasi qonunlarni ishlab chiqish va qabul qilishdan iborat;
- b) ijro etuvchi hokimiyat – uning asosiy vazifasi qonun chiqaruvchi qabul qilgan qonunlar ijrosini ta'minlashdan iborat;
- d) sud hokimiyati – uning asosiy funksiyasi odil sudlovni amalga oshirish, muayyan jinoiy, ma'muriy, fuqaroviylar ishlarni ko'rib chiqib, ular yuzasidan qonuniy qaror qabul qilishdan iborat.

Hokimiyatning har bir tarmog'i:

¹ Ikramov Sh.T. Konstitutsiyaviy huquq: Darslik. – T.: "O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi", 2014. –B.385.
128

birinchidan, Konstitutsiya doirasida belgilangan vakolatlarni amalga oshiradi va boshqa hokimiyat tarmog'ining funksiyasini tashkil etuvchi vazifalarni bajarishga haqli emas;

ikkinchidan, hokimiyat tarmoqlari mustaqil bo'lib, ular bir-biriga bo'y sunmaydi, hech bir hokimiyat o'zga hokimiyat tarmog'ining harakatlanish doirasini cheklay olmaydi;

uchinchidan, hokimiyatlar taqsimlanishi prinsipi ular o'rtasida o'zaro tiyib turish va muvozanatlash tizimi mavjud bo'lishini nazarda tutadi.

to'rtinchidan, davlat hokimiyatining yagonaligi. Hokimiyatlar taqsimlanishi prinsipi davlat hokimiyatining bir necha qismlarga ajralib ketishini anglatmaydi. Bu prinsip hokimiyatni amalga oshirish bilan bog'liq murakkab funksional mexanizm orqali namoyon bo'lib, hokimiyatning turli idoralarini (sohiblarini) kelishtirish va maxsus huquqiy jarayonlarni birlashtirish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Hokimiyatlar taqsimlanishi prinsipining *mohiyati* shundan iboratki, hokimiyatlarning har biri davlat vazifalarini mustaqil ravishda bajarish bilan birga, o'z huquqiy vositalari bilan bir-birini muvozanatda saqlab turadi, hokimiyat vakolatlari birgina hokimiyat qo'lida to'planishining oldini oladi¹. Hokimiyatlar taqsimlanishi prinsipi uning bo'linishini anglatmaydi, balki u yagona bo'lib, faqat davlat funksiyalarini bajarish uchun tarmoqlarga ajratilgan.

Davlat organlarini tuzish va faoliyatining prinsiplari deganda, mazkur davlat organlarining qanday asoslarda shakllantirilishi hamda qay tartibda ishlashi tushuniladi. O'zbekiston Respublikasining davlat organlarini tuzish va ularning faoliyat yuritish prinsiplari mamlakatimiz Konstitutsiyasi va qonunlarida mustahkamlangan.

11.2. Davlat faoliyatida ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsipi

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining muqaddimasida O'zbekiston xalqi huquqiy davlat barpo etishni ko'zlagani qayd qilingan. Huquqiy davlatning muhim va ajralmas belgisi - bu qonun ustuvorligi hisoblanadi.

¹ Odilqoriyev X. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy huquqi. – T., 2005. – B. 148.

Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: “Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir” degan konstitutsiyaviy norma asosida mamlakatimizda xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qiladigan, Konstitutsiya va qonun ustun bo’lgan samarali va barqaror tizim shakllanmoqda”¹.

Darhaqiqat, qonun ustuvorligi xalq hokimiyati va inson huquqlari tushunchalari bilan bevosita bog’liq prinsipdir. Chunki xalq hokimiyati deganda fuqarolarning qarorlar qabul qilish jarayonida bevosita yoki bilvosita ishtirok etish huquqi tushuniladi. Shu ma’noda xalq irodasining ifodasi bo’lgan, fuqarolarning parlamentga saylab qo’ygan vakillari orqali yoki o’zlari tomonidan bevosita referendum orqali qabul qilingan qonunlar xalq hokimiyatchiligining natijasi, majoziy qilib aytganda, mevasi hisoblanadi. Inson huquq va erkinliklari qonunlar vositasida hayotga joriy etiladi, aslida qonunlarning pirovard maqsadi ham inson, uning huquq va erkinliklarini himoya qilishdan iboratdir.

Xalqaro hujjatlarda qonun ustuvorligining asosiy elementlari sifatida qonun ijodkorligini shaffof, hisobdorlik va demokratik jarayonni qamrab olgan qonuniylikka asoslanishi; huquqiy aniqlik; o’zboshimchalikning taqiqlanganligi; mustaqil va xolis odil sudlovnинг ochiqligi; shuningdek ma’muriy hujjatlar ustidan sud nazoratining o’rnatilganligi; inson huquqlarini hurmat qilish va kamsitmaslik hamda qonun oldida tenglik hisoblanadi.

Mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta’minlashning zarur normativ-huquqiy va tashkiliy institutsional asoslari shakllantirilgan.

O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining III bobi “Konstitutsiya va qonunning ustunligi” deb nomlanib, mazkur bob Konstitutsiyamizning Asosiy prinsiplar bo’limida joylashgan. Nazariyadan ma’lumki, prinsip deganda rahbariy qoidalar nazarda tutiladi. Agar Konstitutsianing boshqa bo’limlari o’rtasida qandaydir tushunmovchilik kelib chiqadigan bo’lsa, masala nazariyaga ko’ra asosiy prinsiplarga tayanilib hal qilinishi kerak. Shu ma’noda qonun ustuvorligining Asosiy prinsiplar bo’limida joylashtirilganligi mamlakatimizda mazkur prinsipga alohida ahamiyat berilganidan dalolatdir.

¹ Mirziyoyev Sh.M. O’zbekiston xalqiga bayram tabrige. //“Xalq so’zi” gazetasi, 2020 yil 8 dekabr, №257 (7759)

Konstitutsiyaning mazkur bobidagi hamda boshqa normalarida mustahkamlangan qoidalarni tahlil qilish quyidagi fikrlarni keltirib chiqaradi: *birinchidan*, O’zbekiston Respublikasida O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so’zsiz tan olinadi. *Ikkinchidan*, davlat, uning organlari, mansabdar shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko’radilar. *Uchinchidan*, birorta ham qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiya normalari va qoidalariiga zid kelishi mumkin emas.

“Normativ-huquqiy hujjatlar to’g’risida”gi Qonunda O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi oliv yuridik kuchga egaligi, qonunosti hujjatlar qonun asosida va uni ijro etish uchun qabul qilinishi, qonunlar eng muhim va barqaror ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishi, normativ-huquqiy hujjat o’ziga nisbatan yuqori yuridik kuchga ega bo’lgan normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq bo’lishi shartligi, normativ-huquqiy hujjatlar o’rtasida tafovut bo’lgan taqdirda, yuqori yuridik kuchga ega bo’lgan normativ-huquqiy hujjat qo’llanilishi kabilar belgilab qo’yilgan.

Bundan tashqari mamlakatimizda qonuniylik va qonun ustuvorligini ta’minlashning tashkiliy-huquqiy asoslari ham yaratilgan. Avvalambor bu O’zbekiston Respublikasining Prezidenti fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishining kafili hisoblanishi, qonunlarning bajarilishi ustidan parlament, jamoatchilik va idoraviy hamda adliya organlarining nazorati o’rnatilganligi, Konstitutsiyaviy sud qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning hujjatlari Konstitutsiyaga qanchalik mosligiga doir ishlarni ko’rishi, sudning faoliyati qonun ustuvorligini ta’minlashga qaratilganligi, har bir shaxsga o’z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdar shaxslar, jamoat birlashmalarining g’ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanganligi, qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan prokurorlik nazorati mustahkamlanganligi, tashkilotlarda yuridik xizmatlar faoliyati yo’lga qo’yilganligi kabilarda bevosita namoyon bo’ladi.

Qonunchiligidan huquqiy ekspertiza, qonun hujjatlarini ta'sirini baholash tizimi, monitoring, idoraviy hujjatlarni ro'yxatdan o'tkazish kabi huquqiy vositalar ham belgilangan bo'lib, bular ham qonuniylik va qonun ustuvorligini ta'minlashning muhim elementlarini tashkil etadi¹.

11.3. Davlat organlari va mansabdor shaxslarning fuqarolar oldida mas'ulligi

Davlat organlari va mansabdor shaxslarning fuqarolar oldida mas'ulligi tamoyilining mazmuni shundan iboratki, saylangan shaxslar ularni saylagan fuqarolar oldida o'z hatti-harakatlari va qarorlari yuzasidan ma'lumot berish mas'uliyatidir. Zero, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Xalq davlat idoralariiga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" degan g'oya va "Har bir davlat xizmatchisi har kuni o'zining mehnati bilan egallab turgan lavozimiga loyiqligini isbotlashi shart"², - deb bejiz ta'kidlamagan.

Prezidentimiz rahbar shaxslardan, birinchi navbatda shaxsiy javobgarlikni talab qilmoqda. Rahbarlikning o'ziga xos majburiyatları bor va shu sababli uning yukini ko'tarish hech qachon oson bo'lмаган. Rahbar shaxslar mas'uliyat va javobgarlikni shaxsan o'z yelkasiga olmas ekan, bu ularga ishonch bildirgan, hurmat-e'tibor ko'rsatgan odamlarni aldash, ularga xiyonat qilish bilan barobardir.

Xalq bilan muloqot qilish, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini qonuniy, adolatli va xolisona ko'rib chiqish, faoliyatda ochiqlikni ta'minlash davlat hokimiysi va boshqaruvi organlari mansabdor shaxslaridan katta mas'uliyat, bilim, malaka va mahoratni talab qiladi.

Zero, muloqot jarayonida odamlar o'zaro fikr almashadilar, bir-birlariga ta'sir ko'rsatadilar va bir-birlarini tushunadilar. Shunday ekan, muloqot inson hayotida eng muhim va murakkab jarayonlardan hisoblanadi. Chunki har bir inson muloqot jarayonida shaxs sifatida shakllanadi va shaxs sifatida o'zini namoyon qiladi. shundan kelib chiqiladigan bo'lsa, har bir aniq jarayon muloqotga

¹ Konstitutsiya va qonunning ustunligi// https://constitution.uz/uz/pages/Konstitutsiya_ustunligi

² Mirziyoyev Sh.M.. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birqalikda barpo etamiz. – T.: "O'zbekiston", 2016. –B.20.

kirishayotgan shaxs oldiga muayyan bir vazifani qo'yadiki, ushbu vazifa va talablar turli xil sharoitlarda muloqotning turlicha tashkil qilinishiga sabab bo'ladi.

Boshqaruv faoliyatini amalga oshirishda rahbarning ijtimoiy muloqotlar tizimi bevosita shaxs, jamiyat va davlat o'rtasidagi o'zaro aloqalar jarayoni bo'lib, ushbu jarayonda fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishi va ta'minlashi lozim bo'lgan davlat organlari mansabdor shaxslarining mas'uliyati muhim o'rinni tutadi.

Keyingi yillarda yurtimizda davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarining chuqur o'rganilishi, o'z vaqtida ko'rib chiqilishi hamda samarador hal qilinishi tamoyiliga asoslangan tubdan yangi va aniq tizim, ya'ni xalq bilan muloqot tizimi shakllanib borishi misolida ko'rishimiz mumkin¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 28 dekabrdagi "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni va 2017 yil 6 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devonining Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashni nazorat qilish va muvofiqlashtirish xizmati faoliyatini tashkil etish to'g'rsida"gi Qarorlariga asosan o'xshashi bo'limgan yangi tizim – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida, shuningdek, har bir tuman va shaharda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari tashkil etildi². Ularning barchasi bir xil huquqiy maqomga ega va yagona elektron tizimga birlashtirilgan.

11.4. Davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati

Vakolatli fuqarolik institutlari tomonidan davlat hokimiyati organlari faoliyatida qonuniylikni ta'minlash maqsadida amalga oshiriladigan ijtimoiy

¹ Saidov A. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi tamoyillari va qadriyatlariga ehtirom timsoli. //Fuqarolik jamiyat, №4 (56), 2018. –B.7.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasini o'rganish va keng jamoatchilik o'rtasida targ'ib etishga bag'ishlanganilmiy-ommabop qo'llanma. –T.: "Ma'naviyat", 2019. –B.232.

nazoratni davlat hokimiyati ustidan jamoatchilik nazorati sifatida tushunish mumkin. Ya’ni, jamoatchilik nazorati fuqarolar va fuqarolik jamiyatni vakolatli institutlarining tizimli faoliyati bo’lib, u davlat boshqaruvi organlari faoliyatining me’yoriy-huquqiy mezonlarga mosligini belgilash, yuzaga kelgan qonunbuzarlik holatlarini davlatning tegishli organlariga murojaat qilish orqali yoki jamoatchilik fikriga tayangan holda bartaraf etishdan iborat. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Shuni aniq tushunib olish lozimki, jamoatchilik nazorati – bu faqatgina davlat idoralari faoliyati ustidan nazorat emas, balki jamiyatning o’zini o’zi boshqarish usuli, boshqacha aytganda, fuqarolik jamiyatini taraqqiy toptirishning muhim omillaridan biridir”¹.

Davlat organlari ustidan amalga oshiriladigan jamoatchilik nazoratining umumiy jihatlari quyidagilar:

- hokimiyat tomonidan joriy etilmaydi;
- huquqiy ko’rinishda yoki majburiy xususiyatga ega emas;
- davlat boshqaruvi organlari jamoatchilik nazorati subyekti bo’la olmaydi;
- jamiyat va fuqarolar nomidan amalga oshiriladi².

Jamoatchilik nazoratining o’ziga xos jihatlari ham mavjud:

birinchidan, jamoatchilik nazorati jamiyat a’zolarining manfaatlari va ehtiyojlarini umumiy ijtimoiy irodaga jiqlashtirgan holda jamiyat yoki uning alohida institutlariga ta’sir ko’rsatish shakli sifatida namoyon bo’ladi;

ikkinchidan, jamoatchilik nazorati turli ijtimoiy guruhlar manfaatini muvozanatlash va bu manfaatlarning o’zaro to’qnashuviga yo’l qo’ymaslikning asosiy vositasi hisoblanadi;

uchinchidan, eng dolzarb masalalarni hal etishda jamiyatning istak va intilishlarini birlashtirish hamda muvofiqlashtirishning usuli hisoblanadi;

¹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. –T.: “O’zbekiston”, 2020. –B.109.

² Umar Farooq. What is Social Control Meaning Definition and Characteristics. Studylecturenotes.Com. Saturday, 10 March 2012.

to’rtinchidan, jamoatchilik nazorati ijtimoiy me’yorlarning bajarilishini kafolatlaydi, qonunbuzarliklarni aniqlab, ularni qoralashdan, to majburiy choralar qo’llashni ta’minlashgacha bo’lgan faoliyatni amalga oshiradi;

Nihoyat, beshinchidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish har qanday jamiyatga xos bo’lgan vakolat bo’lib, uning asosiy institutlaridan biri hisoblanadi¹. O’zbekiston Respublikasida davlat organlari va muassasalari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini tashkil etish va amalga oshirish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida 2019-yil 12-aprel “Jamoatchilik nazorati to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi. Bunda davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan ijtimoiy sherikligini amalga oshirishning huquqiy mexanizmlari yaratildi, davlat organlari faoliyati ochiqligini ta’minlashning huquqiy asoslari shakllantirildi, jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini ko’rib chiqish tizimi tubdan isloh qilindi, korruptsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarining qonunchilik asoslari yaratildi, shuningdek, “Elektron hukumat” tizimi bosqichma-bosqich joriy etilmoqda.

Xususan, “Jamoatchilik nazorati to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi qonunining 3-moddasida O’zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari, shuningdek qonunchilikda belgilangan tartibda ro’yxatga olingan nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari jamoatchilik nazorati subyektlari deb ko’rsatilgan.

Jamoatchilik nazoratining shakllari quyidagilardan iborat:

- davlat organlariga murojaatlar va so’rovlari;
- davlat organlarining ochiq hay’at majlislarida ishtirok etish;
- jamoatchilik muhokamasi;
- jamoatchilik eshituvi;
- jamoatchilik monitoringi;
- jamoatchilik ekspertizasi;

¹ Гончаров В., Ковалева Л. Об институтах общественного контроля органов исполнительной власти в Российской Федерации // Власть. 2009. №1. –С.72.

- jamoatchilik fikrini o’rganish;
- fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari tomonidan davlat organlari mansabdor shaxslarining hisobotlari va axborotini eshitish¹.
- Bugun 2017-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi mamlakatimizda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, mazkur nazorat turini sifat jihatidan yangi bosqichga ko’tarish, fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etishini ta’minalash, ijro etuvchi hokimiyat faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning izchil mexanizmlarini yaratib, jamoatchilik nazorati funksiyalarini yanada kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Tayanch iboralar:

1. modernizatsiya,
2. davlat hokimiyati,
3. “davlat mexanizmi”,
4. “davlat apparati”,
5. davlatning funksiyalari,
6. hokimiyatning taqsimlanishi,
7. Qonunchilik palatasi,
8. Senat,
9. Sud hokimiyati,
10. Ijro etuvchi hokimiyat,
11. vazirliklar,
12. davlat qo’mitalari,
13. agentliklar,
14. qo’mitalar,
15. konsernlar,
16. jamoatchilik nazorati

O’z- o’zini nazorat qilish uchun savollar:

1. Davlat organlarini tuzish va faoliyatining prinsiplari deganda nimani tushunasiz?

¹ O’zbekiston Respublikasining “Jamoatchilik nazorati to’g’risida” 12.04.2018 yildagi O’RQ-474-sonli Qonuni. //https://lex.uz/ru/docs/-3679092

2. Mansabdor shaxslarning fuqarolar oldida mas'ulligi nimalarda ko'rindi?
3. Davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratining ahamiyatini izohlang?
4. Jamoatchilik nazoratining o'ziga xos jihatlarini ayting?
5. Jamoatchilik nazoratining qanday shakllari mavjud?
6. Jamoatchilik nazoratining obyekti nima?
7. Jamoatchilik nazoratining subyektlari kimlar?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O'zbekiston” NMIU, 2020. –80 b.
2. O'zbekiston Respublikasining “Jamoatchilik nazorati to'g'risida” 12.04.2018 yildagi O'RQ-474-sonli Qonuni. //<https://lex.uz/ru/docs/-3679092>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqi. //“Xalq so'zi” gazetasi, 2020 yil 24 sentyabr, №202 (7704)
4. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston xalqiga bayram tabrigi. //“Xalq so'zi” gazetasi, 2020 yil 8 dekabr, №257 (7759)
5. Mirziyoyev Sh.M.. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: “O'zbekiston”, 2016. –56 b.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasini o'rghanish va keng jamoatchilik o'rtasida targ'ib etishga bag'ishlangan ilmiy-ommabop qo'llanma. –T.: “Ma'naviyat”, 2019. –312 b.
7. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. –T.: “O'zbekiston”, 2020. –B.109.
8. Ikramov Sh.T. Konstitutsiyaviy huquq: Darslik. –T.: “O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi”, 2014. –661 b.
9. Odilqoriyev X. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy huquqi. – T., 2005. – B. 148.
10. Konstitutsiya va qonunning ustunligi// <https://constitution.uz/>
11. Saidov A. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi tamoyillari va qadriyatlariga ehtirom timsoli. //Fuqarolik jamiyati, №4 (56), 2018. –B.7.
12. Umar Farooq. What is Social Control Meaning Definition and Characteristics. Studylecturenotes.Com. Saturday, 10 March 2012.
13. Гончаров В., Ковалева Л. Об институтах общественного контроля органов исполнительной власти в Российской Федерации // Власть. 2009. №1. –C.72.

13-Mavzu: SAYLOV HUQUQI VA TIZIMI

13.1. Saylov tizimi va saylov huquqi tushunchasi. Saylov huquqi prinsiplari

Har qanday jamiyatda demokratik saylovlar taraqqiyotga yangi kuch beruvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Mamlakatimizda yangicha saylovlarning o'tkazilishi o'ziga xos bo'lgan davrga to'g'ri kelmoqda. Bu davr O'zbekistonda o'ziga xos sharq va g'arb demokratiyasi tajribalari uyg'unlashgan jarayon shakllangani bilan ajralib turadi. Prezident Shavkat Mirziyoyev alohida ta'kidlab o'tganidek, "Yangi O'zbekiston – yangi saylovlar" shiori ostida o'tayotgan bu kampaniya mamlakatimiz siyosiy hayotidagi g'oyat muhim voqeadir. Konstitutsiyamizga muvofiq, fuqarolar davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega. Saylovda o'ziga ma'qul bo'lgan nomzod yoki biron-bir partiya ilgari surayotgan dastur uchun ovoz berish, ularni qo'llab-quvvatlash vakillik demokratiyasining yaqqol ko'rinishidir. O'tgan qisqa davrda saylovga oid 21 ta qonun tizimlashtirilib, O'zbekiston tarixida ilk bor yagona Saylov kodeksi qabul qilindi. Bu milliy qonunchiligidizni mustahkamlash, demokratik saylovlarni o'tkazishni yanada takomillashtirish yo'lidagi muhim qadam bo'ldi"¹.

Saylov tizimi deganda esa, respublika fuqarolarining O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va saylov qonunlariga muvofiq, Respublika Prezidenti, Oliy Majlis Qonunchilik palatasining deputatlari va xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar kengashlari deputatligiga saylash tartibi tushuniladi. Saylov tizimining faol yo'lga qo'yilishi fuqarolar hamda siyosiy partiyalarining o'z irodasini qanchalik namoyon qilishlariga bog'liq².

Majoritar saylov tizimi deganda (fransuzcha "majorite" ko'pchilik so'zidan), konstitutsiyaviy huquqda vakillik organlariga saylovlarda ovoz berish natijasini aniqlash tushuniladi. Majoritar saylov tizimida qonun bilan belgilangan

¹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. –T.: "O'zbekiston", 2020. –B.124.

² Ikramov Sh.T. Konstitutsiyaviy huquq: Darslik. –T.: "O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi", 2014. –B.572.

ko'p ovozni olgan nomzod mazkur okrug bo'yicha saylangan hisoblanadi. Kam ovoz olgan nomzodlar uchun berilgan saylovchilar ovozi "yo'qolib ketadi".

Proporsional saylov tizimi – ovoz berish natijalarini aniqlashning nisbatan murakkab tartibi bo'lib, bunda mandatlar o'z nomzodlarini vakillik organlariga qo'ygan partiyalar o'rtasida, ular olgan ovozlar soniga mos ravishda taqsimlanadi. Yirik saylov okruglari tuzilib, ularda har bir partiya o'z nomzodlari ro'yxatini ilgari suradi. Ovoz berish natijalarini aniqlash uchun zarur bo'lgan ovozlarning 4 – 5 foizlik eng kam miqdori o'rnatiladi. Siyosiy partiyalardan qo'yilgan nomzodlar ana shu belgilangan ovozlarni olganidan keyingina mandatlarni taqsimlashda ishtirok etadi. Saylovchilar bergen ovozlar avval deputatlik o'rinalining soniga bo'linadi. Natijada bitta mandat uchun berilgan ovozlar soni ma'lum bo'ladi. So'ng, har bir partiya olgan ovozlar alohida-alohida hisoblab chiqiladi. Bu qiymat deputatning bir mandati uchun zarur bo'lgan ovozlar soniga bo'linadi. Buning natijasida mazkur partiyaga berilgan deputatlik o'rinalining soni kelib chiqadi. Proporsional saylov tizimi Ispaniya, Polsha, Avstriya, Daniya va boshqa mamlakatlarda qo'llaniladi.

Aralash saylov tizimi o'zida majoritar va proporsional saylov tizimlarining elementlarini aks etadi. Masalan, Germaniya Bundestagiga saylovlarda aralash saylov tizimini ko'rish mumkin. Bundestag deputatlarining yarmi butun mamlakat hududini qamrab olgan bir mandatli saylov okruglarida nisbatan ko'pchilik ovoziga asoslangan majoritar tizim bo'yicha, ikkinchi yarmi esa, ko'p mandatli saylov okruglari hisoblangan federatsiya subyektlarida siyosiy partiyalar tomonidan ilgari surilgan nomzodlar ro'yxati asosida proporsional tizim bo'yicha sayланади.

O'zbekiston Respublikasida saylov o'tkazishning asosiy prinsiplari

Umumiy saylov huquqi

Teng saylov huquqi

To'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi

Saylovga tayyorgarlik ko'rish hamda uni o'tkazishdagi ochiqlik va oshkorlik

13.2. Saylovlarda erkinlikni ta'minlash

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida fuqarolarga saylov huquqini berish, ta'minlash bilan birga, kimlar saylovda ishtirok etmasligi, kimiarning saylov huquqi vaqtincha to'xtatilishi, uning asoslari ham ko'rsatilgan. Bu Konstitutsiyamizning 117-moddasida shunday belgilangan: "Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylanishi mumkin emas. Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek, og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar sodir etilganligi uchun sudning hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslargina saylovda ishtirok etmaydi ya'ni saylanmaydi va ovoz bermaydi. Boshqa har qanday hollarda fuqarolarning saylov huquqlarini to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita cheklashga yo'l qo'yilmaydi".¹

Konstitutsiyamizning bu qoidasi saylovda qatnashishni istisno etuvchi ikki asosni belgilaydi.

Birinchi - fuqaroning muomalaga layoqati cheklanganligi, aqli zaifligi natijasida. Bunday shaxslar o'z harakatlarini baholay olmaydi yoki ongli harakat qilolmaydi. O'zining harakati qanday oqibatlar keltirib chiqarishini anglamaydi.

¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: "O'zbekiston", 2020. –B.66-67.

Ikkinchি - ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan, ya’ni jazo o’tayotganlar. Bu shaxslar ikkiga bo’linadi. Og’ir va o’ta og’ir jinoyat sodir etib jazo o’tayotganlar umuman saylovda ishtirok etmaydi. Qolgan mahbuslar saylashda ishtirok etadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan shu yil 8 fevral kuni “Saylov qonunchiligi takomillashtirilishi munosabati bilan O’zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o’zgartish va qo’shimchalar kiritish to’g’risida”gi qonunning imzolanishi fuqarolarning saylov huquqi kafolatlarini, davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini yanada kengroq ta’minlashdek ezgu maqsadlar yo’lida muhim omil bo’ladi¹.

13.3. Saylov jarayoni va subyektlari. Saylov senzlari

Saylov, ya’ni hokimiyatining vakillik organlarini shakllantirish tartibi siyosiy-huquqiy mexanizm shaklida namoyon bo’lib, bunday mexanizmni bir vaqtda saylov huquqi va saylov jarayoni tashkil etadi. Bunda saylov huquqi:

bir tomonidan, saylangan vakillarning hokimiyat vakolatlariga ega bo’lishlariga tegishli bo’lib, jamiyat va davlat faoliyatining ayrim jihatlarini batafsil ifoda etsa;

ikkinchи tomonidan, saylov jarayoni unda subyektiv siyosiy huquqni amalga oshirishning shakli sifatida saylovchilarining hokimiyatni amalga oshirishdagi ishtiroki texnologiyasini aks ettiradi.

Demokratik saylov jarayoni - bu mamlakatda o’rnatilgan siyosiy jarayon va rejimning bir qismi bo’lib, u fuqarolar saylov huquqlari amalga oshirilishining ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-madaniy infratuzilmasini tashkil etuvchi demokratik institutlar rivojlanishining umumiyligi shartlari bilan bevosita bog’liqdir. Bundan tashqari, saylov kampaniyasini boshlashdan oldin bir qancha muhim harakat va protseduralar amalga oshirilishi talab etiladi. Ularga ko’ra, saylov jarayoni nafaqat ovoz berishni tashkillashtirishning yuridik texnikasi bo’lib, balki u hokimiyatning

¹ Saylov qonunchiligi va amaliyoti: saylov huquqining yangi kafolatlari // <https://www.elections.uz/oz/news/2021/02/16/sajlov-qonunchiligi-va-amaliyoti-sajlov-huquqining-yangi-kafolatlari>

siyosiy barqarorligi va uzlucksizligi, xalqchilligi va qonuniyligini ta'minlovchi muhim huquqiy institut sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida saylov jarayoni har qanday mamlakatlardagi kabi bir-birini to'ldirib va almashtirib boruvchi bir qancha bosqichlardan iborat. Bunda saylov jarayonining bosqichlari deganda, saylovlarni tashkil etish va o'tkazish uchun belgilangan davrlar tushuniladi. Ular doirasida qonunlarda ko'zda tutilgan saylov harakatlari, shuningdek, saylovchilar va saylovnинг boshqa ishtirokchilari huquqlari amalga oshirilishini ta'minlovchi saylov tartib taomillari amalga oshirib boriladi.

Odatda, har qanday saylov jarayoni quyidagi asosiy bosqichlardan tashkil topadi:

birinchi, saylov kampaniyasi boshlanganligini e'lon qilish yoki saylovlarni tayinlash;

ikkinchi, saylov okruglari va saylov uchastkalarini tuzish;

uchinchi, saylov komissiyalarini tuzish;

to'rtinchisi, nomzodlar ko'rsatish va ularni ro'yxatga olish;

beshinchi, saylovoldi tashviqoti;

oltinchi, saylovchilar ro'yxatini tuzish;

yettinchi, ovoz berishni tashkil etish va saylov natijalarini aniqlash;

sakkizinchi, saylov yakunlarini e'lon qilish va deputatlarni, senatorlarni, Prezidentni ro'yxatga olish¹.

Zarurat tug'ilsa, takroriy ovoz berish hamda takroriy saylov o'tkaziladi. Bular qo'shimcha bosqichlardir. Bo'shab qolgan o'rirlarga deputatlar saylovlarni, navbatdan tashqari yangi saylovlarni o'tkazish kabi jarayonlar har qanday mamlakatlarning saylov tizimida mavjud bo'ladi. Saylov jarayoniga oid bosqichlarning funksional vazifasi xilma-xil saylov harakatlari va tadbirlarni amalga oshirishda vaqt jihatdan ketma-ketlik va mantiqan bosqichma-bosqichlikni

¹ Qarang: Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq: darslik. To'ldirilgan va qayta ishlangan ikkinchi nashr. –T.: "Yuridik adabiyotlar publish", 2020. –B.224-230.

ta'minlashdan iborat. Ular saylovlarni va tegishli saylanuvchi shaxslarning saylanishida legitimlik jihatlarini belgilashga ko'maklashadi.

Saylov jarayoni subyektlari bu saylovnin turli bosqich va tadbirlarida ishtirok etadigan va o'zlarining alohida vazifasi va o'rni mavjud ishtirokchilardir. Saylov jarayoni subyektlari quyidagilardan iborat.

1. Fuqarolar. Fuqarolar saylovlar jarayonining deyarli barcha bosqichlarida ishtirok etadi. Ular saylov jarayonida bevosita o'zlari yoki tegishli tuzilmalar, organlar faoliyati orqali ishtirok etadi. Boshqa barcha saylov jarayonining subyektlari faoliyatida fuqarolar ishtirok etadi.

2. Saylov komissiyalari. Vakillik organlariga saylov, Prezidentlikka saylov jarayonida saylov komissiyalari alohida rol o'ynaydi. Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Prezidentlikka saylovda Markaziy saylov komissiyasi, okrug saylov komissiyasi, uchastka saylov komissiyalari tuzilsa, xalq deputatlari Kengashlariga saylovda tegishli Kengashga (viloyatga, shaharga, tumanga) saylov o'tkazuvchi saylov komissiyasi, okrug saylov komissiyasi, uchastka saylov komissiyasi tuziladi.

3. Siyosiy partiyalar va harakatlar. Siyosiy partiyalar vakillik organlariga saylovda nomzod ko'rsatish huquqiga ega subyektdir. Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod va Prezidentlikka nomzod ko'rsatish huquqi faqat siyosiy partiyalarga berilgan. Siyosiy partiyalar nomzod ko'rsatishdan tashqari, saylov jarayonida tashviqot-targ'ibot ishlarida, ovoz berish jarayoni va ovoz berish natijalarini aniqlashda o'z vakillari orqali nazorat ishtirok etadi.

4. Ommaviy axborot vositalari. Saylov to'g'risidagi qonunlarga asosan OAV saylovga tayyorgarlikning borishi va saylov qanday o'tayotganligini yoritib boradi. OAV saylov jarayonidagi har bir tadbirni, saylov kampaniyasi boshlanganligi e'lon qilingandan boshlab, saylov natijalari e'lon qilingungacha yoritadi, ma'lumotlar beradi.

5. Kuzatuvchilar. Saylovlarning qonunga asosan, adolatli o'tishini ta'minlashda kuzatuvchilar instituti muhim rol o'ynaydi. Kuzatuvchilar milliy, ya'ni, mamlakat ichidagi tuzilmalardan hamda xalqaro kuzatuvchilar, xalqaro

tashkilotlar va xorijiy davlatlar vakillaridan iborat tarkibda tuzilishi mumkin. Kuzatuvchilar barcha saylov tadbirlarida, shuningdek, ovoz berish natijalarini aniqlashda ishtirok etishi mumkin.

6. Vakillar. Saylov jarayonida deputatlikka, Prezidentlikka nomzodlarning ishonchli vakillari, siyosiy partiyalarning vakolatli vakillari ishtirok etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod 15 tagacha, Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlar o’n nafargacha, Xalq deputatlari viloyat (Toshkent shahar) Kengashi deputatligiga nomzodlar 5 nafargacha, tuman, shahar Kengashi deputatligiga nomzodlar 3 nafargacha ishonchli vakilga ega bo’ladi.

7. Fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari. Fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari saylovnı o’tkazishda faol ishtirok etadi. Ular tashviqottarg’ibot ishlarida, nomzodlar bilan uchrashuvlar tashkil qilishda, saylovchilarning ro’yxatini tuzishda, saylov kuni, vaqtı, joyi haqida saylovchilarga ma’lumotlar berishda tegishli organlarga yordam beradi.

8. Davlat organlari. Turli davlat organlari saylov jarayonlarida ishtirok etadi. Ular turli vazifalarni bajaradi. Mahalliy davlat hokimiyyati organlari saylov o’tadigan joylar bilan ta’minlash, saylov uchastkalarini tegishli holatga keltirish, moddiy ta’minotiga yordam berish, saylov komissiyalari a’zoligiga nomzodlar taqdim qilish, tegishli Kengashlarga saylov o’tkazuvchi komissiyalarni tuzish bilan saylov jarayonida ishtirok etadi.

9. Volontyorlar. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-dekabrdagi qabil qilingan “Volontyorlik faoliyati to’g’risida”gi Qonunida volontyorlar ijtimoiy ahamiyatga ega tadbirlarda ularni tashkil etuvchilarining roziligi bilan ishtirok etadi, deb belgilab qo’yilgan. Shuning uchun ularni alohida saylov ishtirokchisi sifatida emas, balki ishtirokchilarga yordam beruvchi subyekt deb qarash mumkin¹.

Saylovlarda turli senzlar o’rnatalishi (senz cheklash ma’nosini beradi) mumkin. Hozirgi kunda butun dunyoda saylov huquqida mavjud bo’lgan senz - bu yosh senzidir. **Yosh senzi** fuqaroning voyaga yetgan bo’lishi, uning natijasida esa,

¹ Qarang: Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq: darslik. To’ldirilgan va qayta ishlangan ikkinchi nashr. – T.: “Yuridik adabiyotlar publish”, 2020. –B.219-222.

o'z harakatiga javob bera olishni nazarda tutadi. Aktiv va passiv saylovda yosh tsenzi har xil o'rnatilgan, masalan, O'zbekistonda aktiv saylov huquqiga (saylash huquqiga) 18 yoshdan ega bo'linadi. Hamma organlarga saylash huquqi 18 yoshdan vujudga keladi. Passiv saylov huquqi (saylanish huquqi) turli organlarga turlicha o'rnatilgan. Xalq deputatlari mahalliy Kengashlarida deputatlik uchun - 21 yosh, Qonunchilik palatasi deputatlari, Senat a'zolari uchun - 25 yosh, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylanish uchun - 35 yosh belgilangan. Shu yoshga yetmaganlar tegishli organlarga saylana olmaydi.

13.4. Saylov o'tkazish muddatlari

O'zbekiston Respublikasining vakillik organlariga, Prezidentlikka saylov o'tkazish muddatlari Konstitutsiya va qonunlarda belgilab qo'yilgan. Saylovlar muddatli, zarurat tufayli yoki navbatdan tashqari bo'lishi mumkin. Muddatli saylovlar Prezident va vakillik organlari (vakillik organlari deganda, Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlarning barcha bo'g'inlari nazarda tutiladi) vakolat muddati tugashi bilan o'tkaziladi.

Konstitutsiyaning 117-moddasida: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga, viloyatlar, tumanlar, shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlariga saylov tegishincha ularning konstitutsiyaviy vakolat muddati tugaydigan yilda – oktyabr oyi uchinchi o'n kunligining birinchi yakshanbasida o'tkaziladi. Saylovlar umumiyligi teng va to'g'ridan to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladi. O'zbekiston Respublikasining o'n sakkiz yoshga to'lgan fuqarolari saylash huquqiga egadirlar¹.

13.5. Saylov kampaniyasini e'lon qilish

O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksining 7-bobi saylov kampaniyasi boshlanganligini e'lon qilish hamda siyosiy partiyalarning saylovda ishtirok etishi masalalariga bag'ishlanib, uning 36-moddasida Saylov kampaniyasi

¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: "O'zbekiston", 2020. –B.66-67.

boshlanganligini e'lon qilishi tartibi mustahkamlab qo'yilgan: "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi, Qonunchilik palatasi deputatlari va mahalliy Kengashlar deputatlari saylovi bo'yicha saylov kampaniyasi boshlanganligi ularning vakolatlari muddati tugashidan kamida uch oy oldin Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi"¹.

Saylov kodeksiga asosan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod, Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod, mahalliy Kengashlar deputatligiga nomzod ko'rsatish huquqiga siyosiy partiyalar egadir.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi va Qonunchilik palatasi deputatlari saylovi bo'yicha Markaziy saylov komissiyasi tomonidan siyosiy partiyalarga belgilangan namunadagi imzo varaqalarining blankalari beriladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi bo'yicha siyosiy partiya o'zining vakolatli vakili ro'yxatga olinganlik guvohnomasini olganidan keyingina saylovchilarining imzosini to'plashga haqlidir. Bu sanaga qadar to'plangan imzolar hisobga olinmaydi.

Saylovchilar bitta yoki bir nechta siyosiy partiyani yoxud O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlarni qo'llab-quvvatlab imzo qo'yishga haqlidir. Bunda saylovchi o'z familiyasini, ismini, otasining ismini, tug'ilgan yilini (yoshi o'n sakkizda bo'lsa, qo'shimcha ravishda tug'ilgan kuni va oyini), yashash joyi manzilini, pasportining yoki identifikatsiya ID-kartasining seriyasi va tartib raqamini, shuningdek imzo qo'yilgan sanani ko'rsatadi. Mazkur ma'lumotlar qo'lda yozib kiritiladi. Imzo varaqasiga o'z imzosini qo'yadigan saylovchi to'g'risidagi ma'lumotlar saylovchining iltimosiga ko'ra imzo to'plashni amalga oshirayotgan shaxs tomonidan kiritilishi mumkin.

Imzo varaqasi imzoni to'plagan shaxs tomonidan o'z familiyası, ismi, otasining ismi ko'rsatilgan holda imzolanadi, shuningdek tegishli siyosiy partiyaning tuman, shahar tuzilmasi rahbari tomonidan muhr bosib tasdiqlanadi. Saylovchilarining imzosini to'plash ish, xizmat, o'qish, yashash joyida, saylovoldi tadbirlarida, shuningdek tashviqot yuritish va imzo to'plash qonun bilan taqiqlanmagan boshqa joylarda amalga oshiriladi. Imzo to'playotgan shaxs

¹ O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi. // <https://lex.uz/docs/-4386848#-4387567>

tomonidan saylovchilarni majburlash va o'ziga og'dirib olishning har qanday shakli qonunda belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi.

Imzo to'plash tamomlanganidan so'ng siyosiy partiyaning vakolatli vakili Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha alohida-alohida qilib tikilgan imzo varaqalarini Markaziy saylov komissiyasiga topshiradi.

Siyosiy partiyalar taqdim etgan imzo varaqalarining to'g'ri to'ldirilganligi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan besh kunlik muddatda tekshiriladi. Saylovchilar imzolari zarur sonining kamida o'n besh foizi va imzo varaqalariga imzolarini qo'ygan saylovchilar to'g'risidagi tegishli ma'lumotlar tekshirilishi lozim. Tekshirish uchun saylovchilarning har bir siyosiy partiyani yoxud O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodni qo'llab-quvvatlab berilgan imzolari bir xil miqdorda, har bir ma'muriy-hududiy tuzilmadan (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat, Toshkent shahridan) teng nisbatda tanlab olinadi.

Markaziy saylov komissiyasi imzo varaqalari to'g'ri to'ldirilganligini tekshiruvchi Ekspert guruhini tuzishi mumkin. Ekspert guruhi tarkibiga ichki ishlar organlarining, adliya organlarining mutaxassislari, shuningdek fuqarolik jamiyatni institutlari vakillari jalb etiladi. Imzo varaqalarini tekshirishda siyosiy partiyalarning vakolatli vakillari ishtirok etadi.

Agar Markaziy saylov komissiyasi tomonidan tanlab olingan imzo varaqalarining chorak qismidan ko'prog'ini tekshirish natijasida imzo varaqalari qonun buzilgan holda tuzilganligi aniqlansa, mazkur imzo varaqalari siyosiy partiyaning vakolatli vakiliga qaytariladi va unga kamchiliklarni bartaraf etish uchun ikki kunlik muddat beriladi. Agar qo'llab-quvvatlovchi shaxslarning (saylovchilarning) imzolari soni belgilangan eng kam miqdordan yana oz bo'lib chiqsa, mazkur imzo varaqalari to'lig'icha haqiqiy emas deb topiladi. Mazkur holda Markaziy saylov komissiyasi siyosiy partiyaga O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodni ro'yxatga olishni yoki Qonunchilik palatasi deputatlari saylovida ishtirok etish huquqini rad etadi.

13.6. Takroriy ovoz berish va takroriy saylov

O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksi 11-bobida takroriy ovoz berish va takroriy saylov tartibi belgilangan. Kodeksning 59-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida ikki nafardan ortiq nomzod ishtirok etayotgan bo'lsa va agar ulardan hech biri ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilardan yarmidan ko'pining ovozini olmagan bo'lsa, takroriy ovoz berish o'tkaziladi, unda eng ko'p ovoz to'plagan ikki nomzod ishtirok etadi. Markaziy saylov komissiyasi takroriy ovoz berish kunini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi o'tkazilgan kundan e'tiboran bir oy ichida, lekin saylov o'tkazilgan kundan kamida o'n besh kun keyin o'tkaziladigan qilib tayinlaydi. Takroriy ovoz berish o'tkazilishi haqidagi xabar matbuotda e'lon qilinadi. Agar Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlar deputatlari saylovida saylov okrugi bo'yicha ikki nafardan ortiq nomzod qo'yilgan bo'lsa-yu, ulardan hech biri saylanmasa, okrug saylov komissiyasi eng ko'p ovoz olgan ikki nafar nomzod bo'yicha okrugda takroriy ovoz berishni o'tkazish haqida qaror qabul qiladi va bu haqda tegishli saylov komissiyasini hamda okrug saylovchilarini xabardor etadi. Takroriy ovoz berish ushbu Kodeks talablariga rioya etilgan holda ikki haftalik muddatda o'tkaziladi.

Takroriy ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning ovozini boshqa nomzodga nisbatan ko'proq olgan nomzod saylangan deb hisoblanadi.

Takroriy ovoz berishda saylovchilarning ishtirok etishi foizi hisobga olinmaydi.

Kodeksining 60-moddasida takroriy saylovni o'tkazish asoslari va tartibiga bag'ishlanib, unga asosan: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi o'tmagan yoki haqiqiy emas deb topilgan taqdirda, shuningdek, agar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida bitta nomzod ishtirok etgan bo'lsa va u zarur miqdorda ovoz to'play olmagan bo'lsa, Markaziy saylov komissiyasi takroriy saylov tayinlaydi¹.

¹ O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi <https://lex.uz/docs/-4386848#-4387567>

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining takroriy saylovi ham asosiy saylovni o'tkazish uchun belgilangan ayni tartibda va ayni shartlarga riosa etgan holda o'tkaziladi. Bunda okrug va uchastka saylov komissiyalari faoliyatida saylov to'g'risidagi qonunchilik buzilishi aniqlangan taqdirda, Markaziy saylov komissiyasi saylov yangi tarkibdagi okrug va uchastka saylov komissiyalari tomonidan o'tkazilishi zarurligi to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin. Ovoz berish asosiy saylovni o'tkazish uchun tuzilgan o'sha saylov uchastkalarida va saylovchilarning o'sha ro'yxatlari bo'yicha o'tkaziladi¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining takroriy saylovi asosiy saylov o'tkazilganidan keyin qirq kun ichida o'tkaziladi.

Qonunchilik palatosi deputatlarining va mahalliy Kengashlar deputatlarining takroriy saylovi quyidagi hollarda o'tkaziladi:

- agar saylov okrugi bo'yicha saylov o'tmagan yoxud haqiqiy emas deb topilgan bo'lsa;
- agar takroriy ovoz berish saylangan deputatni aniqlash imkonini bermagan bo'lsa;
- agar saylov okrugi bo'yicha ko'pi bilan ikki nomzod qo'yilgan bo'lsa va ulardan hech biri saylanmagan bo'lsa.

Qonunchilik palatosi deputatlarining va mahalliy Kengashlar deputatlarining takroriy saylovi asosiy saylovdan keyin kechi bilan bir oylik muddat ichida o'tkaziladi. Saylov komissiyalarini tuzish, nomzodlarni ro'yxatga olish va boshqa tadbirlar ushbu Kodeksda belgilangan tartibda amalga oshiriladi².

Tayanch iboralar:

1. demokratik saylovlar,
2. "Yangi O'zbekiston – yangi saylovlar",
3. Saylov kodeksi,

¹ O'zbekiston Respublikasining Qonuni 21.04.2021 yildagi O'RQ-683-son O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida // <https://lex.uz/docs/-5388561?ONDATE=21.04.2021%2000#-5403849>

²O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi <https://lex.uz/docs/-4386848#-4387567>

4. Saylov tizimi,
5. majoritar saylov tizimi,
6. proporsional saylov tizimi,
7. aralash saylov tizimi,
8. legitimlik,
9. ovoz berish,
- 10 Markaziy saylov komissiyasi,
11. Saylov senzlari

O'z- o'zini nazorat qilish uchun savollar:

1. Qaysi organlar saylov yo'li bilan saylanadi?
2. Saylov tizimi nima?
3. Saylov huquqi nima?
4. Saylov huquqini prinsiplari nimalar?
5. Saylov jarayoni nima?
6. Saylov o'tkazish muddatlari nima?
7. Saylov kampaniyasi boshlanganligini e'lon qilish asoslari nima?
8. Saylov senzlari nima, saylanuvchilarga qanday talablar qo'yiladi?
9. Majoritar va proporsional saylov nima?
10. Saylov jarayonlari qanday bosqichlardan iborat?
11. Okrug, uchastkalar qanday tuziladi?
12. Saylov komissiyalari tizimi qanday, ular qanday tuziladi?
13. Saylov komissiyalarining vakolatlari qanday?
14. Prezidentlikka, deputatlikka nomzod ko'rsatish tartibi qanday?
15. Tashviqot-targ'ibot qanday olib boriladi?
16. Ovoz berish qanday tashkil qilinadi?
17. Takroriy ovoz berish, takroriy saylov nima?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O'zbekiston” NMIU, 2020. –80 b.

2. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. // <https://constitution.uz/oz/pages/humanRights>.
3. O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi <https://lex.uz/docs/-4386848#-4387567>
4. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida" 21.04.2021 yildagi O'RQ-683-sonli Qonuni // <https://lex.uz/docs/-5388561?ONDATE=21.04.2021%2000#-5403849>.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. –T.: "O'zbekiston", 2020. –455 b.
6. Ikramov Sh.T. Konstitutsiyaviy huquq: Darslik. –T.: "O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi", 2014. –661 b.
7. Odilqoriyev X. T. Demokratik saylovlarning qonuniy zamini //Huquq–Pravo–Law. – 2000. – № 1. –B. 8–9.
8. Tadjixanov U., Odilqoriyev X., Saidov A. O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy huquqi. –T.: "Sharq", 2001. –752 b..
9. Muhamedov H. M. Saylov huquqi va saylov tizimi. – T.: "TDYUI", 2004. –B. 3.
10. Saylov qonunchiligi va amaliyoti: saylov huquqining yangi kafolatlari // <https://www.elections.uz/oz/news/2021/02/16/>

14-Mavzu: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING OLIV MAJLISI

14.1. Oliy Majlisning davlat hokimiyati tizimidagi o'rni va vazifasi

"Parlament" iborasi fransuzcha "parler" so'zidan olingan bo'lib, "gapirmoq", "so'zlamоq" degan ma'nolarni anglatadi¹. Parlament deganda, qonunchilik hokimiyatini amalga oshiruvchi oliy vakillik organi tushuniladi.

¹ Saidov B.A., Xidirov S.M., Tastanbekova G.S. Qiyosiy konstitutsiyaviy huquq. –T.: "O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi", 2014. –B.138..

Ushbu atama vakillik organini ifodalovchi tushuncha sifatida dastavval Angliyada qo'llanilgan. Insoniyat tarixida ingliz parlamentidan ancha avvalroq shakllangan va parlament deya nomlanmagan bo'lsa-da, u yoki bu ma'noda vakillik organi vazifasini bajargan idoralar ham mavjud bo'lган. Bular qatoriga Qadimgi Yunonistonda hukmdorlik qilgan Solon davridagi "bule – to'rt yuzlar kengashi" va Klisfen vaqtidagi "besh yuzlar kengashi"ni, shuningdek, Qadimgi Rimdagi xalq majlislari, senat va magistraturani kiritishimiz mumkin¹. Bu idoralar o'rta asrlarda tabaqaviy vakillik organlarining yuzaga kelishida o'ziga xos poydevor vazifasini o'tagan desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Bugungi kunda "parlament" mamlakatning qonun chiqaruvchi oily vakillik organini ifodalovchi atama sifatida dunyoning aksar davlatlari tomonidan qonunchilikda qabul qilingan yoki amaliyotda qo'llaniladi. Bunda, mamlakatning tili va an'analaridan kelib chiqib, parlamentning rasmiy nomi turlicha bo'lishi mumkin. Xususan, AQSh va ayrim Lotin Amerikasi davlatlarida – kongress, Shvetsiyada – riksdag, Norvegiyada – storting, Rossiya Federatsiyasida – federal majlis, Ukrainada – oliy rada va hokazo.

Zamonaviy parlament qanday nomlanishidan qat'i nazar, u demokratik davlatda hokimiyatning mustaqil tarmog'i bo'lib hisoblanadi. Parlamentning asosiy vazifasi qonun ijodkorligidan iboratligi bois, u "qonun chiqaruvchi organ" deb ham yuritiladi. Biroq, mazkur atama "parlament" tushunchasiga nisbatan birmuncha tor hisoblanadi, chunki u oliy vakillik organi faoliyatining barcha qirralarini o'zida aks ettirolmaydi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Xalqimiz hayotiy muammolar va ularning yechimini yaxshi biladigan, islohotlar samarasiga xizmat qiladigan qonun va qarorlar qabul qilishda jonbozlik ko'rsatadigan, katta bilim va malakaga ega insonlar deputat bo'lishini xohlaydi. Shuning uchun ko'ppartiyaviylik asosida saylanadigan yangi parlamentimiz, birinchi navbatda,

¹ Qarang: Muhamedov H. Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixi (Qadimgi dunyo davlati va huquqi tarixi) – T.: "Adolat", 1999. –B.208–212.

xalqimiz va Vatanimiz manfaatlarini himoya qilishga qodir bo'lgan deputatlardan iborat bo'lishi lozim”¹.

Milliy parlamentarizmning eng yangi tarixi umum e'tirof etilgan uchta asosiy davrga bo'linadi. **Birinchi davr: 1991-1994 yillar; ikkinchisi: 1995-2004 yillar; uchinchi davr: 2005 yildan hozirgi paytgacha.**

Shavkat Mirziyoyev alohida ta'kidlab o'tganidek, “Mustaqilligimizning ilk davrida qabul qilingan Konstitutsiyamiz shaxs, jamiyat va davlat o'rtaсидаги муносабатларда о'заро huquq va majburiyatlar hamda ularning kafolatlarini aniq-ravshan belgilab berdi. Bosh qomusimiz, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, yurtimiz fuqarolari tengligining kafolatlanishini e'tirof etdi va zamonaviy demokratik taraqqiyot uchun zamin yaratdi”².

14.2. Oliy Majlisning tarkibiy tuzilishi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatini tashkil etish

O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatadan – Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palata) iborat. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati vakolat muddati – besh yil. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi qonunga muvofiq saylanadigan 150 deputatdan iborat. Mazkur deputatlarning davlat va jamiyat hayotidagi roli haqida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev quyidagilarni alohida ta'kidlaydi: “Barchamizga yaxshi ayonki, deputatlik – bu odamdan juda katta intellektual salohiyat, tinimsiz mehnat, izlanish va mas'uliyat talab qiladigan faoliyatdir. O'zim ham ko'p yillar deputat bo'lib ishlaganman, bu vazifaning

¹ Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir. //“Xalq so'zi” gazetasi, 8 dekabr, 2019 yil. №254.

² Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir. //“Xalq so'zi” gazetasi, 8 dekabr, 2019 yil. №254.

qanchalik og‘ir va mashaqqatli, shu bilan birga, sharaflı ish ekanini yaxshi bilaman”¹.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati hududiy vakillik palatasi bo‘lib, Senat a’zolaridan (senatorlardan) iborat. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Senator – bu avvalo xalq va davlat ishonchini qozongan inson. U chuqur bilim, boy hayotiy tajribaga ega bo‘lgan, tinimsiz mehnat qilib, tashabbus ko‘rsatib yashaydigan, xalq manfaatlarini doimo birinchi o‘ringa qo‘yib, o‘z taqdirini el-yurt taqdiri bilan chambarchas bog‘liq holda ko‘radigan shaxsdir”².

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a’zolari Qoraqalpog’iston Respublikasi Jo’qorg’i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo’shma majlislarida mazkur deputatlar orasidan yashirin ovoz berish yo’li bilan Qoraqalpog’iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda – 6 kishidan saylanadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 16 nafar a’zosi fan, san’at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo‘lgan hamda alohida xizmat ko‘rsatgan eng obro’li fuqarolar orasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

Saylov kuni 25 yoshga to’lgan hamda kamida 5 yil O‘zbekiston Respublikasi hududida muqim yashayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a’zosi bo’lishi mumkin. Deputatlikka nomzodlarga qo’yiladigan talablar qonun bilan belgilanadi.

14.3. Palatalarning huquqiy maqomi va ichki tuzilishi

Qonunchilik palatasi deputatlari siyosiy, professional va boshqa asosda fraksiyalar va deputatlar guruhlari shaklida deputatlar birlashmalarini tuzishi mumkin.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasining birinchi yig‘ilishidagi nutqi. //“Xalq so‘zi” gazetasi, 2020 yil 21 yanvar, №15 (7517)

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis Senatining birinchi majlisidagi nutqi. //“Xalq so‘zi” gazetasi, 2020 yil 21 yanvar, №15 (7517)

Fraksiyalar

- Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O’zbekiston Liberal-Demokratik partiyasining fraksiyasi;
- O’zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasining fraksiyasi;
- O’zbekiston Xalq demokratik partiyasining fraksiyasi;
- O’zbekiston Adolat sotsial-demokratik partiyasining fraksiyasi;
- O’zbekiston ekologik partiyasining fraksiyasi.

Qo’mitalar. Qonun loyihalarini tayyorlash ishini olib borish, Qonunchilik palatasi muhokamasiga kiritiladigan masalalarni dastlabki tarzda ko’rib chiqish va tayyorlash, O’zbekiston Respublikasi qonunlari hamda palata tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning ijrosini nazorat qilish uchun Qonunchilik palatasining vakolatlari muddatiga Qonunchilik palatasi deputatlari orasidan rais, uning o’rindosari va a’zolardan iborat tarkibda qo’mitalar saylanadi.

Qonunchilik palatasida quyidagi qo’mitalar faoliyat ko’rsatmoqda:

- Budjet va iqtisodiy islohotlar qo’mitasi;
- Mehnat va ijtimoiy masalalar qo’mitasi;
- Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo’mitasi;
- Xalqaro ishlar va parlametlararo aloqalar qo’mitasi;
- Sanoat, qurilish va savdo masalalari qo’mitasi;
- Agrar va suv xo’jaligi masalalari qo’mitasi;
- Fan, ta’lim, madaniyat va sport masalalari qo’mitasi;
- Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari qo’mitasi;
- Innovatsion rivojlanish, axborot siyosati va axborot texnologiyalari masalalari qo’mitasi;
- Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo’mitasi;
- Fuqarolarning sog’lig’ini saqlash masalalari qo’mitasi;
- Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish masalalari qo’mitasi¹.

¹ Qo’mitalar. //<https://parliament.gov.uz/uz/about/structure/committee/>

Komissiyalar. Qonunchilik palatasi muayyan vazifalarni bajarish uchun komissiyalar tuzishi mumkin. Hozirgi kunda Qonunchilik palatasi quyidagi komissiyalar faoliyat ko'rsatmoqda:

- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondining mablag'larini boshqarish bo'yicha parlament komissiyasi;
- Normativ-huquqiy atamalar komissiyasi;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining o'zaro hamkorligini tashkil etish bo'yicha muvofiqlashtiruvchi Kengash;
- Yoshlar masalalari bo'yicha komissiya;
- Oila va ayollar masalalari bo'yicha komissiya.

Senat Kengashi. Senatning faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida Senat Kengashi tuziladi. Senat Kengashi doimiy faoliyat ko'rsatuvchi kollegial organdir. Senat Kengashining tarkibiga Senat Raisi, uning o'rinosarlari va qo'mitalarning raislari kiradi¹.

Senat devoni. Senat, uning organlari va senatorlar faoliyatini tashkiliy, axborot, tahliliy, moddiy-texnika ta'minotini Senat devoni amalga oshiradi².

Senat devoni boshqarma va bo'limlari quyidagilardan iborat:

- Axborot xizmati;
- Yuridik boshqarma;
- Nazorat-tahlil boshqarmasi;
- Davlat byudjeti va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalarini tahlil qilish boshqarmasi;
- Senat Raisi kotibiyyati;
- Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari faoliyatiga ko'maklashish, odam savdosi va majburiy mehnatni oldini olish masalalari bo'limi;
- Xalqaro aloqalar bo'limi;
- Senat qo'mitalarining kotibiyyatlari;

¹ Senat Kengashi. // <https://senat.uz/oz/senators/kengash>

² Senat devoni. //<https://senat.uz/oz/about/apparat>

- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'limi;
- Umumiy bo'lim;
- Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari bilan ishlash bo'limi;
- Moddiy-texnika va ta'minot bo'limi;
- Moliya, hisob va hisobot bo'limi;

Senatda quyidagi qo'mitalar mavjud:

- Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasi;
- Budjet va iqtisodiy islohotlar masalalari qo'mitasi;
- Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi;
- Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi;
- Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi;
- Axborot siyosati va davlat organlarida ochiqlikni ta'minlash masalalari qo'mitasi;

- Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi;
- Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi;
- Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitasi;
- Orolbo'yini mintaqasini rivojlantirish masalalari qo'mitasi;

Senat komissiyalari. Senat Komissiyalari Senat muayyan vazifalarni bajarish uchun komissiyalar tuzishi mumkin. Senat Komissiyalari quyidagilardan iborat:

- Reglament va odob komissiyasi;
- Senatning mahalliy hokimiyat vakillik organlari faoliyatini kuchaytirishga ko'maklashuvchi komissiyasi;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining prokuratura organlari faoliyati ustidan nazorat qiluvchi komissiyasi¹.

¹ Senat Komissiyalari. // <https://senat.uz/oz/senators/commissions>

14.4. Palatalarning birqalikdagi va mutlaq vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 78-moddasida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birqalikdagi quyidagi vakolatlari belgilangan:

- 1) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilish, unga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish;
- 2) O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy qonunlarini, qonunlarini qabul qilish, ularga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish;
- 3) O'zbekiston Respublikasining referendumini o'tkazish to'g'risida va uni o'tkazish sanasini tayinlash haqida qaror qabul qilish;
- 4) O'zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilash hamda davlat strategik dasturlarini qabul qilish;
- 5) O'zbekiston Respublikasi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi hamda sud hokimiyyati organlarining tizimini va vakolatlarini belgilash;
- 6) O'zbekiston Respublikasi tarkibiga yangi davlat tuzilmalarini qabul qilish va ularning O'zbekiston Respublikasi tarkibidan chiqishi haqidagi qarorlarni tasdiqlash;
- 7) boj, valyuta va kredit ishlarini qonun yo'li bilan tartibga solish;
- 8) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasining Davlat budgetini qabul qilish va uning ijrosini nazorat etish;
- 9) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni joriy qilish;
- 10) O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi masalalarini qonun yo'li bilan tartibga solish, chegaralarini o'zgartirish;
- 11) tumanlar, shaharlar, viloyatlarni tashkil etish, tugatish, ularning nomini hamda chegaralarini o'zgartirish;
- 12) davlat mukofotlari va unvonlarini ta'sis etish;
- 13) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vazirliklar, davlat qo'mitalari va davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzish hamda tugatish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlash;

- 14) O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasini tuzish;
- 15) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini ko'rib chiqish va tasdiqlash, shuningdek mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining dolzarb masalalari yuzasidan Bosh vazirning hisobotlarini eshitish va muhokama qilish;
- 16) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili va uning o'rinnbosarini saylash;
- 17) O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining hisobotini ko'rib chiqish;
- 18) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasiga hujum qilinganda yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnomalarini bajarish zaruriyati tug'ilganda urush holati e'lon qilish to'g'risidagi farmonini tasdiqlash;
- 19) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining umumiyligi yoki qisman safarbarlik e'lon qilish, favqulodda holat joriy etish, uning amal qilishini uzaytirish yoki tugatish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlash;
- 20) xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya va denonsatsiya qilish;
- 21) parlament nazoratini va ushbu Konstitutsiyada nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

Palatalarning birgalikdagi vakolatlariga kiradigan masalalar, qoida tariqasida, avval O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasida, so'ngra Senatida ko'rib chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 79-moddasida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasining quyidagi mutlaq vakolatlari belgilangan:

- 1) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Spikeri va uning o'rinnbosarlarini, qo'mitalarning raislari va ularning o'rinnbosarlarini saylash;
- 2) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatini daxlsizlik huquqidan mahrum etish to'g'risidagi masalalarni hal etish;

3) o’z faoliyatini tashkil etish va palataning ichki tartib qoidalari bilan bog’liq masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish;

4) siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot sohasidagi u yoki bu masalalar yuzasidan, shuningdek davlatning ichki va tashqi siyosati masalalari yuzasidan qarorlar qabul qilish;

5) O’zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimiga binoan O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi a’zoligiga nomzodlarni keyinchalik ularni O’zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimlarga tasdiqlash uchun ko’rib chiqish va ma’qullash kiradi¹.

O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 80-moddasida O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatining quyidagu mutlaq vakolatlari belgilangan:

1) O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Raisini va uning o’rnbosarlarini, qo’mitalarning raislari va ularning o’rnbosarlarini saylash;

2) O’zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudini saylash;

3) O’zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O’zbekiston Respublikasi Oliy sudini saylash;

4) O’zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O’zbekiston Respublikasi Sudyalar oliv kengashining raisini tayinlash;

6) O’zbekiston Respublikasi Prezidentining O’zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va Hisob palatasi raisini tayinlash hamda ularni lavozimididan ozod etish to’g’risidagi farmonlarini tasdiqlash;

7) O’zbekiston Respublikasi Prezidentining O’zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati raisini tayinlash va uni lavozimididan ozod etish to’g’risidagi farmonlarini tasdiqlash;

8) O’zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O’zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakillarini tayinlash hamda ularni lavozimididan ozod etish;

¹ O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O’zbekiston”, 2020. –B.30.

9) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruving raisini tayinlash va uni lavozimidan ozod etish;

10) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan amnistiya to'g'risidagi hujjatlarni qabul qilish;

11) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a'zosini daxlsizlik huquqidan mahrum etish to'g'risidagi masalalarini hal etish;

12) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvi raisining hisobotlarini eshitish;

13) o'z faoliyatini tashkil etish va palataning ichki tartib qoidalari bilan bog'liq masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish;

14) siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot sohasidagi u yoki bu masalalar yuzasidan, shuningdek davlat ichki va tashqi siyosati masalalari yuzasidan qarorlar qabul qilish kiradi.

14.5. Qonunchilik jarayoni. Qonunchilik tashabbusiga ega bo'lgan subyektlar

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq quyidagilar qonunchilik tashabbusi huquqiga egadirlar:

- 1) O'zbekiston Respublikasining Prezidenti;
- 2) o'z davlat hokimiyatining oliy vakillik organi orqali Qoraqalpog'iston Respublikasi;
- 3) Qonunchilik palatasi deputatlari;
- 4) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;
- 5) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi;
- 6) O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi;

8) O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori¹.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 84-moddasiga asosan, Qonun Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, Senat tomonidan ma'qullanib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangach va qonunda belgilangan tartibda rasmiy nashrlarda e'lon qilingach, yuridik kuchga ega bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan qonun qabul qilingan kundan e'tiboran o'n kundan kechiktirmay O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga yuboriladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati ma'qullagan qonun imzolanishi va e'lon qilinishi uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga o'n kun ichida yuboriladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qonun o'ttiz kun ichida imzolanadi va e'lon qilinadi.

Qonunchilik jarayonining to'rtta asosiy bosqichlari

1) qonunchilik tashabbusi bosqichi;

2) qonun loyihasini ko'rib chiqish bosqichi;

3) qabul qilish bosqichi;

4) qonunni ma'qullah bosqichi;

5) qonunni imzolash va e'lon qilish bosqichi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan rad etilgan qonun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga qaytariladi. Agar O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan rad etilgan qonunni qayta ko'rib chiqishda Qonunchilik palatasi deputatlar umumiyl sonining uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan qonunni yana

¹ O'zbekiston Respublikasining "Qonunlar loyihalari tayyorlash va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to'g'risida" 11.10.2006 yildagi O'RQ-60-sonli Qonuni. //https://lex.uz/acts/-1069260

ma'qllasa, qonun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan hisoblanadi hamda imzolanishi va e'lon qilinishi uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga Qonunchilik palatasi tomonidan yuboriladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan rad etilgan qonun yuzasidan Qonunchilik palatasi va Senat yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni bartaraf etish uchun Qonunchilik palatasi deputatlari va Senat a'zolari orasidan tenglik asosida kelishuv komissiyasini tuzishi mumkin. Palatalar kelishuv komissiyasi takliflarini qabul qilganda qonun odatdagi tartibda ko'rib chiqilishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qonunni o'z e'tirozlari bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qaytarishga haqli. Agar qonun avvalgi qabul qilingan tahririda tegishincha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan ma'qllansa, qonun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan o'n to'rt kun ichida imzolanishi va e'lon qilinishi kerak. Qonunlarning va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning matbuotda e'lon qilinishi ular qo'llanilishining majburiy shartidir.

14.6. Qonunchilik palatasi deputati va Senat a'zolarining huquqiy maqomi

Qonunchilik palatasi deputati va Senat a'zosi (senator)ning huquqiy maqomi deganda, deputat va senatorning qonun hujjatlarida belgilangan huquqlari, majburiyatlar va burchlari, vakolatlari, ular faoliyatining shakllari va kafolatlari yig'indisi nazarda tutiladi. Deputat va senatorning huquqiy maqomi ular zimmasiga yuklatilgan vazifalarning ahamiyati va ko'lamiga monand tarzda yuqori darajada belgilanadi hamda xalq vakili sifatida to'siqlarsiz va samarali faoliyat olib borilishini ta'minlaydi.

Mamlakatimizda Qonunchilik palatasi deputati va senator faoliyatining huquqiy asoslari Konstitutsiyada, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi

Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a'zosining maqomi to'g'risida"¹gi va boshqa qonun hujjatlarida belgilab berilgan.

Deputat va senatorning huquqiy maqomini belgilashda konstitusiyaviy normalar muhim ahamiyatga ega. Jumladan, Konstitutsianing 88-moddasida deputat va senator huquqiy maqomining umumiylashtirishiga qo'shilishi, deputat va senatorning daxlsizlik huquqi va mehnat munosabatlariga oid masalalar tartibga solingan. Mazkur konstitutsiyaviy normalar 2004-yil 2-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a'zosining maqomi to'g'risida"¹gi qonunda yanada rivojlantirilgan. Jumladan, Qonunning 12-moddasida deputatning va senatorning huquqlari, sha'ni hamda qadr-qimmatini muhofaza qilish mustahkamlangan bo'lib, unga asosan har bir deputatga, senatorga o'z vakolatlarini moneliksiz hamda samarali amalga oshirishi uchun shart-sharoit kafolatlanadi, uning huquqlari, sha'ni va qadr-qimmati muhofaza qilinadi.

Deputatlik, senatorlik vakolatlarini amalga oshirishiga to'sqinlik qilish maqsadida deputatga, senatorga qanaqa tarzda bo'lmasin ta'sir ko'rsatishga yo'l qo'yilmaydi. Deputat, senator oldidagi o'z vazifalarini bajarmaydigan, uning ishiga to'sqinlik qiladigan, bila turib unga yolg'on axborot beradigan, deputat, senator faoliyatining kafolatlarini buzadigan mansabdor shaxslar qonunchilikka muvofiq javobgar bo'ladilar¹.

¹ O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a'zosining maqomi to'g'risida" 02.12.2004 yildagi 704-II-sonli Qonuni. // <https://lex.uz/docs/-436914>

Deputat va senator faoliyatining asosiy kafolatlari

Deputatning va senatorning daxlsizlik huquqi

Deputatni va senatorni daxlsizlik huquqidan mahrum qilish tartibi

Deputatning va senatorning mansabdor shaxslar tomonidan darhol qabul qilinish huquqi

Deputatning va Senatda doimiy asosda ishlayotgan senatorning mehnat huquqlari kafolatlari

Deputatni va senatorni harbiy yig‘inlardan ozod qilish

Deputat va senator faoliyatining axborot hamda moddiy- texnika ta’minoti

Deputatga va senatorga xizmat xonasi berish

Deputatning va senatorning transportda tekin yurish huquqi

Deputatga va senatorga xizmat turar joyi berish

Mazkur qonunning 13-moddasida deputat va senatorning daxlsizlik huquqi mustahkamlab qo‘yilgan. Unga ko‘ra, deputat, senator o‘zining vakolatlari muddati mobaynida daxlsizlik huquqiga ega bo‘ladi. Tegishli palataning roziliginisiz deputat, senator jinoiy javobgarlikka tortilishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi yoki sud tartibida beriladigan ma’muriy jazoga tortilishi mumkin emas.

Deputatni, senatorni majburiy keltirishga, shuningdek uning uy-joyi, xizmat xonasini, yuki, shaxsiy va xizmat transporti vositalarini, yozishmalarini, u foydalananayotgan aloqa vositalarini, shuningdek unga tegishli hujjatlarni ko’zdan kechirishga yo’l qo‘yilmaydi.

Deputat, senator tegishli palatada ovoz berish chog’ida fikr bildirganligi yoki nuqtai nazarini bayon etganligi uchun hamda o‘z vakolatlarini amalga oshirishi bilan bog’liq boshqa harakatlari uchun javobgarlikka tortilishi mumkin emas, shu jumladan vakolatlari muddati tugaganidan keyin ham javobgarlikka tortilishi mumkin emas. Agar shunday xatti-harakatlar munosabati bilan deputat,

senator haqorat qilishga, tuhmat qilishga yoki qonunda javobgarlik nazarda tutilgan boshqa qonunbuzarliklarga yo'l qo'ygan bo'lsa, u daxlsizlik huquqidan mahrum qilingan taqdirda javobgarlikka tortiladi.

Tayanch iboralar:

1. parlament, vakillik organi,
2. "besh yuzlar kengashi",
3. Qonunchilik palatasi (quyi palata),
4. deputat,
5. senat,
6. senator,
7. Senat majlisi,
8. Senat devoni,
9. Senat komissiyalari,
10. Senat qo'mitalari,
11. qonunchilik jarayoni,
12. daxlsizlik

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar.

1. Parlament qanday organ, uni vujudga kelishi ahamiyati nimada?
2. O'zbekistonda Parlament shakllanishi qachondan boshlanadi?
3. Oliy Majlisning hokimiyat tizimidagi o'rni qanday?
4. Oliy Majlisning vazifalari nimalardan iborat?
5. O'zbekistonda ikki palataga o'tish sabablari nima?
6. O'zbekistonda parlament islohotlarining maqsad va vazifalari nima?
7. Oliy Majlisning tarkibiy tuzilishi qanday?
8. Qonunchilik palatasi qanday tashkil qilinadi?
9. Senat qanday tashkil qilinadi?
10. Oliy Majlis palatalarining tashkiliy faoliyati shakli qanday?
11. Qonunchilik palatasining ichki tuzilishi qanday? ?
12. Senatning ichki tuzilishi qanday?
13. Palatalarning birgalikdagi vakolatlari qanday?
14. Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlari nimalardan iborat?
15. Senatning mutlaq vakolatlari nimalardan iborat?
16. Qonunchilik jarayoni nima?
17. Qonunchilik bosqichlari nimadan iborat?

18. Kim qonunchilik tashabbusi huquqiga ega?
19. Qonun qabul qilish, ma'qullash, imzolashdagi kelishmovchiliklar qanday hal qilinadi?
20. Deputat va senatorning huquqiy maqomi nimalardan tashkil topgan?
21. Deputat va senatorlarning vakolat mudati qachon oldindan tugaydi?
22. Deputat va senatorlarning odobi nima?
23. Deputat va senatorlarning daxlsizligi, daxlsizlikdan mahrum qilish tartibi qanday?
24. Parlament va deputat so'rovi qanday?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O'zbekiston” NMIU, 2020. –80 b.
2. O'zbekiston Respublikasining “Qonunlar loyihalarini tayyorlash va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to'g'risida” 11.10.2006 yildagi O'RQ-60-sonli Qonuni. //<https://lex.uz/acts/-1069260>
3. O'zbekiston Respublikasining “O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a'zosining maqomi to'g'risida” 02.12.2004 yildagi 704-II-sonli Qonuni. // <https://lex.uz/docs/-436914>
4. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir. //“Xalq so'zi” gazetasi, 8 dekabr, 2019 yil. №254.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasining birinchi yig'ilishidagi nutqi. //“Xalq so'zi” gazetasi, 2020 yil 21 yanvar, №15 (7517)
6. Saidov B.A., Xidirov S.M., Tastanbekova G.S. Qiyosiy konstitutsiyaviy huquq. –T.: “O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi”, 2014. –B.138..
7. Muhamedov H. Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixi (Qadimgi dunyo davlati va huquqi tarixi) – T.: “Adolat”, 1999. –B.208–212.
8. Parlament tarixi. // <http://parliament.gov.uz/uz/about/history/>
9. Qo'mitalar. //<https://parliament.gov.uz/uz/about/structure/committee/>
10. Senat Kengashi. // <https://senat.uz/oz/senators/kengash>
11. Senat devoni. //<https://senat.uz/oz/about/apparat>
12. Senat Komissiyalari. // <https://senat.uz/oz/senators/commissions>

15-Mavzu: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING PREZIDENTI

15.1. Prezident maqomi

Dunyo konstitutsiyashunoslik ilmida prezidentlik institutiga quyidagicha tavsif beriladi:

- 1) prezident muayyan davlatning boshlig'i va millat birligining timsolidir. U davlat hududida joylashgan millat va xalq suverenitetining birligini mamlakat ichida hamda xalqaro miqyosda namoyon etadi;
- 2) prezident mamlakatning umumiyligi holati uchun mas'ul bo'lib, siyosiy barqarorlikni ta'minlaydi;
- 3) huquq-tartibotni mustahkamlash, xavfsizlikni ta'minlash yo'lida mamlakat hududida majburiy amal qiladigan huquqiy hujjatlar qabul qiladi;
- 4) prezident ijroiya hokimiyat tizimida oliy lavozimga tayinlash vakolatini amalga oshiradi;
- 5) prezident o'z mamlakatining xalqi nomidan ish tutadi, uning milliy manfaatlarini himoya qiladi; turli partiyaviy, ijtimoiy va siyosiy manfaatlardan, ayniqsa, kelishmovchiliklardan ustun turadi; jamiyatni o'zaro muvofiqlashtiradi;
- 6) prezident mamlakat Qurolli Kuchlarining oliy bosh qo'mondoni hisoblanadi;
- 7) prezident fuqarolik masalalarini hal qiladi; fuqarolarni oliy davlat unvonlari, nishonlari bilan mukofotlaydi; afv etish vakolatlarini amalga oshiradi;
- 8) prezident fuqarolar huquq va erkinliklariga, Konstitutsiya va qonunlarga rioya etilishining kafili hisoblanadi¹.

15.2. Prezidentning saylash tartibi

O'zbekiston Prezidentini saylash tartibi respublika Konstitutsiyasi hamda 2019-yil 26-iyunda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksi asosida amalga oshiriladi. Jumladan, Saylov kodeksining 61-moddasida

¹ Ikramov Sh.T. Konstitutsiyaviy huquq: Darslik. –T.: “O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi”, 2014. –B.448-449.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodga qo'yiladigan talablar mustahkamlangan. Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 5 yil muddatga saylanadi. Ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bo'lishi mumkin emas. 35 yoshdan kichik bo'limgan, davlat tilini yaxshi biladigan, bevosita saylovgacha kamida 10 yil O'zbekiston hududida muqim yashayotgan fuqaro O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylanishi mumkin.

Quyidagilar:

- qasddan sodir etilgan jinoyati uchun ilgari sudlangan fuqarolar;
 - diniy tashkilotlar va birlashmalarning professional xizmatchilari
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod etib ro'yxatga olinmaydi¹.

Siyosiy partiya saylov kampaniyasi boshlanganligi e'lon qilingan kundan kamida to'rt oy oldin O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olingan taqdirdagina O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod ko'rsatishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlar ko'rsatish saylovga 65 kun qolganida boshlanadi va 45 kun qolganida tugaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlar ko'rsatish siyosiy partiyalarning yuqori organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Siyosiy partyaning yuqori organi O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga bitta nomzod ko'rsatishi mumkin.

Siyosiy partiya O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga faqat o'z partiyasi a'zolari orasidan yoki partiyasizni nomzod etib ko'rsatishga vakolatlidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod ko'rsatilganligi to'g'risida bayonnomaga tuziladi.

Siyosiy partyaning rahbari O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodni ro'yxatga olishni iltimos qilib Markaziy saylov komissiyasiga ariza bilan murojaat etadi.

¹ O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi . //https://lex.uz/docs/-4386848#-4388802

Hujjatlarni taqdim etgan shaxsga Markaziy saylov komissiyasi hujjatlar qabul qilib olingen sana va vaqt ko'rsatilgan ma'lumotnoma beradi.

Markaziy saylov komissiyasi taqdim etilgan hujjatlarni 5 kunlik muddat ichida tekshirib chiqadi va ularning ushbu Kodeks talablariga muvofiqligi to'g'risida xulosa beradi.

Markaziy saylov komissiyasi ro'yxatga olish uchun taqdim etilgan hujjatlarda aniqlangan nomuvofiqliklar va ushbu Kodeks talablaridan chetga chiqish hollari to'g'risida tegishli siyosiy partiyalarning rahbarlariga ma'lum qiladi. Siyosiy partiya hujjatlardagi aniqlangan nomuvofiqliklar va xatolarni 2 kunlik muddatda tuzatishga hamda ularni Markaziy saylov komissiyasiga taqdim etishga haqli.

Markaziy saylov komissiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlarni ro'yxatga olish uchun hujjatlarni qabul qilishni ro'yxatga olish muddati tugallanishiga yetti kun qolganida yakunlaydi.

Prezident saylovi 2021-yil 8-fevralda O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 117-moddasiga kiritilgan o'zgartishga muvofiq, oktyabr oyida bo'lib o'tadi. Bo'lajak saylov 2017 – 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan demokratik g'oyalarning amaldagi yana bir yorqin ifodasi bo'ladi. Bu borada Shavkat Mirziyoyev quyidagilarni alohida ta'kidlaydi: “2021 yilda davlatimiz va xalqimiz hayotida katta siyosiy voqe - Prezidentlik saylovi bo'lib o'tadi. Markaziy saylov komissiyasi bo'lajak saylov milliy qonunchilimiz va umume'tirof etilgan xalqaro demokratik tamoyillar asosida, yuksak saviyada tashkil etilishiga alohida e'tibor qaratishi lozim. Birinchi navbatda, saylov komissiyalari a'zolarining saylov qonunchiligi va xalqaro standartlar bo'yicha bilimlarini tizimli asosda shakllantirish kerak. O'tgan saylovlarda xalqaro kuzatuvchilar tomonidan berilgan maqbul tavsiyalarni milliy qonunchilik va amaliyotga tatbiq etish ishlarini davom ettiramiz”¹.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // “Xalq so'zi” gazetasi, 2020 yil 30 dekabr, № 276.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Markaziy saylov komissiyasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi natijalari rasmiy ravishda e'lon qilingan kundan e'tiboran kechi bilan ikki oy ichida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qo'shma majlisida qasamyod qilgan paytdan e'tiboran o'z lavozimiga kirishadi. Amaldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti o'z vakolatlarini yangi saylangan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishguniga qadar bajaradi.

15.3. Prezident vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Konstitutsiyada ko'rsatilgan vakolatlarini maqsadi va mazmuniga ko'ra shartli ravishda bir necha guruhga bo'lish mumkin:

- 1) qonunchilik va qonuniylik sohasidagi vakolatlar;
- 2) davlat organlarini tuzish sohasidagi vakolatlar;
- 3) fuqarolarning huquq, erkinlik, burch va qonuniy manfaatlari sohasidagi vakolatlar;
- 4) xalqaro munosabatlar sohasidagi vakolatlar.

O'zbekiston Respublikasi Asosiy qonunining 93-moddasiga binoan Prezident mamlakat rahbari, Konstitutsiya va qonunlar, inson va fuqarolar huquq va erkinliklarining asosiy kafolatchisi sifatida bir qancha konstitutsiyaviy vakolatlarni amalga oshiradi. Xususan, u:

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti:

- 1) fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishining kafilidir;
- 2) O'zbekiston Respublikasining suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligini muhofaza etish, milliy-davlat tuzilishi masalalariga doir qarorlarni amalga oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko'radi;
- 3) mamlakat ichkarisida va xalqaro munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi nomidan ish ko'radi;

4) muzokaralar olib boradi hamda O'zbekiston Respublikasining shartnoma va bitimlarini imzolaydi, respublika tomonidan tuzilgan shartnomalarga, bitimlarga va uning qabul qilingan majburiyatlariga rioya etilishini ta'minlaydi;

5) o'z huzurida akkreditatsiyadan o'tgan diplomatik hamda boshqa vakillarning ishonch va chaqiruv yorliqlarini qabul qiladi;

6) O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakillarini tayinlash uchun nomzodlarni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdim etadi;

7) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga mamlakat ichki va tashqi siyosatini amalga oshirishning eng muhim masalalari yuzasidan murojaat qilish huquqiga ega;

8) respublika oliy hokimiyat va boshqaruv organlarining bahamjihat ishlashini ta'minlaydi; vazirliklar, davlat qo'mitalari hamda davlat boshqaruvinining boshqa organlarini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan tuzadi va tugatadi, shu masalalarga doir farmonlarni keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tasdig'iga kiritadi;

9) Senat Raisi lavozimiga saylash uchun nomzodni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdim etadi;

10) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari ko'rib chiqishi va tasdiqlashi uchun O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini taqdim etadi hamda uni iste'foga chiqqanda, Bosh vazirga nisbatan bildirilgan ishonchsizlik votumi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tomonidan qabul qilinganda yoxud qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda lavozimidan ozod qiladi;

11) O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatosi ma'qullaganidan keyin kiritilgan taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasи a'zolarini tasdiqlaydi va lavozimlaridan ozod qiladi;

12) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va Hisob palatasi raisini tayinlaydi va ularni lavozimidan ozod qiladi, keyinchalik bu masalalarni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tasdig'iga kiritadi;

13) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tarkiblariga, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliv kengashining raisi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining raisi lavozimlariga nomzodlarni taqdim etadi;

14) O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliv kengashining taqdimiga binoan viloyatlar va Toshkent shahar sudlari raislari va rais o'rinnbosarlarini, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi raisini tayinlaydi va lavozimlaridan ozod etadi; O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliv kengashining a'zolarini qonunga muvofiq tasdiqlaydi;

15) O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimiga binoan viloyatlar hokimlarini hamda Toshkent shahar hokimini qonunga muvofiq tayinlaydi hamda lavozimidan ozod etadi. Konstitutsiyani, qonunlarni buzgan yoki o'z sha'ni va qadr-qimmatiga dog' tushiradigan xatti-harakat sodir etgan tuman va shahar hokimlarini Prezident o'z qarori bilan lavozimidan ozod etishga haqli;

16) respublika davlat boshqaruvi organlarining va hokimlarning qabul qilgan hujjatlarini ular qonun hujjatlari normalariga nomuvofiq bo'lgan hollarda to'xtatadi, bekor qiladi; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlislarida raislik qilishga haqli;

17) O'zbekiston Respublikasining qonunlarini imzolaydi va e'lon qiladi; qonunga o'z e'tirozlarini ilova etib, uni takroran muhokama qilish va ovozga qo'yish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qaytarishga haqli;

18) O'zbekiston Respublikasiga hujum qilinganda yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnomaga majburiyatlarini bajarish zaruriyati tug'ilganda urush holati e'lon qiladi va qabul qilgan qarorini uch kun ichida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining tasdig'iga kiritadi;

19) favqulodda vaziyatlar (real tashqi xavf, ommaviy tartibsizliklar, yirik halokat, tabiiy ofat, epidemiyalar) yuz bergan taqdirda fuqarolarning xavfsizligini ta'minlashni ko'zlab, O'zbekiston Respublikasining butun hududida yoki uning ayrim joylarida favqulodda holat joriy etadi va qabul qilgan qarorini uch kun ichida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tasdig'iga kiritadi. Favqulodda holat joriy etish shartlari va tartibi qonun bilan belgilanadi;

20) O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh qo'mondoni hisoblanadi, Qurolli Kuchlarning oliy qo'mondonlarini tayinlaydi va vazifasidan ozod qiladi, oliy harbiy unvonlar beradi;

21) O'zbekiston Respublikasining ordenlari, medallari va yorlig'i bilan mukofotlaydi, O'zbekiston Respublikasining malakaviy va faxriy unvonlarini beradi;

22) O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga va siyosiy boshpana berishga oid masalalarni hal etadi;

23) amnistiya to'g'risidagi hujjatlarni qabul qilish haqida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdimnoma kiritadi va O'zbekiston Respublikasining sudlari tomonidan hukm qilingan shaxslarni afv etadi;

24) Davlat xavfsizlik xizmati raisini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi, keyinchalik shu masalalarga doir farmonlarni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tasdig'iga kiritadi;

25) ushbu Konstitutsiya va O'zbekiston Respublikasining qonunlarida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi. Prezident o'z vakolatlarini bajarishni davlat idoralariga yoki mansabdar shaxslarga topshirishga haqli emas¹.

15.4. Prezident faoliyatining kafolatlari

2003-yil 25-apreldagi O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti faoliyatining asosiy kafolatlari to'g'risida"gi qonun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining o'z vakolatlarini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq samarali amalga oshirishi uchun zarur

¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: "O'zbekiston", 2020. –B.44-50.

sharoitlar yaratish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Shuningdek konstitutsiyaviy vakolat muddati tugab yoki sog'lig'i holatiga ko'ra iste'foga chiqqan O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga (eks-Prezidenti) zarur sharoitlar va kafolatlar yaratib berilishi qonuniy mustahkamlab qo'yilgan.

Mazkur qonunning 2-moddasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining daxlsizligi deb nomlanib, unda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti daxlsizlik va immunitetga ega bo'lishi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining daxlsizligi uning turar joy va xizmat xonalariga, bagajiga, shaxsiy va xizmat transport vositalariga, yozishmalariga, foydalanadigan aloqa vositalariga, shuningdek unga tegishli hujjatlarga tatbiq etilishi belgilangan.

Shuningdek, qonunda O'zbekiston Respublikasining eks-Prezidenti ham butun hayoti mobaynida daxlsizlik va immunitetga ega bo'lishi, uning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vakolatlarini bajarish bilan bog'liq harakatlar uchun jinoiy va boshqa xil javobgarlikka tortilishi mumkin emasligi hamda unga nisbatan ushlab turish, so'roq qilish, tintuv o'tkazilishi yoki uning shaxsi ko'zdan kechirilishi mumkin emasligi mustahkamlab qo'yilgan.

Qonunning 3-moddasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining muhofazasi masalasiga bag'ishlanib, unda: "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va uning oila a'zolariga davlat muhofazasi beriladi. O'zbekiston Respublikasining eks-Prezidentiga doimiy yoki vaqtincha turgan joylarida umrbod davlat muhofazasi beriladi. O'zbekiston Respublikasi eks-Prezidentining butun hayoti davrida uning oila a'zolariga ham davlat muhofazasi beriladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, O'zbekiston Respublikasi eks-Prezidentining davlat muhofazasi va xavfsizligini ta'minlash qonunchilikda belgilangan normalar va talablarga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati zimmasiga yuklanadi", -deb belgilangan¹.

Ushbu qonunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qonuniy faoliyatiga to'sqinlik qilinishiga, shuningdek uning sha'ni va qadr-qimmatiga putur

¹ O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti faoliyatining asosiy kafolatlari to'g'risida" 25.04.2003 yildagi 480-II-sonli Qonuni 25.04.2003 yildagi 480-II-son. // <https://lex.uz/docs/-32913>

yetkazilishiga yo'l qo'yilmaydi hamda bunday harakatlar qonun bilan ta'qib qilinadi. Bu qoida O'zbekiston Respublikasining eks-Prezidentiga nisbatan ham o'z kuchini saqlab qoladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mehnatiga haq to'lash qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga muddati 36 ish kunidan iborat yillik haq to'lanadigan ta'til beriladi.

O'zbekiston Respublikasining eks-Prezidenti umrbod O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a'zosi lavozimini egallaydi.

O'zbekiston Respublikasining eks-Prezidenti yoshidan qat'i nazar, amaldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti oylik mansab maoshining 70 foizi miqdorida umrbod oylik pul taminoti olish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi eks-Prezidentining hayoti va sog'lig'i davlat budgeti mablag'lari hisobidan amaldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yillik mansab maoshiga teng summada majburiy davlat sug'urtasidan o'tkaziladi.

Eks-Prezidentning bevasi, hayot kechirishning boshqa manbalari borligidan qat'i nazar, boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olishga haqli.

Qonunchilikda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va eks-Prezidenti faoliyatining boshqa kafolatlari ham nazarda tutilishi mumkin¹.

15.5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilinadigan normativ-huquqiy hujjatlar

O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 20-apreldagi "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"²gi Qonuniga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari asosida hamda ularni ijro etish uchun farmonlar va qarorlar tarzida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi.

¹O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti faoliyatining asosiy kafolatlari to'g'risida" 25.04.2003 yildagi 480-II-soni Qonuni 25.04.2003 yildagi 480-II-soni. // <https://lex.uz/docs/-32913>

² O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida" 20.04.2021 yildagi O'RQ-682-soni Qonuni. // <https://lex.uz/docs/-5378966>

Prezident butun O’zbekiston hududida bevosita amal qiladigan, majburiy kuchga ega bo’lgan uch xil normativ-huquqiy hujjat:

- 1) farmonlar;
- 2) qarorlar;
- 3) farmoyishlar chiqaradi.

Farmon – aniq bo’lmagan jismoniy va yuridik shaxslarga taalluqli bo’lib, uzoq muddatga amal qiladi. Farmon – normativ-huquqiy hujjat. U huquqni qo’llash xususiyatiga ham ega bo’lishi mumkin va demakki, normativ mazmunga ega bo’lmasligi ham mumkin. Normativ mazmundagi farmonlar nashr etiladi, masalan u yoki bu shaxsni biror lavozimga tayinlash to’g’risida.

Farmoyish – individual tashkiliy xususiyatdagi hujjatdir.

Prezident chiqaradigan hujjatlar uning o’zi tomonidan mustaqil chiqariladi. Prezident chiqaradigan farmonlar, qarorlar va farmoyishlar Konstitutsiya va qonunlarga zid bo’lmasligi shart. Chunki ular Konstitutsiya va qonunlar asosida, ularni bajarish maqsadida chiqariladi¹.

15.6. Prezident tomonidan Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Senatini tarqatib yuborish tartibi

O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 95-moddasida Prezident tomonidan Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Senatini tarqatib yuborish tartibi ko’rsatilgan. Qonunchilik palatasi yoki Senat tarkibida ularning normal faoliyatiga tahdid soluvchi hal qilib bo’lmaydigan ixtiloflar yuz berganda yoxud ular bir necha marta O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga zid qarorlar qabul qilgan taqdirda, shuningdek Qonunchilik palatasi bilan Senat o’rtasida O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining normal faoliyatiga tahdid soluvchi hal qilib bo’lmaydigan ixtiloflar yuz berganda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi bilan bamaslahat

¹ Rustamboyev M.X, Ahmedov D.Q, Xidirov S.M, Bekov I.R. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o’rganish. –T.: “Yangi asr avlod”, 2005. –B.29.

qabul qilgan qarori asosida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi, Senati tarqatib yuborilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi, Senati tarqatib yuborilgan taqdirda yangi saylov uch oy mobaynida o'tkaziladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati favqulodda holat joriy etilgan davrda tarqatib yuborilishi mumkin emas.

Shuningdek, 98-moddaga muvofiq, Yangi Bosh vazir nomzodi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasidagi barcha siyosiy partiyalar fraksiyalari bilan tegishli maslahatlashuvlar o'tkazilganidan so'ng O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalariga ko'rib chiqish va tasdiqlashga taqdim qilish uchun taklif etiladi.

Oliy Majlis tomonidan Bosh vazir lavozimiga nomzod ikki marta rad etilgan taqdirda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Bosh vazir vazifasini bajaruvchini tayinlaydi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini tarqatib yuboradi. Vazirlar Mahkamasining faoliyatini tashkil etish tartibi va vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi.

Tayanch iboralar:

1. prezidentlik instituti,
2. xalq suvereniteti,
3. Saylov kodeksi,
4. Markaziy saylov komissiyasi,
5. siyosiy partiya,
6. Prezident vakolatlari,
7. eks-Prezident,
8. farmon,
9. qaror,
10. farmoyish,
11. favqulodda holat,

12. fraksiya

O'z- o'zini nazorat qilish uchun savollar:

1. Prezident institutining vujudga kelishining davlat qurilishidagi ahamiyati?
2. O'zbekistonda Prezidentlik lavozimini o'rnatilishi sabablari nima?
3. Prezident lavozimi o'rnatilishi qanday masalalarni hal qildi?
4. O'zbekiston Prezidentining hokimiyat tizimidagi o'rni qanday?
5. Prezident maqomiga nimalar ta'sir qiladi?
6. Prezident maqomi nima?
7. Prezident saylovi qachon o'tkaziladi?
8. Prezidentlikka nomzodlarga qanday talablar qo'yiladi?
9. Ovoz berish tartibi qanday va natijalar qanday aniqlanadi?
10. Takroriy ovoz berish, takroriy saylov qachon o'tkaziladi?
11. Prezident faoliyati qanday kafolatlanadi?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O'zbekiston” NMIU, 2020. –80 b.
2. O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi . //<https://lex.uz/docs/>
3. O'zbekiston Respublikasining “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti faoliyatining asosiy kafolatlari to'g'risida” 25.04.2003 yildagi 480-II-sonli Qonuni 25.04.2003 yildagi 480-II-son. // <https://lex.uz/docs/-32913>
4. O'zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida” 20.04.2021 yildagi O'RQ-682-sonli Qonuni. //<https://lex.uz/docs/-5378966>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // “Xalq so'zi” gazetasi, 2020 yil 30 dekabr, № 276.
6. Ikramov Sh.T. Konstitutsiyaviy huquq: Darslik. –T.: “O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi”, 2014. –661 b.
7. Rustamboyev M.X, Axmedov D.Q, Xidirov S.M, Bekov I.R. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish. –T.: “Yangi asr avlod”, 2005. –400 b.

16-Mavzu: O'ZBELISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI

16.1. Vazirlar Mahkamasini shakllantirish. Vazirlar Mahkamasi tarkibi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi – O'zbekiston Respublikasi Hukumati ijro etuvchi hokimiyatning oliy organi bo'lib, iqtisodiyot, ijtimoiy va ma'naviy sohalarning samarali faoliyat ko'rsatishiga rahbarlik qilishni, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasida Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tartibga solish O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va 2019-yil 10-dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"¹gi qonuni asosida amalgalashiriladi¹.

"O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"¹gi qonunning 2-bobi Vazirlar Mahkamasining tarkibi va uni shakllantirish tartibi masalasiga bag'ishlanib, 5-moddada Vazirlar Mahkamasining tarkibi ko'rsatib berilgan. Unga muvofiq, Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi Hukumatining a'zolari – O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziridan (bundan buyon matnda Bosh vazir deb yuritiladi), uning o'rindosarlaridan, vazirlardan, davlat qo'mitalari raislaridan iboratdir. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi Vazirlar Mahkamasi tarkibiga o'z lavozimi bo'yicha kiradi.

Qonunning 6-moddasida Vazirlar Mahkamasini shakllantirish tartibi ko'rsatilgan. Unga asosan, Bosh vazir nomzodi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylovda eng ko'p deputatlik o'rinalarini olgan

¹ O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"¹gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida" 10.12.2019 yildagi O'RQ-591-sod Qonuni. //https://lex.uz/docs/-4636594

siyosiy partiya yoki teng miqdordagi eng ko'p deputatlik o'rinalarini qo'lga kiritgan bir necha siyosiy partiya tomonidan taklif etiladi¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Bosh vazir lavozimiga taqdim etilgan nomzodni ko'rib chiqqanidan keyin 10 kunlik muddatda uni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining ko'rib chiqishi va tasdiqlashi uchun taklif etadi.

Bosh vazir lavozimiga nomzod O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida uning nomzodi ko'rib chiqilayotgan va tasdiqlanayotganda Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo'ljallangan harakatlar dasturini taqdim etadi.

Bosh vazir nomzodi, agar uni yoqlab tegishinchalik palatasi deputatlari va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati (bundan buyon matnda Senat deb yuritiladi) a'zolari umumiyligi sonining yarmidan ko'pi ovoz bersa, tasdiqlangan hisoblanadi.

Agar ovoz berish chog'ida Bosh vazir nomzodi Qonunchilik palatasida yoki Senatda Qonunchilik palatasi deputatlari yoki Senat a'zolari umumiyligi sonining ko'pchilik ovozini ololmasa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qonunchilik palatasidagi barcha siyosiy partiyalar fraksiyalari bilan qo'shimcha maslahatlashuvlar o'tkazganidan keyin Bosh vazir lavozimiga nomzodni yana bir marta taqdim etish huquqiga ega.

Vazirlar Mahkamasi a'zolari Bosh vazirning Qonunchilik palatasi ma'qullaganidan keyin kiritilgan taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

Vazirlar Mahkamasi a'zoligiga nomzod Qonunchilik palatasidagi mas'ul qo'mita, siyosiy partiyalar fraksiyalari va deputatlar guruhlari tomonidan dastlabki tarzda ko'rib chiqilganidan keyin Qonunchilik palatasining majlisida ko'rib chiqiladi va ma'qullanadi.

¹ O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida" 10.12.2019 yildagi O'RQ-591-sod Qonuni. //https://lex.uz/docs/-4636594

Vazirlar Mahkamasi a'zosi lavozimiga nomzod uning nomzodini Qonunchilik palatasida ko'rib chiqish va ma'qullah chog'ida Vazirlar Mahkamasining harakatlar dasturi bilan o'zaro bog'liq bo'lgan, istiqbolga mo'ljallangan maqsadli ko'rsatkichlar va vazifalarga erishish borasidagi huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy-texnik chora-tadbirlarni nazarda tutuvchi harakatlar rejasini taqdim etadi.

Qonunchilik palatasi Vazirlar Mahkamasi a'zoligiga nomzodni rad etgan taqdirda, Bosh vazir ko'rib chiqish va ma'qullah uchun yangi nomzodni kiritadi.

Vazirlar Mahkamasining a'zosi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanganidan keyin o'z vazifalarini bajarishga kirishadi.

Bosh vazir va Qonunchilik palatasi o'rtasida doimiy ziddiyatlar yuzaga kelgan taqdirda, Qonunchilik palatasi deputatlari umumiylar sonining kamida uchdan bir qismi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga rasman kiritilgan taklif bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qo'shma majlisi muhokamasiga Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish haqidagi masala kiritiladi.

Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi tegishinchada Qonunchilik palatasi deputatlari va Senat a'zolari umumiylar sonining kamida uchdan ikki qismi ovoz bergen taqdirda qabul qilingan hisoblanadi. Bunday holda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Bosh vazirni lavozimidan ozod etish to'g'risida qaror qabul qiladi. Bunda Vazirlar Mahkamasining butun tarkibi Bosh vazir bilan birga iste'foga chiqadi.

Yangi Bosh vazir nomzodi Qonunchilik palatasidagi barcha siyosiy partiylar fraksiyalari bilan tegishli maslahatlashuvlar o'tkazilganidan keyin O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalariga ko'rib chiqish va tasdiqlashga taqdim qilish uchun taklif etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan Bosh vazir lavozimiga nomzod ikki marta rad etilgan taqdirda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Bosh

vazir vazifasini bajaruvchini tayinlaydi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini tarqatib yuboradi.

Amaldagi Vazirlar Mahkamasi yangi saylangan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oldida o'z vakolatlarini zimmasidan soqit qiladi, biroq Vazirlar Mahkamasining yangi tarkibi shakllantirilguniga qadar mamlakat Prezidentining qaroriga muvofiq o'z faoliyatini davom ettirib turadi.

Vazirlar Mahkamasining o'z vakolatlarini zimmasidan soqit qilishi yangi shakllantirilgan Senatning birinchi majlisi o'tkazilgan kunda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalariga Bosh vazir tomonidan yozma murojaat berish orqali amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari o'zining majlislarida Vazirlar Mahkamasining o'z vakolatlarini zimmasidan soqit qilishi to'g'risidagi tegishli qarorlarni qabul qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Vazirliklar¹:

1. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi;
2. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi;
3. O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi;
4. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi;
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi;
6. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi;
7. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi;
8. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi;
9. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi;
10. O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi;
11. O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi;
12. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi;
13. o'zbekiston respublikasi investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi;

¹ Qarang: Davlat boshqaruvi organlari. //<https://gov.uz/oz/organizations/kind/admin>

14. O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi;
15. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi;
16. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi;
17. O'zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligi;
18. O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi;
19. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lif vazirligi;
20. O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi;
21. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi;
22. O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi;
23. O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi;
24. O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat Qo'mitalari:

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi;
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi;
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi;
4. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi;
5. O'zbekiston Respublikasi Geologiya va mineral resurslar davlat qo'mitasi;
6. O'zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi;
7. O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi;
8. O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi;
9. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa sanoati davlat qo'mitasi.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agentliklar:

1. O’zbekiston Respublikasi “O’zarxiv” agentligi;
2. “O’zbekkino” milliy agentligi;
3. Farmatsevtika tarmog’ini rivojlantirish agentligi;
4. O’zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi;
5. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi;
6. O’zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi;
7. O’zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag’allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi;
8. O’zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi eksportni rag’batlantirish agentligi;
9. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Kosmik tadqiqotlar va texnologiyalar agentligi;
10. Alkogol va tamaki bozorini tartibga solish hamda vinochilikni rivojlantirish agentligi;
11. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Milliy antidoping agentligi;
12. O’zbekiston Respublikasi Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi;
13. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Xorijiy tillarni o’rganishni ommalashtirish agentligi.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qo’mitalar:

1. O’zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo’mitasi;
2. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo’yicha qo’mita;
3. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat zaxiralarini boshqarish qo’mitasi;

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi;

5. O'zbekiston Respublikasi Pillachilik va qorako'lchilikni rivojlantirish qo'mitasi.

16.2. Vazirlar Mahkamasining vazifasi. Mahalliy ijro hokimiyati organlari

Vazirlar Mahkamasi mamlakatimizda ijro hokimiyatini amalga oshiradi. Konstitutsiya va "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi yangi tahrirdagi Qonunda Vazirlar Mahkamasining vazifasi va mas'uliyatini aniq belgilab qo'yilgan. Unga asosan, Vazirlar Mahkamasi:

- samarali iqtisodiy, ijtimoiy, moliyaviy, pul-kredit siyosati yuritilishi, ilm-fan, madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlashni hamda iqtisodiyotning va ijtimoiy sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha dasturlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishi uchun javobgar bo'ladi;
- fuqarolarning iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishga doir choralarni amalga oshiradi;
- vazirliklar, davlat qo'mitalari va boshqa davlat boshqaruvi organlari ishini muvofiqlashtiradi hamda yo'naltiradi, ularning faoliyati ustidan nazoratni ta'minlaydi;
- O'zbekiston Respublikasining qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlaydi;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining eng muhim masalalari yuzasidan har yilgi ma'ruzalarni taqdim etadi;
- davlat boshqaruvi tuzilmasini takomillashtirish to'g'risida, vazirliklarni, davlat qo'mitalarini, idoralarni va boshqa davlat boshqaruvi organlarini tuzish, qayta tashkil etish hamda tugatish haqida takliflar ishlab chiqadi;
- strategik rejorashtirishning zamonaviy shakllari davlat boshqaruvi tizimiga joriy etilishini ta'minlaydi;

➤ mamlakatni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning eng muhim hamda ustuvor yo'nalishlari bo'yicha yaqin, o'rta va uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan strategiyalar, konsepsiylar, dasturlar hamda "yo'l xaritalari"ni amalga oshirish yuzasidan choralar ko'radi¹.

Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida, ushbu Qonunda va boshqa qonunlarda nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

"O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi Qonunning 43-moddasida Vazirlar Mahkamasining mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan hamkorligi maslasi o'z ifodasini topgan.

Unga asosan, Vazirlar Mahkamasi o'z vakolatlari doirasida:

- hududlarni iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy rivojlantirishni ta'minlash bilan bog'liq masalalarda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining faoliyatini muvofiqlashtirib boradi;
- viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining Vazirlar Mahkamasi tomonidan hal etilishi talab qilinadigan masalalarga doir takliflarini ko'rib chiqadi, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlari bajarilishining borishini nazorat qiladi, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarini taklif qilishga hamda ushbu qarorlar va farmoyishlar amalga oshirilishining borishi to'g'risidagi hisobotlarni eshitishga haqli;
- vazirliklar, davlat qo'mitalari hamda boshqa davlat boshqaruvi organlarining viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari bilan hamkorligini ta'minlaydi, bunda yuzaga keladigan nizoli masalalarni hal etadi;
- hududlarni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning asosiy ko'rsatkichlarini tasdiqlaydi, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat devonlari xodimlarining cheklangan sonini va ushbu devonlarning namunaviy tuzilmasini belgilaydi;

¹ O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida" 10.12.2019 yildagi O'RQ-591-son Qonuni. //https://lex.uz/docs/-4636594

- viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining qonun hujjatlariga zid bo'lgan qarorlari va farmoyishlari ijrosini to'xtatib turishga hamda ularni bekor qilishga haqli.

16.3. Bosh vazirga nisbatai ishonchsizlik votumi bildirish tartibi

Bosh vazir O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan quyidagi hollarda lavozimidan ozod etiladi:

- Bosh vazirning iste'foga chiqish to'g'risidagi arizasiga binoan;
- Bosh vazir o'z vakolatlarini bajarishi mumkin bo'lmay qolgan taqdirda;
- Vazirlar Mahkamasi tarkibida uning normal faoliyat ko'rsatishiga tahdid soluvchi, bartaraf etib bo'lmaydigan ixtiloflar yuzaga kelganda, shuningdek Vazirlar Mahkamasi tomonidan bir necha bor O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga zid qarorlar qabul qilingan taqdirda;
- Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar fraksiyalarining O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ko'rib chiqishi uchun taqdim etgan tashabbusiga binoan. Agar zarur asoslarga ega bo'lgan bunday tashabbus Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalarning yetakchi fraksiyalari tomonidan qo'llab-quvvatlansa hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan Qonunchilik palatasida va Senatda ovozga qo'yilganda tegishincha Qonunchilik palatasi deputatlari hamda Senat a'zolari umumiy sonining uchdan ikki qismidan ko'prog'ining ovozini olsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Bosh vazirni lavozimidan ozod etish to'g'risida qaror qabul qiladi;
- Bosh vazirga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari tomonidan qabul qilingan ishonchsizlik votumi bildirilgan taqdirda.

Bosh vazirning lavozimidan ozod etilishi bir vaqtning o’zida O’zbekiston Respublikasi Hukumatining iste’foga chiqishiga sabab bo’ladi¹.

16.4. Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilinadigan normativ-huquqiy hujjatlar

Vazirlar Mahkamasi konstitutsiyaviy normalar doirasida va qonun hujjatlariga muvofiq O’zbekiston Respublikasining butun hududida barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar hamda fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo’lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari Bosh vazir tomonidan imzolanadi.

Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari Bosh vazir tomonidan imzolanguniga qadar belgilangan tartibda O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi bilan kelishiladi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasi qoidalaridan kelib chiqqan holda Vazirlar Mahkamasining qarorlarini, farmoyishlarini va Bosh vazirning farmoyishlarini bekor qilishga haqli.

Vazirlar Mahkamasi o’zi qabul qilgan hujjatlarning bajarilishi ustidan nazoratni bevosita yoki vazirliklar, davlat qo’mitalari va boshqa davlat boshqaruvi organlari orqali amalga oshiradi.

Vazirlar Mahkamasining normativ-huquqiy tusdagi hujjatlari qarorlar shaklida qabul qilinadi.

Vazirlar Mahkamasining qarorlari – O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari asosida hamda ularni ijro etish uchun qabul qilinadi.

¹ O’zbekiston Respublikasining “O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Qonuniga o’zgartish va qo’shimchalar kiritish haqida” 10.12.2019 yildagi O’RQ-591-son Qonuni. //https://lex.uz/docs/-4636594

Vazirlar Mahkamasining qarorlari, agar ularning o'zida kechroq muddat ko'rsatilgan bo'lmasa, rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

"O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi yangi tahrirdagi Qonunning 37-moddasida Vazirlar Mahkamasining farmoyishlari to'g'risidagi norma mavjud. Unga asosan, Vazirlar Mahkamasining farmoyishlari – bu Vazirlar Mahkamasining tezkor va boshqa joriy masalalar bo'yicha hujjatlari shaklida qabul qilinadi. Vazirlar Mahkamasining farmoyishlari, agar ushbu hujjatlarda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, ular imzolangan kundan e'tiboran kuchga kirishi belgilangan.

Tayanch iboralar:

1. Vazirlar Mahkamasi,
2. ijro etuvchi hokimiyat,
3. Bosh vazir,
4. davlat qo'mitalari,
5. Vazirliliklar,
6. strategiyalar,
7. konsepsiylar,
8. ishonchsizlik votumi,
9. Vazirlar Mahkamasining farmoyish va qarorlari

O'z- o'zini nazorat qilish uchun savollar:

1. Hukumatni hokimiyat tizimidagi o'rni qanday?
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi hukumati qanday shakllantiriladi?
3. Vazirlar Mahkamasining tarkibi qanday?
4. Vazirlar Mahkamasining vakolatlari qanday?
5. Bosh vazir, Vazirlar Mahkamasi faoliyatida qanday rol o'ynaydi?
6. Bosh vazirning vakolatlari qanday?
7. Bosh vazirni vazifasidan ozod etish tartibi qanday?

8. Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish tartibi qanday?
9. Vazirlar Mahkamasi, Bosh vazir qanday hujjatlar qabul qiladi?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O’zbekiston” NMIU, 2020. –80 b.
2. O’zbekiston Respublikasining “O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Qonuniga o’zgartish va qo’shimchalar kiritish haqida” 10.12.2019 yildagi O’RQ-591-son Qonuni. //<https://lex.uz/docs-4636594>
3. Davlat boshqaruvi organlari. //<https://gov.uz/oz/organizations/>
4. Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq: darslik. To’ldirilgan va qayta ishlangan ikkinchi nashr. – T.: “Yuridik adabiyotlar publish”, 2020. -400 b.

17-Mavzu: MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ASOSLARI

17.1. Mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimi, vazifasi

1992-yil 8-dekabrda O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishini bevosita mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining asoslarini belgilab berdi. Konstitutsianing XXI bobida mahalliy davlat hokimiyati asoslari mustahkamlandi. Unga ko’ra, mahalliy vakillik organlarining yuqori bo’g’ini – Toshkent shahar va viloyat Xalq deputatlari kengashlari, quyi bo’g’ini – tuman, shahar Xalq deputatlari kengashlari faoliyati yo’lga qo’yildi.

O’zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentabrdagi “Mahalliy davlat hokimiyati organlari to’g’risida”gi qonunining qabul qilinishi bilan mahalliy davlat hokimiyati organlarining konstitutsiyaviy huquqiy asoslari shakllanishi yakunladi. Ushbu qonunning 1-moddasida: “Viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga

bo'ysunadigan shaharlardan tashqari) xalq deputatlari Kengashlari davlat hokimiyatining vakillik organlaridir", -deb ta'kidlangan¹.

Viloyat, tuman, shahar hokimi viloyat, tuman va shaharning oliv mansabdor shaxsi bo'lib, ayni bir vaqtida tegishli hududdagi vakillik va ijroiya hokimiyatini boshqaradi. Viloyat hokimi, Toshkent shahar hokimi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va tegishli xalq deputatlari Kengashi oldida hisobdordirlar. Tuman, shahar hokimi yuqori turuvchi hokim va tegishli xalq deputatlari Kengashi oldida hisobdordir.

Konstitutsiyaning 100-moddasiga binoan, mahalliy hokimiyat organlari ixtiyoriga quyidagilar kiradi:

- qonuniylikni, huquqiy-tartibotni va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash;
- hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish;
- mahalliy budgetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig'implarni belgilash, budgetdan tashqari jamg'armalarni hosil qilish;
- mahalliy kommunal xo'jalikka rahbarlik qilish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish;
- fuqarolik holati aktlarini qayd etishni ta'minlash;
- normativ hujjatlarni qabul qilish hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni amalga oshirish².

Bulardan ko'rilib turibdiki, mahalliy davlat hokimiyati organlari vazifalariga ijtimoiy va davlat hayotiga taalluqli barcha masalalarni hal qilish, ularda ishtirok etish kiradi. Faqat mahalliy davlat hokimiyati organlari bu masalalarni o'z hududida amalga oshiradi. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunda ularning vakolatlari belgilab berilgan. Mahalliy davlat hokimiyati organlari bu vazifani bajarishda hududdagi shu vazifalar bilan shug'ullanuvchi boshqa idoralar bilan hamkorlikda ish olib

¹ O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida" 02.09.1993 yildagi 913-XII-sonli Qonuni.
// <https://lex.uz/ru/docs/-112170>

² O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: "O'zbekiston", 2020. –B.57-58.

boradi. Masalan: sud, prokuratura, ichki ishlar organlari, Adliya organlari, soliq, bojxona va boshqalar¹.

Mahalliy davlat hokimiyati organlariga o'z hududida iqtisodiy, ijtimoiy, xo'jalik masalalarida keng doiradagi masalalarni hal qilish vazifasi yuklangan bo'lib, bularga iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish vazifasi kiradi. Rivojlantirish vazifasi shu majmuaga kiruvchi tarmoqlarni boshqarishni ham nazarda tutadi.

Shunday qilib, *mahalliy davlat hokimiyati organlari* mahalliy vakillik va mahalliy ijroiya tizimini o'zida mujassamlashtirgan bo'lib, viloyatlar, tumanlar va shaharlarda Xalq deputatlari kengashlari va hokimiyatlar (hokimlik ijroiya apparati)dan iborat. Mahalliy davlat hokimiyati organlariga umumiylahabarlik tegishli viloyat, tuman va shahar hokimlari tomonidan amalga oshiriladi.

17.2. Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari - davlat hokimiyatining vakillik organi

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, uning oldida ko'plab masalalarni hal qilish, avvalgi tuzumda mavjud bo'lган qanday tuzilmalardan foydalanish, qaysi tuzilmalarni umuman yo'q qilish masalasi paydo bo'ldi. Eng avvalo, demokratik tamoyillarga mos keluvchi, taraqqiyotga to'sqinlik qilmaydigan, xalq xohishirodasiga javob beruvchi, davlat hokimiyatini amalga oshira oladigan organlar tashkil qilish zarur edi.

Ayniqsa, mahalliy miqyosda qanday davlat organlari bo'ladi, umuman, mahalliy miqyosda davlat hokimiyati organlari bo'lishi shartmi, degan savollarga javob topilishi kerak edi. 1992-yil 4-yanvarda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyat organlarini qayta tuzish to'g'risida"gi Qonun ko'p masalalarni hal qildi va kelajakda mamlakatimizda mahalliy darajada qanday organlar bo'lischeni, ularning xarakterini belgilab berdi. Unda birinchi marta mahalliy miqyosda davlat hokimiyati organlari ikki turda: vakillik hokimiyati va

¹Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq: darslik. To'dirilgan va qayta ishlangan ikkinchi nashr. –T.: "Yuridik adabiyotlar publish", 2020. –B.315.

ijro hokimiyati ko’rinishida bo’lishi mustahkamlandi. Bu hokimiyat tarmoqlari bo’lishi prinsipini mahalliy miqyosda ham qo’llash oqibati edi. Bu prinsiplar Konstitutsiya qabul qilinishida va mahalliy hokimiyat organlari tizimi faoliyati belgilanishida e’tiborga olindi.

“Mahalliy davlat hokimiyati to’g’risida”gi Qonunda Xalq deputatlari Kengashi va hokimning vazifasi sifatida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari o’rtasida aloqalarni ta’minalash, aholini hududlarni boshqarishga jalg etishni ta’minalash vazifasi belgilangan.

Konstitutsiyada mahalliy vakilik hokimiyati organi sifatida xalq deputatlari Kengashlari belgilandi. Bu degani, avvalgi tuzumdagি organ saqlanib qoldi. Faqat uning vazifasi, tarkibi, tashkil qilish tartibi takomillashtirildi. Konstitutsiyaning 7-moddasida: “Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir”¹, - degan qoida mavjud bo’lib, bu mahalliy davlat hokimiyatiga ham taalluqlidir. Mahalliy davlat hokimiyatining manbai xalq bo’lib, ular bu hokimiyatni amalga oshirishda undagi o’z vakillari - deputatlar orqali qatnashadi. Konstitutsiyaning 32-moddasida fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarida ishtiroki belgilangan bo’lib, unga asosan mamlakat fuqarolari davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o’z vakillari orqali ishtirok etadi.

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining asosiy vakolatlariga:

➤ hokimning taqdimiga binoan, hududni rivojlantirishning istiqbolga mo’ljallangan dasturlarini, tuman, shaharning bosh rejasи va uni qurish qoidalarini tasdiqlash;

➤ viloyatlar va Toshkent shahri mahalliy budgetlarini, shuningdek tumanlar va shaharlar budgetlarini tegishinchaligi viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining taqdimnomasiga binoan ko’rib chiqish hamda qabul qilish;

➤ viloyatlarning viloyat budgetlari, Toshkent shahrining shahar budgeti hamda tumanlar va shaharlar budgetlari daromadlarining prognozlarini ma’lumot uchun qabul qilish;

¹ O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O’zbekiston”, 2020. –B.5.

➤ viloyatlarning viloyat budgetlariga va Toshkent shahrining shahar budgetiga, tumanlar va shaharlar budgetlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi qarorlarni tasdiqlash;

➤ tegishli budgetlardan moliyalashtiriladigan hududiy budget mablag'larini taqsimlovchilarning budget mablag'laridan samarali foydalanilishi hamda erishilgan natijalar to'g'risidagi hisobotlarini eshitish;

➤ viloyatlar va Toshkent shahri mahalliy budgetlarining, shuningdek tumanlar va shaharlar budgetlarining tegishli davrdagi ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tegishincha viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining taqdimnomasiga binoan ko'rib chiqish hamda tasdiqlash;

➤ mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning stavkalarini qonunchilikda belgilangan miqdorlar doirasida belgilash;

➤ hokimni va uning o'rinnbosarlarini lavozimga tasdiqlash, hokimni va uning o'rinnbosarlarini lavozimdan ozod etish, ularning faoliyatiga doir hisobotlarini, shuningdek hokimlarning viloyat, tuman, shahar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim va dolzarb masalalari yuzasidan hisobotlarini tinglash;

➤ ushbu Qonunda nazarda tutilgan hollarda hokim qarorlarini tasdiqlash;

➤ xalq deputatlari Kengashining Ish tartibini, xalq deputatlari Kengashi doimiy va boshqa komissiyalari to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash, ularga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish;

➤ xalq deputatlari Kengashining doimiy va muvaqqat komissiyalarini, boshqa organlarini tuzish, saylash va tugatish, ularning tarkibini o'zgartirish, ular ishiga doir hisobotlarni tinglash;

➤ qonunchilikda belgilangan hollarda va tartibda xalq deputatlarining vakolatlarini e'tirof etish va muddatidan oldin to'xtatish, ularni javobgarlikka tortish uchun rozilik berish;

➤ ijroiya hokimiyati bo'limlari, boshqarmalari, boshqa tarkibiy bo'linmalari rahbarlarining hisobotlarini, shu jumladan qonunlarga rioya etilishi, tegishli xalq deputatlari Kengashlari qarorlarining va doimiy komissiyalar tavsiyalarining bajarilishi yuzasidan hisobotlarini eshitadi;

- tegishli prokurorlarning hisobotlarini eshitish;
- O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi hududiy bo'linmalari rahbarlarining hisobotlarini eshitish;
- tegishincha sog'liqni saqlashni boshqarish hududiy organlari, tuman (shahar) tibbiyot birlashmalari, tuman markaziy ko'p tarmoqli poliklinikalari rahbarlarining hisobotlarini eshitish;
- tegishincha hududiy adliya boshqarmalari va tumanlar (shaharlar) adliya bo'limlari boshliqlarining axborotini eshitish;
- xalq deputatlarining so'rovlarini qarab chiqish va ular yuzasidan qarorlar qabul qilish;
- hokimning va quyi Kengashning O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga mos kelmaydigan qarorlarini bekor qilish;
- hokimning taqdimiga binoan hokimlik strukturasini, uning xodimlari shtatlari va ish haqi fondini tasdiqlash kiradi¹.

17.3. Mahalliy kengashlarni tashkil etish tartibi, tarkibi, faoliyat shakli

Konstitutsiyada xalq deputatlari Kengashlari faoliyatini tashkil qilish, vakolat doirasi va saylash tartibi qonun bilan belgilanadi, degan havolaki norma mavjud (103-modda ikkinchi qism). Shu konstitutsiyaviy norma asosida 1993-yil 2-sentabrda “Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi qonun qabul qilindi².

Xalq deputatlari Kengashlari bitta yo'l bilan - saylov orqali tashkil etiladi. Xalq deputatlari Kengashlariga saylov ko'ppartiyaviylik asosida, bir mandatli saylov okruglarida, har 5 yilda o'tkaziladi. Bu degani saylovlarda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan barcha siyosiy partiyalar teng imkoniyatlarda qatnashadi. Bir saylov okrugidan bitta deputat saylanadi va ularning vakolati besh yil davom etadi.

Saylovlar umumiyligi, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish orqali o'tadi. Bular saylov huquqining asosiy prinsiplaridir.

¹ O'zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida” 02.09.1993 yildagi 913-XII-sonli Qonuni.
// <https://lex.uz/ru/docs/-112170>

² O'zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida” 02.09.1993 yildagi 913-XII-sonli Qonuni.
// <https://lex.uz/ru/docs/-112170>

Umumiy saylov – 18 yoshga yetgan barcha fuqarolarni millati, jinsi, irqi, dini, kelib chiqishi, ijtimoiy ahvoli, mashg’ulot turi, kasbi, egallab turgan lavozimidan

qat’i nazar saylovda ishtirok etadi. Ya’ni saylash huquqidan foydalanishdir.

Faqat sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek, sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylovda qatnashmaydi. Umumiy saylov huquqi mahalliy Kengash deputatligiga saylanuvchilar oldiga ba’zi bir talablarni qoyadi va ular umumiy saylov huquqiga zid emas, jahon saylov tajribasida qo’llaniladigan talablardir. Jumladan, mahalliy Kengash deputati bo’lib, 21 yoshga to’lgan, kamida 5 yil O’zbekiston Respublikasida muqim yashayotgan fuqarolar saylanishi mumkin.

Saylovlar oshkora o’tadi, uning barcha jarayonlari ommaviy axborot vositalari orqali yoritib boriladi. Kuzatuvchilar ishtirokida o’tadi. Xalq deputatalari Kengashlariga saylovda nomzod ko’rsatish huquqi – viloyatlar va Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashi va turnan, shahar Kengashlariga siyosiy partiyalar tomonidan amalga oshiriladi. Saylovlar saylov komissiyalari tomonidan tashkil qilinib, saylovda viloyatlar, tumanlar va shaharlarga saylov o’tkazuvchi saylov komissiyalari, okrug saylov komissiyalari va uchastka saylov komissiyalari tuziladi.

Xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga saylov, ularning vakolat muddati tugaydigan yilda - dekabr oyining uchinchi o’n kunligining birinchi yakshanbasida o’tkaziladi. Saylovchilar ro’yxatiga kiritilgan saylovchilarning kamida 33 foizi ovoz berishda ishtirok etsa, saylov haqiqiy hisoblanadi va ovoz berishda ishtirok etganlar yarmidan ko’pining ovozini oigan nomzod saylangan hisoblanadi. Xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashlariga 60 tagacha, tuman va shahar Kengashlariga 30 tagacha deputat saylanadi¹.

O’zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to’g’risida”gi Qonunga ko’ra, Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining asosiy ish

¹ Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq: darslik. To’ldirilgan va qayta ishlangan ikkinchi nashr. – T.: “Yuridik adabiyotlar publish”, 2020. –B.321.

shakli sessiyadir. Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining sessiyalarini tegishli hokim, hokim yo'qligida esa uning o'rribosarlaridan biri tomonidan zaruratga qarab biroq, yiliga kamida ikki marta chaqiriladi. Sessiya, shuningdek xalq deputatlari tegishli Kengashi deputatlari kamida uchdan ikki qismining tashabbusiga binoan ham chaqirilishi mumkin. Kengash sessiyasini chaqirish to'g'risidagi qarordan deputatlar sessiya ochilishidan kamida 7 kun oldin xabardor qilinadi¹.

Yangi saylangan xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining birinchi sessiyasi hokim tomonidan saylovdan keyin kechi bilan uch haftalik muddat ichida chaqiriladi va u keksa deputatlardan biri tomonidan ochiladi. Xalq deputatlari Kengashi sessiyalarida hokim, u yo'qligida esa Kengashning qaroriga yoki hokimning topshirig'iga binoan mazkur Kengashning deputatlaridan biri raislik qiladi.

Xalq deputatlari Kengashining har bir sessiyasini o'tkazish davrida deputatlar orasidan sessiya kotibi yoki kotibiyati saylanadi. Xalq deputatlari Kengashining sessiyasi, basharti unda jami deputatlarning kamida uchdan ikki qismi ishtirok etsa, vakolatli hisoblanadi. Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi sessiyasida muhokama qilinayotgan masalalar bo'yicha ochiq yoki yashirin ovoz berish orqali, deputatlar umumiyligi sonining ko'pchilik ovozi bilan qaror qabul qilinadi.

17.4. Mahalliy Kengash deputatlarining huquqiy maqomi

O'zbekiston Respublikasida xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining (bundan buyon matnda deputat deb yuritiladi) huquqlarini, majburiyatlarini hamda deputatlik faoliyatining asosiy kafolatlari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni hamda "Xalq deputatlari viloyat, tuman va

¹ O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi 02.09.1993 yildagi 913-XII-soni Qonuni. // <https://lex.uz/ru/docs/-112170>

shahar kengashi deputatining maqomi to'g'risida"gi Qonuni asosida tartibga solinadi.

2004-yil 2-dekabrdagi "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashi deputatining maqomi to'g'risida"gi Qonuniga asosan, deputat tegishli xalq deputatlari Kengashi majlislarida ko'rib chiqilayotgan barcha masalalar bo'yicha hal qiluvchi ovoz huquqidan foydalanadi.

Qonunning 5-moddasiga muvofiq deputat quyidagi huquqlarga ega:

- tegishli xalq deputatlari Kengashining doimiy hamda muvaqqat komissiyalariga saylash va saylanishga;
- tegishli xalq deputatlari Kengashining majlisida ko'rib chiqilishi uchun masalalar taklif etishga;
- tegishli xalq deputatlari Kengashi majlisining kun tartibi, muhokama qilinayotgan masalalarni ko'rib chiqish tartibi hamda bu masalalarning mohiyati yuzasidan takliflar kiritish va mulohazalar bildirishga;
- tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan saylanadigan, tayinlanadigan yoki tasdiqlanadigan mansabdor shaxslarning nomzodlari bo'yicha fikr bildirishga;
- tegishli xalq deputatlari Kengashining majlisida munozaralarda ishtirok etishga, ma'ruzachi va raislik qiluvchiga savollar berishga;
- deputat so'rovi bilan murojaat etishga;
- o'z takliflarini asoslab berish uchun so'zga chiqishga va ovoz berish sabablari yuzasidan izoh berishga;
- tegishli xalq deputatlari Kengashining majlisida raislik qiluvchiga majlisda muhokama qilinayotgan masala yuzasidan o'z nutqi, taklifi yoki mulohazasi matnini topshirishga;
- tegishli xalq deputatlari Kengashi tarkibidagi o'zi a'zo bo'lgan organning qaroriga qo'shilmagan taqdirda o'z nuqtai nazarini tegishli xalq deputatlari Kengashining majlisida bayon etishga yoki bu haqda mazkur xalq deputatlari Kengashi rahbariga yozma ravishda ma'lum qilishga;
- tegishli hududlarni rivojlantirish dasturlarining bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirishga;

- tegishli xalq deputatlari Kengashiga hisobdor yoki uning nazorati ostidagi har qanday organ yoxud mansabdor shaxsning hisoboti yoki axborotini mazkur xalq deputatlari Kengashining majlislarida eshitish to'g'risida taklif kiritishga;
- O'zbekiston Respublikasi qonunlarining ijro etilishini, shuningdek, tegishli xalq deputatlari Kengashi qarorlarining bajarilishini tekshirish to'g'risida ko'rib chiqilishi uchun masalalar taklif etishga;
- tegishli xalq deputatlari Kengashi majlislarining stenogrammalari bilan tanishishga;
- saylovchilar bilan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi, siyosiy partiya tashkiloti bilan uchrashuvlar o'tkazishga;
- fuqarolarning huquqlari va qonun bilan muhofaza qilinadigan manfaatlarini buzish hollari yoki qonunchilikni buzishning boshqa hollari ma'lum bo'lib qolgan taqdirda ularga darhol chek qo'yish choralarini ko'rish talabi bilan tegishli organlar hamda mansabdor shaxslarga murojaat etishga haqli.

Deputat qonun hujjalariiga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin¹.

17.5. Mahalliy ijroiya hokimiyati organlari. Hokim - vakillik va ijro hokimiyati boshlig'i

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, ijro hokimiyatini tashkil qilish, uning faoliyatini kuchaytirish yo'lidan bordi. Toshkent shahrida ijro organining boshlig'i yakkaboshchilik asosida faoliyat ko'rsatadigan hokim bo'lishi maqsadga muvofiq, degan fikr asosida, 1991-yil 29-dekabrda eksperiment tariqasida Toshkent shahar hokimi Toshkent xalqi tomonidan saylandi. 1992-yil yanvardagi "O'zbekiston Respublikasining mahalliy hokimiyat idolarini qayta tashkil etish to'g'risida"gi Qonuniga binoan Respublikaning barcha ma'muriy tuzilmalarida ijro hokimiyatining boshlig'i sifatida hokim lavozimi tashkil qilinishi belgilandi va joylarda ijro hokimiyati davlat hokimiyati tarmog'i sifatida e'tirof etildi. Bu g'oya

¹ O'zbekiston Respublikasining "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashi deputatining maqomi to'g'risida" 02.12.2004 yildagi 706-II-soni Qonuni. //https://lex.uz/docs/-436950

keyinchalik O’zbekiston Konstitutsiyasida ham mustahkamlab qo’yildi. Konstitutsiyaga asosan barcha ma’muriy-tuzilish pog’onalarida hokim lavozimi mavjud bo’lib, ular vakillik hokimiyati organlarini tegishlicha boshqaradi.

Shuningdek, ijro hokimiyatini ham hokimlar boshqaradi (100, 102-moddalar). “Mahalliy davlat hokimiyati to’g’risida”gi Qonunga asosan Hokimlar viloyat, tuman va shaharning oliv mansabdor shaxsi hisoblanadi (1-modda). Hokim joylardagi mansabdor shaxs sifatida o’zbek davlatchiligidagi azaldan qo’llanib kelingan va sotsialistik tuzumda yo’q qilingan lavozim edi.

Hokim lavozimining o’rnatalishi, ijro hokimiyatida boshqaruv yakkaboshchilik prinsipida amalga oshirilishini belgiladi. Yakkaboshchilik prinsipi faqat mansabdorga keng vakolatlar va huquqlar berish emas, ularning mas’uliyati kuchli bo’lishini nazarda tutadi. Shuning uchun hokimlarga o’zlariga yuklatilgan vazifalarni bajarish imkoniyatini beruvchi vakolat, huquqlar bilan birga, kuchli mas’uliyat ham yuklangan. Viloyat, Toshkent shahar hokimi Prezident va tegishli xalq deputatlari Kengashlari oldida, tuman va shahar hokimlari yuqori turuvchi hokim va tegishli xalq deputatlari Kengashlari oldida hisobdorligi Qonunning 1-moddasida belgilab qoyilgan.

Mamlakatimizda olib borilayotgan davlatchilik sohasidagi islohotlar ijro hokimiyati faoliyati ustidan vakillik hokimiyati nazoratini kuchaytirish, jamoatchilik nazoratini kengaytirish nazarda tutilmoqda va holatlar qonunlarda aks ettirilmoqda.

Hokim institutining eng muhim xususiyati shundaki, hokim faqat o’zi tomonidan qabul qilingan hujjatlarning to’g’riliqi, harakati va faoliyatining qonuniyligi uchungina javobgar bo’lmay, Konstitutsiyaning 103-moddasiga asosan o’zi rahbarlik qilayotgan organlarning qarorlari va faoliyati uchun ham shaxsan javobgar bo’ladi.

Keyingi paytlarda mahalliy miqyosda ham hokimiyat bo’linishi prinsipini keng joriy qilish, vakillik va ijro hokimiyatiga hokimni rahbarlik qilishdan voz kechish, hokimlarni fuqarolar tomonidan saylash tartibini joriy qilishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti 2020-yil 24-

yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida “joylarda ijro va vakillik organlarining davlat boshqaruvidagi roli va mas’uliyatini yanada oshirish zarur. Hokimlar oxirgi 3 yilda ularga berilgan keng vakolatlardan qanchalik samarali foydalanayotganini, vazirlik va idoralarning hududiy tuzilmalari faoliyati natijadorligini nazorat qilish bo‘yicha yangi tizim yaratish shart. Shu o‘rinda haqli savol tug‘iladi: nima uchun Bosh vazirdan boshlab barcha hukumat a’zolari, viloyat hokimlari parlamentga hisobot beradi-yu, viloyat va tumanlardagi rahbarlar o‘z faoliyati haqida mahalliy kengashlarga hisobot bermasligi kerak? Shuning uchun viloyat va tuman hokimlari o‘z dasturlari va ularning ijrosi to‘g‘risida viloyat kengashlarida hisobot beradigan tizim joriy qilinadi.

Ayni vaqtida farmonlar, qarorlar, konsepsiya va strategiyalarda belgilangan indikatorlar va maqsadli parametrlarning ijrosi bo‘yicha hokimlar o‘z hududlaridagi ommaviy axborot vositalari va jamoatchilikka muntazam axborot berib borishlari kerak bo‘ladi”¹, - deb ta’kidladi.

17.6. Hokimlarni lavozimiga tayinlash va lavozimidan ozod etish tartibi

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 2-moddasida Mahalliy vakillik va ijroiya hokimiyati boshlig’ini lavozimiga tayinlash va lavozimidan ozod etish tartibi mustahkamlangan. Qonunga asosan, viloyat va Toshkent shahar hokimi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi hamda lavozimidan ozod etiladi.

Viloyat va Toshkent shahar hokimi nomzodlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tegishli xalq deputatlari Kengashlaridagi partiya guruhlarining har biri bilan maslahatlashuvlar o’tkazilganidan so‘ng xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashiga tasdiqlash uchun taqdim etiladi.

Tegishli xalq deputatlari Kengashi deputatlari umumiylar sonining ko‘pchilik ovozini olgan viloyat va Toshkent shahar hokimi nomzodi tasdiqlangan hisoblanadi. Agar ovoz berish vaqtida viloyat va Toshkent shahar hokimi

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. //“Xalq so‘zi” gazetasiga 2020 yil 25 yanvar, №19 (7521).

nomzodlari tegishli xalq deputatlari Kengashi deputatlari umumiy sonining ko'pchilik ovozini ololmasa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti mazkur lavozimlarga nomzodlarni partiya guruhlari bilan qo'shimcha maslahatlashuvlar o'tkazganidan so'ng bir oy ichida yana ikki marta taqdim etish huquqiga ega.

Tegishli xalq deputatlari Kengashi taqdim etilgan viloyat va Toshkent shahar hokimi nomzodlarini uch marta rad etgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti viloyat va Toshkent shahar hokimi vazifasini bajaruvchini tayinlash, tegishli xalq deputatlari Kengashini tarqatib yuborish huquqiga ega. Bunda xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashlariga saylov tarqatib yuborish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan e'tiboran 3 oy ichida o'tkaziladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashlarining qaroriga muvofiq hokim nomzodi bo'yicha farmon qabul qiladi.

Tuman, shahar hokimlari viloyat, Toshkent shahar hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi hamda tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Viloyat, tuman, shahar hokimlari tegishli xalq deputatlari Kengashi deputatlari orasidan tayinlanadi va tasdiqlanadi.

Tumanga bo'ysunuvchi shahar hokimi tuman hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi hamda xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Viloyat hokimi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda shahar hokimini tuman (shahar tarkibiga kiruvchi tumanlar bundan mustasno) hokimiga bo'ysundirish va yagona boshqaruva organlarini tuzish vakolatiga ega bo'lib, bu xususdagi qaror keyinchalik xalq deputatlari viloyat Kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Xalq deputatlari Kengashi va hokimlarning vakolat muddati – besh yil¹.

Tayanch iboralar:

1. mahalliy davlat hokimiyati,
2. xalq deputatlari Kengashlari,

¹ O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi 02.09.1993 yildagi 913-XII-soni
Qonuni. //https://lex.uz/docs/-112170

3. hokim,
4. hokimlik ijroiya apparati,
5. sessiya,
6. vakolat muddati

O'z- o'zini nazorat qilish uchun savollar:

1. Mahalliy davlat hokimiyati organlari nima uchun zarur?
2. O'zbekistonda mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimi qanday tashkil qilingan?
3. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining Konstitutsiyaviy vazifalari nimalar?
4. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlari qanday?
5. Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari qaysi organlar. Nima uchun ular vakillik organlari deydilar?
6. Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari qanday tashkil qilinadi?
7. Mahalliy vakillik organlarining tashkiliy faoliyat shakli qanday?
8. Mahalliy ijro hokimiyatini kim amalga oshiradi?
9. Hokimlarni maqomi qanday?
10. Hokimlar lavozimiga qanday tayinlanadi va ozod qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O'zbekiston” NMIU, 2020. –80 b.
2. O'zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida” 02.09.1993 yildagi 913-XII-sonli Qonuni. // <https://lex.uz/ru/docs/-112170>
3. O'zbekiston Respublikasining “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashi deputatining maqomi to'g'risida” 02.12.2004 yildagi 706-II-sonli Qonuni. //<https://lex.uz/docs/-436950>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. //“Xalq so'zi” gazetasi 2020 yil 25 yanvar, №19 (7521).
5. Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq: darslik. To'ldirilgan va qayta ishlangan ikkinchi nashr. – T.: “Yuridik adabiyotlar publish”, 2020. -400 b.

18-Mavzu: FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARI

18.1. O'zini o'zi boshqaruv tushunchasi

O'zbekiston Respublikasi mustaqil taraqqiyot yo'liga kirdgach, milliy davlatchilik an'analariga, qadriyatlariga mos keluvchi va xalqning xohish-irodasini to'la aks ettira oluvchi o'zini-o'zi boshqarish organlari tizimini barpo etishni maqsad qilib qo'ydi. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda: "Islohotlarimiz natijalari, bo'layotgan o'zgarishlar va aholining kayfiyati avvalo mahallada seziladi. Shu ma'noda, "mahalla - jamiyatimizning yorug' yuzi va vijdoni ko'zgusi", desak, to'g'ri bo'ladi. Shuning uchun barcha darajadagi rahbarlar pastga tushib, o'z sohasi bo'yicha mahallalardagi muammolarni o'rGANishi va ularga yechim topishi, odamlar sezadigan natijani ta'minlashi shart. Bundan buyon mahalladagi ishlarning ahvoli vazirlik, idoralar va hokimliklar ishini baholashda bosh mezon bo'ladi. Shuningdek, mahallaning nufuzini, uning resurs va imkoniyatlarini oshirish, xodimlarining moddiy ta'minotini yaxshilash bo'yicha dastur ishlab chiqish zarur"¹.

Bunda xorijiy mamlakatlarning bu boradagi tajribalari chuqr o'rganildi va O'zbekiston sharoiti etiborga olindi. Natijada, O'zbekistonning o'ziga xos o'zini o'zi boshqarish organlari vujudga keldi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari Konstitutsyaning 105-moddasiga asosan fuqarolarning yig'inlari hisoblanadi. Shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular raisni (oqsoqolni) saylaydi. O'zini o'zi boshqarish organlarini saylash tartibi, faoliyatini tashkil etish hamda vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi². Konstitutsyaning shu moddasi holatidan ko'rinish turibdiki, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari davlat organlari tizimidan ajratilgan va alohida turdag'i hokimiyatni amalga oshiruvchi organdir.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. //“Xalq so'zi” gazetasi, 2020 yil 30 dekabr, № 276.

² O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O'zbekiston”, 2020. –B.60.

O'zbekiston o'zini o'zi boshqarish organlari tizimini davlat organlari tizimidan alohida belgilash bilan birga, faoliyati va boshqa tomonlariga mutlaqo yangicha jihatlar kiritdi. Jumladan, deyarli barcha mamlakatlarda (Rossiya, Turkmaniston, Fransiya, Germaniya va hokazo) bu institut mahalliy o'zini o'zi boshqarish deb atalsa, O'zbekiston uni fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi deb atadi. Bu shunchaki nomni o'zgartirish emas, masalani mohiyatini bildiruvchi holatdir. Mahalliy o'zini o'zi boshqarishga nisbatan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish so'zi o'zini o'zi boshqarishni mustaqil demokratik institut sifatida to'laroq ko'rsatadi. Sababi, mahalliy boshqaruvi faqat o'zini o'zi boshqaruvi orqali emas, davlat organlari orqali ham amalga oshiriladi, ya'ni mahalliy boshqaruvda davlat ham ishtirok etadi. Xalq deputatlari Kengashlari va hokimlarning asosiy vazifasi mahalliy davlat boshqaruvini amalga oshirishdir.

O'zini o'zi boshqarish fuqarolar faoliyatining bir yo'nalishi, jahon davlatchiligi va jamiyat rivojlanishi tajribasida uchraydigan muhim institut hisoblanadi. O'zini o'zi boshqarish fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlaridan bo'lib, bu huquq fuqarolarning o'zini o'zi boshqaruvi organlari orqali amalga oshiriladi.

O'zini o'zi boshqarish, Konstitutsiya va qonunlar asosida mamlakatning tarixiy-milliy xususiyatlariga tayangan holda aholi (jamoa) manfaatidan kelib chiqib, mahalliy ahamiyatga ega masalalarni mustaqil hal etish maqsadida faoliyat ko'rsatadigan fuqarolar faoliyatining tashkiliy tizimidir.

18.2. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va ularning vazifalari

Fuqarolar shaharchalarda, qishloqlarda, ovullarda, shuningdek shaharlardagi, shaharchalardagi, qishloqlardagi va ovullardagi mahallalarda o'zini o'zi boshqarishga doir o'z konstitutsiyaviy huquqini fuqarolarning saylov huquqlari

kafolatlariga muvofiq fuqarolar yig'irlari (fuqarolar vakillarining yig'ilishlari) orqali amalga oshiradi¹.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2021-yil 18-iyundagi qarorida fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy maqsadi – mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hududidagi fuqarolarning manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek, milliy va ma'naviy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan holda hal qilish, ularning huquqiy madaniyati va ijtimoiy faolligini oshirish, "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyili asosida ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashdan iborat deb belgilangan².

Fuqarolar yig'ini quyidagi vakolatlarni amalga oshiradi:

a) o'z faoliyatini tashkil etish sohasida:

- fuqarolar yig'ini raisini (oqsoqolini) rag'batlantirish yoki uni lavozimidan ozod qilish to'g'risida qaror qabul qiladi;
- fuqarolar yig'ini raisining (oqsoqolining) jamoatchilik asosida faoliyat ko'rsatuvchi maslahatchilarini va fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalar a'zolarini, taftish komissiyasining raisi hamda a'zolarini saylaydi va lavozimidan ozod etadi;
- fuqarolar yig'ini kengashini shakllantiradi va fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalar ishini tashkil etadi;
- fuqarolar yig'inining nizomini hamda fuqarolar yig'ini xodimlarining odob qoidalarini tasdiqlaydi;
- fuqarolar yig'ini raisiga (oqsoqoliga) ishonchszlik bildirish to'g'risida qaror qabul qiladi;

¹ O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida" 22.04.2013 yildagi O'RQ-350-soni Qonuni. //https://lex.uz/docs/-2156899

² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 18.06.2021 yildagi 380-soni qarori. //https://lex.uz/docs/-5461749

➤ fuqarolar yig'inining faoliyat dasturini, xarajatlar smetasini tasdiqlaydi va boshqalar;

b) ijtimoiy-ma'naviy muhitni mustahkamlash hamda oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash sohasida:

➤ oilalarni mustahkamlash hamda xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

➤ aholini, shu jumladan, yoshlarni milliy va ma'naviy qadriyatlar, mahalliy urf-odat va an'analar bilan tanishtiradi va ularni targ'ib qiladi;

➤ to'ylar va boshqa marosimlarni o'tkazish yuzasidan tavsiyalar beradi;

➤ yoshlar ta'lim-tarbiyasida va oilalarni mustahkamlashda keksa avlod vakillarining rolini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

➤ davlat hokimiysi organlariga millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni saqlashga ko'maklashadi;

➤ mahalladagi uyushmagan yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan zarur chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

v) huquq-tartibot sohasida:

➤ davlat hokimiysi va boshqaruvi organlariga huquq-tartibotni mustahkamlashga ko'maklashadi;

➤ qonunlar va boshqa qonunchilik hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi;

➤ "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyilining to'laqonli va samarali joriy etilishini ta'minlash choralarini ko'radi;

➤ hududlarda huquqbazarliklar, ayniqsa, voyaga yetmaganlar, yoshlar va ayollar o'rtasida huquqbazarliklar profilaktikasiga doir ta'sirchan ishlarni tashkil etadi;

➤ ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod etilgan, shuningdek, probatsiya nazoratidagi shaxslarning ijtimoiy-mehnat reabilitatsiyasi va jinoyatchilikning oldini olishga doir tadbirlarni ijtimoiy moslashuv markazlari bilan birgalikda amalga oshiradi;

g) atrof muhitni muhofaza qilish va obodonlashtirish sohasida:

- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlariga atrof muhitni muhofaza qilishga ko'maklashadi;
- ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, tegishli hududni obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish va sanitariya jihatdan tozalash to'g'risida qarorlar qabul qiladi, shu jumladan, jamoatchilik yordamini (hasharni) uyshtiradi, ko'riklar va tanlovlardan o'tkazadi;
- atrof-muhitni muhofaza qilish, hududning sanitariya holati, uni obodonlashtirish hamda ko'kalamzorlashtirish masalalari yuzasidan o'z vakolati doirasida tegishli hududda joylashgan tashkilotlar rahbarlarining hisobotlarini eshitadi hamda ularning natijalari bo'yicha qarorlar qabul qiladi va boshqalar.

d) ijtimoiy – iqtisodiy sohada:

- hududning o'ziga xos yo'nalishlari va "o'sish nuqtalari" dan kelib chiqib, hududni kompleks rivojlantirishni ta'minlashga, tegishli hudud doirasida obodonlashtirishga, ko'kalamzorlashtirishga va sanitariya holatini yaxshilashga qaratilgan tadbirlar rejalarini tasdiqlaydi;
- hududda oilaviy tadbirkorlik, hunarmandchilik, kasanachilik va boshqa tadbirkorlik faoliyati turlarini hamda tomorqa yer egalarining faoliyatini rivojlantirishga ko'maklashadi;
- jismoniy va yuridik shaxslardan ixtiyorilik asosida mablag'lar va homiylik xayriyalarini shakllantiradi va undan foydalanadi;
- mahalla markazlari va guzarlarini barpo etish masalalarini ko'rib chiqadi va taklif kiritadi;
- hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari va normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari bo'yicha takliflar ishlab chiqadi va boshqalar.

e) davlat organlari va mansabdor shaxslar bilan hamkorlik qilish sohasidagi vakolatlari:

- aholining ijtimoiy nochor qatlamlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

➤ tegishli hududda fuqarolar va yuridik shaxslarga xususiy mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan turar joylardan foydalanilishi, shu jumladan, pasport rejimiga rioya etilishi, yashayotgan shaxslarning doimiy yashash joyi yoki vaqtincha turgan joyi bo'yicha ro'yxatga olinishi va tegishli shartnomalarning mavjudligi yuzasidan nazoratni amalga oshirishda ichki ishlar organlariga yordam ko'rsatadi;

➤ ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga muhtoj bo'lgan kam ta'minlangan oilalarni, yolg'iz keksa fuqarolarni, pensionyerlarni va nogironligi bo'lgan shaxslarni Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligining hududiy bo'linmalari bilan birgalikda aniqlaydi va hisobini yuritadi;

➤ aholi, jumladan, yoshlar va xotin-qizlar bandligiga ko'maklashish, harbiy xizmatdan zaxiraga bo'shatilgan, jazoni ijro etuvchi muassasalardan ozod etilgan shaxslarni ishga joylashtirishga ko'maklashadi¹.

18.3. Fuqarolar yig'inini tashkil etish tartibi

Fuqarolar yig'ini organlarining faoliyatini tashkil etishni uning kengashi hamda fuqarolar yig'inining raisi (oqsoqoli) amalga oshiradi. Fuqarolar yig'ini raisining (oqsoqolining) o'rribosarlari (fuqarolar yig'ini raisining keksalar va faxriylar ishlari hamda yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchilar) va maslahatchilar o'rtasida vazifalarni taqsimlash raisning (oqsoqolning) taqdimnomasiga ko'ra fuqarolar yig'ini tomonidan amalga oshiriladi.

Fuqarolar yig'ini kengashi o'z devoniga ega bo'lishi mumkin, uning miqdor tarkibi fuqarolar yig'ini tomonidan belgilanadi. Mas'ul kotib va kengash devoni xodimlari fuqarolar yig'inini (fuqarolar vakillarining yig'ilishini), fuqarolar yig'ini kengashi majlisini o'tkazishga doir materiallarni tayyorlaydi, fuqarolar yig'inining, fuqarolar yig'ini kengashining va fuqarolar yig'ini raisining (oqsoqolining) qarorlari ijrochilarga o'z vaqtida yetkazilishini ta'minlaydi, ish yuritishni olib boradi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 18.06.2021 yildagi 380-sonli qarori. //https://lex.uz/docs/-5461749

Fuqarolar yig'inining raisi (oqsoqoli), mas'ul kotibi va kengash devoni xodimlari fuqarolar yig'inining o'z mablag'lari va qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda mahalliy budjet mablag'lari hisobidan ta'minlanishi mumkin.

Fuqarolar yig'ini huzuridagi komissiyalar

fuqarolar yig'inining oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash komissiyasi

fuqarolar yig'inining xotin-qizlar bilan ishlash bo'yicha komissiyasi

fuqarolar yig'inining ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va jamoatchilik nazorati bo'yicha komissiyasi

fuqarolar yig'inining ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish bo'yicha komissiyasi

fuqarolar yig'ini huzuridagi taftish komissiyasi

18.4. Fuqarolar yig'ini raislari (oqsoqollar) va ularning maslahatchilarini saylash tartibi

O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 15-oktyabrdagi "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovi to'g'risida"gi Qonunida shaharcha, qishloq, ovul, shuningdek shaharlardagi, shaharchalardagi, qishloqlardagi, ovullardagi mahalla fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o'tkazish tartibi belgilangan. Mazkur qonunning 23-moddasida fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovida O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining ishtirok etishi ixtiyoriy va erkin deb mustahkamlangan. Fuqarolarni saylovda ishtirok etishga yoki ishtirok etmaslikka majbur qilish maqsadida ularga ta'sir ko'rsatishga, shuningdek ularning

o'z xohish-irodasini erkin bildirishiga ta'sir ko'rsatishga hech kim haqli emasligi ko'rsatilgan¹.

Fuqarolar yig'ini raisini (oqsoqolini) saylash huquqiga saylov kuni 18 yoshga to'lган hamda shaharcha, qishloq, ovul, shuningdek shahardagi, shaharchadagi, qishloqdagi, ovuldagi mahalla hududida (bundan buyon matnda tegishli hudud deb yuritiladi) doimiy yashovchi fuqarolar ega bo'ladi.

Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovida ishtirok etishi mumkin emas.

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovida fuqarolarning ishtirok etish huquqlarini biron-bir tarzda bevosita yoki bilvosita cheklash taqiqlanadi².

Fuqarolar yig'inining raisi (oqsoqoli) 3 yil muddatga saylanadi. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga nomzodlar O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bo'lishi, qoida tariqasida, oliv ma'lumotga ega bo'lishi, bevosita saylovga qadar kamida besh yil tegishli hududda doimiy yashayotgan bo'lishi, tashkilotchilik qobiliyatiga, davlat organlarida yoki nodavlat notijorat tashkilotlarida yoxud tadbirkorlik va boshqa xo'jalik faoliyati sohasida ish tajribasiga, shuningdek hayotiy tajribaga va aholi o'rtasida obro'-e'tiborga ega bo'lishi kerak.

Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan, og'ir yoxud o'ta og'ir jinoyatlarni sodir etganlik uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslar, shuningdek sudning hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan, haqiqiy harbiy xizmatdagi shaxslar, diniy tashkilotlarning professional xizmatchilari fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga saylanish uchun nomzod etib ko'rsatilishi mumkin emas.

Tayanch iboralar:

1. o'zini-o'zi boshqarish organlari, f
2. Fuqarolarning yig'irlari,
3. oqsoqol,

¹ O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovi to'g'risida" 15.10.2018 yildagi O'RQ-499-soni Qonuni. //<https://lex.uz/docs/-3988421>

² O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovi to'g'risida" 15.10.2018 yildagi O'RQ-499-soni Qonuni. //<https://lex.uz/docs/-3988421>

4. “Obod va xavfsiz mahalla”,
5. davlat hokimiyati organlari,
6. mahalliy urf-odatlar,
7. demokratik institut,
8. mas’ul kotib,
9. kengash devoni

O’z- o’zini nazorat qilish uchun savollar:

1. O’zini o’zi boshqaruv nima?
2. Mahalliy boshqaruv nima?
3. O’zbekistonda o’zini o’zi boshqarish organlari qaysi organ?
4. O’zini o’zi boshqaruv organlarining huquqini kim belgilaydi?
5. O’zini o’zi boshqaruv organlari vazifalariga nimalar kiradi?
6. O’zini o’zi boshqaruv organlari vakolatlariga nimalar kiradi?
7. Fuqarolar yig’in raisi qanday lavozim va uning vakolatlariga nima kiradi?
8. Rais va uning maslahatchilari qanday saylanadi?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O’zbekiston” NMIU, 2020. –80 b.
2. O’zbekiston Respublikasi “Fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Qonuniga o’zgartish va qo’shimchalar kiritish haqida” 22.04.2013 yildagi O’RQ-350-sonli Qonuni. //<https://lex.uz/docs/-2156899>
3. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari faoliyatini yanada takomillashtirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida” 18.06.2021 yildagi 380-sonli qarori. //<https://lex.uz/docs/-5461749>
4. O’zbekiston Respublikasining “Fuqarolar yig’ini raisi (oqsoqoli) saylovi to’g’risida” 15.10.2018 yildagi O’RQ-499-sonli Qonuni. //<https://lex.uz/docs/-3988421>
5. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. //“Xalq so’zi” gazetasi, 2020 yil 30 dekabr, № 276.
6. Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq: darslik. To’ldirilgan va qayta ishlangan ikkinchi nashr. – T.: “Yuridik adabiyotlar publish”, 2020. -400 b.

19-Mavzu: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SUD HOKIMIYATI

19.1. Sud hokimiyati vazifasi

Rivojlangan demokratik davlatlar qatori O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipi asosida tashkil etilgan. Hokimiyatlarning bo'linish prinsipi ko'plab xorijiy mamlakatlarning konstitutsiyalarida o'z ifodasini topgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11-moddasida ham ushbu prinsip belgilab berilgan bo'lib, unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi – hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipiga asoslanadi. Hokimiyatlarning har biri mustaqil maqomga ega bo'lib, faqat o'ziga xos vazifalarni bajaradi, o'z vazifasini boshqa hokimiyat tarmog'i bajarishining oldini oladi va ayni vaqtda boshqa hokimiyat tarmog'inining vazifalarini bevosita yoxud birgalikda bajarishdan o'zini tiyadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida sud-huquq tizimidagi islohotlariga alohida to'xtalib, shunday deydi: "so'nggi 4 yil davomida sud-huquq sohasini isloh etish borasida dadil qadamlarni qo'ydik. Bu yo'nalishdagi ustuvor masalalar yuzasidan 40 dan ortiq qonun, farmon va qarorlar qabul qilindi. Adolat bu - davlatchilikning mustahkam poydevoridir. Adolat va qonun ustuvorligini ta'minlashda esa sud hokimiyati hal qiluvchi o'rinni egallaydi. Shu nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak, bu borada hali qiladigan ishlarimiz juda ko'p. Birinchidan, yangi yildan boshlab joriy etiladigan "bir sud - bir instantlya" tamoyili sud qarorlarining adolatli, qonuniy va barqarorligini ta'minlashda bosh mezon bo'lishi lozim"¹.

O'zbekiston Respublikasining **2021-yil 28-iyuldagи "Sudlar to'g'risida"**gi **qonuniga asosan**, sudning asosiy vazifalari fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonunlari, xalqaro shartnomalarida, shuningdek inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro hujjalarda kafolatlangan

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // "Xalq so'zi" gazetasi, 2020 yil 30 dekabr, № 276.

huquqlari hamda erkinliklarini, davlat va jamoat manfaatlarini, yuridik shaxslar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishdan iborat. Sudning faoliyati qonun ustuvorligini, ijtimoiy adolatni, fuqarolar tinchligi va totuvligini ta'minlashga qaratilgandir¹.

19.2. Sud hokimiyati tizimi

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 28-iyuldagи “Sudlar to'g'risida”gi qonuniga asosan, O'zbekiston Respublikasida sud tizimi quyidagilardan iborat:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi;
- harbiy sudlar;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo'yicha sudi, fuqarolik ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi jinoyat ishlari bo'yicha sudi, jinoyat ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar iqtisodiy sudlari;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar ma'muriy sudlari;
- fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlari;
- jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudlari;
- tumanlararo, tuman (shahar) iqtisodiy sudlari;
- tuman (shahar) ma'muriy sudlari faoliyat ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasida ishlarning toifalariga qarab sudlarning ixtisoslashuvi amalga oshirilishi mumkin.

Favqulodda sudlar tuzishga yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudini tashkil etish va uning faoliyat tartibi alohida qonun bilan belgilanadi.

¹O'zbekiston Respublikasining “Sudlar to'g'risida” 28.07.2021 yildagi O'RQ-703-sonli Qonuni. //https://lex.uz/uz/docs/-5534923

O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi – doimiy faoliyat yurituvchi sud hokimiyati organi bo’lib, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat hujjatlarining Konstitutsiyaga muvofiqligi to’g’risidagi ishlarni ko’radi¹.

2021 yil 27-apreldagi O’zbekiston Respublikasining “Konstitutsiyaviy sudi to’g’risida” O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy Qonunining 4-moddasida Konstitutsiyaviy sudning quyidagi vakolatlari mustahkamlangan:

1) O’zbekiston Respublikasi qonunlarining va O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlarining, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlarining, hukumat, mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlarining, O’zbekiston Respublikasi davlatlararo shartnomaviy va boshqa majburiyatlarining O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiqligini aniqlaydi;

2) O’zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan imzolanganiga qadar O’zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy qonunlarining, O’zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarini ratifikatsiya qilish to’g’risidagi O’zbekiston Respublikasi qonunlarining O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiqligini aniqlaydi;

3) Qoraqalpog’iston Respublikasi Konstitutsiyasining O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, Qoraqalpog’iston Respublikasi qonunlarining O’zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiqligi to’g’risida xulosa beradi;

4) O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari normalariga sharh beradi;

5) O’zbekiston Respublikasi Oliy sudining muayyan ishda qo’llanilishi lozim bo’lgan normativ-huquqiy hujjatlarning O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiqligi to’g’risida sudlar tashabbusi bilan kiritilgan murojaatini ko’rib chiqadi;

6) konstitutsiyaviy sud ishlarini yuritish amaliyotini umumlashtirish natijalari yuzasidan har yili O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga va

¹ O’zbekiston Respublikasining “Konstitutsiyaviy sudi to’g’risida” 27.04.2021 yildagi O’RQ-687-sonli O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy Qonuni. //<https://lex.uz/uz/docs/-5391934>

O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga mamlakatdagi konstitutsiyaviy qonuniylikning holati to'g'risida axborot taqdim etadi¹.

Konstitutsiyaviy sud sudyasining vakolatlari muddati birinchi marta saylanganida 5 yilni, navbatdagi saylanganida 10 yilni tashkil etadi.

Konstitutsiyaviy sudning sudyasi lavozimida bo'lishning eng yuqori yoshi, qoida tariqasida, 70 yoshni tashkil etadi.

Ayni bir shaxs ikki martadan ortiq Konstitutsiyaviy sudning sudyasi etib saylanishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi – fuqarolik, jinoiy, iqtisodiy va ma'muriy sud ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatining oliy organidir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi quyi sudlarning sudlov faoliyati ustidan nazorat qilish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi ishlarni birinchi instansiya sudi sifatida va nazorat tartibida ko'radi. U o'zi birinchi instansiya sifatida ko'rgan ishlarni appellatsiya yoki cassatsiya tartibida shikoyat berish (protest bildirish) huquqiga ega bo'lgan shaxslarning xohishiga ko'ra appellatsiya yoki cassatsiya tartibida ko'rishi mumkin. Appellatsiya tartibida ko'rilgan ish cassatsiya tartibida ko'rilmasligi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi:

- O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining tushuntirishlari sudlar tomonidan bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;
- sud amaliyoti va sud statistikasining tizimli tahlilini amalga oshiradi;
- sudlarning kadrlari malakasi oshirilishini tashkil qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi rais, uning birinchi o'rinos – jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'atining raisi hamda rais o'rinosarlari – fuqarolik, ma'muriy va iqtisodiy ishlar bo'yicha sudlov hay'atlarining raislari, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudyalaridan iborat bo'ladi hamda quyidagi tarkibda ish olib boradi:

- O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi;

¹ O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida" 27.04.2021 yildagi O'RQ-687-sonli Konstitutsiyaviy Qonuni. // <https://lex.uz/uz/docs/-5391934>

- O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosati;
- Jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'ati;
- Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'ati;
- Ma'muriy ishlar bo'yicha sudlov hay'ati;
- Iqtisodiy ishlar bo'yicha sudlov hay'ati¹.

O'zbekiston Respublikasining harbiy sudlari tizimi – O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi va hududiy harbiy sudlardan iborat. O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi viloyat sudi huquqida ish olib boradi hamda rais, sudyalar va xalq maslahatchilaridan iborat bo'ladi.

Hududiy harbiy sudlar tuman sudi huquqida ish olib boradi va rais, xalq maslahatchilaridan iborat bo'ladi.


O'zbekiston Respublikasi harbiy sudlari:

- O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Davlat xavfsizlik xizmatining, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmatining, Milliy gvardiyasining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Ichki ishlar vazirligi qo'shinlarining va qonunchilikka muvofiq tashkil etiladigan boshqa harbiy tuzilmalarning harbiy xizmatchilari, shuningdek o'quv yig'inlarida bo'lgan vaqtida harbiy xizmatga majburlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar to'g'risidagi ishlarni;
- harbiy qismlar, qo'shilmalar va birlashmalar, harbiy boshqaruva organlarining qo'mondonligiga nisbatan harbiy xizmatchilarning da'volari bo'yicha fuqarolik ishlarini va harbiy boshqaruva organlari hamda harbiy mansabdor shaxslarning harbiy xizmatchilarning huquq va erkinliklarini buzuvchi xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan shikoyatlarni;
- alohida holatlarga ko'ra sudlar faoliyat ko'rsatmayotgan joylarda barcha fuqarolik va jinoyat ishlarini;
- davlat sirlariga taalluqli ishlarni;
- qonunchilikka muvofiq boshqa ishlarni ko'radi.

¹ O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida" 28.07.2021 yildagi O'RQ-703-sonli Qonuni. //https://lex.uz/uz/docs/-5534923

19.4. Sudlarni tashkil qilish tartibi va faoliyatning asosiy prinsiplari

2021-yil 28-iyuldaggi O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi Qonunida Sudlar faoliyatning quyidagi asosiy prinsiplari ko'rsatilgan:



Qonuniylik. O'zbekiston Respublikasida odil sudlov qonunga qat'i muvofiq holda amalga oshiriladi.

Sudyalarning mustaqilligi. Sudyalar mustaqildir, faqat qonunga bo'y sunadi. Sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo'l qo'yilmaydi va bunday aralashuv qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

Sudyalarga odil sudlovni amalga oshirish bilan bog'liq bo'limgan har qanday vazifalar yuklatilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Sud hujjatlarining majburiyligi. Qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlari barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, mansabdor shaxslar, fuqarolar uchun majburiydir hamda O'zbekiston Respublikasining butun hududida ijro etilishi shart. Sud hujjatini ijro etmaslik qonunda belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi.

Qonun va sud oldidagi tenglik. Barcha fuqarolar jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi hamda ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun va sud oldida tengdir. Korxonalar, muassasalar hamda tashkilotlar ham qonun va sud oldida tengdir.

Sud ishlarini yuritishning oshkoraligi. Barcha sudlarda ishlar ochiq ko'rildi. Ishlarni yopiq sud majlisida ko'rib chiqishga faqat qonunda belgilangan hollarda yo'l qo'yiladi.

Sud majlisi zalida hozir bo'lgan shaxslar, ommaviy axborot vositalari vakillari sud majlisi zalida qonunda belgilangan tartibda fotosuratga olishi, video va audio yozuvni amalga oshirishi mumkin.

Sud himoyasida bo'lism huquqi. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslar davlat organlari hamda boshqa organlarning har qanday g'ayriqonuniy qarorlari, ularning mansabdor shaxslarining xatti-harakatlaridan (harakatsizligidan), shuningdek hayoti va sog'lig'i, sha'ni hamda qadr-qimmati, shaxsiy erkinligi va mol-mulki, boshqa huquq va erkinliklariga tajovuzlardan sud himoyasida bo'lism huquqiga ega. Yuridik shaxslar ham sud himoyasida bo'lism huquqiga egadir.

Aybsizlik prezumpsiysi. Ayblanuvchi, uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda isbotlanmagunga va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmagunga qadar, aybsiz hisoblanadi. Hech kim sud qaroriga asoslanmagan holda qamoqqa olinishi mumkin emas.

Hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, shafqatsiz yoki inson sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas¹.

Sud hujjati ustidan shikoyat qilish huquqi. Taraflar, qonunda nazarda tutilgan hollarda esa boshqa shaxslar ham sud hujjati ustidan qonunda belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqiga ega.

¹ O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida" 28.07.2021 yildagi O'RQ-703-sonli Qonuni. //https://lex.uz/uz/docs/-5534923

Tayanch iboralar:

1. sud hokimiyati,
2. adolat,
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi,
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi,
5. harbiy sudlar,
6. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi,
7. aybsizlik prezumpsiyasi

O'z- o'zini nazorat qilish uchun savollar:

1. O'zbekiston Respublikasi sud tizimiga qaysi sudlar kiradi?
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi qanday vazifalarni bajaradi?
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
4. Sudyalik lavozimiga nomzod oldiga qanday talablar qo'yilgan?
5. Aybsizlik prezumpsiyasi nima?
6. Sudyalarga qanday faoliyat bilan shug'ullanish ta'qiqlanadi?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O'zbekiston” NMIU, 2020. –80 b.
2. O'zbekiston Respublikasining “Sudlar to'g'risida” 28.07.2021 yildagi O'RQ-703-sonli Qonuni. //<https://lex.uz/uz/docs/-5534923>
3. O'zbekiston Respublikasining “Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida” 27.04.2021 yildagi O'RQ-687-sonli O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy Qonuni. //<https://lex.uz/uz/docs/-5391934>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // “Xalq so'zi” gazetasi, 2020 yil 30 dekabr, № 276.
5. Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq: darslik. To'ldirilgan va qayta ishlangan ikkinchi nashr. – T.: “Yuridik adabiyotlar publish”, 2020. -400 b.

20-Mavzu: PROKURATURA ORGANLARI

20.1. Prokuratura organlarining huquqiy maqomi

Prokuratura konstitutsiyaviy huquqning muhim instituti bo'lib, u faoliyatini qonunning ustunligini har tomonlama qaror toptirishga, huquq tartibotni mustahkamlashga, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi bilan mustahkamlangan, oliv qadriyat darajasida ko'tarilgan inson va fuqarolarning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy shaxsiy huquqlari hamda erkinliklarini, shuningdek davlat mustaqilligini, ijtimoiy davlat tuzumini, siyosiy va iqtisodiy tizimlarni, milliy guruhlar va hududiy tuzilmalarning huquqlarini g'ayriqonuniy tajovuzlardan muhofaza qilishni ta'minlashga qaratilgandir.

“Prokuratura” so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, “yordamlashaman”, “ko'maklashaman” ma'nosini bildiradi². Prokuratura tushunchasi va mohiyatiga aniqlik kiritishda prokuratura faoliyati xususiyati, prokuratura tizimining davlat mexanizmlarida tutgan o'rni, shuningdek vazifalaridan kelib chiqish kerak. Prokuratura o'z vakolati doirasida davlat funksiyalarini amalga oshirishda, davlat amaliyotining mustaqil tarmog'ini tashkil etuvchi qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi va qonunchilik va huquq tartibotni ta'minlashda ishtirok etadigan huquqni muhofaza etadigan organdir.

O'zbekiston Respublikasining prokuratura organlarining konstitutsiyaviy huquqning muhim instituti sifatida shunda ko'rishimiz mumkinki, uni konstitutsion norma bilan alohida mustahkamlanganligidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XXIV bobi prokuraturaga ajratilgan bo'lib, bu bob o'z ichiga 118, 119, 120, 121- moddalarni qamrab oladi.

Konstitutsianing 118- moddasida “O'zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo'y sunuvchi prokurorlar amalga oshiradi” deyilgan. Bu konstitutsion normaga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi prokururasi, Bosh prokuror rahbarlik qiladigan prokuratura organlarining yagona markazlashtirilgan

² Юридический энциклопедический словарь. - М. 1984. - 302 бет.

tizimiga egadir. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari o'z vakolatlarini har qanday davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdar shaxslardan mustaqil holda, faqat qonunga bo'ysunib amalga oshiradilar. Prokurorlar o'z vakolatlari davrida siyosiy partiyalarga va siyosiy maqsadlarni ko'zlovchi boshqa jamoat birlashmalariga a'zolikni to'xtatib turadilar.

Prokuraturaning davlat organlari tizimidagi o'rmini ularning alohida vazifasi borligi, o'zining alohida ish uslubiga egaligi va har qanday davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdar shaxslardan mustaqil holda, faqat qonunga bo'ysunib ish olib borishi belgilaydi. Bu Konstitutsianing 120-moddasida qonuniy belgilanib, unga asosan, "O'zbekistan Respublikasi prokuratura organlari o'z vakolatlarini har qanday davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdar shaxslardan mustaqil holda, faqat qonunga bo'ysunib amalga oshiradi"¹.

Konstitutsiya va qonunda prokurorlarning mustaqilligini ta'minlovchi bir nechta qoida belgilab qo'yilgan. Xususan, 120-moddada: "Prokurorlar o'z vakolatlari davrida siyosiy partiyalarga va siyosiy maqsadlarni ko'zlovchi boshqa jamoat birlashmalariga a'zolikni toxtatib turadilar", - degan qoida bo'lib, u prokurorlarning siyosiy partiya va siyosiy harakatlar ta'siriga tushib qolmasligiga qaratilgandir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 27 yillik bayramida so'zlagan nutqida quyidagilarga alohida to'xtalib o'tgan edi: "Sir emas, ilgari prokuratura idoralari nihoyatda yopiq, nazoratdan xoli bir organga, ta'bir joiz bo'lsa, oxirgi instansiyaga aylanib qolgan edi. Buning oqibatida qancha-qancha odamlar nohaq jabr chekkani,adolatsizlikka duchor bo'lgani ham ayni haqiqat. Qanchalik og'ir va noxush bo'lmasin, biz shu haqiqatni tan olib, bu sohada qonuniylik va adolatni qaror toptirishga kirishdik. Ishonamanki, prokuror qarori ustidan sudga murojaat qilish bo'yicha rivojlangan demokratik mamlakatlarda amal qiladigan bunday

¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: "O'zbekiston", 2020. –B.69-71.

tajribani joriy etish hayotimizda adolat mezonini mustahkamlashda ulkan qadam bo'ladi”¹.

20.2. Prokuratura organlari tizimi va vazifalari

2001-yil 29-avgustdagি O'zbekiston Respublikasining “Prokuratura to'g'risida”gi Qonunida O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining asosiy vazifalari qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish, huquqbazarliklarning oldini olish va profilaktika qilishdan iborat ekanligi belgilangan².

Prokuratura organlari faoliyatining huquqiy asoslari bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va O'zbekiston Respublikasi “Prokuratura to'g'risida”gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, Hukumat qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining amaldagi buyruqlari, ko'rsatmalari, nizom va yo'riqnomalari va boshqa qonun va qonun osti hujjatlari bilan belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi prokururasi O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori rahbarlik qiladigan prokuratura organlarining yagona markazlashtirilgan tizimidir. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar O'zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradilar.

¹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. -T.: “O'zbekiston”, 2020. –B.118.

² O'zbekiston Respublikasining “Prokuratura to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqida” 29.08.2001 yildagi 257-II-sonli Qonuni. // <https://lex.uz/ru/docs/-106197>

Prokuratura organlarining tizimi

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururasi

Qoraqalpog'iston Respublikasi prokururasi

viloyatlar va Toshkent shahar prokuraturalari

tumanlar va shaharlar prokuraturalari

viloyat prokuraturalariga tenglashtirilgan O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokururasi, O'zbekiston Respublikasi Transport prokururasi

tuman prokuraturalariga tenglashtirilgan, hududiy harbiy, transport va ixtisoslashtirilgan prokuraturalar

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururasi huzurida Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va Majburiy ijro byurosi, shuningdek ularning joylardagi bo'linmalar faoliyat ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurorining, shuningdek viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar prokurorlarining hamda ularga tenglashtirilgan prokurorlarning vakolat muddati 5 yil.

Prokuratura organlari o'z faoliyatini quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiradi:

birinchidan, vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish;

ikkinchidan, fuqaroning huquq hamda erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan qonunlar ijrosi ustidan nazorat qilish;

uchinchidan, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining harbiy tuzilmalarida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish;

to'rtinchidan, tezkor-qidiruv faoliyatni, tergovga qadar tekshiruvni, surishtiruvni, dastlabki tergovni amalga oshiradigan organlar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish hamda ularning jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;

beshinchidan, jinoyatlar yuzasidan dastlabki tergov olib borish;

oltinchidan, soliq intizomini mustahkamlashga, soliq, valyuta sohasidagi jinoyatlar va huquqbazarliklarga qarshi kurashga, shuningdek davlatga yetkazilgan iqtisodiy zararni qoplashga qaratilgan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish;

yettichidan, ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida, jinoiy jazolarni va jinoyat-huquqiy ta'sirning boshqa choralarini ijro etish chog'ida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish;

sakkizinchidan, qonun ijodkorligi faoliyatida hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish ishida ishtirok etish¹.

20.3. Prokuratura organlari ish faoliyatining asosiy prinsiplari



Prokuratura organlari O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori rahbarlik qiladigan yagona markazlashgan tizimni tashkil etadi hamda quyi turuvchi

¹ Prokuratura organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari. //<https://www.prokuratura.uz/#/taskfunction>

prokurorlar yuqori turuvchi prokurorlarga va O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga bo'y sunishi hamda hisobdorligi asosida faoliyat ko'rsatadi.

Yuqori turuvchi prokuror quiyi turuvchi prokurorga ko'rsatmalar berishga yoxud uning har qanday, shu jumladan protsessual qarorini o'zgartirish yoki bekor qilishga haqlidir, shuningdek u o'z bo'y sunuvidagi barcha prokurolarning ishlari to'g'ri tashkil etilishi uchun to'liq javobgardir.

Prokuratura organlarining xodimlari o'z faoliyatlarida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda boshqa qonun hujjatlarining talablariga aniq rioya etishlari va ularni bajarishlari shart. Qonunlarni aniq bajarish va ularga rioya etishdan har qanday chekinish, qanday asoslarga ko'ra qilinishidan qat'i nazar, qonuniylikni buzish deb hisoblanadi va belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi.

Prokuratura organlari o'z vakolatlarini har qanday davlat organlari, jamoat birlashmalari hamda mansabdor shaxslardan mustaqil ravishda, faqat qonunga bo'y sungan holda amalga oshiradilar. Prokuratura organlarining faoliyatiga aralashish taqiqlanadi.

Prokuorning g'ayriqonuniy qaror qabul qilishiga erishish maqsadida unga qanday shaklda bo'lmasin biron-bir ta'sir ko'rsatish yoki faoliyatini amalga oshirishiga to'sqinlik qilish, uning daxlsizligiga tajovuz qilish, shuningdek prokuror yoki tergovchining ruxsatsiz tekshirishlar va dastlabki tergov ma'lumotlarini oshkor etish, prokuorning talablarini bajarmaslik belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo'ladi.

Prokuratura organlarining xodimlari o'z vakolatlari davrida siyosiy partiyalarga a'zolikni to'xtatib turadilar.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar prokurorlari:

➤ har yili tegishinchcha Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga, xalq deputatlari Kengashlariga o'z faoliyati to'g'risida hisobot taqdim etadi;

➤ zarur bo'lган hollarda, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini qonuniylikning va jinoyatchilikka qarshi kurashning holati to'g'risida xabardor qiladi.

Prokuratura organlari qonunlarning ijro etilishini nazorat qilishga va jinoyatchilikka qarshi kurashga doir faoliyati to'g'risida jamoatchilikni muntazam xabardor qilish, o'zining faoliyati to'g'risidagi axborotdan jismoniy va yuridik shaxslarning foydalanishini qonunchilikda belgilangan tartibda ta'minlash yo'li bilan o'z faoliyatini oshkora amalga oshiradi.

2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni so'zsiz amalga oshirish, joylarda ishlarni tashkil etish, birinchi navbatda, jamoatchilik oldida hisobot berish shakllari va uslublarini tubdan takomillashtirish, aholining hayot sifati va darajasini yuksaltirish, davlat organlari rahbarlarining mas'uliyatsizligi holatlarining yuzaga kelishiga qat'i ravishda barham berish hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining tashabbuslarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Ushbu qarorga asosan hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha yangicha tizim – sektorlar faoliyati yo'lga qo'yildi. Unga ko'ra, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar, shaharlar hududlari tegishlicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi raisi, viloyatlar va Toshkent shahri, tumanlar (shaharlar) hokimlari, prokuratura, ichki ishlar va davlat soliq xizmati hududiy organlari rahbarlari boshchilik qiladigan kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha **4 ta sektorlarga** bo'lindi¹.

Shuningdek, mamlakatimizda Prokuratura organlari tizimi sohasini isloh qilish sohasidagi quyidagi islohotlar diqqatga sazovor:

birinchidan, Bosh prokuratura huzurida Majburiy ijro byurosi tashkil etildi. Natijada elektr energiyasi va tabiiy gaz ta'minoti hamda sud hujjatlari ijrosini

¹ 2017 yil – shiddatli islohotlar yili. – T.: "Adolat", 2017. –B.18.

ta'minlash sohasida yillar mobaynida to'planib qolgan tizimli muammo va kamchiliklar hal etilishi maqsad qilindi¹.

ikkinchidan, Bosh prokuratura **Akademiyasi** tashkil etildi;

uchinchidan, tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan faktlar bo'yicha tadbirkorlik subyektiga nisbatan **jinoyat ishini** qo'zg'atishga faqat Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurorining, viloyatlar va Toshkent shahar prokurorlarining roziligi bilan yoxud Bosh prokuror yoki o'rnbosarining **roziligi bilan yo'l qo'yilishi** belgilandi;

to'rtinchidan, Ichki ishlar vaziri, Bosh prokuror va Milliy gvardiya qo'mondoni respublika hududlarida **jamoat xavfsizligini ta'minlash** sohasida davlat organlari, tashkilotlar va jamoatchilik tuzilmalarining **faoliyati tashkil etilishi va muvofiqlashtirilishini** ta'minlash uchun biriktirildi.

beshinchidan, 8-yanvar O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari xodimlari kuni etib belgilandi².

Tayanch iboralar:

1. prokuratura,
2. prokuror,
3. Bosh prokuror,
4. tezkor-qidiruv faoliyati,
5. dastlabki tergov,
6. qonun ijodkorligi,
7. Bosh prokuratura Akademiyasi,
8. Majburiy ijro byurosi

O'z- o'zini nazorat qilish uchun savollar:

1. O'zbekiston hududida dastlabki prokuratura organlari qachon vujudga kelgan?
2. O'zbekiston Respublikasida prokuratura organlari qanday tizimdan iborat?

¹ Harakatlar strategiyasi bilan 3 yil: kutilgan natijalar, yuqori samaradorlik va yuksak marralar. –T.: “Konrad Adenauer stiftung”, 2020. –B.25.

² O'zbekiston Respublikasi “O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari xodimlari kunini belgilash to'g'risida” 19.12.2016 yildagi O'RQ-414-sonli Qonuni. //https://lex.uz/docs/-3080268

3. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va uning o'rinnbosarlari kim tomonidan lavozimga tayinlanadi va ozod etiladi?
4. O'zbekiston Respublikasida Prokuratura organlarining asosiy vazifasi nimadan iborat?
5. O'zbekiston Respublikasida kimlar prokuror bo'lishi mumkin?
6. Prokuror nazorati nima?
7. Prokuratura organlari xodimlarining xizmat daxlsizligi deganda nimani tushunasiz?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O'zbekiston” NMIU, 2020. –80 b.
2. O'zbekiston Respublikasining “Prokuratura to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqida” 29.08.2001 yildagi 257-II-sonli Qonuni. // <https://lex.uz/ru/docs/-106197>
3. O'zbekiston Respublikasi “O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari xodimlari kunini belgilash to'g'risida” 19.12.2016 yildagi O'RQ-414-sonli Qonuni. //<https://lex.uz/docs/-3080268>
4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. -T.: “O'zbekiston”, 2020. –455 b.
5. Юридический энциклопедический словарь. - М. 1984. - 302 с.
6. Prokuratura organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari. //<https://www.prokuratura.uz/#/taskfunction>
7. 2017 yil – shiddatli islohotlar yili. – T.: “Adolat”, 2017. –96 b.
8. Harakatlar strategiyasi bilan 3 yil: kutilgan natijalar, yuqori samaradorlik va yuksak marralar. –T.: “Konrad Adenauer stiftung”, 2020. –188 b.

Konstitutsiyaviy huquq bo'yicha testlar

1. "Konstitutsiya" atamasi lotincha "consitutio" so'zidan olinib, qanday ma'noni anglatadi?

O'rnatmoq, tuzum

Ishontirmoq, o'rnatmoq

Tuzum , ishontirmoq

Tasdiqlamoq, ishontirmoq

2. Quyidagilardan Konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlarning subyektlarini ko'rsating?

Millatlar va elatlar, chet el fuqarolari, jamoat birlashmalari va davlat organlari

Fuqarolar, Qoraqalpog'iston Respublikasi va subyektlarning harakatlari

Fuqaroligi bo'lмаган shaxslar, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari va davlat hududi

Millatlar va elatlar, davlat hududi va davlat moddiy boyliklari

3. Quyidagilardan Konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlarning obyektlarini ko'rsating?

davlat hududi, davlat moddiy boyliklari va subyektlarning harakatlari

davlatchegaralari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, davlatning yer osti va yer usti boyliklari

Fuqaroligi bo'lмаган shaxslar, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari va davlat hududi

Xalqlar, davlatning moddiy boyliklari va appadridlar

4. Mustaqil O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining loyihasi birinchi marotaba nechanchi yilda umumxalq muhokamasiga qo'yilgan edi?

1992 yil 26 sentyabrda

1992 yil 7 dekabrda

1992 yil 21 noyabrda

1992 yil 25 oktyabrda

5. Quyidagi davlatlarning qaysi birida birinchi marotaba yozma konstitutsiyalarni vujudga keltirish g'oyasi paydo bo'lgan?

Angliyada

Fransiyada

Italiyada

AQSHda

6. Konstitutsiyalar amal qilishigako'ra.....?

Muddati cheklangan va muddati chekanmagan konstitutsiyalarga bo'linadi

Yozilgan va yozilmagan konstitutsiyalarga bo'linadi

Ichki va tashqi konstitutsiyalarga bo'linadi

Yumshoq va qattiq konstitutsiyalarga bo'linadi

7. Konstitutsiyalar o'zgartirish tartibigako'ra.....?

Yumshoq va qattiq konstitutsiyalarga bo'linadi

Yozilgan va yozilmagan konstitutsiyalarga bo'linadi

Ichki va tashqi konstitutsiyalarga bo'linadi

Muddati cheklangan va muddati chekanmagan konstitutsiyalarga bo'linadi

8. Mustaqil O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining loyihasi ikkinchi marotaba nechanchi yilda umumxalq muhokamasiga qo'yilgan edi?

1992 yil 21 noyabrda

1992 yil 7 dekabrda

1992 yil 26 sentyabrda

1992 yil 25 oktyabrda

9. Mustaqil O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining loyihasi umumxalq muhokamasiga qo'yilganidan so'ng, xalqimiz tomonidan qancha takliflar kelib tushgan?

6000 dan ortiq

7000 dan ortiq

8000 dan ortiq

5000 dan ortiq

10. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi moddasida jamoatchilik nazorati to’g’risidagi norma o’z ifodasini topgan?

- 32 modda
- 33 modda
- 34 modda
- 35 modda

10. “Fuqaro” atamasi birinchi marotaba quyidagi mamlakatlarning qaysi birida ishlataligan edi?

- Fransiya
- AQSH
- Hindiston
- Kanada

11. Konstitutsiyaviy huquq bo'yisha fuqarolar nesha yoshdan muomala layoqatiga ega bo'ladilar?

- 18 yoshdan
- 17 yoshdan
- 16 yoshdan
- 13 yoshdan

12. Mamlakatda davlat xokimiyatini amalga oshirishning usul va vositalari majmui- bu?

- siyosiy rejim
- davlat rejimi
- milliy-hududiy davlat tuzilish
- avtokratiya

13. Huquq layoqati nima?

- Huquq va majburiyatlarga ega bo'lish layoqati
- O'z harakati bilan huquq va majburiyatlarni amalga oshirish layoqati
bu xalqaro davlatlararo munosabatlarda rasmiy ishtirok etish layoqati
- Huquq normasi chiqarish layoqati

14. Davlat funksiyasi nima?

bu davlat faoliyatining asosiy yo'nalishidir

bu davlat organlarining faoliyatidir

bu davlat vakillik organining faoliyatidir

bu davlat va jamoat organlarining vakolatidir

15. Davlat hokimiyatini bo'linish asosi deganda nimani tushunasiz?

qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud organlarining faoliyatini chegaralashdir

odil sudlov va prokuratura

ma'muriy va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatini chegaralash

oliy va mahalliy organlarning faoliyatini bo'linishidir

16. Konfederatsiya nima?

ma'lum maqsadlarga erishish uchun birlashgan suveren davlatlar ittifoqi siyosiy asosda tashkil topgan davlat asosi

oliy hokimiyat organlari saylab qo'yiladigan davlat

ma'muriy-hududiy bo'linish asosida tashkil topgan davlat

17. Siyosiy rejim quyidagilarga bo'linadi :

demokratik, nodemokratik

saylanadigan, saylanmaydigan

adolatli, adolatsiz

elitar, noelitar

18. Qaysi organ vakillik organi?

parlament;

hukumat

vazirlik;

qo'mitalar va boshqarmalar;

19. Referendum nima?

Umumxalq ovoz berish

O'z fikrini bildirish

Yakka tartibdagi saylov

Prezidentni saylash

20. Filiatsiya asosida fuqarolikka ega bo'lishning ikki prinsipini ko'rsating?

tuproq huquqi va qon huquqi.

qon huquqi va ekologiya huquqi

suv huquqi va yer huquqi

havo huquqi va tuproq huquqi

21. Manfaatdor shaxsning arizasi, iltimosnomasiga ko'ra individual tartibda fuqarolikka ega bo'lish qanday nomlanadi?

naturalizatsiya

filiatsiya

optatsiya

reintegratsiya

22. Apatridlar – bu:

fuqaroligi bo'lman shaxslar

ikki fuqarolikka ega bo'lgan shaxslar

Fuqaroligi tiklangan shaxslar

immigrantlar

23. O'zbekiston Respublikasining butun hududida qanday fuqarolik o'rnatiladi?

Yagona fuqarolik

Ikki fuqarolik

Ko'p fuqarolik

Fuqarosizlik

24. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining necha nafar a'zosi Prezident tomonidan tayinlanadi?

16 nafar

10 nafar

12 nafar

5 nafar

25. Siyosiy partiyalarga necha yoshdan a'zo bo'lish mumkin?

18 yoshdan

20 yoshdan

21 yoshdan

25 yoshdan

26. "Prezident" so'zining lug'aviy ma'nosi nima?

Oldinda o'tiruvchi

Davlat boshlig'i

Hukumat boshlig'i

Farmoyish beruvchi

27. Quyidagilardan qaysi biri siyosiy huquqlarga kirmaydi?

Ijtimoiy ta'minot olish

Siyosiy partiyalarga a'zo bo'lish

Mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlarda ishtirok etish

Saylovlarda ishtirok etish

28. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining tarkibi necha nafar senatoridan iborat?

100 nafar

16 nafar

84 nafar

120 nafar

29. Oliy Majlis Qonunchilik palatasining kamida necha nafar a'zosi deputatlar guruhini tuzishi mumkin?

9 ta

10 ta

1 ta

5 ta

30. O'zbekiston fuqarosi necha yoshdan xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlariga deputat bo'lib saylanishi mumkin?

21 yoshdan

18 yoshdan

23 yoshdan

25 yoshdan

31. Mahalliy Kengashlar birinchi sessiyasini kim ochadi?

Eng yoshi ulug' deputat

Hokim

Saylov komissiyasi raisi

Hokim o'rribbosari

32. Mahalla oqsoqollarining vakolat muddati qancha?

3 yil

2,5 yil

5 yil

1 yil

33. Spiker bu-?

Qonunchilik palatasi raisi

Senat raisi

Oliy sud sudyasi

Bosh vazir

34. Mulkka egalik qilish huquqi nima?

Mulkni mulkdor o'z qo'lida yoki unga nisbatan o'z huquqlarini oshirishga imkon beruvchi biron joyda saqlab turishga aytildi

Sotib yuborish

O'zgalarga hadya qilish

Mulkning yuridik taqdirini belgilash

35. Saylovchilarning saylov yoki referendumda uzrli sabablarga ko'ra ishtirok etmasligini anglatuvchi atama?

Absentizm

Referendum

Denonsatsiya

Demokatiya

36. Konstitutsiyaviy huquq normalari qanday normalardan iborat?

Imperativ va dispozitiv

Sanksiya

Gipoteza

Gipoteza va dispozitsiya

37. Vazirlar Mahkamasi yangi saylangan Oliy Majlis oldida o'z va kafolatlarini zimmasidan soqit qiladi” bu qaysi normaga misol bo'la oladi?

Imperativ

Sanksiya

Dispozitiv

Gipoteza

38. Konstitutsiya yagona hujjat ko'rinishiga ega bo'lmasdan turli hujjatlardan iborat bo'lsa u qanday Konstitutsiyaga misol bo'la oladi?

Yozilmagan

Yozilgan

Yumshoq

Qattiq

39. Konstitutsiyalarni “qattiq” va “yumshoq” turlargabo'lishga qanday sabab hisobga olinadi?

O'zgartirish kiritish tartibiga qarab

O'zgarishlar soniga qarab

Qabul qilish shakliga qarab

Muddatiga qarab

40. Konstitutsiya loyihasi nechanchi yilda birinchi marta xalq muhokamasiga qo'yildi?

1992 yil 26 sentabr

1992 yil 22 sentabr

1992 yil 11 oktabr

1992 yil 21 noyabr

41. Quyidagilardan qaysi biri tabiiy huquq deb yuritiladi?

Shaxsiy daxlsizlik huquqi

Jamoat birlashmalariga uyushish

Miting, yig'ilish va namoyishlarda qatanashish

Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega

42. Huquq va erkinliklarning davlat tomonidan kafolatlanishi kafolatning qaysi turiga misol bo'la oladi?

Siyosiy

Iqtisodiy

Ijtimoiy

Huquqiy

43. Qonunga ko'ra ommaviy mulk qanday shakllarga bo'linadi?

Respublika va mahalliy

Mahalliy

Respublika

Xususiy va ommaviy

44. Jamaot birlashmalarini ro'yxatdan o'tkazish qaysi organ vakolatiga kiradi?

Adliya vazirligi

Sud

Mahalliy hokimiyat

Prokuratura

45. Jamaot birlashmalariga a'zolik qanday tartibda bo'ladi?

Ixtiyoriy

Majburiy

Ixtiyoriy-majburiy

Faqat kasaba uyushmalariga a'zolik majburiy

46. Jamaot birlashmalarini tarqatib yuborish, ular faoliyatini taqiqlash yoki cheklab qo'yishga qaysi organ vakolatli hisoblanadi?

Sud

Adliya

Prokuratura

Mahalliy hokimiyat organlari

47. Ma'lumotlarni e'lon qilunguniga qadar o'qish, uni tarqatish, qo'shimchalar kiritish yoki umuman nashr ni cheklash nima deyiladi?

Senzura

Veto

Denontatsiya

Optatsiya

48. AQSH,Hindiston, Braziliya Rossiya kabi davlatlar davlat tuzilishing qaysi turiga misol bo'la oladi?

Fedrativ

Unitar

Konfederativ

Monarxiya

49. Qoraqolpog'istonning oliy ijro organi qanday nomlanadi?

Vazirlar Kengashi

Varirlar Mahkamasi

Jo'qorg'i Kenges

Vazirlar yig'ini

50. Fuqarolarning saylash huquqi nima deb ataladi?

Aktiv

Passiv

Majoritar

Proporsional

51. Oliy Majlisga saylanish uchun necha yoshga to'lgan bo'lish talab etiladi?

25

21

35

18

52. Har bir saylovchining bir ovozga ega ekanligi saylov huquqining qaysi prinsipiga kiradi?

Teng saylov huquqi

Umumiylay saylov

Yashirin

Erkin saylov huquqi

53. Saylov kompaniyasini boshlanganligini qaysi organ e'lon qiladi?

Markaziy saylov kompansiyasi

Oliy Majlis

Vazirlar Mahkamasi

Okrug saylov komissiyasi

54. Saylovoldi tashviqotiga yo'l qo'yilmaydi?

Saylov kuni va ovoz berishga bir kun qolganda

Saylovga 10 kun qolganda

Saylovga 3 kun qolganda

Saylov kuni va ovoz berishga 2 kun qolganda

55. Qonunchilik tashabbusi huquqiga ega bo'limgan subyektni belgilang?

Hokim

Oliy sud

Bosh prokuror

Prezident

56. Sudyalarga nisbatan jinoiy ish kim tomonidan qo'zg'atiladi?

Bosh prokuror

Yuqori sud tomonidan

Prezident tomonidan

Oliy Majlis Senati tomonidan

57. O'zbekistonda nechanchi yilda bosh vazir lavozimi ta'sis etildi?

1992 yil 4 yanvar

1991 yil 12 aprel

1992 yil 14 may

1994 yil 6 may

58. Vazirlar Mahkamasining Oliy Majlis oldida hisobot berishi va Bosh vazirga nisbatan ishonsizlik votumi bildirish tartibi nechanchi yildan joriy etildi?

2011yil 18 aprel

2008 yil 25 aprel

2003 yil 24 aprel

2000 yil 1 may

59. Bosh vazirga nisbatan ishonsizlik votumi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati a'zolari umumiy soning qancha qismi ovozini olganda qabul qilingan hisoblanadi?

Uchdan ikki qismi

Yarimini

Yarmidan ko'prog'ini

Uchdan bir qismini

60. Prezident Oliy Majlisga bosh vazir nomzodini ko'rib chiqish va tasdqlash uchun necha kun ichida yuboradi?

10 kun

1 oy

15 kun

3 kun

61. Vazirlar Mahkamasi qarorlari va Bosh vazir farmoyishlarini kim bekor qilishga haqli?

Prezident

Oliy Majlis

Sud

Prokuratura

62. Siyosiy partiyalar partiyasizlarni deputatlikka nomzod etib ko'rtsatishga vakolatlimi?

Vakolatli

Vakolatga ega emas

Faqat o'z partiyasidan ko'rsatadi

Mumkin emas

63. Deputatlikka nomzod ko'rsatish huquqiga ega?

Siyosiy partiyalar

Hokim

O'zini-o'zi boshqarish organlari

Adliya organlari

64. Qanday shaxslar saylovda ishtirok etmaydilar?

Sud hukmi bilan muomilaga laoyoqatsiz deb topilgan shaxslar va ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar

Faqat sud hukmi bilan muomilaga laoyoqatsiz deb topilgan shaxslar

ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar

3 yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilingan shaxslar

65. Fraksiya bu ...

Deputatlar birlashmasi

Deputatlar guruhi

Senatning domiy ishlovchi a'zolari

Qonunchilik palatasi qo'mitasi a'zosi

66. Har bir saylovchi bir ovozga ega bu qanday saylov prinsipi hisoblanadi?

Teng

Umumiyl

Yashirin

To'g'ridan-to'g'ri

67. Xalqaro kuzatuvchilarga mandatni qaysi organ beradi?

Markaziy saylov Komissiyasi

Prezident

Vazirlar Mahkamasi

Konsullik va diplomatik vakolatxonlar

68. Parlamentarizm nima?

Parlament boshchilik qiladigan davlat tuzumi

Parlament tarixi

Qonunchilik palatasi reglamenti

Ikki palatali tizimga o'tilishi

69. Ayni bir shaxs bir paytning o'zida Oliy Majlis deputati va Senti a'zosi bo'lishi mumkinmi?

Mumkin emas

Mumkin

Qonunchilik palatasi va Senatning qo'shma majlisida hal etiladi

Senat raisining qaroriga ko'ra hal etiladi

70. Oliy Majlis Senati a'zolarining necha nafari hududiy vakillarda iborat?

84

16

15

50

71. "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining yangi tahriri qachon qabul qilindi?

2021 yil 5 iyul

1998 yil 1may

1997 yil 29 avgust

2001 yil 1yanvar

72. Quyidagilardan qaylari davlat tuzilishining muhim belgisi hisoblanadi?

Hudud, aholi, hokimiyat va suverenitet

Hudud va aholi

Davlat ramzlari va aholi

Konstitutsiya va hudud

73. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikaasi milliy markazi qachon tashkil etildi?

1996 yil 31 oktabr

1999 yil 7 aprel

2005 yil 23 oktabr

2008 yil 1 yanvar

74. Qonunda belgilangan soliq va mahalliy yig'imlarni to'lash...

Fuqarolarning konstitutsiyaviy burchi hisoblanadi

Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarga kiradi

Siyosiy huquqlarga kiradi

Konstitutsiyaviy erkinlik hisoblanadi

75. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiya nechanchi yilda qabul qilingan?

1948 yil 10 dekabr

1945 yil 24 oktabr

1989 yil 20 noyabr

1919 yil 21 noyabr

GLOSSARIY

Avf etish - shaxsning sodir etgan jinoyati uchun tayinlangan yoki tayinlanadigan jazoni o'tashdan ozod etish, ya'ni kechirish. Avf orqali shaxs jazoning xammagini o'tashdan yoki o'talmagan qismini o'tashdan ozod qilinishi mumkin. Avf e'lon qilish huquqi O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga tegishlidir.

Adliya (Yustitsiya) - barcha sud tashkilotlari, ularning faoliyati, odil sudlovnii ta'minlashning yig'indisi sifatida ishlataladigan atama. O'zbekistonda adliya ishlari – Adliya vazirligi tomonidan yuritiladi.

Burch - qonun va boshqa huquqiy hujjatlarda belgilangan ayrim harakatlarni sodir etish, ayrim harakatlarni sodir etishdan esa tiyilishdir. Burchni buzish turli javobgarliklarga tortish va jazolashga sabab bo'ladi.

Vazir - mansabdor shaxs, milliy davlatchilik tariximizda davlat boshlig'i tayinlaydigan va turli sohalarni boshqarishda unga yordam beruvchi amal egasi bo'lsa, hozirgi kunda vazir mamlakatimizda turli tarmoq va sohalarni boshqaruvchi markaziy idoranining boshlig'idir.

Vazirlik - O'zbekiston Respublikasida alohida tarmoq va sohalarni boshqaruvchi markaziy idora organidir.

Vakillik - biror-bir organ yoki tashkilotda ma'lum jamoa, guruh yoki fuqarolar nomidan ish yuritish. Vakillik qonunlarda belgilanib quylishi mumkin.

Veto - biror bir huquqiy hujjatning kuchga kirishini to'xtatib qo'yish. Bu ko'proq, Parlamentda qabul qilingan hujjatlarga nisbatan davlat boshlig'i tomonidan qo'llaniladi.

Vijdon erkinligi - fuqarolarning dinga munosabati; har kanday shaxs xohlasa dinga e'tiqod qiladi (ishonadi), hohlamasa e'tiqod qilmaydi (ishonmaydi) yoki o'zi tanlagan dinga e'tiqod qiladi.

Davlat ramzlari - Konstitutsiyada belgilangan bo'lib (5-modda), bayroq, gerb va madhiya hisoblanadi.

Davlat hokimiyat - xalq hokimiyatining maxsus tuzilma – davlat orqali amalga oshirilishi. Davlat o’zining organlari orqali siyosiy hokimiyatni amalga oshiradi.

Demokratiya - xalqning davlat organlarini tuzish, ularning ishida ishtirok etishi, davlat organlari ishini tashkil etish, mamlakatda inson huquqlarini ta’minlash orqali namoyon bo’ladi.

Deklaratsiya - siyosiy-huquqiy akt nomi. Deklaratsiyada ma’lum voqealarga tantanali ruh, beriladi.

Deputat - davlat hokimiyati vakillik organlarida ish olib boruvchi xalq vakilidir. U saylov yo’li bilan saylanib, xalqdan tegishli organlarda ish olib borish uchun vakolat oladi.

Ijro etuvchi hokimiyat - hokimiyatning alohida turi, u qonunchilik (vakillik), sud hokimiyatidan xoli, mustaqil ravishda ish olib boradi.

Konstitut-siyaviy huquq - har bir mamlakatning huquq tizimidagi yetakchi huquq. Shu bilan birga huquq tarmog’i ham.

Odil sudlov - davlat faoliyati shakllaridan hisoblanadi. Uning mazmuni turli sudlar tomonidan o’z vakolatiga taalluqli ishlarni ko’rib chiqish va hal qilishdir.

Ombudsman - inson huquqlariga amal qilinishini nazorat qilish uchun maxsus saylanadigan (yoki tayinlanadigan) mansabdar shaxs.

Parlament - bu so’zning asl ma’nosи “munozara joyi”, fransuzcha “parla” – gap-so’z bahs, “ment” – joy, o’rni demakdir. Demokratik davlatlarda oliy vakillik va qonunchilik organning nomidir.

Parlementarizm - boshqaruvning alohida tizimdagi shakli. Bunda qonunchilik va ijro etuvchi hokimiyat funktsiyalari aniqroq, chegaralanadi va rasmiy jihatdan Parlamentning boshqa organlarga ta’siri ustuvor darajada bo’ladi.

Prezident - Respublika boshqaruvidagi mamlakatlarda davlat boshlig’i. Prezident birinchi marta davlat boshlig’i sifatida 1787 yilda AQSHda joriy qilingan. Ayrim mamlakatlarda u faqat davlat boshlig’i (Germaniyada), ayrim mamlakatlarda ham davlat boshlig’i, ham ijro etuvchi hokimiyat boshlig’idir.

Prokuratura - qonun va boshqa huquqiy hujjatlarning hamma yerda bir xilda bajarilishini nazorat qiluvchi maxsus davlat organi. O'zbekistonda prokuratura tizimini Bosh prokuror boshqaradi.

Ratifikatsiya - xalqaro shartnomalarni shu shartnoma ishtirokchilari bo'lgan davlat tomonidan tasdiqlash. Shartnoma ratifikatsiya qilingach kuchga kiradi. O'zbekistonda xalqaro shartnomalar Oliy Majlis tomonidan ratifikatsiya qilinadi.

Reglament - (fransuzcha reglament so'zidan olingan bo'lib, "kritsa" ma'nosini bildiradi) – 1) vakillik organlarining majlis, yig'ilish, sessiya va syezdlar o'tkazish tartibi; 2) parlament yoki uning palatalarining faoliyat shaklini va ichki tartibini tartibga soladigan, hamda deputatning huquqiy holatini belgilaydigan (doimiy yoki vaqtinchalik) qoidalar to'plami (yig'indisi).

Referendum - eng muhim masalalarni xalqning bevosita ishtirokida hal qilish. Referendum umumxalq ovozi hisoblanadi.

Saylov – ovoz berish orqali davlat organlari va boshqa tuzilmalarni tashkil etish vositasi. Saylovda aholi qatnashishi yoki ularning vakillari ishtirok etishi mumkin.

Siyosiy partiyalar - qarash va maqsadlari bir bo'lgan turli tabaqa va guruhlardagi fuqarolarning siyosiy maqsadni ko'zlab tuzgan birlashmalari tashkilotlaridir.

Siyosiy rejim - jamiyatda siyosiy (davlat hokimiyati ham birgalikda) hokimiyatni amalga oshirishning usullari, uslublari, shakllari, yo'llari tizimini belgilaydi. Bu hokimiyatning funksional tavsifidir.

Sud - odil sudlovni amalga oshiruvchi organ bo'lib, muayyan davlatning amaldagi qonunlariga asosan protsessual tartibda jinoiy fuqarolik, ma'muriy va boshqa toifadagi ishlarni hal etadi.

Farmon - ayrim mamlakatlarda, jumladan, O'zbekistonda davlat boshlig'i – Prezident tomonidan qabul qilinadigan hujjatning nomi.

Fraksiya - Oliy Majlis Qonunchilik palatasi (fraksiyalari siyosiy partiyalar va davlat hokimiyati vakillik organlari tomonidan ko'satilgan va ularga mansubligiga qarab uyushgan deputatlar birlashmasidir.

Fuqarolik - ma'lum shaxsning ma'lum bir davlat bilan barqaror huquqiy aloqa o'rnatishi.

Fuqarolik jamiyati - ma'lum ijtimoiy tizim bo'lib, unda shaxsga iqtisodiy va siyosiy turmushini o'z ixtiyorasi asosida ko'rishga to'la erkinlik kafolatlanadi.

Hokim - O'zbekiston Respublikasida joylardagi oliy mansabdor shaxs, mahalliy vakilliy va ijro hokimiyati boshlig'i.

Hukumat - davlatning oliy ijro organi. Hukumat turli mamlakatlarda turli nomlar bilan ataladi, ba'zi mamlakatlarda Hukumat, ba'zilarida Vazirlar Kengashi.

Huquqiy davlat - davlat tuzilishi va faoliyatining huquqqa asoslaganligi. Huquqiy davlatda quyidagi shartlar albatta bo'lishi kerak: xalq hokimiyatining amalga oshishi, shaxsning huquq va erkinliklarining hech kim, shu jumladan, davlat tomonidan ham hech qanday holda buzilmasligi; Konstitutsiya va qonunning ustunligi; hokimiyatning bo'linishi tamoyiliga amal qilish; sudlarning mustaqilligi.

Yashash huquqi - insonning ajralmas muqaddas huquqidir. Insonning hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyat hisoblanadi, yashash huquqidan mahrum qilishga hech kim haqli emas.

Shaxsiy huquq va erkinliklar - fuqarolarning tabiiy huquqlari bo'lib, ular shaxsning hayoti, sog'ligi, nomusi, qadr-qimmatini ta'minlaydi. Shaxsiy huquq va erkinliklar davlat tomonidan berilmaydi, ularga har bir shaxs tug'ilishi bilan ega bo'ladi, davlat esa shu huquq, va erkinliklarni to'la ta'minlashga majbur.

MAVZULARGA OID ADABIYOTLAR, JURNALLAR VA INTERNET TARMOG'IDAN OLINGAN TARQATMA MATERIALLAR

1. Mirziyoyev Sh.M.. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birqalikda barpo etamiz. – T.: “O'zbekiston”, 2016. –56 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. –T.: O'zbekiston NMIU, 2017 . –592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. –T.: “O'zbekiston” NMIU, 2018. –508 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // “Xalq so'zi” gazetasi, 2018 yil 29 dekabr, №271-272 (7229-7230).
5. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma sakkiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i nutqi. //“Xalq so'zi” gazetasi, 2019 yil 1 sentyabr, №180 (7379).
6. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir. //“Xalq so'zi” gazetasi, 2019 yil 8 dekabr, №254 (7484).
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasining birinchi yig'ilishidagi nutqi. //“Xalq so'zi” gazetasi, 2020 yil 21 yanvar, №15 (7517).
8. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. –T.: “O'zbekiston”, 2020. –455 b.
9. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma to'qqiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i nutqi. //“Xalq so'zi” gazetasi, 2020 yil 1 sentyabr, №186 (7688).
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqi. //“Xalq so'zi” gazetasi, 2020 yil 24 sentyabr, №202 (7704)
11. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston xalqiga bayram tabrige. //“Xalq so'zi”

gazetasi, 2020 yil 8 dekabr, №257 (7759)

12. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // “Xalq so’zi” gazetasi, 2020 yil 30 dekabr, № 276.

13. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy o’zaro bog’liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar” mavzusidagi xalqaro konferensiyadagi nutqi. //“Xalq so’zi” gazetasi, 2021 yil 17 iyul, №151 (7931).

14. Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq: darslik. To’ldirilgan va qayta ishlangan ikkinchi nashr. – T.: “Yuridik adabiyotlar publish”, 2020. -400 b.

15. Saidov A.X. va boshqalar. Konstitutsiyaviy huquq. Darslik. –T.: “Complex Print” nashriyoti, 2019.

16. O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh. Mualliflar jamoasi – T.: “TDYUI nashriyoti”, 2012. –649 b.

17. Husanov O.T. O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. Darslik. –T.: “TDYUI nashriyoti”, 2012. –564 b.

18. Husanov O.T. O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. –T.: “Adolat”, 2013. –552 b.

19. Ikramov Sh.T. Konstitutsiyaviy huquq: Darslik. –T.: “O’zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi”, 2014. –661 b.

20. O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O’zbekiston” NMIU, 2020. –80 b.

21. Rustamboyev M.X., Ahmedov D.Q, Xidirov S.M, Bekov I.R. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o’rganish. –T.: “Yangi asr avlodi”, 2005. –400 b.

22. O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. –T.: “Moliya”, 2002. –645 b.

23. Jahon Konstitutsiyalari (Jahon davlatlari Konstitutsiyalari to’plami). Tuzuvchilar: U.Tajixonov, A.X.Saidov. –T.: “O’zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi”, 2001. -457 b.

24. Xorijiy mamlakatlar konstitutsiyaviy huquqi. Mualliflar jamoa. Darslik.

–T.: “TDYUI”, 2010. - 610 b.

25. Xayitov X., Mirzayev R. Fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari faoliyatining huquqiy asoslari. –T.: “TDYUU”, 2013. - 43 b.

26. Asadov Sh., Axmedshayeva M., Zulfiqorov Sh. Saylovga oid atamalarining qisqacha izohli lug’ati. –T.: “TDYUU”, 2015. - 40 b.

27. O’zbekiston yuridik ensiklopediyasi . –T.: “Adolat”, 2011. –704 b.

28. Qayumov R. Q. O’zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy huquqi. –T.: “IIV Akademiyasi”, 1997. – 400 b.

29. Majidov I.U, Hodiyev B.U, Bekmurodov A.Sh. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasini o’rganish va keng jamoatchilik o’rtasida keng targ’ib etishga bag’ishlangan ilmiy-ommabob qo’llanma. –T.: “Ma’naviyat”, 2019. –312 b.

30. Odilqoriyev X.T. Konstitutsiya va barkamol jamiyat orzusi. – T.: “O’qituvchi”, 2012. –259 b.

31. Saidov A. Karvon yo’li. //Ma’naviy hayot, №3, 2019. –B.8.

32. Tadjixanov U., Odilqoriyev H., Saidov A. O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. –T.: “Sharq”, 2001. –752 b.

33. Jalilov A., Muhammadiyev U., Jo’rayev Q. Fuqarolik jamiyati asoslari. –T.: “Baktria press”, 2015. –264 b.

34. Saidov A. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi tamoyillari va qadriyatlariga ehtirom timsoli. //Fuqarolik jamiyati, №4 (56), 2018. –B.7.

35. Sobirovich T. B. The criterion of human indicators in development and renewals in Uzbekistan //EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR). – 2020.–№. 8. –p. 509-511.

36. Tadjixanov U., Odilqoriyev X., Saidov A. O’zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy huquqi. –T.: “Sharq”, 2001. –752 b..

37. Turdiyev B. S. The role of national harmony in the strategy of spiritual renewal //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – T. 1. – №. 6. – C. 229-233.

38. 2017 yil – shiddatli islohotlar yili. – T.: “Adolat”, 2017. –96 b.

39. Harakatlar strategiyasi bilan 3 yil: kutilgan natijalar, yuqori samaradorlik va yuksak marralar. –T.: “Konrad Adenauer stiftung”, 2020. –188 b.

40. Shirinov A. Q. The fulfilment of the commitments of sustainable development goals’ in the 21st century //Academic research in educational sciences. – 2021. – T. 2. – №. 6. – C. 1144-1153.

41. Shirinov A.Q. Ommaviy axborot vositalari sohasidagi erkinlashtirish jarayonlari inson taraqqiyotini ta'minlovchi vosita sifatida. Jahan matbuot erkinligi OAV davlat va jamiyat hayotidagi roli mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumani maqolalari to‘plami. –Toshkent: Respublika yosh olimlar kengashi, 2021. -B.56-58.

42. <http://www.lex.uz>
43. <https://constitution.uz>
44. <http://www.parliament.uz>
45. <http://www.senat.uz>
46. <http://www.gov.uz>
47. <http://www.mtdp.uz>
48. <http://www.ziyonetuz>
49. <https://daryo.uz/>
50. <https://constitution.uz/>
51. <https://mfa.uz/uz/>
52. <https://www.merriam-webster.com/>
53. <http://uza.uz/>
54. <https://www.gazeta.uz/>
55. <https://www.doingbusiness.org>
56. <https://uz.wikipedia.org>